

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

***JALILOVA S.X., G`AYIBOVA N.A.***

## **UMUMIY PSIXODIAGNOSTIKA**

**5210200 – Psixologiya (Umumiy psixologiya) ta`lim yo’nalishi uchun**

## **O`QUV QO`LLANMA**

**TOSHKENT – 2017**

Ushbu o`quv qo`llanma psixologiyaning asosiy sohalaridan biri, amaliy va nazariy fan bo`lmish “Umumiy psixodiagnostika”ga bag`ishlangan bo`lib, psixologiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo`ljallangan. O`quv qo`llanmada umumiy psixodiagnostika fanining predmeti, maqsad va vazifalari, uning yuzaga kelish manbaalari, rivojlanish tarixi, psixodiagnostikaning asosiy metodlari va ularga qo`yiladigan psixometrik talablar kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, qo`llanmada psixodiagnostikaning amaliy jihatlariga bag`ishlangan masalalarga ham keng o`rin berilgan.

Данное учебное пособие подготовлено по предмету «Общая психодиагностика», которая является самостоятельной отраслью психологии. Учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся по направлению 5210200-Психология.

В учебном пособии рассмотрены основные вопросы психодиагностики такие как предмет, задачи, предпосылки формирования, история развития науки, основные методы психодиагностики, психометрические требования, предъявляемые методам и другим. А также представлены материалы по практическим вопросам психодиагностики.

This training manual is prepared on the subject "General Psychodiagnostics", which is an independent branch of psychology. The manual is intended for students studying in the direction of 5210200-Psychology.

The textbook examines the main issues of psychodiagnostics such as subject, tasks, the prerequisites of formation, the history of the development of science, the basic methods of psychodiagnostics, psychometric requirements for methods and others. And also materials on practical questions of psychodiagnostics are presented.

### **Taqrizchilar:**

**N.I.Halilova** - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

**O‘.B. Shamsiev** – O‘zMU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

## KIRISH

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati baland avlodni tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq. Shu bois ham O‘zbekiston uchun ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish asosiy maqsad qilib olindi. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirishda insonning psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari va xulq-atvorini o‘rganish va undan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Bugungi kunda milliy tiklanish mafkurasi shakllanayotgan jamiyatda ma’naviy-ahloqiy muhit sog‘lomlashayotgan, milliy qadriyatlar, inson huquqi, erki tiklanayotgan bir sharoitda jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan aqlan etuk, axloqan pok, jismonan sog‘lom erkin ijodkor shaxs darkor.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘, o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin”<sup>1</sup> deb ta’kidlagan edi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda fuqarolarning ta’lim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni konseptual va strategik jihatdan belgilangan bo‘lsa, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” esa xalq ta’limini yaqin kelajakdagi aniq rivojlanish yo‘li ko‘rsatib berilgan.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Bugungi zamon talabi ertangi mamlakatimizning tashvishlari bizdan xalq ta’limi tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda. Kechagi zamon ruhida ta’lim-tarbiya ko‘rgan kishining ongu-shuurini yangilamay, mustaqil taraqqiyotga mos ta’lim tizimini

---

<sup>1</sup>I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6 -jild.-Toshkent, “O‘zbekiston” 1998. – Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining pydevori. Б-302.

yo‘lga qo‘ymay turib, yangi imorat, huquqiy demokratik davlat binosini tiklab bo‘lmaydi. Bugungi kun talablari tamoman boshqacha,” – deb ta’kidlagan edilar.

Ta’limdagi yangilanishlar ta’lim jarayoni orqali o‘quvchini o‘z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o‘z taqdiri va o‘z shaxsiga ongi munosabatda bo‘lib, turli faoliyatlarda o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Zamon talablariga mos mutaxassis tayyorlamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda o‘quv yurtimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo‘lishi shart”.

Bugungi kunda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir, yani o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini, intellektual salohiyatini rivojlantirish muammosi respublikamiz ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Respublikada “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish jarayonida hayotimizning barcha jabhalarida “inson omili”ning roli ortib borishi kuzatilmoqda. Yuksak qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan talab kun sayin ortib bormoqda. Shunday ekan, alohida olingan iste’dodli shaxslardagina emas, balki barcha insonlarning ijodiy imkoniyatlarini, ijobiy shaxs xususiyatlarini iloji boricha ko‘proq rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda inson va uning intellektual salohiyatiga aloqador fanlarning roli ortib borishi, har bir inson shaxsida mavjud yashirin imkoniyatlardan foydalanish, ularni ro‘yobga chiqarish yo‘l-yo‘riqlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish ehtiyoji namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning yosh xususiyatlarini inobatga olish kerak. Biroq shaxsning to‘laqonli psixik taraqqiyoti nuqtai

nazariga ko‘ra vazifalar ancha murakkbroq qo‘yilmog‘i zarur, ya’ni yosh xususiyatlari pedagogik jarayonda nafaqat inobatga olinishi, balki faol ravishda shakllantirilib, shaxsning ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘mak berishi kerak. Psixik taraqqiyotning o`ziga xos jihatlarini tadqiq qilish psixologik hosilalarning tarkib topishi va genezisiga faol ta’sir o‘tkazishni taqozo qiladigan faol shakllantirish funksiyasini belgilaydi.

Ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning to‘laqonli psixik va shaxs taraqqiyotini ta’minlashdir. Shu sababli turli hil yosh davrlarida shaxsning psixik rivojlanish xususiyatlari va darajasini o‘rganish talab etiladi. Bunda esa umumiy psixodiagnostika faniga oid bilimlar yordamga keladi.

Umumiy psixodiagnostika fani shaxsni har tomonlama, yani uning kognitiv sohasi, xulq-atvori, individual-psixologik xususiytalarini o‘rganishning metodologiyasi, nazariyasi, metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda shaxs rivojlanishini ilmiy asosda diagnostika qilish, prognozlash, aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan bo`gлиq malaka va ko`nikmalar hosil bo`lishi uchun asosiy manbaa bo`lib xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmada psixologik diagnostikaning asosiy masalalari har tomonlama yoritiladi. Mazkur qo‘llanmaning nazariy qismi psixologiya fanlari nomzodi, dotsent S.X.Jalilova tomonidan, amaliy mashg’ulotlar uchun mavzular qismi N.A.G’ayibova tomonidan tayyorlandi.

Umumiy psixodiagnostika psixologiya fanlarining orasida alohida ahamiyatga ega bo`lib, ushbu fanni bo`lajak psixolog mutaxassislar tomonidan o`zlashtirilishi ularning keljakdagi faoliyatlarini samarali amalga oshirilishini ko`p jihatdan belgilab beradi.

## **MAVZU: PSIXODIAGNOSTIKAGA KIRISH.**

### **Reja**

1. Psixologik diagnostika tushunchasi
2. Psixodiagnostika fani predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Psixodiagnostikani qo'llanish sohalari.
4. Psixodiagnostika fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

**Tayanch tushunchalar:** Psixologiya, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixologik tashviqot, psixologik korrektsiya, psixologik maslahat, psixologik diagnoz.

Psixologiya insonning ruhiyatini organuvchi nazariy fan bo`lib qolmay, balki hozirgi kunda turli xil sohalarda keng qo'llanilishi mumkin bo`lgan amaliy fan hamdir. Insonni har tomonlama o`rganish, y`ani odamlar o`rtasidagi individual farqlarni aniqlash ta`lim-tarbiya va mehnat faoliyati camaradorligini belgilaydi.

Psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish bilan shug`ullanuvchi psixologiyaning, yanada aniqroq aytadigan bo`sak, amaliy psixologiyaning asosiy va eng muhim yo`nalishlaridan biri bo`lgan psixodiagnostika fani va uning asoslarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixodiagnostika fani predmeti ta`rifiga turli yondosuvlarni uchratish mumkin. Ularning ba`zilarini keltitib o`tamiz.

Rus psixologlari A.A.Bodalev va B.B.Stolin psixodiagnostika fani predmetiga quidagi ta`rifni beradilar: ***Psixodiagnostika*** – shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o`lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi.

Psixolog Gurevich K.M. fikriga ko`ra, *psixodiagnostika* – insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilariga ko`ra tasniflash hamda farqlash metodlari haqidagi fan<sup>2</sup>.

R.S.Nemovning ta`kidlashicha, *psixodiagnostika* –bu maxsus bilimlarning shunday sohasiki, u individ yoki guruh tomonidan erishilgan psixologik rivojlanish darajasi hamda psixik holat, xususiatlarni aniq baholashning nazariyasi, metodologiya va metodlarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi<sup>3</sup>.

Psixodiagnostika – psixologik diagnoz qo`yish haqidagi fan. “Psixodiagnostika” termini dastlab psixiatriyada G.Rorshaxning (1921yil) shu nomli asari nashr etilgach keng qo`llanilib, tez orada tibbiyot sohasi chegaralaridan chiqadi. “Diagnoz” termini normal taraqqiyotdan har qanday og`ish va uni aniqlash sifatida tushunila boshlandi.

**Psixologik diagnoz** - (“diagnosis” grekcha aniqlash, bilish degan ma`noni anglatadi) – shaxs individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, yani, prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so`ngi natijasidir.

Hozirgi zamon psixologik diagnostikasining **maqsadi** - insonlar va guruhlar o`rtasidagi psixologik farqlarni qayd qilish hamda yoritib berishdir. Masalan, texnik tafakkur darajasi bo`yicha 12 yoshli bola o`zining tengdoshidan farq qilishi mumkin. Yoki umumlashtirish darajasiga ko`ra, shaharning 30 nafar 5- sind o`quvchilari qishloq o`quvchilaridan farq qilishini muayyan metodikalar yordamida aniqlash mumkin. Bunda tadqiqotchining vazifasi qo`lga kiritilgan ma`lumotlarni tartibga solish ( masalan, o`sib boorish darajasiga ko`ra).

Diagnostika qilinayotgan belgilar tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, turlichayli psixologik farqlarni o`z ichiga oladi:

- Yosh bo`yicha.

---

<sup>2</sup> Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М., «Питер», 2005 (мазмунидан олинди)

<sup>3</sup> Немов Р.С. Психология. М., Владос, 2003 (мазмунидан олинди)

- Ma`lymotiga ko`ra.
- Madaniy darajasiga ko`ra.
- Psixik holatlariga qarab,
- Genetik, psixofiziologik xususiyatlari bo`yicha.

Psixodiagnostika bir tomondan nazariy fan hisoblansa, boshqa tomondan psixolog amaliy faoliyatining sohalaridan biridir. Nazariy fan sifatida psixodiagnostika ishonchli va validligi yuqori bo`lgan diagnostik fikr va xulosalar chiqarish qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi.

Psixodiagnostika nazariy fan sifatida psixologiya fanining boshqa prednetli sohalari bilan uzviy bog`langan. Psixodiagnostikaning nazariy-eksperimental psixologiya bilan bog`liqligi o`ziga xos xarakter kasb etadi. Umuman olganda psixodiagnostika muayyan fanlarda mavjud bo`lgan tushunchalarni konkret metodikalarga birlashtirish emas, balki nazariy psixologik maslahatlarning to`g`ri ekanligini tekshirish usuli hamdir. Masalan, inson faoliyati motivlariga ko`ra bir-biridan tubdan farq qiladi, deb ta`kidlansa, unda turli insonlarga xos bo`lgan motivlarni aniqlovchi metodlarni toppish talab qilinadi.

Bundan tashqari psixodiagnostika umumiy psixologiya, differential psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, huquq psixologiyasi, harbiy psixologiya, mehnat psixologiyasi va sport psixologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada.

Shuningdek, psixodiagnostika amaliy fan sifatida amaliy psixologiyaning psixoprofilaktika, psixologik tashviqot, psixologik korrektciya, psixologik maslahat kabi sohalar bilan o`zaro munosabatda hisoblanadi.

**Psixoprofilaktika** – insonning shaxsi va psixik rivojlanishidagi turli xilog`ishlarni oldini olish bilan shug`ullanuvchi amaliy psixologiya yo`nalishlaridan biridir.

**Psixologik tashviqot** – kehg ommaga psixologik bilimlarni yoyish va targ`ib qilish bilan bog`liq bo`lgan amaliy psixologiya sohasi.

**Psixologik korrektsiya** – shaxs xulq-atvori va kognitiv rivojlanishidagi turli xil buzilishlar va rivojlanishdan orqada qolishni tuzatish ishlari bilan shug`ullanuvchi amaliy psixologiya sohalaridan biri hisoblanadi.

**Psixologik maslahatning maqsadi** – kelajak hissiga ega bo`lgan, ongi ravishda harakat qiladigan, xulq-atvorning turli strategiyalarini ishlab chiqishga va yuzaga kelgan vaziyatni turli nuqtai- nazardan tahlil qila olishga qobil bo`lgan madaniyatli, sermahsul shaxs hisoblanadi.

**Psixologik maslahatning** asosiy vazifasi normal, psixik jihatdan sog`lom bo`lgan mijoz uchun imkon darajasida va unga mos holda hatti-harakatni amalga oshirishga yordam beruvchi ongi va ijodiy(bir qolipda bo`limgan) usullar bilan harakat qilish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Amaliy psixolgiyaning yuqorida qayd etib o`tilgan barcha sohalarida psixodiagnostika asosiy sanaladi, chunki psixologik tekshiruv o`tkazmay psixoprofilaktika, psixokorrektciya, psixologik maslahat islarini olib borish mumkin emas. Yshbu yo`nalishlar bo`yicha muayyan ishlarni amalga oshirish uchun psixodiagnostika yordamida qo`lga kiritilgan ma`lumotlarga tayaniлади.

Amaliy faoliyat turlaridan biri sifatida psixodiagnostika quidagi vazifalarni bajaradi:

- 1.Muayyan xususiyatning rivojlanish holatini aniqlash.
- 2.Uning rivojlanish dinamikasini hamda ma`lum vaqt otalig`ida qayta tuzilishini aniqlash.
- 3.Individ yoki guruh psixologiyasi hamda xulq-atvorida o`quv-tabiyaviy ta`sirot natijasida vujudga kelgan real o`zgarishlarni aniqlash.
- 4.Shaxs xususiyatlari rivojlanish dinamikasi va qonunlarini tahlil qilish asosida uning rivojlanish perspektivasini ainqlash.
- 5.Tekshirilgan kishilar yoki guruhni kelgusida rivojlanishda erishilgan natjalarni hisobga olgan holda differential tarzda ish olib boorish uchun kategoriyalarga ajratish.
- 6.Individ yoki guruhning ( u yoki bu ishni bajarish, masalan, o`z xizmat vazifalarini bajarishga) kasbiy tayyorgarligini, layoqotliliginini aniqlash.

7. Individ yoki guruh psixologiyasi va xulq-atvorini psixokorrektcion ishlarni olib boorish maqsadida o`rnatilgan tibbiy, ijtimoiy normalarga mos yoki mos emasligini aniqlash.

8. Individ yoki guruhga hayotiy yo`lini (kasb, umr yo`ldoshi) tanlash maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida ta`kidlangan vazifalar amaliy psixodiagnostikaning umumiy vazifalaridir. Ulardan ko`pchiligi u yoki bu darajada maktabgacha ta`lim muassasalari, umumta`lim maktablari, o`rta maxsus ta`lim muassasalarida turli yosh davridagi bolalar bilan mos tarzda ish olib boorish uchun amalga oshiriladi<sup>4</sup>.

Psixodiagnostika inson hayot faoliyatining talablaridan kelib chiquvchi psixologiya fanining sohalaridan biridir. Psixodiagnostika ijtimoiy amaliyotning bir qancha sohalarida keng qo`llanilib kelinmoqda. Bular:

1. Kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo`yish, kasbga yo`naltirish.  
2. Ijtimoiy xulq-atvorni prognoz qilish, masalan, nikohning barqarorligi, qonunlarga amal qilish kabi.

3. Ta`lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish.

4. Psixoterapevtik yordam va maslahat.

5. Sud psixologik-psixiatrik ekspertizasi.

6. Muhitdagi o`zgarishlarning psixologik oqibatlarini prognoz qilish.

Bulardan tashqari psixodiagnostika metodlari shaxs psixologiyasi va shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilishda keng qo`laniladi.

Psixodiagnostika jamiyat manfaatlari hamda uning konkret a`zolari manfaatlari uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga psixodiagnostikani qo`llashning foydaliligi shartlaridan biri – uning ilmiyligidir. Ilmiy psixodiagnostika o`rganilayotgan shaxs sifatlarining tabiatи va tuzilish printciplari haqidagi bilimlarga, shuningdek, psixodiagnostika jarayoni qonuniyatlari to`g`risidagi bilimlarga asoslanadi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Немов Р.С. Психология. М., Владос, 2003 (мазмунидан олинди)

<sup>5</sup> Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М., «Питер», 2005 (мазмунидан олинди)

Demak, yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, psixodiagnostika inson hayot faoliyatining turli sohalari – sog`liqni saqlash, sport, maktab va oily o`quv yurtlaridagi ta`lim, ishlab chiqarish va oilaviy maslahat amaliyotida keng qo`llaniladi. Bu sohalarning har birida psixodiagnostik vositalarni qo`llashning o`ziga xos shartlari, maxsus psixodiagnostik vazifalar va metodlar mavjud bo`ladi.

Bunday xususiy masalalardan tashqari psixodiagnostika fanida ancha umumiy, universal masalalar ham mavjud bo`lib, ularning hal qilinishi maxsus psixodiagnostika (kasbiy,sport,klinik) uchun asos bolib xizmat qiladi. Bu masalalar umumiy psixodiagnostikaning predmetini tashkil qi`ladi. Ular qatoriga quydagilarni kiritish mumkin:

1.Psixodiagnostik vosita,metodlarni yaratish va xulosalar chiqarishning metodologik, nazariy, konkret-metodik tamoyillarini ishlab chiqish.

2.Shaxs sifatlari, qobiliyatlar, motivlar,ong va o`z-o`zini anglash, shaxslararo munosabatlarni psixodiagnostik tadqiq qilish metod va konkret metodikalarini yaratish.

3.Individual farqlarni aniqlshning matematik metodologiyasi sifatida differentcial psixometrikani qo`llash.

4.Metodikalar, ularni yaratuvchi va qo`llovchilar uchun normativ talablarni ishlab chiqish.

Demak, bugungi kunda psixologiya bir qancha yo`llar orqali insonlarning amaliy faoliyatiga ta`sir ko`rsatmoqda. Bunday yo`llardan biri – aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko`rsatishdir. Maxsus tayyorgarlikka ega bo`lgan psixolog ota-onalarga bola tarbiyasida, oila a`zolari(er-xotin)ga oilaviy inqiroz holatida, bolalarga shaxs normal rivojlanishi buzilganda , o`spirinlarga kasb tanlashda, rahbarlarga muloqot uslublarini shakllantirishda psixologik yordam ko`rsatish, psixologik maslahat berishga qobil bo`la olishi zarur.

Psixologik maslahat psixologning muhokama va tahlil predmeti haqidagi bilimlarigagina emas (masalan,oilaviy,ishlab chiqarish, shaxs ichidagi va

shaxslararo nizolar), balki maslahat jarayoninig o`zi, uning strategiyasu va taktikasi haqidagi qonuniyatlarni bilishga ham asosanishi zarur.

Psixologik yordam ob`ektiv mavjud vaziyatlarda emas, balki boshdan kechirilayotgan sub`ektiv noqulaylik sharoitlarida olib borilsa, ko`proq samara beradi. Bunday kechinmalar kuchli boshdan o`tkazilib, o`zidan butunlay qoniqmaslik, atrofdagilar, umuman, hayotdan chuqur norozi bo`lish, ba`zan azob-uqubat sifatida ifodalanishi mumkin. Bunda nafaqat psixologik maslahat, balki psixoterapevtik yordam ham talab qilinadi. Agar insonning boshdan kechirayotgan azob-uqubatlari kasallik ko`rinishida bo`lsa, u holda psixoterapevtik yordam tibbiy xarakter kasb etadi. Bunda beriladigan yordam vrach-psixoterapevt yoki vrach rahbarligi ostida psixolog tomonidan ko`rsatiladi. Biroq, ko`p hollarda psixoterapevtik yordam biroz boshqacharoq tusda bo`lishi talab etiladi. O`zining shakli va maqsadlariga ko`ra bunday psixoterapevtik aralashish bemorni davolashdagidek olib boriladi. Psixoterapevtik aralashish suhbat, bahs-munozara, o`yinlar(muloqot shaklida) bilan boyitilib, insonning azob-uqubatlaridan halos qilishga hamda uni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf qilishga yo`naltiriladi. Bunda psixoterapevtik ta`sir tibbiy yordamdan ikki muhim tomondan farqlanadi:

1.Boshdan kechiriladigan azob-uqubat, norozilik tabiatni organizmda ro`y berayotgan norozilik natijasida emas, balki inson shaxsi xususiyatlari, hayotiy vaziyat mohiyati va atrofdagilar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlardan natijasida kelib chiqadi.

2.Yordam so`rab murojaat qiluvchi ob`ektiv jihatdan ham, sub`ektiv jihatdan ham o`zini bemor deb tan olmaydi.


Psixologik yordam qaysi shaklda olib borilmasin, hoh u psixologik maslahat, hoh notibbiy psixoterapiya shaklida bo`lsin, o`z yo`nalishining individyallashganligi bilan xarakterlanadi. Insonga individual munosabatda bo`lish, demak, uning hissiyoti, kechinmalar, ustanovkasi, atrofdagilar bilan o`zaro munosabatlari sohalariga chuqur kira bilishni talab etadi. Buning uchun

esa psixologik intuitcia va sezgirlikning o`zi etarli emas. Shuning uchun maxsus psixodiagnostik metodlarni qo`llash talab etiladi.

### “B.B.B” JADVALI

“Psixodiagnostika” qanday fan?

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM



### Glossary

**Psixodiagnostika** – shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o`lchash va aniqlash metodlrsini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi.

**Psixoprofilaktika** – insonning shaxsi va psixik rivojlanishidagi turli xilogishlarni oldini olish bilan shug`ullanuvchi amaliy psixologiya yo`nalishlaridan biridir.

**Psixologik tashviqot** – kehg ommaga psixologik bilimlarni yoyish va targ`ib qilish bilan bog`liq bo`lgan amaliy psixologiya sohasi.

**Psixologik korrektsiya** – shaxs xulq-atvori va kognitiv rivojlanishidagi turli xil buzilishlar va rivojlanishdan orqada qolishni tuzatish ishlari bilan shug`ullanuvchi amaliy psixologiya sohalaridan biri hisoblanadi.

**Psixologik maslahat** - normal, psixik jihatdan sog`lom bo`lgan mijoz uchun imkon darajasida va unga mos holda hatti-harakatni amalga oshirishga yordam beruvchi ongli va ijodiy(bir qolipda bo`lmagan) usullar bilan harakat qilish uchun sharoitlar yaratish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. T.: 2008 .
2. Z.T.Nishonova, Z.Qurbanova, S.Abdieva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni" – 2011.
3. R.Y.Toshimov, E.G`G`oziev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika. O'quv uslubiy qo'llanma. T.: 2010.
5. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.

#### **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Umumiy psixodiagnostikaning predmetini qanday masalalar tashkil qiladi?
2. Psixodiagnostika fanining maqsadi qanday?
3. Psixologik diagnoz nima?
4. Psixologik diagnozning qanday bosqichlari farqlanadi?
5. Psixodiagnostika ijtimoiy amaliyotning qaysi sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda?

## **MAVZU: PSIXODIAGNOSTIKA TARIXI.**

### **Reja:**

1. Psixologik testlashtirishning tarixiy ildizlari
2. Psixodiagnostika fanining yuzaga kelish manbalari.
3. Proyektiv metodikalar tarixi.
4. Psixodiagnostikaning 19 asr oxiri - 20 asr boshlarida rivojlanishi.

**Tayanch tushunchalar:** sodda psixologik diagnostika, fiziognomika, frenolodiya, grafologiya, xiromantiya, psixologik testlar, proyektiv metodlar.

Ilmiy psixologik diagnostika yuzaga kelgunicha bo`lgan davrda sodda psixologik diagnostika mavjud bo`lib, uning mazmunini **fiziognomika, frenolodiya, grafologiya, xiromantiya** kabi vositalar tashkil etadi.

Fiziognomika(yunoncha "tabiat" va "biluvchi so`zlaridan olingan)-insonning tahqi ko`rinishi bilan uning muayyan tipga mansubligi o`rtasidagi bog`liqlik haqidagi ta`limot.

Frenologiya(yunoncha "ahloq", "xarakter" va "ta`limot")-inson psixik xususiyatlari bilan kalla suyagi shakli o`rtasidagi bog`liqlik haqidagi ta`limot.

Grafologiya(yunoncha "yozaman" va "ta`limot") - bu yozuv, husnixat haqidagi ta`limot bo`lib, insonning psixik xususiyatlari va psixofiziologik holatini aks ettiruvchi ifodali harakatlarning turi sifatida tan olingan ta`limot.

Xiromantiya(yunoncha "qo'l" va "taqdir") insonning individual xususiyatlari, xaraktier qirralari, boshdan kechirgan voqealarini teri-kaft rel` eflariga qarab aniqlash haqidagi qadimiy ta`limotlardan biri.

Fiziognomika insonning tashqi belgilariga qarab, unga psixologik tavsif berish haqidagi tasavvurlarga asoslanadi. Xususan, yuz ifodasida shaxsning ba`zi xususiyatlari aks etadi. Bu aloqalarni tushuntirib beruvchi ta`limot mavjud bo`lib, unga muvofiq hayvonlar tashqi ko`rinishi bilan insonning muayyn xususiyatlari o`rtasida o`xshashlik mavjud. Masalan, insonning yuzi tulkinikiga o`xshab ketsa, unga ayyorlik xos.

Uzoq vaqt davomida fiziognomika xarakterni tiplarga ajratishning manbai bo`lib xizmat qilgan. Biroq, XIX asrning birinchi yarmida fiziognomika unutilgan.

Frenologiya ta`limotining asoschisi F.Gall hisoblanadi. Frenologiyaning asosiyligi g`oyasi shundaki, bosh miya yarim sharlari po`stlog`ida bir qator markazlar joylashgan bo`lib, ular insonning muayyn qobiliyatlarini boshqaradi. Agar insonda u yoki bu qobiliyat kuchli rivojlangan bo`lsa, miyaning uniboshqaradigan markazi ham kuchli rivojlangan bo`lib, u kalla suyagi tuzilishida o`z aksini topadi. Bu esa maxsus o`lchovlar yordamida frenologik xarita tuzish imkonini beradi. XX asrda frenologiya psixologik diagnostika metodi sifatida qo`llanilgan.

Grafologiya termini XIX asrning ikkinchi yarmida abbat Mishon tomonidan kiritilgan. Insonning ruhiy xususiyatlari bilan uning yozuvi o`rtasidagi aloqadorlik g`oyasi qadimdan ma`lum bo`lib, uning mavjudligini Aristotel, Feofrast kabi mutafakkirlar ham ta`kidlaganlar. 1622 yilda italyan olimi K.Valdo yozuvga qarab, shaxs xususiyatlarini aniqlash usullarini yoritgan asarini nashr ettirgan. XIX asrda grafologiya keng yoyilgan.

Bugungi kunda emotsiyonal holatlar hamda ONFinings ba`zi tipologik xususiyatlari bilan yozuv o`rtasida bog`liqlik o`rnatilgan fikrlar mavjud. Ba`zi psixologik kasalliklarda yozuv o`ziga xos belgilarga ega bo`ladi. Masalan, shizofreniya bilan kasallangan bemorlar yozuvi bo`yalgan bo`ladi. Shu sababli yozuvni o`rganish diagnostik ahamiyat kasb etishi mumkin. Kriminalistikada yozuv jinoyatchini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi belgilarni aniqlash maqsadida tahlil qilinadi. Shuningdek, sud psixologiyasida, differentsiyal psixologiya va psixofiziologiyada boshqa metodlar bilan uyg`unlashgan holda qo`llaniladi.

Xiromantiya insonning individual xususiyatlari, xaraktier qirralari, boshdan kechirgan voqealarini teri-kaft rel`eflariga qarab aniqlash haqidagi qadimiy ta`limotlardan biri hisoblanadi. Kaft yuzasidagi chiziqlar fleksor

chiziqlar, barmoq uchidagilar papillyar chiziqlar deyiladi. Xiromantiya astrologiya bilan bog`liq. Rasmlar individual xarakterga ega.

**Psixodiagnostika fanining yuzaga kelish manbalari.** Psixologiya fanining har – bir tarmog‘ining o‘ziga xos yuzaga kelish va rivojlanish tarixi mavjud. Psixologik diagnostikaning psixologiya fanidan ajralib chiqish sanasi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to‘g‘ri kelib, bunga asosiy sabab amaliyot talablari bo‘lgan. Psixodiagnostikaning yuzaga kelishi psixologiyadagi bir qator yo‘nalishlarning rivojlanishi asosida amalga oshdi va tayyorlandi.

Psixodiagnostika fani yuzaga kelishining birinchi manbai eksperimental psixologiya hisoblanadi. Psixodiagnostik metodikalar asosini eksperiment metodi tashkil etganligi sababli ham ularni ishlab chiqish psixodiagnostikaning vazifalaridan biridir. Aynan shu ma’noda psixodiagnostika “eksperimental psixologiya” asosida yuzaga keldi deb aytish mumkin<sup>6</sup>.

Eksperimental psixologiyani yuzaga kelish davri 1879 yil bo‘lib, aynan mana shu yili Germaniyada eksperimental psixologiya bo‘yicha birinchi laboratoriya tashkil etildi. Uning asoschisi V.Vuntd hisoblanadi. U ikkita yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi:

- 1). Eksperimentga asoslangan tabiiy ilmiy yo‘nalish;
- 2). Madaniyat (xalqlar psixologiyasi)ni o‘rganishning psixologik metodlari asosiy rol o‘ynovchi madaniy tarixiy yo‘nalish.

V.Vuntd nazariyasiga muvofiq, tabiiy ilmiy eksperimental metodlarni faqat psixikaning quyi, elementar darajasiga nisbatan qo‘llash mumkin. Shu tufayli uning laboratoriyasida asosan sezgilar va ular orqali yuzaga keluvchi harakat reaktsialari, shuningdek, periferik va bunokulyar qurish, ranglarni sezish kabilalar o‘rganilgan. Bunday laboratoriylar keyinchalik Fransiya, Gollandiya, Angliya, Shvetsiya, Amerikada ochildi. Eksperimental psixologiya rivojlanib borib, keyinchalik ancha murakkab psixik jarayonlarni ham o‘rganish boshlandi. Masalan: F.Galton so‘zli assotsiatsiyalar yaratdi va shu asosda tadqiqotlar

---

<sup>6</sup> Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М., «Питер», 2005, 18-б.

o‘tkazdi. F.Galton ishlari nashr qilingach, Vuntd ham assotsiativ metodikani laboratoriyasida qo‘llay boshladi. Bunda tajribalar yordamida qo‘lga kiritilgan reaktsiya vaqtি bo‘yicha individual farqlar tekshiruvchilarning individual xususiyatlaridan emas, balki assotsatsiyalar xarakteridan kelib chiqib tushuntirildi.

XIX asrning oxirlarida G. Ebbingauz birinchi bo‘lib xotira qonunlarini o‘rgandi.

Amerikalik psixolog Dj. Kettel diqqat hajmi va o‘qish malakalarini tadqiq qildi. Taxistoskop yordamida u turli omillar – shakl, harf, so‘zlarni idrok qilish va so‘z bilan atash uchun zarur bo‘ladigan vaqtini aniqladi. Uning tajribasida diqqat hajmi 5 ta omildan iborat bo‘ladi. Aylanayotgan barabandagi harf va so‘zlarni o‘qish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazib, Kettel antitsipatsiya fenomenini (idrokning ilgarilab ketishi) qayd qildi.

Eksperimental metod psixologiya fanida keng qo‘llanila boshlanishi odamlar orasidagi individual farqlar haqidagi bilimlarni yuzaga kelishiga olib keldi.

Psixodiagnostika yuzaga kelishining ikkinchi manbai differensial psixologiyadir. Differensial psixologiyaning predmeti individual psixologik xususiyatlar bo‘lib, psixodiagnostika ularni o‘lchash metodlari haqidagi fan sifatida yuzaga keldi. Ushbu ikkita manbadan tashqari amaliyot talab va ehtiyojlari ta’sirida psixodiagnostika tarkib topdi.

**Psixologik testlar tarixi.** Testlar juda katta tarixga ega. Qadim davrlardanoq turli xil maqsadlarda insonning qobiliyatları, bilim ko‘nikma va malakalari sinalib kelingan. Masalan, eramizdan avvalgi uch ming yillik o‘rtalarida Qadimgi Vavilonda xattotlar tayyorlovchi (pissы) maktabni bitiruvchilarni sinash yo‘lga qo‘yildi. Kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan xattot mahalliy madaniyatning markaziy namoyondasi hisoblanib, u 4 ta arifmetik amalni, er o‘lchashni mol – mulkni bo‘lishni bilishi hmada ashula aytish va musiqa asbobini chalish san’atiniegallagan bo‘lishi shart edi.

Qadimgi Misrda ham maktablarga qabul qilishda nomzodlar muayyan sinovlardan o‘tishlari zarur bo‘lgan. Avvolo ular bilan suhbat o‘tkazilgan, tarjimai holga ta’luqli ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan, ma’lumotlilik darajasi aniqlangan. Bulardan tashqari ularning tashqi ko‘rinishi, suhbat olib borish malakasi ham baholangan. Shundan so‘ng mehnat qilish, boshqalarni eshit olish, jim tura olish malakalari tekshirilgan. Olovdan, suvdan, qorong‘u yerto‘lalarda yolg‘izlik, qo‘rqinch hislari sinalgan. Ma’lum bo‘lishicha, bunday qattiq sinovlardan mashhur olim Pifagor ham muvaffaqiyatli o‘tgan. Keyinchalik Gretsiyaga qaytgach, u shunday mактабга asos soldiki, unga kiruvchilar o‘zi boshidan o‘tkazgan sinovlardar albatta o‘tishlari shart bo‘lgan. Manbaalarning dalolat berishicha, (Golitsin N.N.,1855) Pifagor aqliy qobiliyatlarning muhim ahamiyatga egaligiga alohida e’tibor bergen. Buning uchun esa ularning aynan aqliy qobiliyatlarini diagnostika qilish zarurligini ta’kidlagan. Nomzodlarga murakkab matematik masala berilib, agar uni echa olsalar, ular mактабга darhol qabul qilinganlar. Masalani yecha olmaganlarni esa o‘quvchilar to‘plangan zalga olib kirib, ular ustidan kulib, masxaralab, turli laqablar berishgan. Agar bunday nomzodlar bu holatdan muvaffaqiyatli chiqa olsalar, ya’ni ularga javob qaytara olsalar hamda o‘zlarini tuta bilsalar ularni mактабга qabul qilganlar.

Pifagor yoshlarning yurishi va kulishiga alohida ahamiyat bergen, chunki ularning fikricha bular inson xarakterining eng yaxshi kursatkichi hisoblanadi. U ota – onalar va o‘quvchilarning tавсиyanomalariga diqqat bilan munosabatda bo‘lib, yangi o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin bildira olishi, tortinmasligi, suhbatdoshlari bilan munozara qila olishini sinchikovlik bilan kuzatar edi<sup>7</sup>.

Eramizdan 2200 yil avval qadimgi Xitoyda hukumatda amaldorlik lavozimini, martabasini qo‘lga kiritish uchun qobiliyatlarni tekshirish tizimidan o‘tish talab qilinar edi. Amaldorlar har 3 yilda qaytadan imtihon qilinib, imperatorning o‘zi 6 yo‘nalish: musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish,

<sup>7</sup> Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М., 2001 (мазмунидан олинди)

hisoblash, rasm – rusmlarni bilish bo‘yicha ularni sinovdan o‘tkazardi. Davlat uchun imtihonlar tizimi qobiliyatli, zehnli, zukko kishilarni rahbarlikka tanlab olishda katta ahamiyat kasb etar edi.

O‘rta asrlarda Vietnam davlatida lavozimlar uchun turli xil imtihonlar va sinovlar uyushtirilar edi. 1370 – 1372 yillar mobaynida barcha harbiy va fuqoro amaldorlarini qayta attestatsiyadan o‘tkazilishga erishildi. Buning natijasida Vietnam yana kuchli feodal mamlakatga aylandi.

XV asrda sinovlarni o‘tkazish tartibga solindi. Ular bosqichlar, turlar bo‘yicha o‘tkazila boshlandi. Imtixonda yuqori darajalarni ta’sis etish katta tantanalar bilan amalga oshirila boshlandi. Laureatlar podsho tomonidan taqdirlanib, ularning nomlari poytaxt SHarqiy darvozasiga osib qo‘yiladigan “oltin ro‘yxat”ga kiritilar edi.

Bu tarixiy ma’lumotlar individual qobiliyatlarni sinash ko‘pchilik davlat ijtimoiy hayotining muhim va ajralmas qismi deb qarash to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Biroq, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida testlar tarixi va keng yoyilishi to‘g‘risida gapirish mumkinmi? Agar “test” so‘zining inglizchadan “sinash”, tekshirish, sinab ko‘rish deb tarjima qilinishi ko‘zda tutilsa, bu savolga “ha” deb javob berish mumkin. Biroq hozirgi paytda testni bunday ta’riflab bo‘lmaydi.

Vaqt o‘tishi bilan test to‘g‘risidagi kundalik hayotiy tasavvurlar bilan ularning ilmiy tushunish o‘rtasida katta farq borligi sezila boshlandi. Har qanday test o‘z ichiga sinash elementlarini olsada, u faqat sinov emas, balki hozirgi vaqtda bir qancha ilmiy talablarga javob beradigan tadqiqot metodidir. Fan rivojlanishining har – bir bosqichida testlarga qo‘yiladigan talablar va ularning o‘zлari ham o‘zgarishlarga uchraydi.

XX asr bosqlarida qobiliyatlarni o‘rganishga bo‘lgan amaliy ehtiyojlar individual farqlarni tadqiq qilish ilmiy muammosi shaklida tarkib topdi. Bu muammo dastlabki testlarning poydo bo‘lishi uchun turki bo‘ldi. Mashhur ingliz olimi F. Galton 1884 – 1885 yillar davomida tadqiqotlar o‘tkazdi. Uni 5 yoshdan 80 yoo‘gacha bo‘lgan kishilar arzimagan haq evazigalabaratoriyalarda

ularning jismoniy xususiyatlari – reaksiya tezligi, kuchi, organizmning qator fiziologik imkoniyatlari hamda psixik sifatlarini, jami 17 ko‘rsatkich bo‘yicha o‘zlarini tekshirib ko‘rishlari mumkin edi. Bu ko‘rsatkichlar qatoriga – bo‘yi, og‘irlik, o‘pkaning og‘irlik sig‘imi, kaft va musht kuchi, harflarni esda olib qolish, ko‘rish o‘tkirligi, ranglarni farqlash va boshqalar kiritildi. To‘liq dastur asosida 9337 kishi tadqiq qilindi. F. Galtonning fikricha metodik testlar amaliyoti – fantaziya emas, balki u eksperimentni talab etadi. Bu intuitsiyaga asoslangan tekshirish va sinashning ming yillik amaliyotidan dastlabki muhim chekinish edi. Eksperiment fanning haqiqiy asosi sifatida qarala boshlandi. Bu haqida Dj. Kettell ham ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, psixologiyaning asosini eksperiment va o‘lchash tashkil etsagina u haqiqiy va aniq fan bo‘la oladi. XX asrning 30 yillari boshi ko‘pchilik davlatlarda testlarning keng qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Fransiyada testlar defektologiya maqsadlarida hamda kasbga yo‘naltirish soxasida, AQSHda testlar ishga, oliy o‘quv yurtiga qabul qilishayotganda talaba va o‘quvchilar bilimlarini baholash uchun hamda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda qo‘llanila boshlandi. Sobiq SSSRda esa testlar asosan 2 sohada: xalq maorifi va kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash sohasida ishlatildi. Lekin testlar natijalari inson taqdiri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli testlarni qo‘llashga nisbatan bir – biriga qarama – qarshi bo‘lgan qikrlar paydo bo‘ldi, ya’ni uni ma’qullovhilar hamda uni inkor etuvchi fikrlar vujudga kelib, turli xukumat organlari va matbuotga testlarni qo‘llashni to‘xtatish da’volari bitilgan matbuotlar soni juda ko‘payib ketdi.

Bu davr sobiq ittifoqda testlar xalq maorifi va sanoatda intensiv ravishda nazoratsiz qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Ko‘pincha kuzatiladigandek, amaliyot nazariyadan ilgarilab ketdi. Ommaviy test tadqiqotlarining sifati jiddiy tekshirilmay, o‘quvchilarni aqlan zaif bolalar sinflariga o‘tkazib yuborish o‘tkazilgan qisqa testlar asosida boshqa omillarni hisobga olmagan xolda amalga oshirildi. Sanoatda ham xuddi shunday testlar asosida ishchilarni shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmay turli kasblarga taqsimlash

hollari kuzatildi. Shu tariqa xalq maorifi tizimi va sanoat soxasiga katta ziyon etkazildi.

1936 yilda “xalq komissariyati tizimidagi buzg‘unchiliklar to‘g‘risida”gi qonun chiqib, testlarni qo‘llash butunlay ta’qiqlab qo‘yildi. 30 yillarda testlar bo‘yicha amaliy ishlar sustlashgan bo‘lishiga qaramay, bu metod imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish to‘xtab qolgani yo‘q. Testlarning bir qismi topshiriq, sinov ko‘rinishida qo‘llanilaverdi. Biroq bu sinov va topshiriqlar testlardan printsipial jihatlan farq qiladi.

1-farq. Test – psixologiya va boshqabir qancha fanlarda ilmiy asoslangan empirik tadqiqot metodi bo‘lib hisoblanadi.

2-farq. Testlar yangi mazmun kasb eta boshladi. Testlar psixologiyaning shaxsni, uning qobiliyalarni o‘rganish kabi sohalarida nazariy tadqiqot quroli (instrument) rolini o‘ynay boshladi.

Shu tariqa amaliyot bilan nazariya o‘rtasida aloqa o‘rnatildi. Hozirgi paytda qo‘llaniladigan testlar ishonchlik va validlikka ega bo‘lgan testlardir.

Shunday qilib psixologik testlar – bu muayyan psixologik xususiyatni (o‘lhash) aniqlash imkonini beradigan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan topshiriq, mulohazalar tizimidir. Nazariy asoslanganlik hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlaridan kelib chiqib, test va uning natijalarini har tomonlama tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Emperik asoslanganlik esa tajribaga, o‘lhash va eksperimentga iurojat qilinishi bilan bog‘liq.

**Proyektiv metodlar tarixi** Proyektiv metodikalar klinik yo‘nalishlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos, turli – tuman psixodiagnostik vositalar guruhidir. Klinik yo‘nalish deganda bu erda shaxsning anomal holatlarini aniqlash emas, balki xulq – atvorning individual uslubi, nizoli va boshqa xolatlarda affektiv hissiyot hamda kechinmalarni, shaxsning ongsizlik holatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar tushuniladi. Proyektiv metodikalar tarixi 1904 – 1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so‘zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Keyinchalik assotsiativ testning turli variantlari aybdorlik hissini aniqlash (detektor lji M.Vertgayler va A.R. Lauriya), normani patologiyadan ajratish va

boshqalar uchun qo'llanildi. Tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham YUngning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Proektiv diagnostikaning kelib chiqishi 1921 yilda G.Rorshax tomonidan Bernda, nemis tilida “Psixodiagnostika” asarining nashr qilinishi bilan bog‘langan. O‘zi rassomlikdan voz kechishiga qaramay, German Rorshax san’at va rassomlik tarixi bilan ko‘proq qiziqardi. Unga ma’lum bo‘lishicha, buyuk Leonardo da Vinci o‘z xayolini osmondagи bulutlar, ulardagi turli shakllarni uzoq vaqt davomida kuzatish va ularni tahlil qilish orqali mashq qildirar edi. Bu xususiyat, ya’ni atrofimizdagi predmetli dunyoni “jonlantirish” barchaga, ayniqsa rassomlar va yosh bolalarga xos bo‘lgan xususiyatdir.

G.Rorshaxning taxminiga ko‘ra, siyoh dog‘lari, ya’ni ko‘rishga yo‘naltirilgan siyoh dog‘lari motor (harakat) fantaziyalarini jonlantiradi.

G.Rorshaxdan avval siyoh dog‘lari bilan boshqa psixologlar, masalan Rassiyada F.E.Ro’bakov; A.Bine va V.Anri – Fransiyada eksperimentlar o‘tkazishgan. Biroq G.Rorshax birinchi bo‘lib fantaziya obrazlarini shaxsning asosiy sifat va xislatlari bilan aloqasini isbotlab berdi. Rorshax g‘oya va tadqiqotlari hozirgi kunda ikki yirik yo‘nalishda – Amerika (Vesk, Klopfer, Daviolson) va Evropa (Bohm, doosli – listeri) yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi.

Rassiyada Rorshax testini qo’llashga dastlabki urinishlar 20 – 30 yillarga to‘g‘ri kelib, u asosan shaxs anomal xususiyatlarini aniqlash, nevroz va psixopatlar diagnostikasi, shuningdek epilepsiya kasalligini tadqiq qilishda fo‘ydalanildi. 60 yillardan boshlab Rorshax testi psixologlarning tadqiqotva klinik diagnostik ishlarida keng tadbiq qilina boshlaydi. Dastlabki metodik qo’llanmalar yuzaga keladi. Bu testdan tashqari proektiv metodikalar qatoriga 1935 yilda dastlab jurnalda nashr qilingan tematik appersepcion testini ham (TAT) kiritish mumkin. Bu test fantaziyani eksperimental o‘rganish metodikasi sifatida yuzaga keldi. Uning avtori G. Myurrey hisoblanadi. Rorshax testi singari bu testning ham o‘z tarixi mavjud. Psixolog va psixiatrlarga shu narsa oldindan ma’lum ediki, tekshiriluvchilar uchun maxsus tanlab olingan syujetli rasmlar asosida tuzilgan hikoyaga qarab, insonning qiziqishlari, mayllari haqida

xulosa chiqarish mumkin. Ba’zida esa psixikaning kasallik holatini ham aniqlash mumkin. Bir qarashda TAT fikri, G.Rorshax g‘oyasiga qaraganda ancha sodda va aniq ko‘rinar edi. Ammo bunda “avtor” aynan qaysi shaxsiy tajribasi uning “qahramonalar”i taqdiri va portretini to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi – yu va qaysilari qarama – qarshi ma’noda aks etishini tushunish murakkab edi.

30 -50 yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar Myurreyning TAT hikoyalarda uyqudan qolish, bo‘lib o‘tgan muvaffaqiyatsizliklar yoki omad aks etishi haqidagi fikrini tasdiqladi.

**Kontent – analiz tarixi.** Kontent – analiz - hujjatlarni sifatli va miqdoriy o‘rganishdir. Mazkur usul psixodiagnostikada turli xil testlar, proyektiv metodikalar, savolnomalarga nisbatan kam ishlataladi.

XX asrning 20 – yillardan boshlab psixologiya va sotsiologiyada hujjatlarni o‘rganishga intuitiv – sifatli yondashuv bilan bir qatorda miqdoriy metodlar ham tez – tez qo‘llanila boshlandi. Ijtimoiy fanlarda hujjatlar ancha keng ma’noda qo‘llanilib, ularga rasmiy va o‘axsiy hujjatlar, xatlar, tarjimai hollar, kundaliklar fotosuratlar, shuningdek, san’at, adabiyot ommaviy axborot vositalarining materiallari kiradi.

Sobiq ittifoqda 20 – yillardagidek bir qancha psixologlar – N.A.Ribnikov, I.N.Shpilreyn, P.P.Blokskiy, sotsiolog V.A.Kuzmichevlar hujjatlarni o‘rganishda miqdoriy metodlardan foydalanishgan.

40 – 50 yillarda AQSHda hujjatlarni o‘rganishning maxsus fanlararo metodi - kontent – analiz vujudga keladi. Keyinchalik u Evropa mamlakatlariga ham yoyiladi. Sobiq ittifoqda esa 60 – yillarning oxiridan bu metod ijtimoiy va ijtimoiy psixologik talqiqotlarda keng tarqaladi.

Hujjatlarni sifatiy - miqdoriy tahlil qilishni 20 – yillarda o‘z ishlarida mashhur tadqiqotchi N.A.Ribnikov qo‘llagan. U tarjimai hollarni shaxsni va uning tarixini aks ettiruvchi psixologik hujjat sifatida qaragan. Tadqiqotchi tomonidan 500 dan ortiq ishchi bolalarining tarjimai hollari bitilgan insholari tahlil qilib chiqilgan (1926 – 1928). Bunda tadqiqotchi o‘quvchilarga “Men hozir qanday yao‘ayapman” degan mavzuda o‘z hayotlarini yoritib berishni

taklif etdi. Insholarni tahlil qilishda o‘quvchilarning o‘z hayotlarini ijobiy yoki salbiy baholashlari yosh va jinsga bog‘liq holda taqsimlanishi aniqlandi. Tadqiqotchining chiqargan xulosalariga asosan, o‘rtacha qizlar o‘g‘il bolalarga nisbatan kichik guruhlarda ancha yuqori ijobiy baho berganlar. Katta guruhlarda esa o‘g‘il bolalar ko‘proq o‘z hayotlarini ijobiy baholashgan. Bunga sabab yosh ulg‘ayishi bilan oilada qizlardan bajaradigan ishlar miqdorining ortishidir.

N.A.Ribnikov, shuningdek, “u yoki bu hodisa motivlari, umumiy hayot jarayonining motivlarini” tahlil qiladi. Bunday motivlarni avtor 3 guruhga ajratadi:

1. Moddiy.
2. Psixologik.
3. Noaniq.

Ko‘proq moddiy motivlar (53 %) uchraydi, tekshirilgan bolalarning 1/3 qismida (31%) psixik motivlar namoyon bo‘ldi. N.A.Ribnikov hujjatlarni tahlil qilish bilan chegaralanib qolmaydi. U bolalarning hayotlari tavsifini bola vaqtini o‘tkazish ma’lumotlari bilan taqqoslaydi.


Hujjatlarni miqdoriy tahlil qilishni mashhur psixolog P.P.Blonskiy ham qo‘llagan. U 190 o‘quvchi va talabalarning “dastlabki” (-1) taassurotlarini, shuningdek, 83 o‘quvchining “Mening bolalik to‘g‘risidagi ilk taassurotlarim” mavzusidagi (11-13 yosh) yozma ishlarini birlamchi taassurotlar xarakterini aniqlash maqsadida tahlil qilgan. O‘tkazilgan tadqiqot asosida P.P.Blonskiy muhim xulosa chiqaradi, ya’ni tekshirilgan 68% kattalar va 74% o‘quvchilar taassurotlarining asosiy mazmuni – baxtsizlik ekani, ya’ni baxtsizlik va qo‘rqinch – asosiy esda olib qolish omillari ekanligi aniqlanadi. Ammo N.A.Ribnikov singari P.P.Blonskiy ham tahlil qilish jarayonini yoritib bermaydi.

Hujjatlarni tibbiy –psixodiagnostik o‘rganish natijalarini ham misol qilib keltirish mumkin. Bunda V.N.Kasatkin tomonidan 30-50 yillar davomida amalga oshirilgan 4 mingdan ortiq yozib olingan bemor va sog‘lom kishilarning tush ko‘rishi mazmuni tahlil qilingan. Ularni tahlil qilishda qatnashgan

kishilarning xususiyatlari va hayot sharoitlari: yoshi, jinsi, mutaxassisligi, salomatligining ahvoli, oilaviy sharoiti, ona tili va boshqa tillarni egallaganligi, yashash joyi, tarjimai hol ma'lumotlari, sana, tush ko'rilgan kunning mazmuni, tekshiriluvchining ahvoli kabilar inobatga olinadi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, katta yoshdagilar ko'rgan tushlarida ish, mutaxasislik bilan bog'liq bo'lgan elementlar (62,5%), turmush-uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat elementlari (41,4 %); salomatlik bilan bog'liq bo'lgan elementlar (44,3%); oilaviy hayot epizodlari 38,6%, 8 seksual ma'nodagi tush ko'rish bo'lgan.

Germaniyada K. Levin, X.Sebaldlar tomonidan 30 yillarda Prezident Ruzvelt va uning siyosatiga qarshi fikrlar o'rganilgan. S.Sardjent tomonidan AQSH da G.Olport, A.Bolduin – shaxs hujjatlarini alohida shaxs psixik strukturasini tahlil qilish maqsadida o'rganilgan. Suitsid oldi holati, psixok zo'riqish holatini o'rganish uchun xatlar, kundaliklar mazmunini tahlil qilish Dj.Dollard va O.Maurer, Ch.Osgud va Uolker tomonidan amalga oshirildi.

### *Muhokama uchun klaster*



## Glossariy

**Psixologik testlar** – bu muayyan psixologik xususiyatni o`lchash, aniqlash imkonini beradigan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan topshiriq, mulohazalar tizimidir.

**Proektiv metodikalar** – klinik yo`nalishlarga ega bo`lgan o`ziga xos, turli-tuman psixodiagnostik vositalar guruhidir.

**Klinik yo`nalish** - shaxsning anomal holatlarini aniqlash emas, balki xulq-atvorning individual uslubi, nizoli vaziyatlarda affektiv hissiyat hamda kechinmalarni, shaxsning ongsizlik holatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar.

**Kontent analiz** – hujjatlarni sifatiy va miqdoriy o`rganish.

**Fiziognomika** - (yunoncha "tabiat" va "biluvchi so`zlaridan olingan)-insonnig tahqi ko`rinishi bilan uning muayyan tipga mansubligi o`rtasidagi bog`liqlik haqidagi ta`limot.

**Frenologiya** -(yunoncha "ahloq","xarakter" va "ta`limot")-inson psixik xususiyatlari bilan kalla suyagi shakli o`rtasidagi bog`liqlik haqidagi ta`limot.

**Grafologiya** - (yunoncha "yozman" va "ta`limot) - bu yozuv, husnixat haqidagi ta`limot bo`lib, insonning psixik xususiyatlari va psixofiziologik holatini aks ettiruvchi ifodali harakatlarning turi sifatida tan olingan ta`limot.

**Xiromantiya** - (yunoncha "qo`l" va "taqdir") insonning individual xususiyatlari, xaraktier qirralari, boshdan kechirgan voqealarini teri-kaft rel`eflariga qarab aniqlash haqidagi qadimiy ta`limotlardan biri.

### Adabiyotlar:

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001.
4. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.:1991.
5. Nishanova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2004.
6. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
7. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

### **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Soda psixologik diagnostikaning mazmunini nimalar tashkil etadi?
2. Fiziognomika nimalarga asoslanadi?
3. Frenologiya ta`limotining asoschisi kim hisoblanadi?
4. Grafologiya termini fanga kim tomonidan kiritilgan?
5. Xiromantiya qanday ta`limot hisoblanadi?
6. Psixodiagnostika fani yuzaga kelishining manbai qaysi fanlar hisoblanadi?
7. Pifagor sinovlardan nima uchun foydalangan?
8. Nechanchi yillarda testlarning keng qo‘llanilishi kuzatiladi?
9. So‘zli assotsiatsiyalar testi qachon va kim tomonidan yaratilgan?
- 10.“Psixodiagnostika: idrokka asoslangan diagnostik test” asarining muallifi kim?

## **MAVZU: PSIXODIAGNOSTIK TEKSHIRUV VA TADQIQOTLAR.**

### **Reja:**

1. Psixodiagnostik tadqiqot o`tkazish bosqichlari.
2. Test o`tkazish sharoitini taylorlash.
3. L.S.Vigotskiy bo'yicha psixologik diagnoz turlari.
4. Diagnostik ma`lumotlardan foydalanish va ularni joriy qilish qoidalari.

**Tayanch tushunchalar:** psixodiagnostika, psixologik diagnoz, simptomatik diagnoz, etiologik tashhis, tipologik diagnoz, etika

Psixodiagnostika psixolog faoliyati yo`nalishlaridan biri bo`lib, quidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

1. Mijozning psixologga murojaatini o`rganish. Diagnostga murojaat oddiy, hayotiy so`zlashuv tilida bo`lganligi sababli, uni ilmiy psixologik ko`rinishga aylantirish, ya`ni qilingan amaliy talab asosida psixologik muammoni belgilab olish (mijoz talabini psixologik muammoga aylantirish). Tashqaridan kuzatuvchi sifatida muammoni chuqur anglash.
2. Muammoni hal qilish uchun tushgan talab bo`yicha birlamchi axborotni to`plash: oila a`zolari, faoliyatni (o`quv yoki mehnat) muvaffaqiyatli bajatish haqida; yaqin atrofdagilar bilan munosabatlari haqida; tibbiy xulosa; anamnez yig`ish.
3. To`plangan ma`lumot asoaida farazni ilgari surish va uni tekshirish uchun diagnostik metodlarni tanlash.
4. Diagnostik tekshiruv o`tkazish, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish.
5. Qo`lga kiritilgan diagnostic ma`lumotlardan kelib chiqib, asosiy xulosalar chiqarish.
6. Psixologik yordam, ta`sirot turlarini aniqlash, ya`ni amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, maslahat ishlari uchun asosiy yo`nalishlarni belgilash.

Masalan, kollej ishlab chiqarish ustasidan psixologga 1-kurs talabasi ustidan o`zini yomon tutishi, darsda ko`pincha intizomni buzishi, o`rtoqlari bilan urishishi haqida murojaat tushdi ( 1-bosqicn).

Suhbat asosida buning sabablarini aniqlash bo`yicha birlamchi axborot to`planadi (2-bosqich).

Ma`lumotlar asosida negative holatlar yangi jamoaga moslashuv hamda o`quvchining o`zini tasdiqlash ehtiyoji va uni noadekvat usullar vositasida egallash mumkinligi to`g`risida faraz ilgari suriladi, metodlar (sotsiometriya, referentometriya, suhbat) tanlanadi (3-bosqich).

Farazni tekshirish uchun diagnostik tadqiqot o`tkaziladi ( 4-bosqich).

Qo`lga kiritilgan ma`lumotlar asosida farazning to`g`ri ekanligi va intizom buzilishining sababi o`quvchining shaxslararo munosabatlarda past mavqeni egallaganligi haqida xulosa chiqariladi (5-bosqich).

Suhbat jarayonida o`quvchining harbiy sohaga bo`lgan qiziqishlari aniqlanganligi sababli sport sektsiyasiga va harbiy vatanparvarlik klubiga a`zo bo`lish tavsiya qilinadi (6-bosqich). Shuningdek, o`quvchining o`ziga bo`lgan ishonchini oshirish uchun guruhiy treninglar shaklida psixokorreksion ishlar olib borilishi zarurligi tavsiya qilinadi.

### **Test o`tkazish sharoitini taylorlash.**


- Tadqiqot o`tkazish joyi turli xil tashqi shovqinlardan holi bo`lishi, shu bilan birga sanitariya-gigiena qoidalariga javob berishi lozim. Majbur qilmaydigan ish holati ta`minlanishi kerak.
- Tadqiqotning texnik ta`minlanishi hal qilinishi lozim bo`lgan masalalarga mos tushishi lozim.
- Tekshiriluvchilarni sifat jihatidan bir xil qilib tanlanishi zarur.
- Tadqiqotchi tadqiqotning borishiga, uning barcha bosqichlarini o`tkazishga ta`sir etadi ( rejalashtirishdan to xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishgacha).
- Yo`riqnomaloyi tadqiqot boshlanishidan oldin, tayyorgarlik bosqichida tuziladi. U aniq, qisqa va bir ma`noli bo`lishi lozim.

- Tadqiqot natijalari bayonnomalarda qayd etilib, u bir vaqtning o`zida ham to`la, ham maqsadga qaratilgan bo`lishi kerak.
- Tadqiqotdan olingan ma`lumotlar sifat va miqdor jihatidan analiz-sintez qilinishi, ya`ni qayta ishlanishi zarur.

Psixodiagnost uchun eng muhim vazifa – to`g`ri psixologik diagnoz qo`yish hamda psixokorrektciya ishlarini belgilash.

Psixologik yordam turlari juda xilma-xil: psixoterapiya ( uning maqsadi – insonning psixologik salomatligi), individual maslahat hamda korrektsiya – turli xil psixologik qiyinchiliklarda individlarga yordam berish uchun qo`llaniladigan rivojlanadirish bo`yicha guruhiy ishlash.

L.S.Vigotskiy bo`yicha psixologik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo`yishning 3 bosqichi farqlanadi:



**Simptomatik diagnoz** emperik diagnoz deb ham ataladi. Bunda tashxis qo`yish muayyan belgi yoki xususiyatlarni ta`kidlash bilan cheklanadi va uning asosida amaliy xulosalar chiqariladi. L.S.Vigotskiyning ta`kidlashicha, bunday tashxis ilmiy hisoblanmaydi, chunki belgilarni aniqlash avtomatik tarzda bevosita tashxis qo`yishga olib kelmaydi.

Psixologik tashhis rivojlanishining ukkinchi bosqichi **etiolik tashhis** qo`yish bo`lib, bunda shaxsning muayyan xususiatlari va belgilarning mavjudligi hisobga olinib qolmay, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham inobatga olinadi.

Ehg yuqori bosqich – **tipologik bosqich** hisoblanadi. Bunda qo`lga kiritilgan ma`lumotlarning shaxs tuzilishidagi o`rni va ahaniyati belgilanadi.

Masalan, 1.Simptomatik diagnoz: “Diqqat etishmovchiligi sindromi va giperaktivlik”

2.Etiologik diagnoz: “Genetik hamda ijtimoiy-psixologik omillar (prenatal, postnatal rivojlanishda – bolaning muddatdan oldin tug`ilishi; toksikoz va infektsiyalar ta`siri; toksik, zaharli moddalar ta`siri; MNT ining buzilishi; gipoksiya va anoksiya, y`ani vaznning haddan ortiq yoki kam bo`lishi; ota-onalar o`rtasidagi emotsional murakkabliklar; moddiy sharoitlarning og`irligi; psixik deprivatsiya; o`zlashtirmaslik va hokazolar) ta`sirida kelib chiqqan diqqat etishmovchiligi sindromi va giperaktivlik”.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, psixodiagnostik ishlarni tashkil etishda psixolog bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

*Birinchidan*, psixolog differentsial psixometriyaning asoslarini va psixologik adabiyotlarni tahlil etish metodlarini, umumiylazariy-metodologik tamoyillarni amaliy qo'llashni bilishi va uddalashi lozim.

*Ikkinchidan*, axborot ma`lumotlar bankini va test vositalari bankini yaratishi zarur.

*Uchinchidan*, psixodiagnostik tekshiruvlar o'tkazuvchi psixolog test ma`lumotlari asosida qabul qiladigan qarori, qo'llanilgan metodikaning validligini va tashxisning zaruriy ishonchlilik darajasini ta'minlash uchun mas'ul.

*To'rtinchidan*, psixolog psixodiagnostikaning kompleks metodikasini ishlab chiqishda diagnostikaning yuqori samaradorligiga asoslanishi, tegishli sohada qo'llaniladigan usullarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi kerak.

*Beshinchidan*, diagnostik ish jarayonida psixodiagnostik metodikalarni standartlashtirish talablariga rioya etishi, olingan ma`lumotlarni qayta ishlashi va talqin qilishi kerak.

*Oltinchidan*, psixologdan metodik vositalardan to'g'ri foydalanish, psixologik axborotlarning konfidentsialligini ta'minlash, shunidek kasbiy yo'nalishdagi fanlarni o'rganish, ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'tkazilgan amaliy ishlar (ayniqsa, yuqori kurslarda) o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi, ularni to'ldiradi va chuqurlashtiradi. O'quvchilarga o'rganilgan fanlarning amalda qanchalik foydali ekani, ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga, va albatta, qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha kichik mutaxassislar faoliyati samaradorligiga ta'siri ishonchli va yorqin misollar asosida ko'rsatib beriladi.

### **Psixodiagnostika bilan shugullanuvchi psixologga qo'yiladigan talablar:**

- 1.Psixodiagnostikaning metodik vositalarini bilish.
- 2.Axloq qoidalariga amal qilish.
- 3.Zarur kasbiy va shaxsiy sifatlarga ega bo`lish.
- 4.Psixologik muammoni qo`ya bilish.
- 5.Sinaluvchilardan zarur ma`lumotlarni ola bilish.
- 6.Olingan ma`lumotlarni sinaluvchi qiziqishlariga mos tarzda qo`llay bilish.

### **Psixodiagnostika mutaxassisi ega bo`lishi kerak bo`lgan sifatlar:**

- Empatiya qobiliyati
- O`z-o`zini nazorat qilish
- Kasbiy odoblilik(takt)
- Ma`suliyatni his qilqish
- Refleksiya qobiliyati

Psixologning kasbiy ish faoliyatining ajralmas va muhim jihatni bu - psixodiagnostika qilish sanaladi. Bunday faoliyatda psixolog shaxsining ma'naviy axloqiy tomoniga katta e'tibor beriladi. "Axloq" va "ma'naviyat" tushunchalari shunday meyor va prinsiplarni o'z ichiga oladiki, ular individlarning o'zaro va jamiyat o'rtasida qiziqishlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu meyorlar insonlarning yaxshilik va yomonlik

tushunchalariga mos ravishda xulqlarini tartibga solishga yo‘naltirilgan va shaxsiy fikr, urf-odatlar, tarbiya, jamiyat fikri bilan qo‘llab quvvatlanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tushunchalar shaxsning kasbiy ish faoliyatida o‘zini tutishi va fikrini tartibga solib turadi.

Shaxsiy prinsiplar u yoki bu kasbning ma'lum sharoiti va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va asosan mutaxassislarga nisbatan axloqiy kodeks talablar bilan ifodalanadi.

Psixologning kasbiy etikasi uning kasbdoshlari bilan, ilmiy jamiyat bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek, tekshirayotgan shaxslar, respondentlar (psixologik yordam so‘rab kelsak) bilan o‘zaro munosabatlarida ko‘rinadi. “Psixologning etika kodeksi” bu etikaning asosi bo‘lib kelgan.

### **“Psixologning etik kodeksi”**

Etika bu - xulq-atvor meyrlarining yig‘indisi, jamiyat ma'lum guruhlarining axloqi. Har qanday kasbiy guruh ish faoliyatida, ish yuritishning qonun-qoidalari ishlab chiqiladi, mana shu qoidalarning yig‘indisi kasbiy etikani tashkil qiladi. Xuddi shunday, vrachlik etikasi, ilmiy etika to‘g‘risida aytish mumkin. Ko‘pchilik vrachlik etikasi muximligini biladi.<sup>8</sup>

Qadimgi yunon faylasufi va vrachi Gippokrat vrachlar etik qoidalarni belgilab bergan. Endilikda bu Gippokrat qasami deb nomlanadi, va tibbiy etika asosini tashkil qiladi. Psixologning kasbiy ish faoliyati bu insonning ichki dunyosi, shaxsiyati bilan ishlashdan iborat. Bu ish faoliyati etikaning o‘zgacha qonun va prinsiplariga bo‘ysunishni talab etadi. Psixologiya shunday imkoniyatlarga egaki, bularni qo‘llash juda ehtiyyotkorlikni talab etadi.

Psixolog kasbiy etikasining muhim prinsiplarini ko‘rib chiqamiz:

#### **1) Kasbiy layoqatlik prinsipi.**

Psixolog o‘z xaq huquqini va majburiyatini, imkoniyat va chegarasini bilish kerak. U o‘zining kasbiy imkoniyatini yaxshi bilishi kerak va ish kasbiy tayyorgarchiligi chegarasida faoliyat olib borishi lozim. Rivojlantiruvchi, to‘g‘rilovchi, konsultativ dastur qo‘llayotganda psixolog uning nazariy

<sup>8</sup> Зеер Э. Ф. Психология профессий: учебное пособие для студентов вузов. М., 2003. 336 с.

asoslarini bilishi va uni olib borishning texnologiyasini uqib olishi kerak.

Layoqatli va butunlikcha psixologik yordam tashkil etish uchun psixolog kasbdoshlaori va yondosh mutaxassislik vakillari ya'ni psixiatrdar, vrach psi'oterapevtlar, neyropsixologlar bilan aloqa o'rnatish kerak. Mijozga "Yo'q men bu savollar bilan shug'ullanmayman, boshqa mutaxassisga murojat qiling" degan javob uning layoqatlilik ko'rsatkichi bo'ladi.

Shaxsiy layoqatlilik prinsipi psixologdan faqatgina biladigan, shu savolni echish uchun amaliy ish metodlariga ega bo'lgan xolat kirishishi mumkinligini talab etadi. Psixologik masalalarni echishda psixolog nazariy ko'rsatmalar va amaliy tajribaga suyanishi kerak.

### 2) Insonga zarar yetkazmaslik prinsipi

Psixolog o'z ish faoliyatini avvalo buyurtmachining foydasidan kelib chiqqan xolda olib boradi. Lekin shu bilan birga zarar etkazmaslik prinsipiga amal qiladi, u yoki bu darajada amaliy tajribalarga qo'shilgan mijozlar maxsuliyat sezishi kerak. Ko'pgina psixologik jarayonlar orqaga qaytmasligini nazarda tutish kerak. Gippokrat tomondan tuzilgan bu zara etkazish etikaviy qoida nafaqat vrachlar, psixologlar uchun xam juda muxim. Psixologning olib borgan psixologik jarayonlari insonning sog'ligiga, jamiyatdagi o'rniga, qiziqishlariga zarar etkazmasligi lozim. Bundan tashqari, psixologik taxlil javoblaridan xabari bor insonlar xam tekshiriluvchiga zarar etkazmasliklarini ta'minlash zarur. Buning uchun psixolog o'z takliflarini shakllantirib, ulami saqlanishini tartibga soladi.

### 3) Ob'ektivlik prinsipi

Psixolog har qanday insonga nisbatan boshqacha qarashga yo'l ko'ya olmaydi. Xar qanday sharoitda xam ob'ektiv bo'lish, boshqalar fikri ta'siriga tushmasligi kerak. Tajriba olib borilayotgan insonning yuridik va jamoatdagi o'rni, boshqalarning unga nisbatan ijobiy yoki salbiy qarashlari psixolog fikriga ta'sir etmasligi lozim. Ish davomida olingan javoblar xar doim ilmiy asoslangan, tekshirilgan va xar tomonlama o'ylab ko'rilgan bo'lishi kerak.

Psixolog bilag quyuq shaxsiy aloqalarbo'lish extimoli qoidalarga to'g'ri

kelmaydi. Psixolog chetdan, xissiyotga berilmasdan mijozning muammolariga qarab, varor qabul qiladi.

#### 4) Mijozni xurmat qilish prinsipi

Psixolog tajriba qilinayotgan mijozni qarashlarini xurmat qilishi, u bilan aloqada rostgo‘y, xaqqoniy bo‘lishi talab qilinadi. Psixolog bilan muloqot davomida mijoz unga nisbatan ishonch, moyillik, va qoniqish xissini sezishi kerak.

Amaliy psixolog va mijoz o‘rtasida tenglikka asoslangan muloqot asalga oshsa, bu ish jarayoni optimal olib borilayotganidan darak beradi Mijoz o‘zini psixologning to‘laqonli xamkoridek sezishi kerak. Amaliy psixolog mijozning xarakatlariga nisbatan baxolovchi gaplar aytishdan o‘zini tiyishi va unga keraksiz maslaxatlar berishdan o‘zini qaytarishi kerak.

Buyurtmachiga psixolog tarafdan beriladigan yordam maslaxat ko‘rinishida bo‘lishi kerak, uning kasbiy ishbilarmonligiga xurmat bilan qarab, extiyotkorona fikr bildirishi kerak.

#### 5) Kasbiy konfidensiallikka rioya qilish

Psixolog psixodiagnostik metodikalarni maxfiyligini saqlay bilishi lozim. Bu shuni bildiradiki, kasbiy metodikalar proqessional bo‘lmagan insonlar qo‘liga tushmasligi kerak.

Psixolog psixodiagnostik tajribalarning natijalarini maxfmyligini saqlab, javoblarni bexos yoki atayin tarqalib ketishini oldini olish uchun xizmat qiladi. Mijoz to‘g‘risidagi ma'lumotlar xech qanday xolatda ochiq munozaraga qo‘yilishi kerak emas.

Tajriba qilinayotgan mijoz o‘zining psixologik ko‘rinishini bilishga qiziqishi mumkin. Bunday xolatda psixolog ma'lumotning ma'lum bir qismini ko‘rsatishi mumkin. G. Lessing fikriga ko‘ra “Mijozga faqat xaqiqatni va faqat xaqiqatni aytish kerak, lekin xammasini emas”.

Jahon psixologiyasi tajribalari ko‘rsatadiki, psixodiagnostika va psixologik testlar bilan shug‘ullanishda ma'lum standartlar va kodekslarga amal qilinadi. Ushbu standart va kodekslarga ko‘ra, psixodiagnostik metodika natijalarini

sharhash uchun psixolog mas'uldir. Agar psixadiagnostik tekshiruv natijasida tekshirilgan shaxs biror ma'naviy yoki moddiy zarar ko'rsa, psixolog javobgar hisoblanadi. Bundan ko'rindiki, psixolog- psixodiagnost o'zining kasbiy huquqiga ega. Ular kasbiy-etikaviy tamoyillarni doimo yodda tutishi va ularga amal qilishi lozim. Biz taqdim etayotgan kasbiy-etikaviy tamoyillar faqat mutaxassis-psixologlar uchungina emas, balki ta'lim muassasasi rahbari, pedagoglar uchun ham mo'ljallangan. Kasbiy faoliyat jarayonida ushbu kasbiy-etikaviy tamoyillarga amal qilish foydadan xoli emas.

*Psixodiagnostning kasbiy-etikaviy tamoyillari:*

*Psixodiagnostik metodikalardan foydalanishda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lish.* Ushbu tamoyilga ko'ra, psixodiagnostik metodikalarni amaliy qo'llashi uchun mutaxassis-psixolog etarlicha kasbiy tayyorgarlikka va psixologik bilimga ega bo'lishi zarur. Chunki undan ta'lim muassasasi muammosidan kelib chiqqan holda psixodiagnostika metodikalarini tanlay bilish, ularni to'g'ri tatbiq etish va natijalarni haqqoniyligi tahlil etish talab etiladi. Masalan, ma'naviy rivojlanishdan orqada qolgan o'quvchilar bilan shug'ullanuvchi psixolog nafaqat psixodiagnostika metodikalarini, balki o'quvchilarda kuzatiladigan nomukamallik darajalarini ham bilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, psixolog tanlangan metodikaga aloqador bo'lgan ilmiy adabiyotlarni, metodikaning texnik ko'rsatkichlarini, ya'ni ishonchliligi, validligi, haqqoniyligi va me'yorlarning kafolatlanganligini baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

*Kasbiy sirlarni saqlash.* Ushbu tamoyilga ko'ra, tanlagan metodikalar mohiyati boshqalarga ovoza qilinmasligi va ulardan g'ayri insoniy maqsadlarda foydalanilmaslik kerak. Kasbiy sirni saqlash psixologning nufuzi va obro'sini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda psixodiagnostika metodlarini to'g'ri va aniq qo'llashga xizmat qiladi, tashqi aralashuvlarga yo'l qo'yilmaydi. Psixodiagnostika metodlaridan muhim bo'limgan masalalarda foydalanish yoki ularni mutaxassis bo'limgan shaxslarning qo'llashi fanda yolg'on ma'lumotlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Demak, ta'lim muassasasida

tashkil etiladigan psixodiagnostik tekshiruvlarni o'tkazishda ushbu tamoyil psixologning diqqat markazida bo'lishi lozim.

*Shaxs huquqlarini ta'minlash.* Bu — psixologiyadagi murakkab masalalardan biri. Qator testlar shaxsning hissiy va motivatsion sohalarini, barqaror holatlari, ichki kechinmalari (ustanovkalari)ni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bunda shaxsning o'zi xohlamagan yoki anglab etmagan xususiyatlari aniqlanishi mumkin. Bunday holda shaxsning ma'naviy zarar ko'rishiga yo'l qo'yimasligi kerak. Shuning uchun tekshiriluvchi shaxs tekshirish natijalari bo'yicha kim va qanday qaror qabul qilinishi haqida ogohlantirilishi, ya'ni uni test sinovidan o'tkazib, sirlarini barchaga oshkor qilmaslik kerak. Agar tekshiriluvchi balog'atga etmagan bo'lsa, uning ota-onasi test natijalaridan xabardor bo'lishi kerak. Ushbu kasbiy-etikaviy tamoyilga ko'ra, psixodiagnostik tekshiruvda ishtirok etayotgan shaxs huquqlari va sirlari himoya qilinadi. Bu garchand psixolog ishini murakkablashtirsa-da, lekin uning kasbiy tayyorgarligiga talabni kuchaytiradi.


*Haqqoniylig.* Bu tamoyilga ko'ra, psixolog tekshirishlar o'tkazish jarayonida tekshiriluvchi shaxsiga u yoki bu darajada (ijobiy yoki salbiy) ta'sir o'tkazmasligi kerak. Test o'tkazish jarayonida unga nisbatan simpatiya yoki antipatiyaga yo'l qo'yimasligi, munosabatlar samimiyligi va xolis bo'lishi lozim. Unga xayrixoh munosabatda bo'lib, biror test savoli javobini aytib yubormaslik talab etiladi. Mabodo sinaluvchi test yo'riqnomasini tushunmasdan topshiriqlarni bajargan bo'lsa, uni tuzatish yuzasidan ko'rsatma berish mumkin.

*Konfidentsiallik.* Tekshiruv natijalari sir saqlanishi va ular dan tegishli shaxslar (psixologlar, pedagoglar, ota-onalar) foydalanishi zarur. Tekshirib ko'rilgan o'quvchining roziligi asosida tekshiruv natijalari boshqalarga ma'lum qilinishi mumkin. Agar o'quvchi testdan past natija olgan bo'lsa, psixolog bu haqda uning ota-onasiga darhol ma'lum qilmasligi, balki keyinroq olingan natijalar uchun uning zinhor aybi yo'qligini tushuntirishi lozim. Eng muhim, testdan past natija olgani uchun o'quvchining ota-onasi tomonidan jazolanishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Agar o'quvchi olgan natijalar uni ogohlantirmsadan ota-

onasi yoki o'qituvchiga taqdim etilsa, psixolog xatoga yo'l qo'ygan hisoblanadi. Ma'lumotlar kimga taqdim etilishi haqida o'quvchi (yoki tekshiruvdan o'tgan shaxs) xabardor bo'lishi shart.

*Tekshiruv natijalarini psixoproflaktik izohlash.* Ushbu kasbiy-etikaviy tamoyilga ko'ra, agar tekshiriluvchi shaxs haqida taqdim etilgan daliliy materiallardagi ma'lumotlarga tuzatish kiritish yoki ularni aniqlashtirish talab etilsa, tekshiriluvchining o'zi natijalar mazmuni bo'yicha sharh berishi mumkin. Masalan, ta'lim muassasasida o'quvchi haqidagi tekshiruv natijalari o'qituvchi tomondan so'ralsasa, yoki aksincha, ushbu ma'lumot oshkor qilingan holda o'quvchining psixologik holatida salbiy o'zgarishlar yuz berishi mumkinligini psixolog bilsa, u o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni o'qituvchiga umuman taqdim etmasligi kerak.

### ***Muhokama uchun klaster***



### **Glossary**

**Psixologik diagnoz** – shaxs individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, yani, prognoz

qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so`ngi natijasidir.

**Simptomatik diagnoz** - emperik diagnoz bo`lib, bunda tashxis qo`yish muayyan belgi yoki xususiyatlarni ta`kidlash bilan cheklanadi va uning asosida amaliy xulosalar chiqariladi.

**Etiologik tashxis** - bunda shaxsning muayyan xususiatlari va belgilarning mavjudligi hisobga olinib qolmay, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham inobatga olinadi.

**Tipologik bosqich** - bunda qo`lga kiritilgan ma'lumotlarning shaxs tuzilishidagi o`rni va ahaniyati belgilanadi.

**Psixologik testlar** – bu muayyan psixologik xususiyatni o`lchash, aniqlash imkonini beradigan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan topshiriq, mulohazalar tizimidir.

**Etika** bu - xulq-atvor meyrlarining yig`indisi, jamiyat ma'lum guruhlarining axloqi.

### **Adabiyotlar:**

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
4. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.: 1991.
5. Nishonova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2008.
6. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
7. Rasulov A. Psixodiagnostika. Т.: 2010.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб., 2005.
9. Зеер Э. Ф. Психология профессий: учебное пособие для студентов вузов. М.: 2003.

**O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Psixodiagnostik ishlarni tashkil etishda psixolog amal qilishi lozim bo’lgan talablar mazmunini nimalar tashkil etadi?
2. Psixodiagnostika bilan shugullanuvchi psixologga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Psixodiagnostika mutaxassisi qanday sifatlarga ega bo`lishi kerak?
4. Psixologning kasbiy etikasi?
5. Psixodiagnostning kasbiy-etikaviy tamoyillarini sanab bering.

## **MAVZU: PSIXODIAGNOSTIKA METODLARI.**

### **Reja:**

- 1.Psixodiagnostika metodlari klassifikatsiyasi.
2. Ob'ektiv testlar.
3. Standartlashgan o'zi haqida hisobot beruvchi metodikalar.
4. Proyektiv metodikalar.
5. Dialogik texnikalar.
6. Kontent-analiz.

**Tayanch tushunchalar:** metodlar, psixologik testlar, proyektiv metodlar, dialogik texnikalar, ob'ektiv testlar, kontent-analiz. dialogik texnikalar.

Hozirgi vaqtida bir qator yetarlicha asoslangan psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyalari mavjud. Birinchidan, diagnostik metodlarni to‘g‘ri javob talab qiluvchi topshiriqlarga yoki nisbatan to‘g‘ri javob mavjud bo‘lmagan topshiriqlarga asoslangan metodlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ko‘plab intellekt testlari, maxsus qobiliyatlar testlari, bir qator shaxsiy xususiyatlar testlar (misol uchun, Raven testi, Uitkining yarimtobelik-yarimmustaqillikni aniqlash diagnostik protsedurasi, Luchins rigidlik testi va h.k.) kiradi. Diagnostik metodikalarning ikkinchi guruhi u yoki bu javobning to‘g‘riligi bilan emas, balki faqat chastotasi (va yo‘nalishi) bilan tavsiflanuvchi opshiriqlardan tarkib topadi. Bunga ko‘plab shaxs so‘rovnomalari misol bo‘ladi (misol uchun, R. Kettelning 16PF testi).

Ikkinchidan, psixodiagnostik metodikalarni verbal va noverbal metodikalarga ajratish mumkin.

Verbal metodikalar u yoki bu tarzda sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadi; ushbu metodikalar tarkibiy qismlari xotira, xayol, ishonchlar tizimiga ularning tildagi shakli vositasida murojaat qiladi.

Noverbal metodikalar sinaluvchi nutqiy qobiliyatidan faqatgina instruktsiyani tushunish maqsadida foydalanadi, topshiriqni bajarishning o‘zi esa noverbal-pertseptiv, motor qobiliyatlarga tayanadi.

Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan uchinchi asos - bu muayyan metodika asosida yotuvchi asosiy metodik tamoyil xarakteristikasi hisoblanadi. Odatda ular ushbu asosga ko‘ra farqlanadi:

- 1) obvektiv testlar;
- 2) standartlashgan o‘zi haqida hisobotlar, ular o‘z navbatida bo‘linadi:
  - a) test-so‘rovnomalar;
  - b) natijalani kontent-analiz qilishni talab etuvchi ochiq so‘rovnomalar;
  - c) Ch.Osgudning semantik differensial testi tipi kabi tuziladigan shkalaviy texnikalar va tasniflash metodikalari;
  - d) rolli repertuar panjaralar tipidagi individual yo‘naltirilgan texnikalar;
- 3) proyektiv texnikalar;
- 4) dialogik (interaktiv) texnikalar (suhbatlar, intervylar, diagnostik o‘yinlar).

Ob’ektiv testlar- to‘g‘ri javob, ya’ni topshiriqni to‘g‘ri bajarish imkonini bor metodikalardir.

Standartlashgan o‘zi haqida hisobot beruvchi metodikalarining barchasi uchun umumiy jihat sinaluvchining verbal qobiliyatlaridan foydalanish, shuningdek, uning tafakkuri, xayoli, xotirasiga murojaat etish hisoblanadi.

Test- so‘rovnomalar sinaluvchi yuzasidan mulohaza hosil qiluvchi punktlar (savollar, tasdiqlar) to‘plamidan iborat bo‘ladi (odatda, javoblarning ikki yoki uch muqobilli tanlovidan foydalaniladi).

Bir xil psixologik o‘zgaruvchi punktlar guruhi (6 tadan kam bo‘lmagan)da ifodalanadi. Test-so‘rovnomalar punktlari oshkora, bevosita sub’ekt tajribasiga murojaat qiluvchi (masalan: Siz qorong‘ulikdan qo‘rqasizmi?) yoki sinaluvchi shaxsiy tajribasi yoki taassuroti bilvosita namoyon bo‘luvchi uning fikrlari mulohazalariga murojaat etuvchi (misol uchun, Ko‘pchilik insonlar halolmi?)

bo‘lishi mumkin. So‘rovnomalar bir o‘lchovli yoki o‘z ichiga ko‘plab psixologik o‘zgaruvchilar safini qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli qilib yaratiladi.

Ochiq so‘rovnomalar sinaluvchining standartlashgan javobini ko‘zda tutmaydi; ishlov standartizatsiyasiga standart kategoriyalarga ixtiyoriy javoblarni solishtirish yo‘li bilan erishiladi.

Shkalaviy texnikalar u yoki bu ob’ekt (so‘zli tasdiqlar, tasviriy materiallar, muayyan shaxs va h.k) ni uning shkalada taqdim etilgan sifati bo‘yicha (misol uchun, “issiq - sovuq”, “kuchli - zaif”) baholashni nazarda tutadi. Odatda uch, besh, etti nuqtali shkalalardan foydalaniladi. Shkalalashtirishning maxsus varianti-bu nomlar shkalasi darajasida ob’ektlarning sub’ektiv tuzilish hosil qilishini aniqlashni ko‘zda tutivchi sub’ektiv klassifikatsiya hisoblanadi. Repertuar panjaralar tipidagi individual-orientatsiyalangan (ideografik) texnikalar shakli bo‘yicha shkalaviy, so‘rov metodlari bilan o‘xhash bo‘lishi, suhbat yoki intervyuni esga solishi mumkin. Ularning test-so‘rovnomalardan asosiy farqi shundan iboratki, baholanayotgan parametrlar (o‘qlar, o‘lchovlar, konstruktlar) tashqaridan olinmaydi, balki muayyan aniq sinaluvchi individual javoblari asosida belgilanadi. Bu metodlarning intervyu metodidan farqi shundaki, repertuar panjaralar zamonaviy statistik apparatni qo‘llash imkonini beradi va sub’ektning individual o‘ziga xosliklari yuzasidan ishonchli diagnostik xulosalar beradi.

Proyektiv texnikalar stimul sifatida taqdim etiluvchi etarlicha tugallanmagan material muvofiq tashkil etilgan butun eksperimentda maqsadli tarzda sub’ektning u yoki bu xususiyatini ochib beruvchi tasavvur, xayol jarayonlariga sabab bo‘lishiga asoslanadi. Proyektiv texnikalardan klinik foydalanishda ko‘p holarda ma’lumotlarni interpretatsiya qilish jarayonida zarur bo‘ladigan psixodiagnost ko‘rsatmasi va nazariy tayyorgarligiga tayaniлади. Odatda proyektiv texnikalardan tadqiqotchilik maqsadlarida foydalanish ma’lumotlar ishlovini standartlashtiruvchi kontent-analiz protsedurasini ko‘zda tutadi.

Dialogik texnikalar psixodiagnost sinaluvchi bilan aloqaga kirishi va ushbu aloqaning maxsus xususiyatlari, relevant diagnostik vazifa hisobidan eng yaxshi diagnostik natijalarga erishishini hisobga oladi. Misol uchun, ishonchli aloqa oilaviy qiyinchiliklar, bolaning shaxsiy rivojlanishi xarakteri diagnostikasida va diagnost bir vaqtning o‘zida ham konsultant, ham psixoterapevt rolida namoyon bo‘ladigan boshqa ko‘plab vaziyatlarda zarurdir. Patopsixologik diagnostik tadqiqot vaziyati muloqotni ekspertiza tamoyillari bo‘yicha tashkil etishni talab etadi.

Dialogik texnikalar verbal (intervyu, suhbat) va noverbal (masalan, bola bilan o‘ynash noverbal diagnostik protsedura vazifasini bajarishi mumkin) bo‘lishi mumkin.

Agar klassifikatsiyaning yagona asosi sifatida psixodiagnostni o‘zining diagnostik protsedura jarayoniga jalb etilishi va uning tadqiqot natijalariga ta’siri darajasini o‘lchovi qabul qilinsa, unda uning asosiga u yoki bu metodika yaratiladigan turfa xil metodik usullarni bir shkalaga joylashtirish mumkin.

Apparaturaviy metodikalar va ob’ektiv psixologik testlarda psixodiagnost psixodiagnostika protsedurasiga juda kam jalb etiladi, bunda psixodiagnostning shaxs va psixolog sifatidagi tajribasining tadqiqot natijalariga ta’siri minimal darajada bo‘ladi. Bir qator standartlashgan o‘zihisob beruvchi shakllariga ega - ko‘plab so‘rovnomalar va shkalaviy texnikalarda deyarli shunday darajada kam psixodiagnost jalb etilishi kuzatiladi. Aytish mumkinki, bu metodikalarda -psixologning shaxsiy sifatlari metodikani yaratish jarayonida gavdalanadi; tadqiqot protsedurasining o‘zi, uning natijalarini qayd etish asosan psixolog bo‘lmagan laborant yoki kompyuter dasturi yordamida bajarilishi mumkin bo‘lgan erkin operatsiya bo‘ladi. Aksincha, diagnostik texnikalar psixodiagnostika jarayoniga psixodiagnostning maksimal darajada jalb etilishi, uning tajribasi, professional ko‘nikmali, muloqot qilish xususiyatlarining tadqiqot natijalariga maksimal ta’siri bilan tavsiflanadi. Bu sifatlarga suhbat, intervyu diagnostik o‘yinlar turli ko‘rinishlari ega bo‘ladi. Misol uchun, patopsixologik eksperiment maxsus psixodiagnostik metod

sifatida psixodiagnost jalb etilishining yuksak darajasi bilan tavsiflanadi: ekspertiza “motiv”i yaratilishi lozim (sinaluvchi uning javoblari asosida u uchun muhim diagnostik xulosa qilinishini tushunishi lozim), alohida urinishlar natijalari bu motiv qanchalik ifodalanishiga (psixodiagnost fikriga ko‘ra) bog‘liq ravishda interpretatsiya qilinadi. Psixologik konsultatsiya jarayonida mijoz bilan suhbat natijasida kelib chiquvchi diagnostik xulosaga psixodiagnost ta’siri anachagina jiddiydir. O‘z reaksiyalarini, javob luqmalari, harakatlari bilan psixodiagnost muhim diagnostik ahamiyatga ega ma’lumotlar olish uchun optimal sharoit yaratishi mumkin, shuningdek, bu ma’lumotni, uning ma’nosini tamoman buzib yuborishi ham mumkin.

Barcha boshqa psixodiagnostik metodikalar ob’ektiv testlar va diagnostik texnikalar tashkil etadigan ikki qutb orasidagi oraliq o‘rinni band etishadi.

Agar bir vaqtning o‘zida ikki asos-bir tomondan, psixodiagnostning jalb qilinishi, uning tadqiqot natijalariga ta’siri o‘lchovi, boshqa tomondan esa-instrumentning predmetli yo‘nalganligi kiritilsa, unda bugungi kunda ma’lum bo‘lgan psixodiagnostik metodikalarni ikki o‘lchovli klassifikatsion jadvalga joylashtirish mumkin. Mos keluvchi metodikalar jadval kataklariga joylashadi, shu bilan birga ustunlar jadval qatori bo‘yicha tengsiz tarzda to‘ldiriladi. Misol uchun, qobiliyat va psixik funksiyalar psixodiagnost ta’siri minimal darajada ifodalanadigan metodlar-ob’ektiv testlar va test-so‘rovnomalar asosida diagnostika qilinadi. Shaxs xususiyatlari asosan test-so‘rovnomalar bilan diagnostika qilinadi; kognitiv tuzilma, boshqa individual xususiyatlar asosan o‘rtacha darajadagi (psixodiagnostning diagnostika jarayoniga ta’sir darajasi bo‘yicha) metodikalar-repertuar panjaralar, proyektiv texnikalar bilan aniqlanadi.

Motivatsiya, munosabatlar asosan proyektiv texnikalar bilan diagnostika qilinadi. Psixodiagnost jalb qilinishi maksimal darajada bo‘lgan dialogik metodikalar roli o‘zaro munosabatlar, muloqot (aktuallashtirish uchun muloqotning real vaziyatini qayta tiklashni talab etuvchi xususiyatlar)

diagnostikasi sohasida g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Ushbu bo‘limda keltirilgan klassifikatsiya anchagina xomaki tarzda psixodiagnostik metodikalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi xolos.

Agar 1- jadvaldagи barcha kataklar to‘ldirilsa, unda qaerda muayyan tipdagi metodlar yetishmayotganligi ma’lum bo‘ladi. Misol uchun, qobiliyatlarni aniqlash uchun dialogik tipdagi metodikalar yetishmayotganligi aqqol ko‘rinib turibdi, modomiki bir qator sub’ektlar qobiliyatları samarali namoyon bo‘lishi psixodiagnostika sharoiti va psixodiagnost bilan aloqa xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Psixodiagnostik metodikalardan foydalanuvchilar, shuningdek ularni yaratuvchilar, o‘zlari uchun shunday jadval tuzishlari va to‘ldirishlari hamda kataklarga o‘zlariga ma’lum o‘lgan metodikalarni qo‘shishlari mumkin. Bu larga qanday metodlarni o‘rganishlari va qayerda metodikalarni qidirish hamda ilmiy xulosa ishlab chiqish zarurati vujudga kelishini aniqlab olish imkonini beradi.

### **1-jadval. Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyalari asoslari**

Psixodiagnost-ning tadqiqot natijalariga ta’siri	Psixodiagnostika predmeti				
	Qobiliyatlar va psixik funksiyalar	Shaxs xususiyatlari	Kognitiv tuzilma va sub’ektiv tajribaning boshqa individual xarakteristikasi	Motivatsiya va munosabatlar	Muloqot va ozaro faoliyat ning tavsifi
Minimal					
O‘rta					
Maksimal					

### **Psixologik tadqiqotni o`tkazishga qo`yiladigan talablar:**

➤ Tadqiqotni tashkil qilish tekshiruvda qo`llaniladigan metod va metodikalarni tanlash hamda sinab ko`rishni (pilotaj tekshiruv) o`z ichiga oladi. Tadqiqotga tayyorgarlik jarayonida tekshiriluvchilar va ularning soni aniqlanadi.

**Tadqiqot metodi** – bu tadqiqotchini qiziqtirgan ma`lumotni qo`lga kiritish yo`li, vositasidir.

**Tadqiqot metodikasi** – bu psixik jarayonlar va ularning xususiyatlari to`g`risidagi zarur ma`lumotni qo`lga kiritish uchun qo`llaniladigan konkret usul va vositalar majmuidir.

Barcha metodlarni L.F.Burlachuk bo`yicha tadqiqotchilik va diagnostik metodlarga ajratish mumkin. Tadqiqotchilik metodlari o`z navbatida quidagi turlarga bo`linadi:

- Noeksperimental metodlar.
- Eksperimental metodlar.


**Noeksperimental** metodlarga kuzatish, suhbat, faoliyat mahsulini o`rganish metodlarini kiritish mumkin.

**Eksperimental** metodlar tadqiq qlinayotgan omillarni o`rganish uchun maqsadga qaratilgan sharoitlarni yaratishga asoslanadi va tadqiqotchining sinaluvchi faoliyatiga faol tarzda aralashish imkoniyatini beradi.

Ushbu metod negizida psixologiyada an`anaviy bo`lgan ko`p sonly laboratoriya va tabiiy eksperiment metodikalari yaratiladi.

Psixodiagnostik metodning asosiy xususiyati uning o`lchash-tekshirish xarakterda ekanligida bo`lib, shu tufayli o`rganilayotgan holatni miqdoriy hamda sifatiy tavsiflashga erishiladi.

**L.F.Burlachuk** fikriga ko`ra, psixodiagnostik metodlarni uch xil yondashuv asosida tasniflash mumkin.



**Ob`ektiv yondoshuv** - diagnostika faoliyatni bajarish samaradorligiga qarab amalga oshiriladi.

**Sub`ektiv yondashuv** – sinaluvchining o`zi haqida bergen ma`lumotlari, o`z-o`zini tavsiflash va baholash asosida diagnostika qilinadi.

**Proyektiv yondashuv** – tashqi jihatdan neytral, noaniq stimul bilan o`zarotan sirni tahlil qilish asosida diagnostika qilinadi.

**Akimova M.K., Gurevich K.M.** bo`yicha hozirgi zamon psixodiagnostikasida mavjud bo`lgan vositalarni sifat darajasiga ko`ra ikki guruhga bo`lish mumkin:

- **Formallahgan metodikalar.**

- **Kam formallahgan metodikalar.**

**Formallahgan metodikalar** – aniq shakldagi qoidalarga qat`iy amal qilishni talab qiluvchi metodikalar.

**Kam formallahgan metodikalar** – bu qo`llashning qat`iy, aniq qoidalariiga ega bo`lmagan metodikalar bo`lib, ko`proq psixodiagnostning psixik intuitsiyasi va kasbiy tajribasiga bog`liq metodikalar.

Birinchi guruh metodikalariga quidagilarni kiritish mumkin:

- ◆ Testlar;
- ◆ So`rovnomalar;
- ◆ Proyektiv texnika metodikalari,
- ◆ Psixofiziologik metodikalar.

Ushbu metodikalar uchun xarakterli jihatlar:

- Aniq reglamentatciya.
- Tadqiqot yoki tekshiruv jarayonining ob`ektivizatciyasi (ko`rsatmaga to`g`ri amal qilish, stimul materialini namoyish qilishning qat`iy usullari, sinaluvchi faoliyatiga tadqiqotchining aralashmasligi).
- Standartlashtirish (ya`ni, diagnostik eksperiment natijalarini qayta ishslash va taqdim etishning qabul qilingan tartibini joriy etilishi).
- Ishonchlilik.

➤ Validlik.

Ushbu merodikalar nisbatan qisqa vaqt ichida diagnostic axborotni qo`lga kiritish hamda individlarni o`zaro miqdor va va sifat jihatdan taqqoslash imkoniga ega.

Kam formallahsgan metodikalarga quidagilarni kiritish mumkin:

- ◆ Kuzatish.
- ◆ Suhbat.
- ◆ Faoliyat mahsulini tahlil qilish.

Kuzatish metodi mustaqil ilmiy tadqiqot metodi bo`lishi bilan bir qatorda boshqa metodlar bilan hamohang qo`llanilishi mumkin.<sup>9</sup> Kam formallahsgan metodikalalar guruvgaga kiruvchi metodikalalar sinaluvchi haqida qimmatli ma`lumotlarni qo`lga kiritish imkonini beradi.

Ayniqsa buni tadqiqot predmeti ob`ektivlashtirish mumkin bo`lmagan psixik jarayonlar va holatlar bo`lganida yaqqol sezish mumkin. Masalan, yaxshi anglanilmaydigan sub`ektiv kechinmalar yoki mazmun jihatdan juda o`zgaruvchan psixik jarayon va holatlar – maqsad, kayfiyat, holatlar dinamikasi.

Shuni inobatga olish vat a`kidlash zarurki, kam formallahsgan metodikalarni o`tkazish katta mehnatni talab etadi (masalan, sinaluvchini kuzatish ba`zida oylab davom etishi mumkin) va ko`p jihatdan psixodiagnostning psixologik tayyorgarligi va professional tajribasiga asoslanadi. Psixologik suhbat, kuzatuvlarning yuksak madaniy darajada o`tkazilishi tekshiruv natijalariga tasodifiy omillar ta`siridan saqlashi mumkin.

Kam formallahsgan diagnostik metodikalarni formallahsgan metodikalarga qarshi qo`yish mumkin emas. Odatda ular o`zaro bir-birini to`ldiradi. To`laqonli diagnostic tadqiqotda ikkala turdag'i metodikalarni uyg`un holda qo`llash darkor. Masalan, test yordamida ma`lumot to`plashdan avval sinaluvchi bilan tanishish (tarjimai holi, moyilliklari, faoliyat motivatsiyasi haqidagi axborot) bosqichi o`tkaziladi. Bunda interv`yu, suhbat, kuzatishdan foydalilanildi.

---

<sup>9</sup> Glynis M.Breakwell, Sean Hammond, Chris Fife-Schaw and Jonathan A.Smith. Research methods in psychology. SAGE. 2010 (pp-126)

**Test** – standartlashtirilgan, faollikni talab etuvchi, vaqt jihatdan chegaralangan holda bajariladigan topshiriqlar bo`lib, uning natijasi miqdor va sifat jihatdan baholanib, shaxs individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi metod.

**L.F.Burlachuk**

**So`rovnovalar** – savol va mulohazalar tarzida berilgan topshiriqlarga tekshiriluvchidan ma`lumot olishga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar guruhidir.

Psixologlar **Bodalev A.A., Stolin V.V.** bo`yicha psixodiagnostik metodikalarni quyidagicha tasniflash mumkin:<sup>10</sup>.

◆ A.1-guruhga shunday metodikalarni kiritish mumkinki, bunda berilgan topshiriqlarga tog`ri javob berilishi talab qilinadi yoki berilgan topshiriqda to`g`ri javobning o`zi mavjud emas. Birinchi turdagı metodlarga misol qilib intellekt testlari, maxsus qobiliyatlar testlari, ba`zi shaxs xislatlarini aniqlash testlarini olish mumkin (Raven testi, MATT). Ikkinci turdagı diagnostic metodikalar shunday topshiriqlardan iborat bo`ladiki, bunda javobning to`g`riliği emas, balki u yoki bu javobning yo`nalishi aniqlanadi (masalan, R,Kettelning 16 PF testi).

2-guruhga verbal va noverbal psixodiagnostik metodikalar kiradi. Verbal metodlar sinaluvchining nutqiy faolligini talab etadi. Noverbal metodlar noverbal qobiliyatlar, ya`ni pertceptiv, motor (harakat) sohalariga oid topshiriqlarni bajarishga asoslangan ( anketa, so`rovnama, interv`yu – verbal metodlar).

3-guruh metodikalar tasnifi quidagicha:

Ob`ektiv testlar – topshiriqning to`g`ri bajarilishi ko`zda tutiladi.

Standartlashtirilgan testlar – sinaluvchining verbal qobiliyatlaridan foydalilaniladi. Bunda uning tafakkuri, xayoli, xotirasiga murojaat qilinadi. Ular o`z navbatida quidagi metodlarga bo`linadi:

<sup>10</sup> Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психоdiagностика.М., 2001, (мазмунидан олинди).

**a)** test-so`rovnomalar – bir qancha savol yoki mulohazalardan tuziladi. Bir neccha turdag'i muqobil javoblar taklif etiladi va ulardan birini tanlash talab etiladi;

**b)** ochiq so`rovnomalar – bunda standart javoblar berilmaydi, tekshiriluvchi o`z hohishiga ko`ra javob qaytaradi. Ihtiyoriy javoblar standart kategoriyalarga kiritilishi orqali qayta ishlanadi va standartlashtiriladi.

◆ **B.**Maqsadiga ko`ra metodikalarning quidagi turlari farqlanadi:

1. Saralash yoki tanlash (qoldirish yoki yo`q).
- 2.Taqsimlash ( sinaluvchilarni bitta mezon bo`yicha yo`naltirish).
- 3.Tasniflash (sinaluvchilarni turli guruhlarga bir qancha mezonlar bo`yicha yo`naltirish).

◆ **V.**Ma`nosi bo`yicha:

- 1.Intellekt testlari.
- 2.Qobiliyatlarni aniqlash testlari.
- 3.Muvaffaqiyatga erishishni aniqlash testlari.
- 4.Shaxs xislatlarini aniqlash testlari.

◆ **G.**Shakliga ko`ra: 1.Individual. 2.Guruhiy.

◆ **D.**Metodikalarning sifatiga ko`ra:

- 1.To`g`ri(anketalar).
- 2.Qiyosiy(so`rovnomalar va maxsus testlar).
- 3.Proyektiv metodikalar.

**Nemov R.S.** ta`kidlashicha, psixodiagnostikada keng qo`llaniladigan metodlardan biri – so`rovnomalardir. So`rovnomalarda sinaluvchiga ochiq va yopiq, bevosita va bavosita savollar taqdim etiladi. Masalan, shaxs sifatlaridan biri bo`lgan xavotirlanishni diagnostika qilish uchun quidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1.Ochiq savol: “Kuchli xavotirlanish holatini boshdan kechiradigan vaziyat to`g`risida gapirib bering”.

2.Yopiq savol “Xavotirlanish holatini tez-tez boshdan kechirasizmi?”

Taklif qilinayotgan javoblardan birini tanlang:

- a)ha;
- b)yoq;
- v)ba`zida;
- g)bilmadim.

3. Bevosa-to`g`ri savol: “Sizda xavotirlanish kabi shaxs hislati mavjudmi?”

4. Bavosita savol: “Imtihon paytida sizda bezovtalik holati vujudga keladimi?”

Bundan tashqari interv`yu, yani savollarga og`zaki javob olish metodlari ham mavju bo`lib, bunda tadqiqotchi savol beradi va sinaluvchi bergen javoblarni o`zi yozib oladi. Bunda beriladigan savollar so`rov, ya`ni yozma savolnomadagidek oldindan aniqlab olinadi.

Psixodiagnostika metodlaridan biri – **kontent tahlildir**. Bunda faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali shaxs xususiyatlari baholanadi. Oldindan tayyorlab qo`yilgan sxema asosida sinaluvchining yozma matnlari, asarlar, xatlar, faoliyat natijalari mazmuni jihatidan tahlil qilinadi. Kontetn-tahlilning vazifasi – insonning yozma ijodiyot mahsullarida namoyon bo`ladigan shaxsning psixologik tavsiflarini aniqlash va baholash hisoblanadi.

Psixodiagnostika metodi sifatida eksperimentni qollanilishining o`ziga xos xususiyati shundaki, bunda sinaluvchining u yoki bu xislatini baholash uchun maxsus psixodiagnostik eksperiment tashkil etiladi. Shu xislat namoyon bo`lishi mumkin bo`lgan sun`iy vaziyat yaratiladi. Psixodiagnostik eksperimentni tashkil qilish va o`tkazish natijasida tadqiqotchi o`zini qiziqtirayotgan xususiyatni yoki holatni eksperimental vaziyatda sinaluvchi xulq-atvorini kuzatish orqali oladi. Masalan, xavotirlanish kabi shaxs xislatini baholash qiziqtirayotgan bo`lsa, tadqiqotchi uni hayotiy, real, aniq baholash maqsadida diagnostic eksperimentni quidagicha tashkil etish mumkin: Sinaluvchini imtihon vaziyati holatiga tushiriladi yoki qisqa vaqt ichida murakkab vazifani bajarish va uning natijalarini jiddiy baholash sharoitiga qo`yiladi. Sinaluvchi ishni bajarayotganda kuzatiladi va yuqori xavotirlanishning turli belgilari qayd qilinadi. Agar bunday

belgilar haddan tashqari ko`p bo`lsa, o`rganilayotgan xislat bu sinaluvchida kuchli rivojlanganligi haqida xulosa qilish mumkin. Bunday belgilar kuzatilmasa, sinaluvchida ushbu xislat mavjud emasligidan darak beradi. Agar bunday belgilar kuchsiz namoyon bo`lsa, xavotirlanish holati o`rtacha darajada ekanligi to`g`risida xulosa qilish mumkin.

Amaliyotda qo`llaniladigan ko`pchilik psixodiagnostik metodikalar blankali metodikalar hisoblanadi, ya`ni sinaluvchiga bir necha seriyada fikr-mulohazalar va savollar taklif qilinib, ularga og`zaki yoki yozma ravishda javob berish so`raladi. Olingan natijalarga qarab, psixologik xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Bunday metodikalarni keng foydalanimishining sababi ularni qollash va natijalarni qayta ishlash unchalik qiyinchilik tug`dirmaydi.

Diagnostikada ko`p qo`llaniladigan metodikalardan yana biri so`rov metodikalaridir. Ushbu metodikalarning ijobiy tomoni ular maxsus blankalar tayyorlashni talab qilmaydi hamda sinaluvchiga nisbatan o`ziga xos munosabatda bo`lish imkonii mavjud. Salbiy jihat - savollarni tanlash va javoblarni interpretatsiya qilishdagi sub`ektivlik; ularni standartlashtirish mushkul, yuqori ishinchlilikka erishish va olingan natijalarni taqqoslash myrakkab.

Qollanilish chastotasiga ko`ra keyingi o`rinda rasmi li psixodiagnostik metodikalar turadi. Ularda tekshiriluvchilarning psixologiyasi va xulq-atvorini o`rganish uchun chizgan rasmlaridan doydalaniladi (mavzusi berilgan va spontan xarakterdagi rasmlar). Ba`zida tekshiriluvchilar standart, tayyor tasvirlarni tavsiyelab berishlari ham mumkin. Bunday tasvirlarda ko`rgazmali shaklda turli xil vazifalar, topshiriqlar berilib, tekshiriluvchidan ularni bajarishi talab qilinadi (masalan, Raven progressive matricalari).

Proektiv metodikalar turli shakllarda blankali, so`rovnoma va rasmi li shakllarda bo`lishi mumkin. Ularning qo`llanilish chastotasi baland, chunki ularning validligi yuqori va informativligi kuchli<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup> Немов Р.С. Психология. З книга. Москва, «Владос», 2003. (мазмунидан олинди).

Yuqorida keltirilgan tasniflar asosida ta`kidlash mumkinki, psixodiagnostika bilan shug`ullanuvchi olimlar ushbu masalaga turlicha yondoshadilar. Lekin ular uchun xarakterli jihat shundaki, tasniflar shakli turlicha bo`lsada, ularning mazmun-mohiyati o`rtasida tafovutlar kuzatilmaydi.

### **T-chizma grafik organayzerlari**

1)

Kuzatish metodining afzalligi	Kuzatish metodining kamchiliklari

2)

Proektiv metodikalarning afzalliklari	Proektiv metodikalarning kamchiliklari

3)

Suhbat metodining afzalliklari	Suhbat metodining kamchiliklari

4)

So`rovnama metodining afzalliklari	Surovnoma metodining kamchiliklari

5)

Sotsiometriya metodining afzalliklari	Sotsiometriya metodining kamchiliklari

### **Glossari**

**Tadqiqot metodi** – bu tadqiqotchini qiziqtirgan ma`lumotni qo`lga kiritish yo`li, vositasidir.

**Tadqiqot metodikasi** – bu psixik jarayonlar va ularning xususiyatlari to`g`risidagi zarur ma`lumotni qo`lga kiritish uchun qo`llaniladigan konkret usul va vositalar majmuidir.

**Kam formallahgan metodikalar** – bu qo`llashning qat`iy, aniq qoidalariga ega bo`lmagan metodikalar bo`lib, ko`proq psixodiagnostning psixik intuitciyasi va kasbiy tajribasiga bog`liq metodkalar.

**Test** – standartlashtirilgan, faollikni talab etuvchi, vaqt jihatdan chegaralangan holda bajariladigan topshiriqlar bo`lib, uning natijasi miqdor va

sifat jihatdan baholanib, shaxs individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi metod (L.F.Burlachuk).

**So`rovnovalar** – savol va mulohazalar tarzida berilgan topshiriqlarga tekshiriluvchidan ma` lumot olishga qaratilgan psix diagnostik metodikalar guruhidir.

### **Adabiyotlar:**

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
4. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. М.: «Питер», 2009, 124-б.
5. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.: 1991.
6. Nishonova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2008.
7. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
8. Rasulov A. Psixodiagnostika. Т.: 2010.
9. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб., 2005.

### **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Diagnostik metodikalar qanday xususiyatlariga ko’ra tavsiflanishi mumkin?
2. Sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadigan metodlar guruhi qanday ataladi?
3. Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan asoslar nima?
4. Ob’ektiv testlar qanday metodikalar?
5. Test- so‘rovnomalarning o’ziga xosligi nimada?
6. Ochiq so‘rovnomalarning o’ziga xosligi qanday?
7. Proyektiv texnikalar stimul sifatida nimalar taqdim etiladi?
8. Psixologik tadqiqotni o`tkazishga qanday talablar qo`yiladi?
9. Barcha metodlarni L.F.Burlachuk bo`yicha qanday metodlarga ajratish

mumkin?

10. L.F.Burlachuk fikriga ko`ra, psixodiagnostik metodlarni necha xil yondashuv asosida tasniflash mumkin?
11. Akimova M.K., Gurevich K.M. bo`yicha psixodiagnostikasida mavjud bo`lgan vositalarni nimalarga asoslanib tavsiflash mumkin?
12. Formallahgan metodikalar qanday metodikalar?
13. Kam formallahgan metodikalar sirasiga qaysi metodlar kiradi?
14. Psixologlar Bodalev A.A., Stolin V.V. bo`yicha psixodiagnostik metodikalarni qanday tasniflash mumkin?
15. Metodikalarni qo`llovchilarga qanday talablar qo`yiladi?

## **MAVZU: PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR ILMIYLIGINING PSIXOMETRIK MEZONLARI**

### **Reja:**

1. Test mezonlari: ishonchlilik va validlik.
2. Standartlashtirish muammosi.
3. Statistik tushunchalar

**Tayanch tushunchalar:** Validlik, ishonchlilik, retest ishonchlilik, parallel shakllar ishonchliligi, test qismlari ishonchliligi, mazmuniy validlik, joriy validlik, prognostik validlik, konstruktiv validlik, standartlashtirish, tanlanma, reprezentativlik.


Psixodiagnostik metodikalar qo`llanilishidan oldin yuqori sifat va samaradorligini ko`rsatuvchi mezonlar asosida tekshiruvdan o`tkazilishi lozim. Psixodiagnostik metodikalarni baholashning asosiy mezonlari sifatida **ishonchlilik** va **validlik** olinishi mumkin.

**Validlik** – metodika yordamida olingan ma`lumotlarning metodikaning nimani aniglashga qaratilganligi, ya`ni metodika mohiyati bilan mosligi.

**Ishonchlilik** – psixogiagnostik metodikaning sifati bo`lib, natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon. Metodikaning ishonchliligi natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Mashhur amerikalik testolog olim Anna Anastazi agar bola hafta boshida intellect testi bo`yicha 110 ga teng ko`rsatkichga ega bo`lib, hafta oxirida bu ko`rsatkich 80 ga teng bo`lsa, bunday metodikaga ishonch bilan qarash mumkin emasligi haqida ta`kidlagan. Isonchli metodikalarni o`tkazish o`xshash natijani ko`rsatishi zarur. Biroz o`zgarish kuzatilishi mumkin, lekin ular unchalik ahamiyatli bo`lmasligi kerak.

L.F.Burlachuk ishonchlilikning bir necha turlarini ajratib ko`rsatadi:



• **Retest ishonchlilik** - ayni bir testni ayni bir sinaluvchilarda bir xil sharoitlarda qayta o`tkazib, ikkala tekshiruv asosida olingan natijalar o`rtasida korrelyatciya ( bog`liqlik) o`rnatish. Bunda sinaluvchilar topshiriqni yodda olib qolish mumkinligini hisobga olib, kamida biro y intervalda o`tkazish maqsadga muvofiq. 0,7 ga teng korrelyatcia koeffitcenti retest ishonchlilik uchun qoniqarli ko`rsatkich hisoblanadi.


• **Parallel shakllar ishonchliligi** - metodika ekvivalentini yaratish va uni ayni bir xil sinaluvchilarda o`tkazib, olingan natijalar korrelyatcion bog`lanishlar o`rnatish.

Ishonchlilikni aniqlashning ushbu shaklini keng qo`llashga to`sinqinlik qiluvchi asosiy muammo – bu ikki turdagи topshiriqlar to`plamini tayyorlash zarurligi bo`lib, ularning ekvivalentlilagini isbotlash juda murakkab hisoblanadi.

• **Test qismlari ishonchliligi** – metodikani ikki qismga (odatda juft va toq topshiriqlarga ) ajratib, ushbu qismlar o`rtasidagi korrelyatciyani hisoblash orqali aniqlanadi (Pirson, Spirmen formulalari yordamida).

Ishonchlikni tekshirish ko`p sonly (200), reprezentativ tanlanmada o`tkazilishi zarur. Ishonchlilik testing muhim xarakteristikasi, lekin alohida olinganda qimmatga ega emas. Ishonchlilik validlikka erishish uchun zarur.

### **Validlikning bir qator turlari farqlanadi:**



**Mazmuniy validlik** – test bilan tadqiq qilinayotgan xarakteristikaning o`zaro mosligini ifodalaydi.

**Joriy validlik** – natijalar bilan parallel tarzda qo`llangan mezonlarning mosligi. (Tekshiruv o`tkazilayotgan vaqtdagi o`zlashtirish, mahsuldotlik bilan testni bajarish natijalari).

**Prognostik validlik** – test natijalari bilan ma`lum vaqt oralig`dan so`nggi mezonlar o`rtasidagi moslik. Bunda mezonlar sifatida masalan, mакtabdagi o`zlashtirish, mehnat mahsuldorligi ko`rsatkichlari chiqishi mumkin.

**Konstruktiv validlik** – test bilan o`rganilayotgan belgi o`rtasidagi moslik (natijalarni boshqa testlar natijalari bilan taqqoslash).

Metodikalar isonchlilik darajasi bir qator sabablarga bog`liq. Tadqiqot natijalari aniqligini pasaytiruvchi bir qator omillarni keltirib o`tish mumkin.

### **Tadqiqot natijalari aniqligini pasaytiruvchi omillar**

- ◆ Diagnoz qilinayotgan sifatning stabil, barqaror emasligi.

- ◆ Diagnostik metodikalarning takomillashmagani(ko`rsatma xato tuzilgan,topshiriqlar xarakteri jihatidan turlichaligi, tekshiriluvchiga metodikani taqdim etish bo`yicha ko`rsatmaning noaniqligi).
- ◆ Tadqiqot vaziyatining o`zgarishi (kunning har xil vaqtida tekshiruv o`tkazilishi,xonanig turlicha yoritilishi, begona shovqinlarning mavjudligi).
- ◆ Eksperimentator xulq-atvor manerasining o`zgarishi, topshiriqni bajarishni turlicha stimullashtirish.
- ◆ Tekshiriluvchi funktsinal holatidagi o`zgarishlar.
- ◆ Natijalarni interpretachiya qilish va baholashdagi sub`ektivlik.

Psixodiagnostik metodikalar ishonchlilagini oshirishning yo`llaridan biri **standartlashtirish**, metodika o`tkazish protcedurasi va uning natijalarini baholashning yagona talablarini ishlab chiqishdir.

**Standartlashtirish muammosi.** Diagnostik metodika har qanday tadqiqtchilik metodlaridan standartlashtirilganligi bilan farq qiladi.

A.Anastazining ta`kidlashicha, standartlashtirish – testni o`tkazish protcedurasi va uni baholashning bir xilligi. Demak, standartlashtirish ikki xil jihatdan qaralishi mumkin:

1. Eksrement o`tkazish protcedurasiga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqish.
2. Diagnostik tekshiruv natijalarini baholashning yagona talablarini aniqlash.

Eksperimentni o`tkazish jarayoniga bir qator talablar qo`yiladi (ko`rsatma barcha sinaluvchilarga bir xilda berish; bironqa sinaluvchilarga ham hech qanday imtiyozlar bermaslik; qo`shimcha ko`rsatmalar, tushuntirishlar qilmaslik; agar ikkita guruhda eksperiment o`tkazilayotgan bo`lsa imkon darajada bir xil sharoitlar yaratish va kunning bir xil paytida o`tkazish; vaqt chegaralari barcha sinaluvchilar uchun bir xilda bo`lishi).

Standartlashtirishda yana bir muhim moment – diagnostik tekshiruv natijalarini taqqoslash uchun mezonlarni tanlash hisoblanadi.

Masalan, 6 yoshli bola aqliy taraqqiyot testi bo`yicha 117 ball to`pladi deylik. Bu yaxshimi yoki yomonmi?

Miqdoriy ko`rsatkich hech narsani ifodalamaydi. Bola to`plagan ballini taraqqiyotning quyi, o`rta, yuqori darajasi deb tavsiflab bo`lmaydi. Shuning uchun metodika bo`yicha olingan ko`rsatkichlarni baholashda statistik norma qabul qilinadi.

Statistik norma 2 ko`rsatkich - o`rtacha arifmetik qiymat va standart oq`ishni hisoblash orqali chiqariladi.

Normaga asoslangan diagnostik metodikani standartlashtirish metodikani o`tkazish mo`ljallangan katta reprezentativ tanlanmada amalga oshiriladi. Standartlashtirish tanlanmasiga nisbatan norma aniqlanadi. Bu norma testni bajarishni faqat o`rta darajasini emas, yuqori va quyi darajalarini ham ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada diagnostik sinovdan o`tishning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi darajasini baholash mumkin bo`ladi. Bu esa konkret olingan bir sinaluvchining normativ tanlanma yoki standartlashtirish tanlanmasidagi holatini aniqlash imkonini beradi.

Statistik normani aniqlash uchun diagnost- psixologlar matematik statistika usuliga murojaat qiladilar. Statistik norma 2 ko`rsatkich - o`rtacha arifmetik qiymat va standart oq`ishni hisoblash orqali chiqariladi.

Stenford-Bine testi misolida diagnostic metodika standartlashtirilishini ko`rib chiqamiz. Sinaluvchilar guruhuga 2,5 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan 4498 nafar kishilar kiritilgan. Har bir yosh bo`yicha o`rtacha arifmetik qiymat 100 ga teng bo`lsa, standart og`ish 16 ga teng bo`ladi. Demak, 84 dan 116 gacha oraliqdagi ko`rsatkich norma chegarasi hisoblanadi. Agar sinaluvchi to`plagan ball shu oraliqda bo`lsa, normada; 84 balldan past bo`lsa normadan past, 116 dan yuqori bo`lsa, normadan yuqori deb tavsiflanadi. 117 ball normadan biroz yuqori deb baholanishi mumkin.

### **Standartlashtirish tanlanmasi.**

Standartlashtirishda sinaluvchilar tanlanmasi alohida ahamiyatga ega. Bunda 2 ta tushuncha farqlanadi:

- Sinaluvchilar bosh majmui (populyatsia);
- Tanlanma.

Tadqiqot o`tkazilishi va xulosalar chiqarish rejalashtirilayotgan ko`p sonli kishilar majmuyi **sinaluvchilar bosh majmuyi** deyiladi.

**Tanlanma** – bu sinaluvchilar bosh majmyining bir qismi yoki bo`lagi.

Tadqiqot populyatciyada emas, tanlab olingan kishilar guruhida o`tkaziladi. Tekshiruv standartlashtirish tanlanmasida o`tkazilib, uning natijalari asosida xulosalar bosh majmuiga nisbatan ham chiqariladi. Baholash ishonarli bo`lishi uchun tanlanma **reprezentativ** bo`lishi, ya`ni uning xususiyatlari bosh majmua xususiyatlariga o`xhash yoki yaqin bo`lishi kerak.

Masalan, A.Anastazi, Veksler shkalasi standartlashtirilayotganda reprezentativ tanlanmani shakllantirishni misol keltiradi. Tanlanma 1700 kishidan iborat bo`lib, unda ayollar va erkaklar soni teng. 16 yoshdan 64 yoshgacha bo`lgan sinaluvchilar 7ta yosh darajasiga ko`ra taqsimlangan (bunda geografik xududlarga, qishloq va shaharga mansubligiga ko`ra, oq va qora tanliligiga ko`ra, ma`lumotlilik darajasi va kasbiga ko`ra AQSH oxirgi aholini qayd etish ma`lumotlariga ko`ra proporcional taqsimlanish hisobga olingan. Har bir yosh darajasi bo`yicha tanlanmaga aqli zaiflar muassasalaridan bir ayol va bir erkak qo`shilgan.

Reprezentativlikni ta`minlash yo`llaridan biri – populyatciyani chegaralash hisoblanadi. Masalan, 15 yoshlilar emas, 15 yoshli maktab o`quvchilari.

Populyatciyani chegaralash quyidagi belgilar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- yoshga
- jinsga
- ijtivoiy kelib chiqishiga
- kasbiga
- ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga
- salomatligiga ko`ra.

Diagnostik metodikatini tuzuvchi qaysi populyatciy uchun metodika mo`ljallanganligini, ya`ni normative ko`rsatkichlar ishlab chiqilganligini e`lon qilishi kerak.

Standartlashtirish tanlanmasiga sinaluvchilarни ajratib olish quidagicha amalga oshiriladi:

- populyatciyaga tavsif beriladi (yoshi, ma`lumotliligi, kasbi va h.).
- populyatciya bir necha qismlarga ajratiladi.
- sinaluvchilar tasodifiy tarzda tanlab olinadi (masalan, alfavit bo`yicha, jadval bo`yicha).

Demak, tanlanma – bosh majmuadan ajratib olingan tekshiruv o`tkaziladigan sinaluvchilar. Tanlanma hajmi ishonchli ma`lumotlar olish uchun 200 nafardan kam bo`lmasligi kerak.

Psixologik testlarning natijalarini talqini qilishda esa standartlashtirish tanlanmasida aks etgan normalarga tayaniлади. Bunday normalar empirik yo`l bilan belgilanadi. Reprezentativ guruh vakillarining ko`rsatkichlari haqqoniyligini test bilan muvofiqlashtiriladi. Standartlashtirish vaqtidagi baholar taqsimoti haqiqiy sinaluvchining birlamchi bahosi (“quruq ballar” ) taqsimotda qanday o`rin olganligiga asoslanadi. Uning ko`rsatkichlari guruhning o`rtacha qiymatiga mos keladimi yoki yo`qligi aniqlanadi.<sup>12</sup>

Individuumning standartlashtirish tanlanmasidagi holatini aniqlashda uning “quruq ball”ari nisbiy mezonlarga asoslanib ish ko`radi. Ishlab chiqiladigan baholar ikki maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Birinchidan, ular sinaluvchining normativ tanlanmadagi nisbiy holatini aniqlashga ko`maklashadi va ulardagi olingan qiymatlar boshqa sinaluvchilarining natijalari bilan o`zaro taqqoslanadi. Ikkinchidan, ular individuumning har xil testlardan olgan natijalarini to`g`ridan to`g`ri solishtirishni ta`minlaydi. Masalan, qiz bola lug`atli testdan 40 ball va arifmetik testdan 22 ball to`pladi. Bu ikki natija har ikkala test bo`yicha hech narsa bermaydi. Bu yerda sinaouvchi qaysi testni

---

<sup>12</sup> Anastasi A, Urbina S. Psychology Testing. Prentice-Hall International, Inc.- p. 57

yaxshiroq bajargan degan savolga javob olib bo‘lmaydi. Ular o‘rtasidagi farqlarni topimsh uchun har xil testlarning standart normasiga asoslaniladi.

### **Statistik tushunchalar**

Statistik metodlarning maqsadi miqdoriy ko‘rsatkichlarni tushunish uchun ularni mujasamlashtirilgan va tizimlashtirilgan holatda taqdim qilishdan iborat. 1000 test baholariga nazar solish ancha ta’sirchan ko‘rinsa-da, ammo uni tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Natijalarni statistik me’yorlashtirish uchun bir necha bosqichli tadbir amalga oshiriladi. Buning uchun ballarning chastotali taqsimoti javdali tuzib chiqiladi (2-jadval). Buning uchun dastlab, birlamchi baholarning miqdoriy ko‘rsatkichlarni taqsimlanish intervaliga ko‘ra baholari ma’lum shartli belgilar bilan ifodalanadi. Barcha chastotalar yig‘indisi N-ushbu guruhdagi holatlarning umumiyligi soni. Birlamchi baholar bo‘g‘inli kodning to‘g‘ri bajarilgan elementlar miqdorlari.

2-jadval

### **O‘zlashtirish kodi bo‘yicha talabalarning birlamchi baholarining taqsimlanish chastotasi (n-1000)**


<b>Guruhash intervallari</b>	<b>Chastotasi</b>
52-55	1
48-51	1
44-47	20
40-43	73
36-39	156
32-35	328
28-31	244
24-27	136
20-26	28
16-19	8
12-15	3
8-11	2

Natijalar ikki daqiqa dovomidagi urinishlarda o‘zgarishlarning  $m$  ko‘rsatkich 8dan 52 gacha chegarada tebranishi kuzatiladi. Ular guruhlash intervalida joylashgan bo‘lib, kengligi bo‘yicha 4 birlikdagi interval bilan guruhlashga ega bo‘ldi: 8-11dan 52-55 gacha bo‘lgan intervaldan o‘rin oldi.

Chastotalar qatoridan ko‘rinmoqdaki, ikkita sinaluvchining natijalari 8-11 intervalda , uchtasiniki esa 12-15 intervaldan o‘rin olgan va h.k.z. Taqsimotlar chastotasi bo‘yicha ma’lumotlarning grafik taqdim etilishi egri chiziq taqsimoti ko‘rinishini olgan (1-rasm).


2-rasmdan ko‘rinmoqdaki, taqsimotlarni ko‘rinishi qo‘ng‘iroq shaklidagi normal egri chiziq timsolini hosil qilmoqda. Normal egri chiziqning matematik aniqlanishi muhim matematik xossalarni egallagan bo‘lib, ko‘pgina statistik tahlillarning asosida yotadi.

Normal taqsimotning ko‘rinishida anglash mumkinki, ko‘p miqdordagi holatlar egri chiziqning markazi qismidan o‘rin olgan, qolgan holatlar kamaygan tarzda uning chekkasiga qarab joylashib boradi. Egri chiziq simmetirik ko‘riinish olib, yagona maksimumlik esa markazdan o‘rin olgan.



1-rasm. Egri taqsimot: poligon va gistogramma

Inson xususiyatlarini ifodalovchi ko‘pgina alomatlar-bo‘yi va vaznidan tortib qobiliyat va shaxslilik xususiyatlarigacha – normal egri chiziqqa yaqinlashib boradi. Umimiyya ko‘pgina guruhga nisbatan empirik taqsimot nazariy kormal egri chiziqqa yaqinlashadi. Qiymatlarning bu tarzda statistik ifodalash ko‘pgina testlarni natijalarini tipik yoki reprezentativ talqin etishga imkon beradi.



*2-rasm. Bir xil o‘rtacha va har xil o‘zgaruvchanlik diapazon bo‘yicha taqsimotlar chastotasi*

So‘ngra qator test baholar to‘plami markaziy tendensiyalarni qator mezonlari tig‘iz bayon qilingan bo‘lishi mumkin. Bunday yagona mezon sinaluvchilar guruhi bajargan test topshiriqlarni tavsiflovchi eng tipik yoki rerezentativ bahoni beradi. Bunday mezonlardan biri yoki o‘rtacha tanlanma yoki katta M bilan ifodalangan *o‘rtacha arifmetik* qiymatdan iborat. U barcha to‘plangan qiymatlar yig‘indisidan sodir bo‘lgan hodisalarning yig‘indisini ( $N$ ) bo‘lish asosida topiladi. Markaziy tendensiyalardan yana bir eng ko‘p uchrovchi baho *modadan* iborat. Chastotali taqdimotda *moda* maksimal chastota bilan guruhlash interval o‘rtasidagi sifatida aniqlanadi. Masalan, jadvaldagi moda 32-35 intervaldagi nuqtalar o‘rtasidan o‘rin olgan bo‘lib, u 33,5 ga tengdir. Bu qiymat egri taqsimot chizig‘ining eng yuqori nuqtasidan o‘rin olgan. Markaziy


tendensiyaning uchinchi o'lchami- bu *mediana* hisoblanadi. Mediana sinaluvchilarning baholarini ranglashtirish majmuasini o'rtasidan joy oluvchi bahodir. Mediana taqsimot to'plamidagi baholarni teng ikkiga bo'luvchi qiymat hisoblanadi. Natijada hodislarning bir qismi medianadan quyisi, bir qismi yuqoridan joy oladi.

3-jadval

	(X)	(x = X -)	КВАДРАТ ОФИШ	(x <sup>2</sup> )
БАХОЛАР	ОФИШ			
50 %	48 47 43 41 41 40 38 36 34 32	+8 +7 +3 +1 +1 0 -2 -4 -6 -8	+20 9 1 1 0 4 16 36 64	64 49 9 1 1 0 4 16 36 64
ходиса				
Медиана = 40,5				
50 %				
ходиса				
	$\sum X = 400$			$\sum x^2 = 244$
	$M = \frac{\sum X}{N} = \frac{400}{10} = 40$			
	$Дисперсия = \sigma^2 = \frac{\sum x^2}{N} = \frac{244}{10} = 24,40$			
SD	$\sigma = \sqrt{\frac{\sum x^2}{N}} = \sqrt{24,40} \approx 4,9$			

Test baholari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar markaziy tendensiyadan individual og'ish darajasini ko'rsatuvchi o'zgaruvchan mezonlarni beradi. O'zgaruvchanlikni eng aniq va tushunarli taqdim etuvchi usuli to'plamidagi minimal va maksimal baholar o'rtafigi farqni ifodalovchi hodisa tebranishi taqdim etadi.

Normal taqsimot qoidasiga ko'ra 10 ta hodisadan iborat holat bo'yicha misol ko'rib chiqiladi. Kam hodisa bo'yicha masalani ko'rib chiqish, ko'p to'plamli hodislarga nisbatan uning tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun olindi. Jadvalda bir qator keyinchalik foydalanildaigan statistik ifodalar keltilgan. Testning birlamchi baholari katta X orqali kichik x esa guruhi o'rtacha qiymatdan har bir sinaluvchilarning individual



3-rasm. Normal egri bo'yicha taqsimotlarning foizli ifodalanishi

Grekcha  $\Sigma$  harfi yig'indi ma'nosini ifodalaydi. Jadvalning binichi ustuni bo'yicha o'rtacha qiymat va mediana hisoblab topiladi. Jadvalda o'rtacha qiymat 40, mediana esa 40,5 ga teng va 40 bilan 41 o'rtaida joylashgan. Beshta holat (50%) medianadan yuqorida va beshta holat esa medianadan pastdan o'rin olgan. Moda esa 41 dan iborat. Bu qiymatni ikkita kishi olgan. Boshqa barcha ko'rsatkichlar esa faqatgina bittadan holatda aks etgan.

Jadvalning ikkinchi qatori har bir bahoning guruhdagi o'rtachadan (40) u yoki bu tomonga og'ishini ifodalaydi. Bu og'ishlarning yig'indisi doimo nolga teng. O'rtachadan ijobiy va salbiy og'ishlarning bir biriga munosabati ( $Q20-20q0$ ) nolga teng.

Anchagina ijobiy o'zgaruvchi mezon standart og'ish hisoblanadi ( $SD$  yoki  $\sigma$ ). Bu ustundagi qiymatlar yig'indisining tasodiflar soniga bo'linishi ( $\frac{\sum x^2}{N}$ ) dispersiya yoki o'rtacha kvadrat og'ish deb ataladi. Dispersiya test

natijalarining individual tafovutlaridagi har xil omillarning ulishini yoritish vaqtda chet foydalilik hisoblanadi. Shuningdek SD har xil testlar bo'yicha normalar birligidagi individium baholarini ifodalash uchun xizmat qiladigan tayanch elementalar vazifasini bajaradi. Standart og'ishni talqin qilish normal egri taqsimotga yaqin yoki normal taqsimot haqida so'z borgan holatda aniq bo'ladi. Normal taqsimot vaqtida SD va hodislarning nisbiy miqdori o'rtasidagi yaqqol munosabat jadvalda o'z aksini topgan. Normal egri chiziq bazisi o'rtachadan M yuqori va quyi standart og'ishlar bo'yicha ikki va uch bo'laklarga bo'lib qo'yilgan. Masalan, jadvalda keltirilgan holtgan ko'ra  $M_{Q1} \approx 44,9$  (ya'ni,  $40Q4,9$ );  $Q_2 \approx (ya'ni, 40Q2x4,9)$  va h.k.z ko'rinish oladi. holati M bilan  $Q_1 \approx$  o'rtasidan o'rin olgan hodislarning foizli miqdori normal taqsimot uchun 34,13% ga teng bo'ldi. Egri chiziqning simmetrik qismida 34,13% M bilan  $-1\sigma$  oralig'ida ham o'rin oladi.  $-1\sigma$  dan  $Q_1 \approx$  gacha diapazon 68,26% ga teng bo'ladi. Barcha xodisalar  $\pm 3\sigma$  diapazonda (99,72%) joy oldi.

### Test normalari.

**Yosh normalari.** Test baholariga mazmun berishning yana bir usuli – bu individning normal yo'nalish bo'yicha rivojlanishini ko'rsatadai. Shunday qilib, 8 yoshli bola intellekt test bo'yicha 10 yoshli bolaning o'rtacha darajadagi intellekt test bo'yicha topshiriqni bajara oldi. Uning aqliy yoshi 10 yoshga teng. Aqliy rivojlanishdan ortda qolgan katta yoshlik kishi bu test topshiriqlarini bajarganda uning aqliy yoshi ham  $A_{Yoq10}$  ga teng bo'ldi. Boshqa holatda 4-sinf o'quvchisi o'qish testi bo'yicha 6 –sinf normasiga va arifmetik test bo'yicha 3-sinf normasiga erishdi. Bundan ko'rindaniki, testlarning yosh bilan bog'liq ko'rsatkichlari anchagina murakkab ko'rinishga ega.

**Maktab normalari** - ta'lim jarayonida erishilgan yoki maktab ta'limiga bog'liq qobiliyatlarini o'rganish testlari asosida ishlab chiqiladi. Ular har bir ta'lim bosqichi uchun belgilanadi va mamlakatning barcha hududlariga amal qilinadi.

**Kasbiy normalar** - har xil kasb egalari guruhi uchun testlar asosida belgilanadi (masalan, mexaniklar, mashinistlar va boshqalar).

**Mahalliy normalar**- jinsi, yoshi, geografik hududi, sotsial-iqtisodiy status iva boshqa umumiy belgilari bilan tafovutlanuvchi tor toifali kishilar uchun qo'llashda ishlab chiqiladi. Masalan, Veksler va Raven testlari yosh chegaralari bo'yicha normaga ega.

**Milliy normalar** – xalq, millat, mamlakat vakillari uchun ishlab chiqiladigan normalar. Bunday normalar ma'lum madaniyat, axloq talablari va har bir madaniy an'analarni aniqlash uchun kerak.

Testologiyada standartlashtirilgan testlarda normalarning mavjudligi ularning muhim xarakteristikasi sanaladi.

Normalar test natijalarini talqin etishda etalon sifatida zarur. Masalan, intellekt testlarida IQ birlamchi ko'rsatkichlari IQ normativ ko'rsatkichlari bilan munosabati solishtiriladi (Raven testida 43, 44, 45 ballar norma hisoblanadi). Agar tekshiriluvchining IQ ko'rsatkichi normdan yuqori bo'lsa 60 ballga teng (Raven testida). Bu tekshiriluvchining intellektuallik darajasi yuqori. Agar IQ ko'rsatkichi past bo'lsa, u holda quyi daraja, olingan IQ ko'rsatkichi 43, 44 yoki 45 ballga teng bo'lsa, u o'rtacha hisoblanadi.

### **Psixodiagnostik metodikalarning standartlashtirish talablari**

Shaxsni o'rganish testlarini konstruksiyalash o'zida psixometrik asosiy talablarga javob beruvchi o'lchash vositalarining yaratish jarayonini taqdim. Har qanday test ishonzchli, validli va standartlashtirilgan bo'lishi kerak.

Psixodiagnostika bilan shug'ullanayotgan yosh mutaxassislar o'z amaliyotlarida metodikalardan foydalanish bilan bog'liq muammolarga ko'p duch kelmoqdalar. Chunki mamlakatimizda psixodiagnostika fanini rivojlanishi ancha ilmiy salmoqqa ega bo'lgan ishlarni taqozo amalga oshirishni talab etadi. Bugungi kunda psixodiagnostik maqsadlarda tatbiq etilayotgan metodikalarning asosiy qismi boshqa muhitlarda yaratilgan bo'lib, ular bizning sharoitimizda ayrim psixometrik qoidalarga muvofiqlashtirilgan holda qo'llanilib kelinmoqda.

Shuningdek, psixodiagnostika va uning muammolariga bag‘ishlangan qo‘llanmalar, adabiyotlarning o‘zbek tilida yaratilganlari va psixologlar tayyorlash jarayonida psixodiagnostika kursini o‘qitishda ham amaliy tajribalar yetarlicha emas. Bu tarzdagi muammolarning mavjudligi o‘z navbatida ushbu yo‘nalishdagi boshqa muammolarni kelib chiqishiga asos bo‘lb qolayotganligi shubhasiz. Yuqorida keltirilgan muammolarga tayangan holda psixologik metodikalarni yaratish, ularni modifikatsiyalash va moslashtirishning psixometrik jihatlari bilan bog‘liq masala tahliliga e’tibor qaratish ko‘zda tutildi. Mahalliy mutaxassislar metodikalarni amaliyatda qo‘llash qoidalar va shart-sharoitlar bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday muammolarni hal etishda jahon psixologiyasida yetarlicha tajribalar mavjud. Ushbu tajribalarga tayangan holda yosh mutaxassislar duch kelayotgan muammolardan biri psixodiagnostik metodikalar, xususan, testlarni standartlashtirishning umumiy jihatlarini tahlil etib o‘tishga harakat qilamiz.

*Standartlashtirish* ( inglizcha standard so‘zdan olingan bo‘lib, – bir shaklga, me’yorga keltirish ma’nosini anglatadi) – testning o‘tkazish tartibi va uning natijalarini baholashni yagona me’yorga keltirish, unifikatsiyalash va tatbiq etishni qat’iy belgilash jarayoni [2,5].

Metodikaning validlik, ishonchlilik va differensiallik talablariga, uni qo‘llash uchun nisbiy tanlanmani standartlashtirish zarur. Shu bois, psixologik metodikalarning birinchi ko‘rsatkichlari, bahosi va talqini eksperimentatorning xulq-atvori va sub’ektiv mulohazalariga bog‘liq bo‘lib qolmasligini taqozo etadi. Shu sababli tadqiqotchilar, metodikalarni yaratuvchi va moslashtirishga jazm etgan mutaxassislar psixologik testlarning ob’ektivligini ta’minalash uchun quyidagi shartlarga amal qilib, ish yuritishlari lozim bo‘ladi:

1. Metodika me’yorlari bilan qiyosiy natijalarini qo‘lga kiritish uchun testni yagona o‘tkazish tartibga keltirish;
2. Testni bajarishning yagona baho me’yoriga erishish;
3. Testlashtirish ma’lumotlarini qayta ishslash natijalaridan olingan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish uchun ma’lum test normalarinii aniqlashtirish.

Bugungi kun psixometrika tajribalarida standartlashtirishning ikkita shakliga ko‘p tayaniladi. *Birinchisi*, metodikani tatbiq etishning qat’iy vaqtini belgilash, yo‘riqnomasini, javoblar varag‘ini, tajriba-sinovni o‘tkazish sharoitlarini va tekshiruvchilarning xarakteristikasini unifikatsiyalash bilan bog‘liq. Psixologik testlarni standartlashtirishning ushbu holati quyidagi diagnostik vaziyatlarni aniqlash va hisobga olishni o‘zida qamrab olgan:

1. Test o‘tkazish sharoitlari (bino, jihozlanishi va boshqa tashqi omillar). Shubhasiz, qisqa muddatli xotirani tovush, ovozlar singari chet ta’sirlarsiz yaxshi o‘lchashga erishiladi (masalan, Vekslerning raqamlar qatorini takrorlash subtesti yordamida)
2. Yo‘riqnomalarning mazmuni va uni taqdim qilish xususiyatlari (ovozi toni, to‘xtalish (pauza), nutqning tezligi va boshqalar). Masalan, “O‘nta so‘z” testidagi so‘zlar ma’lum soniyalar oralig‘ida taqdim etilishi kerak.
3. Standartlashtiirilgan stimul materialning mavjudligi. Masalan, olingan natijalarning xolisligi respondentlarga G.Rorshaxning qo‘lbola kartasini yoki standartlashtirilgan –ma’lum ranglarning uyg‘unligi va ranglardagi o‘zgachalik taqdim etilishiga ahamiyatli bog‘liqdir.
4. Testni bajarishning vaqtini chegaralanishi. Masalan, Raven testini bajarish uchun respondentga 20 daqqa beriladi.
5. Testni bajarish uchun standart blanki. Standartlashtirilgan blankning qo‘llash natijalarni qayta ishslash jarayonini yengillashtiradi.
6. Testlashtirish jarayoni va natijalariga o‘zgaruvchan sharoitlarning ta’sirini hisobga olish. O‘zgaruvchan ta’sirlar deganda tekshiriluvchining holatlari tushuniladi (toliqish, kechinmalar, testdan bezovtalanish, ya’ni holatlar, ekspertizaning shartli harakat motivi va boshqalar), testning nostandard sharoitda o‘tkazish (yomon yoritilgan bino, ventilyatsiyaning yo‘qligi va boshqalar) va testni o‘tkazishni to‘xtatib qo‘yish.
7. Testni o‘tkazish jarayoni va natijalariga diagnostning xulq-atvori ta’sirini hisobga olish. Masalan, test o‘tkazish jarayonida eksperimentatorning

qo'llab-quvvatlovchi-rag'batlantiruvchi xulq-atvorini respondent tomonidan "to'g'ri javobni" shama qilish tarzida idrok etish va boshqalar.

8. Test o'tkazish jarayonida respondentni tajribasining ta'sirini hisobga olish. Tabiiyki, respondent testdan birinchi bora o'tayotgani yo'q, u noaniqlik tuyg'usini bartaraf eta oldi va test vaziyatiga ma'lum munosabatni ishlab chiqadi. Masalan, agar respondent Raven testini bajarib bo'lgan bo'lsa, unga ikkinchi bora testni bajarishni taklif etish kerak. emas.

9. Testning bajarilishini bir xillikda baholash: olingan natijalarni standart talqin etish (bu ushbu testni yosh (masalan, intellekt testlarida), jins va boshqa alomatlar uchun norma bilan bajarishdan olingan ko'rsatkichlarni ko'zda tutadi.

*Ikkinchisi*, psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish, moslashtirish va foydalanishga yo'naltirilgan: 1) test metodikalarini loyihalashtirish bosqichi va ularning mazmuni. 2) Testning moslashtirish algoritmi va texnologiyasi.

Xulosa o'rnila aytishimiz mumkinki, psixodiagnostik amaliyot rivoji shubhasiz qayd etilgan talablar ro'yxatini kengaytira boradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun FSMU texnologiyasi.**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F-fikringizni bayon eting,

S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating,

M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring,

U- fikringizni umumlashtiring.

**Psixodiagnostik metodikalarning validligini aniqlash orqali uning  
yaroqlilik darajasi namoyon bo'ladi.**

<b>Fikr</b>	
<b>Sabab</b>	
<b>Misol</b>	
<b>Umumlashtirish</b>	

**Psixodiagnostik metodikalarning ishonchlilagini aniqlash orqali uning  
sifatililigi namoyon bo'ladi.**

<b>Fikr</b>	
<b>Sabab</b>	
<b>Misol</b>	
<b>Umumlashtirish</b>	

### **Glossariy**

**Validlik** – metodika yordamida olingan ma`lumotlarning metodikaning nimani aniglashga qaratilganligi, ya`ni metodika mohiyati bilan mosligi.

**Ishonchlilik** – psixodiagnostik metodikaning sifati bo`lib, natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon. Metodikaning ishonchliligi natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon hisoblanadi.

**Retest Ishonchlilik** - ayni bir testni ayni bir sinaluvchilarda bir xil sharoitlarda qayta o`tkazib, ikkala tekshiruv asosida olingan natijalar o`rtasida korrelyatciya (bog`liqlik) o`rnatish.

**Parallel shakllar ishonchliligi** - metodika ekvivalentini yaratish va uni ayni bir xil sinaluvchilarda o`tkazib, olingan natijalar korrelyatcion bog`lanishlar o`rnatish.

**Mazmuniy validlik** – test bilan tadqiq qilinayotgan xarakteristikaning o`zaro mosligini ifodalaydi.

**Joriy validlik** – natijalar bilan parallel tarzda qo`llangan mezonlarning mosligi. (Tekshiruv o`tkazilayotgan vaqtdagi o`zlashtirish, mahsuldotlik bilan testni bajarish natijalari).

**Prognostik validlik** – test natijalari bilan ma`lum vaqt oralig`dan so`nggi mezonlar o`rtasidagi moslik. Bunda mezonlar sifatida masalan, maktabdagi o`zlashtirish, mehnat mahsuldarligi ko`rsatkichlari chiqishi mumkin.

**Konstruktiv validlik** – test bilan o`rganilayotgan belgi o`rtasidagi moslik (natijalarni boshqa testlar natijalari bilan taqqoslash).

**Standartlashtirish**, metodika o`tkazish protcedurasi va uning natijalarini baholashning yagona talablarini ishlab chiqishdir.

**Tanlanma** – bu sinaluvchilar bosh majmyining bir qismi yoki bo`lagi.

**Reprezentativ** - uning xususiyatlari bosh majmua xususiyatlariga o`xshash yoki yaqin bo`lishi.

### **Adabiyotlar:**

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
4. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.: 1991.
5. Nishanova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2008.
6. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
7. Rasulov A. Psixodiagnostika. Т.: 2010.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

### **O`z-o`zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Psixodiagnostik metodikalarga qanday asosiy psixometrik talablar qo`yiladi?
2. Validlik nima va uning qanday turlari mavjud?

3. Psixodiagnostik metodikalarning muhim psixometrik ko‘rsatkichi sifatida ishonchlilik nimalarni nazarda tutadi?
4. Psixodiagnostik metodikalar ishonchliliini aniqlashning qanday usullari mavjud?
5. Psixodiagnostik metodikani va tekshiruv natijalarini standartlashtirish muammosi.
6. Test me`yorlarining reprezentativligi nima?
7. L.F.Burlachuk ishonchlilikning qanday turlarini ajratib ko`rsatadi?
8. Retest ishonchlilik nima?
9. Parallel shakllar ishonchliligi deganda nimani tushundingiz?
10. Test qismlari ishonchliligi qanday aniqlanadi?
11. Tadqiqot natijalari aniqligi qanday omillar asosida pasayishi mumkin?
12. Psixologning psixometrik tayyorgariligidagi qanday talablar qo’yiladi?

## **MAVZU: TEST TUZISHNING ASOSIY BOSQICHLARI.**

### **Reja:**

1. Metodikalar tuzish va moslashtirish texnologiyasi
2. Metodikalarni yaratuvchilar hamda qo`llovchilar uchun normativ talablar.
3. Psixologning psixometrik tayyorgariligiga talablar.

**Tayanch tushunchalar:** psixologik test, validlik, ishonchlilik, retest ishonchlilik, parallel shakllar ishonchliligi, test qismlari ishonchliligi.

**Psixodiagnostik metodikalarni yaratuvchilar hamda qo`llovchilar uchun normativ talablar.** Psixologning amaliy ishi ishlab chiqarishning turli sohalari: tibbiyat, ta`limda psixodiagnostik metodikalarni qo`llashni talab etadi. Shuning uchun bunday amaliyotni normativ boshqarish zarur bo`ladi, ya`ni metodikalrn yaratuvchilar hamda qo`llovchilarga nisbatan aniq talablar tizimi ishlab chiqiladi.

**Psixodiagnostik adabiyot va metodik materiallarga qo`yiladigan talablar.** Metodikalarni ishlab chiquvchi hamda ularni qo`llovchilar dastavval uslubiy adabiyot yordamida bir-biri bilan o`zaro aloqada bo`ladi. Metodik adabiyot, qo`llanma va ko`rsatmalarni rasmiylashtirishga qo`yiladigan standart talablar bir qator mamlakatlar psixologlar jamiyati direktiv hujjatlarida qabul qilingan.

Turli xil hujjatlarga qo`yiladigan bir qator talablar farqlanadi. Bular:

- Toplam, monografiya, ilmiy jurnallarda nashr qilinadigan adabiyotlarga;
- Metodikalar muayyan sinfini qo`llashning nazariy-mazmuniy tomonlari, shuningdek, miqdoriy jarayonlarni yorituvchi tahliliy-axborot ko`rsatmalari hamda ma`lumotnomalarga;
- Metodikalarni qo`llovchilar uchun “metodik materiallar” – uslubiy ko`rsatmalar, topshiriqlar matni, test kalitlari, tavsiflash qoidalariga;

□ Psixodiagnostika bo`yicha ommabop nashrlarga qo`yiladigan talablar.

1. **Ilmiy axborot.** Bunda metodikaning nazariy asoslari, ishlab chiqish vositalari va emperik asoslari, reprezentativlik, ishonchlik, validlik kabi ko`rsatkichlar yoritiladi. Misol tariqasida ba`zi test topshiriqlari berilishi mumkin. Ammo ilmiy ma`lumotlarda kasbiy cheklangan metodikalar uchun – topshiriqlarning to`liq matni, kalit, testni o`tkazish va natijalarni interpretatciya qilish uchun mufassal ko`rsatmalar berish mumkin emas. Shunday metodikalar ham mavjudki, ularni noprofessional mutaxassislar ham qo`llashlari mumkin. Bunday metodikalarning batafsил mazmuni ilmiy axborotlarda berilishi mumkin bo`ladi, chunki ularni mutaxassis bo`lmaganlar tomonidan qo`llanilishi insonlarga zarar keltirmaydi. Ushbu metodikalar sinfini shartli ravishda “ochiq metodikalar” deb atash mumkin.

2. **Axborot-metodik nashrlar.** Bunday nashrlarda yo`riqnomalar, hujjatlar, topshiriqlar matni (savollar), kalit, qoidalar keltirilishi mumkin. Biroq bunday nashrlarga psixologik tayyorgarlikka ega bo`lgan mutaxassislar uchun chiqariladigan nashr mavqei berilishi lozim.

3. **Instruktiv hujjatlar.** Bunda metodika mazmuni, diagnostika predmeti, qollanilish sohasi, tekshiriluvchilar kontingeneti hamda uni qo`llash jarayoni yoritib beriladi. Axborot nashrlari va instruktiv hujjatlar vaqtiga-vaqtiga bilan qayta ko`rib chiqilishi zarur, chunki metodikani qo`llash shartlari o`zgarib turadi. Bunday hujjatlarda metodikani qo`llovchilarga qo`yiladigan talablar ham beriladi.

4. **Ommabop nashrlarda** psixolog-muallif kasbiy sirni oshkor etmasliklari zarur, ya`ni diagnostic metodikalarni qo`llash mohiyati yuritilmasligi .

**Metodikalarni qo`llovchilarga qo`yiladigan talablar.** Metodikani qo`llovchi psixolog quidagi talablarga javob berishi kerak:

✓ Psixodiagnostikaning umumiyl-nazariy-metodologik tamoyillarini bilishi va amaliyotda qo`llay olishi; differentsiyal psixometrikaning asoslarini

egallagan bo`lishi; psixodiagnostika bo`yica joriy metodik adaiyotni kuzatib borishi; muayyan soha bo`yicha qo`llaniladigan metodikalar kartotekasini mustaqil tarzda tuzishi hamda metidikalar shaxsiy kutubxonasiiga ega bo`lishi lozim;

- ✓ Psixolog test natijalariga javobgar bo`lib, metodikalar reprezentativligi va validligini ta`minlashi hamda noprofessionallar tomonidan xatoliklarga yo`l qo`yish oldini ola bilishi kerak;
- ✓ Psixolog noprofessionallarga nisbatan psixodiagnostikani qo`llashda ustunlik va huquqlarga ega; tadqiqot protokollaridan kasbiy-ma`naviy tamouillarga amal qilgan holda hamda psixologiyaning qiziqishlaridan kelib chiqib foydalanishi mumkin. Psixolog diagnoz ishonchligini parallel ravishda standartlashtirilgan va strukturalashtirilmagan metodikalarni qo`llash, shuningdek, ekspert baholash metodini qo`llash orqali ta`minlaydi;
- ✓ Tadqiqot dasturi uchun metodikalarni tanlashda psixolog o`zining metodikaga bo`lgan sub`ektiv munosabatlari va baholaridan kelib chiqmay, balki diagnostikaning maksimal darajadagi samaradorligi talablaridan kelib chiqishi.”kam kuch sarflab, yuqori ishonchlikka erishish” qoidasiga amal qilish zarur;
- ✓ Psixolog metodikalarni qo`llash bilan bir qatorda ilmiy-uslubiy isjni ham olib borishi lozim. Muayyan sohada metodikani qo`llash samaradorligini qo`lga kiritilgan ma`lumotlar asosida tahlil qilish talab qilinadi. Bu orqali amaliy psixolog metodik tashkilotlar bilan aloqada bo`lib turadi, ularga olingan natijalar protokollari nusxasini berib, ulardan instruktiv metodik hujjatlar olib turadi;
- ✓ Psixolog tadqiqotning standart metodikalarini o`tkazish uchun barcha talablarga to liq amal qilinishini ta`minlaydi. Ballarni hisoblash, tavsiflash, prognoz qilish metodik ko`rsatmalarga mos ravishda amalga oshiriladi. Psixolog metodikani qo`llashda sandartdan chetga chiqishga haqqi yo`q. Metodikani qo`llash bo`yicha barcha takliflarni psixolog metodik

markazga jo`natadi hamda metodikani qayta ko`rib chiqishda ularni inobatga olishni talab qiladi;

- ✓ Psixolog tekshiriluvchidan “shaxsiy ishonch” asosida qo`lga kiritgan psixodiagnostik axborotni yashirin holda, konfidentciyal saqlanishini ta`minlashi shart. Psixolog tekshiriluvchini albatta natijalar kim tomonidan va qanday maqsadlarda foydalanishi haqida ogohlantiradi. Psixolog psixologik diagnostika asosida chiqaraladigan xulosa va qarorlarni tekshiriluvchidan yashirishga haqli emas;
- ✓ Psixolog kasbiy sirni saqlay bilishi zarur: psixodiagnostika amaliyotini olib borolmaydigan shaxslarga instruktiv hujjatlarni berishi, potentciyal sinaluvchilarga u yoki bu psixodiagnostik metodika sirlarini ohib berishi mumkin emas;
- ✓ Psixolog ehtimoldan holi bo`lmagan diagnostic tahmin bilan bir qatorda alternative ( muqobil) tahminni ham albatta nazarda tutadi;
- ✓ Psixolog psixodiagnostika tamoyillarining buzilishi to`g`risida psixologlar jamiyatining markaziy va xududiy bo`limlariga xabar berishi, psixodiagnostikani noahloqiy qo`llanilishiga shaxsan to`sinqinlik qilishi zarur.

### **Psixologning psixometrik tayyorgariligiga talablar.**

Bugungi kunda amaliy psixodiagnostikani samarali rivojlanitirish uchun o`lchovchi (tekshiruvchi) psixodiagnostik metodikalardan foydalanuvchi barcha psixologlar psixometrik madaniyatini keskin tarzda ko`tarish talab etiladi. Barcha psixologlar testlarni qayta standartlashtirish metodlarini, ishonchlilik va validlikni tekshirishning oddiy usullarini bilishi lozim.

Bugungi kungacha o`zini klinik metodlar sohasidagi mutaxassis deya hisoblovchi va o`zini test o`tkazish bo`yicha mutaxassis deb o`ylovchi psixologlarning to`la oqlanmagan (hattoki qarama - qarshi) bo`linishi saqlanib kelmoqda. Ammo real amaliy vaziyatlarda ushbu metodlar birikmasi talab etiladi. Klinik, dialogic metodlar ma'lum sohaning boshlang`ich bosqichlari uchun shuning uchun zarurki, psixolog psixodiagnostika predmeti haqida yaqqol sermazmun tasavvur hosil qila olishi lozim. Ular shuningdek

individuallashgan yondashuv talab etuvchi alohida bahsli vaziyatlar uchun ham zarur. Ammo psixologdan tezkor, ommaviy tadqiqotlar o'tkazish talab etiladigan vaziyatlarda, u bir qator standartlashgan, o'lchovchi metodikalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu holatda ba'zi turdag'i metodikalarni tanlab olish uchun psixometrik bilimdonlik talab etiladi: qaysi turdag'i psixometrik me'yorlar bilan tekshirilishi noma'lum bo'lgan metodikalardan foydalanish mumkin emas.

Psixoglarning umumiyligi psixometrik bilimdonligi mutaxassislar orasida maxsus turdag'i – psixodiagnostikaning psixometrik ta'minoti bilan professional tarzda shug'ullanuvchi mutaxassislarni ajratishni mustasno qilmaydi. SHu sababli normativ talablarning ikki – psixologlar va psixolog – psixometristlarga uchun ro'yxatini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Psixologga talablar:

1. Psixolog psixodiagnostika bo'yicha metodik adabiyotlardagi psixometrik hujjatlarni mahorat bilan saralab ola bilishi, test yaratuvchilar uning qanday psixometrik xususiyatlarini ko'rsatishi lozimligini, bu psixometrik xususiyatlar bir tomonidan test turiga, boshqa tomonidan esa uning actual vazifasiga qay darajada mos kelishini bilishi lozim. Misol uchun, oldini olish ahamiyatini prognozlash uchun testdan foydalanish zarurati yuzaga kelsa - yu, prognostic validlik tekshiruvi haqida dalillar bo'lmasa, testni ushbu vazifa uchun yaroqli deb bo'lmaydi.

2. Psixolog talab qilinayotgan metodika bo'yicha ma'lum test normalari bu vaziyatda ishtrokkchilar kontingenti va diagnostic vaziyat tipini hisobga olgan holda qay darajada qo'llashga yaroqliligini, "ichki madaniy ko'chish" vaziyat mavjud yoki yo'qligi va test normalarini qayta standartlashtirish ehtiyojini to'g'ri aniqlay olishi lozim. Zarur holatlarda psixolog test ballarini taqsimlanishini tuzgan va qayta tahlil qilgan holda, qayta standartlashtirishni mustaqil , amaliy jihatdan o'tkaza bilishi lozim.

3. Psixolog mustaqil tarzda ma'lumotlar to'plashi, korrelyatsion qayta ishlov o'tkazishi va empiric validlik – qo'yilgan mezon bo'yicha metodika

samaradorligini tekshira olishi lozim. Zarur holatlarda psixolog mezoni ma'lumotning operatsional indikatorlarini mustaqil tarzda aniqlashtira olishi kerak.

4. Psixolog natijalardagi haddan ortiq xatolarni, metodikaning zaruriy ishonchlilik darajasidagi xatoliklarni mustaqil tarzda aniqlashi va buning natijasida o'z gipotezasini statistik jihatdan tekshrib ko'ra olishi lozim.

5. Psixolog albatta o'z hujjatlarni ikki nusxada yuritishi lozim: u protokollarning barcha nusxalarini bosh metodik tashkilotga (ilmiy – tadqiqot yoki sohaviy) ma'lumotlarning umumiylarini to'ldirish va metodikalar psixometrik xususiyatlarini mukammallashtirish uchun jo'natishga tayyor turishi lozim. Metodikaga kiritayotgan barcha modifikatsiyalarida (instruksiyalar shakllantirish, alohida savollar, ko'rsatmalar davomiyligi) psixolog asosiy metodik tashkilotdan rozilik olishi kerak, negaki joylardagi xilma – xil xususiy modifikatsiyalar olinayotgan natijalarning psixometrik aniqligida xatoliklar keltirib chiqarishi, masus sharoitlarga moslasha oladigan va zaruriy psixometrik xususiyatlarga ega modifikatsiyalar yaratishni tezlashtirmasdan, bali aksincha sekinlashtirishi mumkin. Qo'yilgan metodik standartlarga astoyidil rioya qilish – psixolog psixometrik madaniyatining zaruriy atributlaridan biridir.

6. Psixolog mustaqil tarzda sinaluvchi tomonidan test ma'lumotlarining falsifikatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'lgan motivatsion buzilishlar darajasini aniqlay va o'lchay olishi, ishonchsiz protokollarni sipolik bilan saralay bilishi, guruhiy psixodiagnostikadagi ommaviy natijalar uchun ishonchlilikning maqbul darajasi muvaffaqiyatlarini statistic qayd eta olishi lozim.

7. Psixolog testlarning qo'shimcha ko'rsatkichlarini, shuningdek turli – tuman sonli axborotlarning agregirovatsiyasini talab etuvchi integral ko'rsatkichlarini murakkab miqdoriy hisoblash usullarini egallagan bo'lishi lozim. U kompyuterda hisoblash ishlarini olib bora olishi uchun dasturchi (yoki psixolog - psixometrist) ishlarini ham bajara olishi zarur.

Psixolog – psixometrist qila olishi lozim:

1. Psixodiagnostik metodikalar loyihasini tuzish va ularni moslashtirishning barcha bosqichlarini mustaqil tarzda rejallashtirish va amalgamoshirishni: testning alohida punktlari bo'yicha validlik va ishonchlilik darajasini tekshirish, ishonchsiz va novalid punktlarni chiqarib tashlash, test ballari taqsimotini yaratish va tahlil qila olish, prognozlash uchun matematik tenglamalar va aniqlash uchun "hal qiluvchi qoidalar" yaratishni uddalay olishi;

2. Psixodiagnostik ma'lumotlarni kompyuterda yaratishi va saqlashi, kompyutering standart operatsion tizimlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, psixodiagnostikada qo'llaniladigan ma'lumotlar bazasini tushunishi va ma'lumotlar bazasini boshqara olishi lozim.

3. Qo'llanilayotgan metodikalarni hujatlarga qayd etish bo'yicha psixolog – psixodiagnost ishlarini metodik standartlarga rioya qilgan holda bajara olishi hamda natijalarning psixodiagnostik informatsiyalar bazasiga integratsiyasini ta'minlab borishi zarur;

4. Ma'lum hudud doirasida (psixologik xizmat sohasi bo'yicha) metodikalarni psixometrik ta'minlanganlik darjasini bo'yicha ierarxiyalagan holda metodikalar kartotekasini tutishi, standartlashgan metodikalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar va metodik qo'llanmalar kutubxonasini yuritishi kerak.

#### ***Mavzuni mustahkamlash uchun T – jadval***

**Psixodiagnostik metodikalarni mahalliy sharoitga moslashtirishning o'ziga xosligi.**

<i>Yutuqlari</i>	<i>Qiyinchiliklari</i>

## Glossary

**Test** – standartlashtirilgan, faollikni talab etuvchi, vaqt jihatdan chegaralangan holda bajariladigan topshiriqlar bo`lib, uning natijasi miqdor va sifat jihatdan baholanib, shaxs individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi metod (L.F.Burlachuk) **Validlik** – metodika yordamida olingan ma`lumotlarning metodikaning nimani aniglashga qaratilganligi, ya`ni metodika mohiyati bilan mosligi.

**Ishonchlilik** – psixogiagnostik metodikaning sifati bo`lib, natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon. Metodikaning ishonchliligi natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon hisoblanadi.

**Retest Ishonchlilik** - ayni bir testni ayni bir sinaluvchilarda bir xil sharoitlarda qayta o`tkazib, ikkala tekshiruv asosida olingan natijalar o`rtasida korrelyatciya ( bog`liqlik) o`rnatish. **Test qismlari ishonchliligi** – metodikani ikki qismga (odatda juft va toq topshiriqlarga ) ajratib, ushbu qismlar o`rtasidagi korrelyatciyani hisoblash orqali aniqplanadi (Pirson, Spirmen formulalari yordamida).

### Adabiyotlar:

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
4. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.: 1991.
5. Nishanova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2008.
6. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
7. Rasulov A. Psixodiagnostika. Т.: 2010.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

**O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Psixodiagnostik metodikalarni yaratuvchilar hamda qo`llovchilar uchun qanday normativ talablar mavjud?
2. Psixodiagnostik adabiyot va metodik materiallarga qanday talablar qo`yiladi?
3. Hujjatlar uchun qanday talablar farqlanadi?
4. Ilmiy axborot nimalarni o’z ichiga oladi?
5. Axborot-metodik nashrlarda nimalar aks etadi?
6. Instruktiv hujjatlar nima?
7. Ommabop nashrlar uchun psixodiagnostikaning talabi?
8. Psixodiagnostik tadqiqot o`tkazishning qanday bosqichlari farqlanadi
9. Psixodiagnostika bilan shugullanuvchi psixologga qanday talablar qo`yiladi?
10. Psixodiagnostika mutaxassisiga qanday sifatlarga ega bo`lishi kerak?

## **MAVZU: KOGNITIV QOBILIYATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI.**

### **Reja:**

- 1.Bilish jarayonlariga umumiy tavsif.
- 2.Diqqat va sensomotor reaktsiyalar psixodiagnostikasi.
- 3.Xotira va mnemik faoliyat diagnostikasi.
4. Intellekt diagnostikasi.

**Tayanch tushunchalar:** Diqqat, intellekt, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, ijtimoiy intellekt, emotsional intellekt, intellekt testlari, intellektual koeffitsent.

Bilish jarayonlari yoki psixik jarayonlar yordamida shaxsning bilish faoliyati amalga oshiriladi. Psixik jarayonlar ob`ektiv voqelikdagi narsa va hodisalar hamda ularning xususiyarlarini bilish imkonini beradi. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir.

Sezgilar o`zlariga adekvat (mos) bo`lgan qo`zg`atuvchilarni aks ettirish shakllaridan biri hisoblanmish bilish jarayonlaridir.

Qo`zg`atuvchi sezgi asosida ta`sir qilishi bilan darhol sezgi hosil bo`lmaydi, balki u bir qancha daqiqadan keyin vujudga keladi. Ana shu qisqa vaqt sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri sezgi turlari uchun har xil fursatda kechadi. Masalan, taktil sezgilari uchun latent davri 130 millisekund, og`riq sezgilari uchun esa 370 millisekundga to`g`ri keladi, mazata'm sezgisi esa til yuzasiga ta`sir etilgandan so`ng 50 millisekundgacha vaqt oralig`ida hosil bo`ladi.

Sezgilarni o`lchashni asosan ikki metodi psixologiya fanida hukm surib keladi. Ulardan biri bevosita metod deb atilib sub`ektiv ravishda baholashga asoslanadi. O`lchashning ikkinchi metodi esa alamatlarni ob`ektiv ravishda baholashga asoslangan bo`lib sezgilarning bilvosita (bevosita) mavjudligiga qaratilgandir.

Bevosita metod yoki qo‘zg‘atuvchining so‘z bilan baholash metodi quyidagicha tuzilishga egadir: sinaluvchiga teri, tovush, yorug‘lik ta’sir qila oladigan qo‘zg‘atuvchi havola qilinadi, dastavval qo‘zg‘atuvchi minimal intensivlikka (jadallikka) ega bo‘ladi, so‘ng ularning kuchi orttirib boriladi. Mazkur tadbirlan keyin sinaluvchi “u qaysi bir sezgi qo‘zg‘atuvchisining dastlab sezganligiga” javob berish so‘raladi.

Teri sezgirlingini o‘lhash uchun maxsus asbob “estezometr” qo‘llaniladi. Eshitish sezgirlingini o‘lhash audiometr yordamida amalga oshirilib, tovushlarning turli darajalaridjagi intensivligi aniqlanadi. Ba’zan kichkina temir sharni har xil balandlikdan tashlab ko‘rish orqali ham yuqoridagi maqsad amalga oshiriladi. Ko‘rish sezgirlingini aniqlash esa sinaluvchi ko‘ziga yorug‘likning turli tuman intensivlikda yuborish orqali (goho qorong‘ilikda), quyidan yuqoriga yorug‘lik birligi (ya’ni lyuks) orttirib boriladi. Ta’m va hid bilish sezgirlingi ham maxsus asboblar yordamida o‘lchanadi, goho kimyoviy usul ham qo‘llaniladi.


Bevosita metodi ob’ektiv alomatlarga asoslanib ish yuritishni taqazo etadi. Sobiq sovet psixologlari, psixofiziologlari G.V.Gershuni, E.N.Sokolov, O.S.Vinogradov va boshqalar mazkur metod yordamida ko‘p yillar mobaynida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlir. Ma’lumki, sezgilar hech mahal sust bilish jarayoni bo‘lmagan binobarin, ular vegetativ, elektrofiziologik, nafas olish olish jarayonlari o‘zgarib boradi, shuning uchun o‘z tabiatini bilan reflektor jarayondir. Sezgilardagi reflektor o‘zgarishlar ularning ob’ektiv ravishda yuz berayotganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Masalan, sezgilarni hosil qiliuvchi har qanday qo‘zg‘atuvchi reflektor jarayonlarni ham vujudga keltirishga qodir: qon tomirlarining torayishi, tekri galvanik refleks (teri elektr qarhshiligining kamayishi), miyaning elektr aktivligi chastotasining o‘zgarishi (alfa, ritma, depressiyasi holati) qo‘zg‘atuvchiga qarab ko‘zning yo‘nalishi, bo‘yin muskullarining taranglashuvi va boshqalar. Mana bu narsalarning barchasi sezgilarning paydo bo‘lishini ob’ektiv ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, sinaluvchiga kuchsiz qo‘zg‘atuvchi bilan ta’sir etilsa, ya’ni sub’ektga kuchsiz qo‘zg‘atuvchi bilan ta’sir etilsa, u holda sub’ektda hech qanday sezgi hosil bo‘lmaydi, shuningdek, sanab o‘tilgan reflektorlarda ham o‘zgarish yuz bermaydi.


Qon tomir yoki elektrofiziologik reaksiyalar kuchsiz qo‘zg‘atuvchi ta’sirida ham aniq namoyon bo‘lishi mumkin, aksincha sezish jarayoni esa amalga oshmaydi. Bu holatni elektroensefagrafik reaksiyalar tasdiqlaydi. Tovush qo‘zg‘atuvchiga kelib chiqqan holda G.V.Gershuni inson subsensor diapazonga ega degan ilmiy g‘oyani olg‘a suradi. Bu narsa anglashinilmagan fiziologik reaksiyalar, sezib bo‘lmas qo‘zg‘atuvchilarga asoslanadi.

Diqqat - bu inson ongingin biror ob`ektga yo`naltirilishi va to`planishidir.

### **Diqqat turlari**



## Diqqatning xususiyatlari



Diqqatni o`rganish o`zlashtirmaslikning sabablarini, o`quv faoliyati xususiyatlarini tahlil qilish hamda individual psixologo-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishda qo`llaniladi. Shuningdek, diqqatning turli jihatlarini o`rganish kasbiy psixodiagnostika, ayniqsa, kadrlarni tanlashda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Individning o‘z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi **xotira** deb ataladi.

**Xotira**- atrof muhitdagi vogelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qaytatdan esga tushirish, unitish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon alohida va umumiy nomoyon qiluvchi hodisa, barcha taasurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan mnemik (yunoncha mnema-xotira) faoliyatdir

**Intellekt** – inson aqiliy qobiliyatları majmuidir. “Intellekt” tushunchasi (inglizcha “intelligence”) psixologiyada tadqiqot ob`ekti sifatida XIX asr oxirida ingliz antropologi F.Galton tomonidan fanga kiritilgan. F.Galton fikricha, intellektual qobiliyatlar nasliy xususiyat hisoblanadi. Intellektual qibiliyatlar nasl bilan sababiy bog`liq bo`lib, intellektual rivojlanish darajasidagi individual farqlarning yuzaga kelishida talim, tarbiya va boshqa tashqi sharoitlar umuman inkor etiladi.

XX asrda intellekt mohiyatini tushunishga bir necha yondoshuvlar yuzaga keldi. Bular:

- **Intellekt** - Ta`lim olishga bo`lgan qobiliyat sifatida (A.Bine,Ch.Spirmen,S.Kolvin) .
- **Intellekt** - Mavhumlashtirish operatsiyasiga qobiliyat sifatida (L.Termen,R.Torndayk,Dj.Peterson)
- **Intellekt** - Yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati sifatida(V.Stern,L.Terstoun,Ed.Klapared,J.Piaje) .

Intellekt strukturasiga bo`lgan qarashlar:

1. Spirmen bo`yicha intellekt modeli.
2. Terstoun bo`yichai Intellekt modeli
3. Gilford bo`yicha intellekt modeli
4. Ayzenk bo`yicha intellekt modeli

**Spirmenning** 20milli nazariyasiga ko`ra:

- ✓ G- omil
- ✓ S-omil farqlanadi.

G-omil har qanday intellektual faoliyat uchun xos, umumiy omil bo`lsa, S-omil faoliyatning faqat bir turi uchun xos bo`lgan spetcifik omil hisoblanadi.

**Terstoun** intellekt modeli:

**V.** So`zlarni tushunish( lug`at testlari dilan o`lchanadigan asosiy omil).

**W.** Nutq tezligi ( anagramma, qofiya va b.topshiriqlar yordamida o`lchanadi).

**N.** Son omili ( sonlar bilan operatciyalar bajarish aniqligi va tezligini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar yordamida o`lchanadi).

**S.** Fazoviy qobiliyatlar omili (geometrik figuralar va ularning munosabatlari, shuningdek, obektlar holati va ular shakllarini idrok etishni tekshirishga qaratilgan topshiriqlar yordamida o`lchanadi)

**M.** Assotciativ xotira(juft assotciatciyalarni esda olib qorish testlari yordamida o`lchanadi)

**P.** Idrok qilish tezligi( predmetlar, ularning o`xshashlik va farqlarini aniq va tez idrok qilish topshiriqlari orqali tekshiriladi).

**I(RO).** Induktiv tafakkur (vazifani echishning ba`zi qonuniyatlarini izlab topishga qaratilgan topshiriqlar yordamida o`lchanadi).

**Gilford** intellekt modeli:


- Gilford nazariyasidagi muhim jihat shundan iboratki, uning fikricha intellektual qobiliyatlarning 150 turi mavjud. Shu sababli intellekt modelida G – omildan voz kechiladi.
- Gilford intellekt modelida 3 o`lcham mavjud bo`lib, ularning kombinatsiyasi intellektyal qobiliyatlarning har xil tiplarini belgilab beradi.
- Gilford nazariyasidagi muhim jihat shundan iboratki, uning fikricha intellektual qobiliyatlarning 150 turi mavjud. Shu sababli intellekt modelida G – omildan voz kechiladi.
- Gilford intellekt modelida 3 o`lcham mavjud bo`lib, ularning kombinatsiyasi intellektyal qobiliyatlarning har xil tiplarini belgilab beradi.
- Gilford nazariyasidagi muhim jihat shundan iboratki, uning fikricha intellektual qobiliyatlarning 150 turi mavjud. Shu sababli intellekt modelida G – omildan voz kechiladi.
- Gilford intellekt modelida 3 o`lcham mavjud bo`lib, ularning kombinatsiyasi intellektyal qobiliyatlarning har xil tiplarini belgilab beradi.

Bu o`lchamlar:

- Aqliy operatciyalar turi .
- Axborotlar mazmuni .

- Natija yoki mahsulot (axborotni qayta ishlash shakli).


## AQLIY OPERATCIYALAR TURI




**Divergent tafakkur** - bu tafakkurning o`ziga xos, alohida turi bo`lib, bunda bitta muammoni turli javob, yondashuv, qarash bilan hal qilinadi. Divergent tafakkur ijodning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Konvergent tafakkur** – bu tafakkurning shunday shakli, konkret vazifa doirasida avvaldan ishlab chiqilgan va qabul qilingan algoritmlarni aniq qo`llashga asoslanadi.

## Axborot mazmuni



## Natija yoki mahsul



## Ayzenk bo`yicha intellekt modeli

- Intellektual jarayonlar (tafakkur,xotira,idrok).
- Test materiali (verbal,fazoviy) .
- Intellektual jarayonlar sifati ( tezligi va kuchi).

## Ijtimoiy va emotsiyal intellekt.

Ijtimoiy intellekt termini 1920 yilda E.Torndayk tomonidan taklif etilgan.

U intellektning 3 ta tomonini ajratib ko`rsatadi:

- ✓ Abstrakt (mavhum) intellekt – fikr, g`oyalar mohiyatini tushunish va ularni boshqarish.
- ✓ Mexanik intellekt - konkret ob`ektlarga nisbatan fikrlar.
- ✓ Ijtimoiy intellekt – insonlarga nisbatan fikrlar, g`oyalar va ularni boshqarish.

## E.Torndayk bo`yicha:

**Ijtimoiy intellekt** – insoniy munosabatlarda oqilona harakat qila olish qobiliyati, ijtimoiy muammolar bilish, inson shaxsi va uning holatini tushunish.

**Emotsional intellekt** – hissiyotlarni (o`zi va boshqalarning ) tushunish va ularni boshqarish qobiliyati.

Emotsional intellekt tushunchasi psixologiyaga 1983 yil X.Gardner tomonidan kiritilgan.

### **Intellekt psixodiagnostikasi.**

Intellekt testlari - umumiy qobiliyatlarni aniqlash testlari ( lotincha “intellektus” tushunish,bilish ma`nosini anglatadi.

Intellektual koeffitcent (IQ) –intellektual taraqqoyot darajasining miqdoriy ko`rsatkichi bo`lib, intellekt testlari orqali aniqlanadi.

Intellektual koeffitcent tushunchasi V.Shtern tomonidan kiritilgan (1912yil).

### **Bine-Simon testi.**

Bine-Simon testi 3 ta seriyada: 1- seriya 1905 yil, 2-seriya 1908 yil va 3-seriyasi 1911 yilda nashr ettirilgan. Topshiriqlar yosh bo`yicha guruhlashtirilgan(3 yoshdan 13 yoshgacha). Har bir yosh uchun mos tarzda topshiriqlar tanlab olingan. Agar tekshirijgan 80-90% bolalar echa olsalar, topshiriqlar shu yoshga mos deb qaralgan. Bunda 6 yoshgacha bo`lgan bolalarga 4 tadan topshiriq, 6 yoshdan oshgan bolalarga 6 tadan topshiriq berilgan.

Aqliy yosh intellekt ko`rsatkichi bo`lib, xronologik yoshdan farq qilishi mumkin. Aqliy yosh test topshiriqlarining bajarilishiga qarab aniqlanadi. Bolaning xronologik yoshiga mos topshiriqlar taklif etiladi. Agar bola bu topshiriqlarning barchasini bajara olsa, o`zidan katta guruh uchun mo`ljallangan topshiriqlar beriladi.

Agar bola 7 yoshlilar uchun mo`ljallangan barcha vazifalarni bajarsa va 8 yoshlilarnikidan 2 ta vazifani bajarsa, uning natijalari quidagicha hisoblanadi:

$$12 \text{ oy} : 6(8 \text{ yoshlilar uchun vazifalar soni}) = 2 \text{ oy} \text{ (bitta vazifa bahosi);}$$

$$2 \text{ oy} \times 2 = 4 \text{ oy. Shunday qilib, bolaning aqliy yoshi} - 7 \text{ yoshu} 4 \text{ oy.}$$

Aqliy yosh bilan xronologik yoshning mos kelmasligi yoki iqtidorlilik, yoki aqlan qoloqlik sifatida qaralgan, ya`ni agar aqliy yosh xronologik yoshdan past bo`lsa – aqliy qoloqlik, aqliy yosh xronologik yoshdan yuqori bo`lsa – iqtidorlilik hisoblangan.

$$IQ = \frac{\text{aqliy yosh}}{\text{xronologik yosh}} \times 100\%$$

O`rtacha ko`rsatkich 100 ga tehg.  $100 \pm 16$ , ya`ni 84 va 116 oralig`idagi ko`rsatkich norma hisoblanadi. 84 dan past bo`lsa – aqlan qoloqlik, 116 dan yuqori bo`lsa – iqtidorlilik.

Topshiriqlar namunasi ( 3 yoshlilar uchun);

- Ko`z, burun,og`izni ko`rsatish.
- 6 bo`g`indan iborat so`zni takrorlash.
- Berilgan ikkita sonni takrorlash.
- Rasmdagi predmetlarni aytish.
- Familiyasini aytish.

### **Raven testi (Progressiv matricalar).**

Raven testi (Progressiv matricalar) noverbal intellekt testi bo`lib, testing 1-redaktciyasi 1936 yilda L.Penroue va Dj.Raven tomonidan bolalar diagnostikasi uchun ishlab chiqilgan. Testning kattalar uchun varianti 1960 yilda yaratilgan.

Metodika geshtaltpsixologiya nazariyasi asosiga qurilgan. Har bir topshiriq o`zaro bir biri bilan bog`liq elementlardan tashkil topgan yaxlit, bir butun tuzilma sifatida qaraladi. Sinaluvchi dastavval keng miqyosda matritcani baholaydi. So`ngra tasvirni alohida elementlarga ajratadi ( differentciatciya qiladi ). Yakuniy bosqichda ajratib olingan elementlar yaxlit obrazga birlashtiriladi. Shu tariqa tasvirdagi etishmayotgan qism ajratib olinadi.

Testning 3 ta shakli mavjud.

- Birinchi shakli (oxirgi redaktciyasi 1996 yilda) standart oq-qora progressive matritcalar bo`lib, 8 yoshdan 65 yoshgacha bo`lgan sinaluvchilarda qo`llash uchun mo`ljallangan. Ushbu shakl 60 ta matritcadan iborat bo`lib, 5 ta seriyaga ajratilgan (A,B,C,D,E). 1-seriyada matritcada tasvirlangan rasmni tulmaviy tarkibiy qismlarga bo`lish, differentciatciya qilish talab etiladi. Keyingi seriyalarda topshiriqlar ancha murakkab bo`lib, analogiya bo`yicha fikrlash, o`rnini o`zgartirish, figuradagi murakkab o`zgarishlar tamoyillarini tushuna olish, aqliy harakatlar taqozo etiladi.

- Ikkinch shakli (oxirgi redaktciyasi 1960 yil) rangli progressiv matritcalar. 5 yoshdan 11 yoshgacha, shuningdek, qarilik davri (60-89 yosh) hamda aqlan qoloq katta yoshli sinaluvchilarni diagnostika qilishda foydalilaniladi. Ushbu shakl 36 ta matitcadan tuzilgan bo`lib, 3 ta seriyaga bo`lingan. Topshiriqlarda tasvirdagi etishmayotgan qismni to`ldirish vazifasi qo`yiladi.

- Uchinchi shakli (oxirgi redaktcyasi 1994 yilda) yuqori murakkablikdagi progressive matritcalar bo`lib, intellektual taraqqiyot darajasi yuqori bo`lgan katta yoshdagilar va o`smlarni diagnostika qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan.

**“Maktab aqliy taraqqiyot testi”.** “Maktab aqliy taraqqiyot testi” o`smlilik va o`sprinlik davridagi o`quvchilar aqliy taraqqiyoti diagnostikasi uchun, maktabdagi ta`lim jarayonida aqliy rivojlanishni nazorat qilish uchun mo`ljallangan. Metodika M.K.Akimova, E.M.Borisova, K.M.Gurevich, V.T.Kozlova, G.P.Loginova, V.G.Zarxin tomonidan taklif qilingan. “Maktab aqliy taraqqiyot testi” psixologik maslahat, ta`lim nazorati, o`quvchi aqliy taraqqiyotini tuzatish bo`yica umumiylar individual tavsiyalar ishlab chiqish sohalarida qo`llanilishi mumkin.

“Maktab aqliy taraqqiyot testi” 6ta subtestdan tuzilgan bo`lib, ularning mazmuni quidagilardan iborat:

- Umumiy bilimdonlik;
- Umumiy bilimdonlik;
- Analogiya;
- Tasniflash;
- Umumlashtirish;
- Sonlar qatori.

Test bir-biriga o`xshash 2 ta shakl – A va B shakllariga ega.

Testni to`g`ri o`tkazish uchun ko`rsatmaga qat`iy amal qilish, sekundomer yordamida subtestlar bajarilish vaqtini nazorat qilish, topshiriqlarni bajarishda sinaluvchilarga ko`mak bermaslik juda muhimdir. Butun test bo`yicha

sinaluvchilarga umumiy ko`rsatma tadqiqotchi tomonidan og`zaki ko`rinishda beriladi.

Subtestlarni bajarish uchun sinaluvchiga muayyan vaqt belgilab beriladi.

Quidagi jadvalda topshiriqlar va ularga ajratilgan vaqt ko`rsatilgan.

t.r.	Subtestlar nomi	Subtestdagi topshiriqlar soni	Bajarilish vaqtি (m)
1.	Umumiy bilimdonlik -1	20	8
2.	Umumiy bilimdonlik -2	20	4
3.	O`xshashlik	25	10
4.	Tasniflash	20	7
5.	Umumlashtirish	19	8
6.	Sonlar qatori	15	7

Ko`rsatma: “Siz tirli topshiriqlar to`plamini bajarishingiz lozim.Har bir topshiriq taklif qilinishidan oldin, ular yaxshilab tushuntiriladi hamda ularni echish yo`llari misollar bilan keltiriladi. Har bir topshiriqlar to`plamini bajarish uchun muayyan vaqt belgilangan. Topshiriqni ko`rsatma asosida boshlaysiz va tugatasiz. Har bir topshiriqni qat`iy tartib boicha echishingiz, bunda tez va xatosiz ishslashga harakat qilishingiz zarur”.

Sinaluvchilarga ko`rsatma o`qib eshittirilganidan so`ng tadqiqotchi javob varaqasini tarqatib chiqadi. So`ngra o`quvchining familiya, ismi, sharifi, tadqiqot o`tkazilish vaqtি, o`quvchi o`qiydigan mакtab va sinf haqidagi ma`lumotlarni to`ldirish bo`yicha ko`rsatma beriladi.

Tadqiqot natijalari barcha subtest lar bo`yicha to`plangan ballar yig`idisи asosida hisoblanadi.

**D.Veksler intellektni o`lchash testi.** Amerikalik psixodiagnost D.Veksler tomonidan ishlab chiqilgan intellektni aniqlash testi 3 turdagи yosh guruhlari uchun mo`ljallangan:

- ◆ Kattalar uchun – 16 yoshdan boshlab.

- ◆ Bolalar uchun – 6 yoshdan 16 yoshgacha.
- ◆ Maktabgacha yoahdagi bolalar uchun – 3 yoshdan 6 yoshgacha.

D.Veksler metodikasi verbal va noverbal shkalalardan iborat subtestlardan iborat. Kattalar va bolalarga mo`ljallangan testlarda 11 ta subtest mavjud bo`lib, ulardan 6 tasi verbal, 5 tasi noverbal topshiriqlar hisoblanadi.

Natijalar, ya`ni intellektual koeffitcent verbal va noverbal topshiriqlar bo`yicha alohida hamda umuman test bo`yicha hisoblanadi. Norma – IQ 85 dan 115 gacha oraliqdagi ko`rsatkich.

### **“Tushunchalar tahlili ” organayzeri**

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Tushunchalar tahlili” usuli orqali muammo hal qilinadi.

	Mazmuni
Tafakkur	
Konvergent tafakkur	
Diqqat	
Divergent tafakkur	

2-guruh

	Mazmuni
Intellekt	
Ijtimoiy intellekt	
Emotsional intellekt	
Intellektual koeffitcent	

## **Glossariy**

**Diqqat** - bu inson ongingin biror ob`ektga yo`naltirilishi va to`planishidir.

**Intellekt** – inson aqliy qobiliyatları majmuidir.

**Divergent tafakkur** - bu tafakkurning o`ziga xos, alohida turi bo`lib, bunda bitta muammoni turli javob, yondashuv, qarash bilan hal qilinadi. Divergent tafakkur ijodning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Konvergent tafakkur** – bu tafakkurning shunday shakliki, konkret vazifa doirasida avvaldan ishlab chiqilgan va qabul qilingan algoritmlarni aniq qo`llashga asoslanadi.

**Ijtimoiy intellekt** – insoniy munosabatlarda oqilona harakat qila olish qobiliyati, ijtimoiy muammolar bilish, inson shaxsi va uning holatini tushunish.

**Emotsional intellekt** – hissiyotlarni (o`zi va boshqalarning ) tushunish va ularni boshqarish qobiliyati.

**Intellekt testlari** - umumiyl qobiliyatlarini aniqlash testlari ( lotincha “intellectus” tushunish,bilish ma`nosini anglatadi.

**Intellektual koeffitcent (IQ)** –intellektual taraqqoyot darajasining miqdoriy ko`rsatkichi bo`lib, intellekt testlari orqali aniqlanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Анастази А. Психологическое тестирование. М.: 2001.
2. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. М.: «Питер», 2005.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
4. Дубровина Б.В. Рабочая книга школьного психолога. М.:1991.
5. Nishanova Z.T.Psixodiagnostika. Т.: 2008.
6. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
7. Rasulov A. Psixodiagnostika. Т.: 2010.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб., 2005.
9. Зеер Э. Ф. Психология профессий: учебное пособие для студентов вузов. М.: 2003. 336 s.

### **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Bilish jarayonlariga qaysi psixik jarayonlar kiradi?
2. Sezgilarni o‘lchashni qanday metodlari bor?
3. Shaxs taraqqiyotida diqqat xususiyatlarining shakllanish darajasining ahamiyati?
4. Qanday maqsadlarda diqqat xususiyatlari o`rganiladi?
5. Xotirani qanday metodikalar orqali o`rganish mumkin?
6. Intellekt strukturasiga nisbatan qanday qarashlar mavjud?
7. Terstoun bo`yicha intellekt modeli qanday?
8. Gilfordning intellekt modeli nimalarni o’z ichiga oladi?
9. Ayzenk bo`yicha intellekt modeli qanday?
10. Ijtimoiy intellekt qachon va kim tomonidan taklif etilgan?
11. Intellekt psixodiagnostikasida qanday metodikalar qo’llaniladi?
12. “Maktab aqliy taraqqiyot testi” nima maqsadda qo’llaniladi?

## **MAVZU: SHAXSNI PSIXODIAGNOSTIK BAHOLASH.**

### **Reja:**

- 1.Shaxs nazariyaları.
- 2.Shaxsning psixologik tuzilishi.
- 3.Shaxs psixodiagnostikasida qo`llaniladigan metodikalar tavsifi .

**Tayanch tushunchalar:** Shaxs, inson, individ, individuallik, shaxs so`rovnomalari, internal nazorat, eksternal nazorat, xarakter, temperament.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir.

Shaxs o`zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy bo`lgan, o`z e`tiqodi, qarash, munosabatlari, baholariga ega bo`lgan sub`ekt. Shaxs jamiyatda ma`lum holatni egallovchi, muayyan ijtimoiy rolni bajaruvchi ongli individ. SHaxsga taaluqli bo`lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.

Quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanuvchi insonni shaxs deb atash mumkin:

- Ijtimoiy mavjudot bo'lism;
- Ong va o`z-o`zini anglashga ega bo'lism;
- O`zini aktiv faoliyatda namoyon qilish.

Psixologiyada shaxs tushunchasi bilan bir qatorda inson, individ, individuallik tushunchalari farqlanadi.

•**Inson** tushunchasi barcha odamlarga xos bo`lgan insoniy xususiyatlar majmuyini o`z ichiga oladi. Bunda konkret insonda ushbu xususiyatlar bor yoki yoqligi ahamiyatga ega emas.

•**Individ** – biologik, jismoniy, ijtimoiy, psixologik xususiyatlarga ega bo`lgan alohida olingan inson.

- Individ tushunchasiga insonni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar bilan bir qatorda barcha insonlarga xos bo`lgan sifatlarni ham kiritish mumkin.

- **Individuallik** – insonni boshqalardan ajratib turuvchi individlik va shaxslilik sifatlarini o`z ichiga oladi.

K.K.Platonov bo`yicha shaxsning tuzilishi:



Shaxs ko`p qirrali tushuncha bo`lgani sababli, uni ta`riflash hamda diagnostika qilish ham juda murakkab. Shaxs to‘g‘risida ma’lumot olish bo`yicha psixodiagnostikada bir qator munosabat va mulohazalar mavjud bo‘lib, ularga ko‘ra turli usullar farqlanadi.

Shaxs psixodiagnostikasida qo`llaniladigan metodikalarni 2 ta katta guruhga ajratish mumkin:

- 1.So`rovnomalari.
- 2.Proyektiv metodikalar.

Shaxs so`rovnomalari – bu shaxsning alohida xususiyatlarini aniqlash va baholash uchun qo`llaniladigan metodik vositalar majmuidir. Ushbu metodning nazariy asosi – introspektionizm hisoblanadi.

So`rovnoma metodi birinchi bo`lib F.Galton tomonidan shaxs sifatlarini emas, balki insonning bilish sohasini baholash uchun qo`llanilgan (ko`rish idroki, aqliy obraz).

XIX asr oxirlarida ushbu metod yordamida xotira (Bine, E.Kurt`e), umumiy tushunchalar (T.Ribo), ichki nutq (O.Sen-Pol) tadqiq qilingan.

Shaxs so`rovnomalaridan biri amerikalik psixolog R.Vudvorts tomonidan 1919 yilda ishlab chiqilgan “Shaxs haqidagi ma`lumotlar blanki” dir.

Ushbu so`rovnoma harbiy xizmatchilarining nevrotik simptomatikasini aniqlash va ularni xizmatchilar safidan chiqarish uchun mo`ljallangan.

Akimova M.K. va Gurevich K.M. bo`yicha shaxs so`rovnomalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- ✓ Tipologik so`rovnomalar (MMPI,X.Shmishek xarakter aktsentuatsiyasi tiplarini aniqlash)
- ✓ Shaxs xususiyatlarini aniqlash so`rovnomalari(R.B.Kettel )
- ✓ Motivlarni aniqlash so`rovnomalari
- ✓ Qiziqishlarni aniqlash so`rovnomalari
- ✓ Qadriyatlarni aniqlash so`rovnomalari
- ✓ Ustanovkalarni aniqlash so`rovnomalari.

**MMPI** – (Minnesota Multiphasik Personality Inventory) Minnesot ko`p omilli shaxs so`rovnomasini 1941 yilda S.Xetuey va Dj.Makkinli tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu so`rovnoma norma va patologiyani aniqlash uchun mo`ljallangan. 16 dan 55 yoshgacha bo`lgan 700 nafar sinaluvchilarda standartlashtirilgan. Metodika 550 ta tasdiqdan iborat bo`lib, ularga “to`g`ri”, “noto`g`ri”, “aytish qiyin” tarzida javob berish so`raladi.

10 ta asosiy va yana 3 ta nazorat shkalasidan iborat:


- Depressiya shkalasi (ta`sirchanlik,o`zidan qoniqmaslik);
- Ipoxonondriya shkalasi (sog`ligiga haddan ortiq etibor qaratish);
- Isteriya shalasi (namoyishkoronalik);
- Psixopatiya shkalsi (ijtimoiy dezadaptaciya,o`zini tutolmaslik, aggressivlik,ta`sirchanlik);

- Erkaklik va ayollik shkalasi (ayollik yoki erkaklik roli bilan identifikatciya);
- Paranoyallik shkalasi (egoizm,o`zidan mammunlik);
- Psixoasteniya shkalasi(xavotirli, shubhali,o`z kuchlariga ishonmaslik);
- Shizoidlikni aniqash shkalasi(autistik tip);
- Gipomaniya shkalasi(sababsiz ko`tarinki kayfiyatda bo`lish,faollik,g`ayratlilik);
- Ijtimoiy introversiya shkalasi(munosabatlarda tortinish, uyalish).

**X.Shmishekning aktcentuatsiya tiplarini diagnostika qilishga mo`ljallangan metodika.** Ushbu metodika K.Leongardning xarakter aktsentuatsiyasi kontceptsiyasi asosida yaratilgan. Bunda 10 ta tip ajratib ko`rsatiladi:

- 1.Namoyishkorona tip -boshqalarning diqqat markazida bo`lish;
- 2.Pedantik tip - haddan ortiq tartiblilik, qat`iyatsizlik, ehtiyotkorlik, o`zgarishlarga noqobillik;
3. Qotib qoluvchi tip (rigidlik) - kuchli barqaror affekt, emotsional kechinmalarni uzoq saqlanishi;
- 4. Qo`zg`aluvchan tip – impulsivlik;
- 5. Gipertim tip - doimo ko`tarinki kayfiyatning ustuvorligi;
- 6. Distim tip - gipertimning aksi, hayotning achchiq, qora tomonlariga etiborlilik, passivlik;
- 7. Xavotirli tip - omadsizliklardan cho`chish,kuchli xavotirlanish, tortinchoalik, o`z kuchlariga ishonmaslik;
- 8. Tsiklotim tip - gipertim va distim holatlarni doimiy almashinib turishi;
- 9. Ekzaltir tip - quvonchli holatlarga va qayg`uga kuchli reaksiya ko`rsatish, haddan ortiq ta`sirchanlik;
- 10. Emotiv tip - yumshoq ko`ngillilik, dilkashlik,yuqori empatiya, yig`loqilik.

## **Proyektiv texnikalar:**



Psixoanalizning asosiy tushunchasi ongsizlikdir. Dastavval, bu tushuncha shaxsning yashirin harakatlantiruvchi kuchi , organizmning yashirin tubidan harakat qiluvchi motiv deb qaralgan. Aql ongsizlikka nisbatan yashirin mexanizm bo`lib xizmat qiladi.

Ongsizlik sohasiga kirish, undagi yasharin tendentciyalarni tushunish uchun eksperiment davomida ongni o`ziga xos topshiriqlarni hal qilishga qaratish lozim bo`lgan. Bu esa shaxsda ongsizlikni ihtiyorsiz tarzda namoyon qilish imkonini yaratgan. Aynan mana shunday topshiriqlar proyektiv metodikalarga kiritilgan.

Shaxsning yetukligi darajasini belgilovchi muhim ko`rsatkichlaridan biri – mas’uliyatdir. Shaxsning muhim xususiyati birovlarga bog‘liq bo‘lmasligi, mustaqillik va o‘z maqsadlariga erishishda insonning faolligi, bo‘layotgan voqealarga nisbatan shaxsiy javobgarlik hissining rivojlanishidir.

Ushbu xususiyatni o‘rganish metodlari dastlab XX asrning 60 yillarida AQSH da ishlab chiqilgan. Nazorat lokusi nazariyasi yaratilib, uning asoschisi amerikalik olim Dj.Rotter hisoblanadi. Unga ko‘ra har bir insonda ikki turdag‘i mas’uliyat kuzatiladi. Bular:

1. Internal nazorat lokusi.
2. Eksternal nazorat lokusi.

Birinchi turdag'i mas'uliyatda shaxs o'zining hayotida ro'y beradigan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida o'zini tan oladi. Bunday kishilarda internal nazorat lokusi ustunlik qiladi.

Mas'uliyatlilikning ikkinchi turida undan farqli barcha ro'y bergan va beradigan voqe'a va hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar hisoblanadi. Nazorat lokusining bu turi eksternal nazorat deb ataladi. Eksternallar mas'uliyatni boshqalar zimmasiga yuklashga moyildirlar.

Internallar o'z hayotlaridagi barcha yaxshi narsalarga o'z kuchlari bilan erishadilar va kelajakda ham o'z maqsadlariga muvaffaqiyat bilan erishishga qobil bo'ladilar. Biroq shu bilan birga ular barcha salbiy hodisalar javobgarligini ham o'z bo'ynilariga oladilar, omadsizlik, azoblanishlarda o'zlarini ayblaydilar. Bunday kishilar o'z ishlarini tashkil qilishda o'z harakatlarini muhim omil deb hisoblaydilar, jamoadagi munosabatlar, lavozimda ko'tarilish faqat o'zlariga bog'liq bo'ladi.

Internallar oilaviy hayotdag'i voqe'a va hodisalarga o'zlarini mas'ul deb biladilar, oilaviy muammolar yuzaga kelsa, bunda turmush o'rtoqlarini emas, avvalom bor o'zlarini aybdor his qiladilar va o'zlarini o'zgartirishga harakat qiladilar. Bunday odamlar o'zlarini boshqalar bilan norasmiy munosabatlarini nazorat qilishga qobil deb biladilar, o'zlariga nisbatan hurmat, simpatiyani, muloqot doirasini faol qura oladilar.

Internal ko'p jihatdan salomatligiga ham o'zi mas'ul ekanligini his qiladi. Agar betob bo'lib qolsa, o'zini ayblaydi va davolanish ham vrachga emas, o'ziga bog'liq deb hisoblaydi.

Shunday qilib, internal uchun faol hayotiy pozitsiya, mustaqillik, o'ziga nisbatan mas'uliyat hissi xosdir.

Eksternallar esa aksincha, ko'pincha passiv bo'ladilar, ular uchun pessimizm xos bo'lib, o'zlariga hech narsa bog'liq emas, hamma narsa tashqi sharoitlarga bog'liq deb hisoblaydilar. Ular o'zlarining muvaffaqiyati, yutuq va quvonchlarining ham sababchisi omad, taqdir yoki odamlarning yordami deb biladilar.

“Internal” tipidagi odamlar ko‘pincha hayotda “g‘olib”, eksternallar esa “mag‘lub” bo‘lib, ularning hayotiy ssenariylari ham, o‘zлari va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlari ham turlichay bo‘ladi (ssenariy – hayotiy reja).

**Strelyau test-so‘rovnomasi.** Zamonaviy mashhur polyak psixolog Yan Strelyau Pavlov-Teplov differensial-psixofiziologik mohiyati asosida uchta asab faoliyati tarifini o‘lchab yo‘naltirilgan testni qayta ishlab chiqdi: asabiyplashish, tormozlanish, harakatchanlik ( Strelyau YA.,1982).

Test-so‘rovnomasi 134-ta savoldan iborat bo‘lib, uch xil javob varianti keltirilgan. So‘rovnomani o‘tkazish uchun faqatgina standart qo‘llanma va javob varaqasi kerak bo‘ladi. Mazkur so‘rovnomani individual va guruhiy tarzda o‘tkazish mumkin. So‘rovnomadagi har bir savol testning ma’lum bir shkalasiga mos keladi: 45 ta savol – birinchi shkalaga, 44ta savol – ikkinchi shkalaga, 43 tasi – uchinchi shkalaga tegishli.

**Kettel testi.** (16 PF- so‘rovnomasi) Ko‘p omilli shaxs so‘rovnomasi 1949 yili R.B.Kettel tomonidan tuzilgan bo‘lib, hozirgi kunda ham psixodiagnostik amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bu test sinaluvchi haqida ko‘proq jumladan, muloqotchanlik, aqliy funksiyalarning shakllanganlik darajasi, emotsiyonal barqarorlik yoki beqarorlik, tobeklik yoki mustaqil, hukmronlik, tortinchoqlig, ochiq ko‘ngillik va boshqa xususiyatlar to‘g‘risida ma’lumot olish imkonini beradi. Ushbu testning qisqartirilgan varianti 105 ta savol va ularga keltirilgan mulohazalardan iborat bo‘lib, vaqt tanqisligi holatlarida juda qo‘l keladi. Testni qo‘llash vaqt 20-50 daqiqani tashkil etishi mumkin. Sinaluvchiga ko‘rsatma beriladi. Javoblar varqalari maxsus test kaliti orqali quyidagicha baholanadi:

Kalitga mos kelgan “a” va “c” javoblar 2baldan, “b” javob esa 1 baldan baholanadi. Har bir keltirilgan savollar to‘plami javobidan biron-bir faktorning ahamiyati ochiladi. Faktor V bundan mustasno, bu to‘plamdagи barcha javoblar 1 baldan baholanadi. Shunday qilib, barcha faktorlar bo‘yicha maksimal bal 12 balni, V faktorda esa 8 balni tashkil etadi.

## Glossariy

**Shaxs** - o`zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy bo`lgan, o`z e`tiqodi, qarash, munosabatlari, baholariga ega bo`lgan sub`ekt.

**Inson** tushunchasi barcha odamlarga xos bo`lgan insoniy xususiyatlar majmuyini o`z ichiga oladi. Bunda konkret insonda ushbu xususiyatlar bor yoki yoqligi ahamiyatga ega emas.

**Individ** – biologik, jismoniy, ijtimoiy, psixologik xususiyatlarga ega bo`lgan alohida olingan inson.

Individ tushunchasiga insonni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar bilan bir qatorda barcha insonlarga xos bo`lgan sifatlarni ham kiritish mumkin.

**Individuallik** – insonni boshqalardan ajratib turuvchi individlik va shaxslilik sifatlarini o`z ichiga oladi.

**Shaxs so`rovnomalari** – bu shaxsning alohida xususiyatlarini aniqlash va baholash uchun qo`llaniladigan metodik vositalar majmuidir.

**Internal nazorat** – shaxs o`zining hayotida ro`y beradigan barcha hodisalarning sababchisi, ma`suli sifatida o`zini tan olishi.

**Eksternal nazorat** – bu nazorat turining asosiy jihatni shu bilan xarakterlanadiki, bunda barcha ro` berayotgan voqeasi va hodisalarning ma`suli, sababchisi sifatida tashqi omillar, boshqa odimlar hisoblanadi.

### Adabiyotlar:

1. Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. T.: 2008 .
2. Z.T.Nishonova, Z.Qurbanova, S.Abdieva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni" – 2011..
3. R.Y.Toshimov, E.G`G`oziev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika. T.: 2010.
5. E.G`oziev. Umumiy psixologiya. T.:2012.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психоdiagностика. М.: 2001

7. Немов Р.С. Психология. 3-книга. М.: 2003.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

**O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Turli shaxs nazariyalarida shaxs tushunchasi?
2. Qanday xususiyatlar bilan xarakterlanuvchi insonni shaxs deb atash mumkin?
3. Individuallik nimani anglatadi?
4. K.K.Platonov bo`yicha shaxsning tuzilishi qanday?
5. Shaxs psixodiagnostikasida qo`llaniladigan metodikalarni qanday guruhga ajratish mumkin?
6. Akimova M.K. va Gurevich K.M. bo`yicha shaxs so`rovnomalarini qanday tasniflash mumkin?
7. MMPI –Minnesot ko`p omilli shaxs so`rovnomasini qachon va kim tomonidan ishlab chiqilgan?
8. K.Leongardning xarakter aktsentuatsiyasi kontceptsiyasi asosida yaratilgan qanday metodika yaratilgan?
9. Nazorat lokusi nazariyasi asoschisi kim hisoblanadi?
10. Streljau test-so`rovnomasini qanday xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan?
11. R.B.Kettel ko`p omilli shaxs so`rovnomasini qachon tuzilgan?
12. Temperament qaysi diagnostik metodikalar orqali o`rganiladi?

## **MAVZU: SHAXSNING EMOTSIONAL –MOTIVATSION SOHASI VA FUNKTSIONAL HOLATLARI PSIXODIAGNOSTIKASI**

### **Reja**

1. Shaxsning emotsional sohasi diagnostikasi.
2. Motiv va motivatsiya haqida tushuncha.
3. Motiv predmetining umumlashganlik mohiyati.
4. Shaxs motivatsiya sohasining psixodiagnostika metodlari.

**Tayanch tushunchalar:** Motiv , motivatsiya, shaxsiy dispozitsiyalar , ehtiyoj, fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo`lgan ehtiyojlar, munosabatda bo`lish ehtiyoji, hurmatga sazovor bo`lish ehtiyoji, bilish ehtiyojlari, estetik ehtiyojlar, o`z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari

Psixologiyada motiv va motivatsiya tushunchalari farqlanadi.

**Motiv** – lotin tilidagi “movere” so`zidan olingan bo`lib, harakatga keltirish, harakatlantirish ma`nosini anglatadi.

**Motiv** – sub'ekt ehtiyojlarining qondirilishi bilan bo'g'liq bo`lgan faoliyatga undovchi turtki.

Motiv muammosi D.N.Uznadze tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning mohiyatini tushntirish, ustanovka nazariyasiga asoslangan. SHuning uchun motivni muallif sub'ekt faolligining manbai, deb tushuntiradi, motivatsiyani esa irodaviy aktga olib keluvchi bosqich deb hisoblaydi.

«**Motivatsiya**» tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. **Motivatsiya** - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo'lida?» degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

**Motivatsiya :**

Insonning ehtiyojlari qondirilishi bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi turtki

Faollik nimaga yonaltirilganligini, nima uchun aynan mana shu xulq-atvor tanlanganligi sababi

Insonning o`z xulq-atvori va faoliyatini boshqarishi vositasi sifatida qaralishi mumkin.

Demak, “motivatsiya” deganda o`zaro bir-biri bilan bog`liq psixologik holatlarning 3ta turi tushuniladi.


- Birinchidan, motivatsiya faoliyatga undovchi turtki, deb qaralishi mumkin. Bu holda motivatsiya umuman faollik holati nima uchun vujudga kelishi, qanday ehtiyojlar sub`ektni faoliyatga undashini aniqlab beradi.
- Ikkinchidan, motivatsiya xulq-atvor yonalishini tanlash sababi bo`lib, inson shaxsi yo`nalishini taskil qiladi.
- Uchinchidan, motivatsiya faoliyatni boshqarish vositasi hisoblanadi. Bu vositalarga – emotciya, istak, mayllarni kiritish mumkin.

Insonning hatti -harakatlarini belgilovchi barcha psixologik omillar **shaxsiy dispozitciyalar** deb ataladi.

Barcha mavjud dispozitciyalarning eng muhim ehtiyoj hisoblanadi.

**Ehtiyoj** – odam va hayvonlarning normal yashashi hamda rivojlanishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga muhtojlik holatidir.

**A.MASLOU** tomonidan odam ehtiyojlarining shaxsiy rivojlanish davomida paydo bo`ladigan ehtiyojlari ierarxiyasi taklif etilgan.




- **Fiziologik ehtiyojlar** - Ochlik, tashnalik, jinsiy mayllar va boshqalar.
- **Xavfsizlikka bo`lgan ehtiyojlar** - O`zini xavfsiz sezish, qo`rquv va aggressivlikdan xalos bo`lish.
  - **Munosabatda bo`lish ehtiyoji** - Jamiyatda bo`lis, odamlar orasida bo`lish, ular tomonidan qabul qilinish
  - **Hurmatga sazovor bo`lish ehtiyoji** - kompitentlik, muvaffaqiyatga erishish, ma`qullash, tan olish
  - **Bilish ehtiyojlari** - Bilish, qila olish, tushunish, o`rganish
  - **Estetik ehtiyojlar** - Garmoniya, simmetriya, tartib, go`zallik
  - **O`z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlar** - O`z maqsadlari, qobiliyatlarini r`o`yobga chiqarish .

### **Motivatsiya turlari:**

Psixologiyada har xil faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi nazariyasi ishlab chiqilgan. Uning asoschilari amerikalik olimlar – D.Makkelleland, D.Atkinson va nemis olimi X.Xekxauzendir.

Bu nazariyaga ko`ra odamning muvaffaqiyatga yo`naltirilgan faoliyat bilan bog`liq ikki motivi farqlanadi.




- Muvaffaqiyatga motivlashgan odamlarga xos xususiyatlar:

Oldilariga ijobiy maqsad qo`yadilar; muvaffaqiyatga ishonadilar;barcha imkoniyatlarini ishga soladilar,qat`iyatli bo`ladilar,o`zlarini adekvat baholaydilar,internallar.

- Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustun odamlarga xos xususiyatlar:

Ular faoliyatidagi asosiy maqsad muvaffaqiyatsizlikka uchrab qolmaslik,boshidanoq ishonchsizlikni namoyon qiladilar, tanqiddan qo`rqadilar,salbiy emotciyalarni boshdan kechiradilar, o`zlarini noadekvat baholaydilar,eksternallar.

## “Qanday?” diagrammasi.



### Glossariy

**Motiv** - sub`ekt ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi turtki.

**Motivatsiya** – Insonning ehtiyojlari qondirilishi bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi turtki

**Motivatsiya** – Faollik nimaga yonaltirilganligini, nima uchun aynan mana shu xulq-atvor tanlanganligi sababi .

**Motivatsiya** - Insonning o`z xulq-atvori va faoliyatini boshqarishi vositasi sifatida qaralishi mumkin.

**Shaxsiy dispozitciyalar** - Insonning hatti -harakatlarini belgilovchi barcha psixologik omillar .

**Ehtiyoj** – odam va hayvonlarning normal yashashi hamda rivojlanishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga muhtojlik holatidir.

**Fiziologik ehtiyojlar** - Ochlik, tashnalik, jinsiy mayllar va boshqalar

**Xavfsizlikka bo`lgan ehtiyojlar** - O`zini xavfsiz sezish, qo`rquv va aggressivlikdan xalos bo`lish

**Munosabatda bo`lish ehtiyoji** - Jamiyatda bo`lis, odamlar orasida bo`lish, ular tomonidan qabul qilinish

**Hurmatga sazovor bo`lish ehtiyoji** - kompitentlik, muvaffaqiyatga erishish,ma`qullash,tan olish

**Bilish ehtiyojlari** - Bilish ,qila olish ,tushunish, o`rganish

**Estetik ehtiyojlar** - Garmoniya, simmetriya, tartib, go`zallik

**O`z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari** - O`z maqsadlari, qobiliyatlarini r`o`yobga chiqarish .

### **Adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. T.: 2008 .
2. Z.T.Nishonova, Z.Qurbanova, S.Abdieva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur bo'stoni” – 2011..
3. R.Y.Toshimov, E.G`G`oziev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika. T.: 2010.
5. E.G`oziyev. Umumiyl psixologiya. T.:2012.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
7. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

### **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Motiv qanday ma`noni anglatadi?
2. Motiv muammosi qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgan?
3. Motivatsiya deganda psixologik holatlarning qanday turi tushuniladi?
4. Shaxsiy dispozitsiyalar deb nimaga ataladi?
5. Kim tomonidan odam ehtiyojlarining shaxsiy rivojlanish davomida paydo bo`ladigan ehtiyojlari ierarxiyasi taklif etilgan?
6. Psixologiyada har xil faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi nazariyasi asoschilari kim?
7. Muvaffaqiyatga motivlashgan odamlarga xos xususiyatlar qanday?

## **MAVZU: SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODLARNING QO'LLANILISHI**

**Reja:**

1. Proyektiv metodlarning mohiyati va o'ziga xosligi.
2. Proyektiv metodikalarning yaratilish tarixi.
3. Proyektiv metodikalarning tasnifi.

**Tayanch tushunchalar:** proyektiv metodikalar, strukturalashtirish proyektiv metodikalari, tavsiviylar proyektiv metodikalar, ekspressiv proyektiv metodikalar, retest ishochlilik.

Proyektiv metodikalarning o`ziga xos xususiyatlari:

- Turli-tuman javoblarga yo`l qo`yuvchi topshiriqlarning taqdim etilishi.
- Stimul qo`zg`atuvchining ko`p ma`noli ekanligi.
- Shaxsni baholashga global yondoshuv, ya`ni uning yashirin, to`liq anglanmaydigan, yopiq tomonlarini aniqlash imkoniyati.
- Sinaluvchi javoblarini “to`g`ri” va “noto`g`ri” tarzida baholash mumkin emasligi.

**Proyektiv metodlar tarixi.** Proyektiv metodikalar klinik yo`nalishlarga ega bo`lgan o`ziga xos, turli – tuman psixodiagnostik vositalar guruhidir. Klinik yo`nalish deganda bu erda shaxsning anomal holatlarini aniqlash emas, balki xulq – atvorning individual uslubi, nizoli va boshqa xolatlarda affektiv hissiyot hamda kechinmalarni, shaxsning ongsizlik holatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar tushuniladi. Proyektiv metodikalar tarixi 1904 – 1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so`zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Mazkur testning turli variantlari keyinchalik aybdorlik hissini aniqlash (detektor lji M.Vertgayler va A.R.Luriya), normani patologiyadan ajratish va boshqalar uchun qo`llanildi. Tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham Yungning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Proyektiv diagnostikaning kelib chiqishi 1921 yilda shvetsariyalik psixiatr G.Rorshax tomonidan Bernda, nemis tilida “Psixodiagnostika: idrokka

asoslangan diagnostik test” asarining nashr qilinishi bilan bog‘langan. O‘zi rassomlikdan voz kechishiga qaramay, Germon Rorshax san’at va rassomlik tarixi bilan ko‘proq qiziqardi. Unga ma’lum bo‘lishicha, buyuk Leonardo da Vinci o‘z xayolini osmondagи bulutlar, ularagini turli shakllarni uzoq vaqt davomida kuzatish va ularni tahlil qilish orqali mashq qildirar edi. Bu xususiyat, ya’ni atrofimizdagi predmetli dunyoni “jonlantirish” barchaga, ayniqsa rassomlar va yosh bolalarga xos bo‘lgan xususiyatdir.

G.Rorshaxning taxminiga ko‘ra, siyoh dog‘lari, ya’ni ko‘rishga yo‘naltirilgan siyoh dog‘lari motor (harakat) fantaziyalarini jonlantiradi.

G.Rorshaxdan avval siyoh dog‘lari bilan boshqa psixologlar, masalan Rassiyada F.E.Ribakov, A.Bine va V.Anri – Fransiyada eksperimentlar o‘tkazishgan. Biroq G.Rorshax birinchi bo‘lib fantaziya obrazlarini shaxsning asosiy sifat va xislatlari bilan aloqasini isbotlab berdi. Rorshax g‘oya va tadqiqtari hozirgi kunda ikki yirik yo‘nalishda – Amerika (Vesk, Klopfer, Daviolson) va Evropa (Bohm, doosli – listeri) yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi.

Rossiyada Rorshax testini qo‘llashga dastlabki urinishlar 20 – 30 yillarga to‘g‘ri kelib, u asosan shaxs anomal xususiyatlarini aniqlash, nevroz va psixopatlar diagnostikasi, shuningdek, epilepsiya kasalligini tadqiq qilishda fo‘ydalanildi. 60 yillardan boshlab Rorshax testi psixologlarning tadqiqtva klinik diagnostik ishlarida keng tadbiq qilina boshlaydi. Dastlabki metodik qo‘llanmalar yuzaga keladi. Bu testdan tashqari proyektiv metodikalar qatoriga 1935 yilda dastlab jurnalda nashr qilingan tematik appersepsion testini ham (TAT) kiritish mumkin. Bu test fantaziyani eksperimental o‘rganish metodikasi sifatida yuzaga keldi. Uning avtori G. Myurrey hisoblanadi. Rorshax testi singari bu testning ham o‘z tarixi mavjud. Psixolog va psixiatrlarga shu narsa oldindan ma’lum ediki, tekshiriluvchilar uchun maxsus tanlab olingan syujetli rasmlar asosida tuzilgan hikoyaga qarab, insonning qiziqishlari, mayllari haqida xulosa chiqarish mumkin. Ba’zida esa psixikaning kasallik holatini ham aniqlash mumkin. Bir qarashda TAT fikri, G.Rorshax g‘oyasiga qaraganda ancha sodda va aniq ko‘rinar edi. Ammo bunda “avtor” aynan qaysi shaxsiy tajribasi uning

“qahramonalar”i taqdiri va portretini to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi – yu va qaysilari qarama – qarshi ma’noda aks etishini tushunish murakkab edi.

30-50 yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar Myurreyning TAT hikoyalarida uyqudan qolish, bo‘lib o‘tgan muvaffaqiyatsizliklar yoki omad aks etishi haqidagi fikrini tasdiqladi.


### **Proyektiv metodikalarning kamchilik va afzalliklari.**

#### **Kamchiliklari:**

- Natijalarni tavsiflashdagi sub`ektivlik;
- Psixometrik talablarga to`liq javob bermasligi, ya`ni ularning etarlicha ob`ektiv emasligi;
- Retest ishonchlilik koeffitcentining yuqori darajada emasligi, validizatciya qilishning murakkabligi;
- Natijalarni tavsiflashda psixologik tayyorgarlik, psixologik bilimlarga ega bo`lish va metodikani qo`llash bo`yicha tajriba talab qilinishi.

#### **Afzalliklari:**

- Informativligi yuqori;
- Shaxsni global baholash imkoniyati;
- Maqsadning noaniqligi (sinaluvchi diagnostik ko`rsatkichlarni tavsiflay olmasligi va ularni o`z xususiyatlari bilan bog`lay olmasligi);
- Turli yoshdagi sinaluvchilar bilan ishlashdagi samaraliligi va ularda topshiriqni bajarishga q`iziqish uyfotishi.



Strukturalashtirish proyektiv metodikalari (yoki assotciativ metodikalar. Bunda stimullar shakllantirilib, ularga ma`no, mazmun beriladi. Ushbu guruh metodikalariga G.Rorshaxning “Siyoh dog`lari” metodikasini kiritish mumkin.

G.Rorshax metodikasida 10 ta kartochka qo`llaniladi. Kartochkalar ketma-ket 1dan 10 gacha standart holatda namoyish qilinadi.

Ko`rsatma: “Bu nima? Rasmdagini nimaga o`xshatish mumkin?

Rorshax “Siyoh dog`lari” metodikasi (Rorschach Inkblot test)



Metodika natijalarini tavsiflashdaquidagi ko`rsatkichlar inobatga olinadi:

- ◆ lokalizatsiya;
- ◆ determinantlar;
- ◆ mazmun;
- ◆ ommaviylik-originallik.

Lokalizatsiya – sinaluvchi o`z javobini dog`ning biron qismi bilan assotsiatsiya qilishini ko`rsatadi.

Javob determinantlari – shakl, rang, rangning har xil tusi va “harakat”.

Mazmun – eng muhim ko`rsatkichlar: inson figurasi yoki uning detallari(yoki inson tanasining qismlari),hayvon figurasi va uning detallari, shuningdek, jonsiz predmetlar, o`simliklar, harita, bulut, qon dog`lari, rentgen rasmi.

Ommaviylik – odamlar o`rtasidagi turli javoblarning nisbatan takrorlanishi(chastotasi) asosida, ommabop(mashhur) javoblar jadvali orqali taqqoslash orqali aniqlanadi.

G.Rorshax metodikasi bo`yicha chiqariladigan psixologik xulosalarda:

- ◆ Shaxsning intellektual va affektiv sohasi;
- ◆ Shaxslararo munosabatlar xususiyatlari tavsiflanadi.

### **Tematick appertseption test.**

- ◆ TATning stimul materiali 29ta rasm va 1ta bo`sh blankdan iborat,
- ◆ Sinaluvchiga rasm bo`yicha hikoya tuzish vazifasi beriladi.
- ◆ Bo`sh blank namoyish qilinganda qandaydir voqeani tasavvur qilib, uni ta`riflash va hikoya tuzish so`raladi.

### **G.Myurrey sinaluvchilar hikoyalarini tahlil qilishda bir necha bosqicharni ajratib ko`rsatadi:**

- ◆ 1-bosqichda har bir hikoyaning qahramoni aniqlanadi;
- ◆ 2-bosqichda qahramonnig eng muhim xususiyatlari: intilish,hohish,his-tuyg`ulari,xarakter qirralari,odatlari,y`ani ehtiyojlar aniqlanadi.
- ◆ 3-bosqichda hikoya qahramonlaridagi ehtiyojlar aniqlab olingach, ularning intensivligi,namoyn bo`lish chastotasi,davomiyligi,sujet voqealarini rivojidagi ahamiyati 1dan 5ballgacha baholanadi.
- ◆ 4-bosqichda kuchliroq, ko`proq namoyon bo`lgan ustun ehtiyojlarni ajratib olish uchun o`rin(rang) beriladi,

### **G.Myurrey tahlili bo`yicha :**

Sinaluvchi o`zini hikoya qahramonlari bilan identifikatciya qiladi. Shu sababli, aniqlangan ehtiyojlar va ularning ierarxiyasi sinaluvchi shaxsini tavsiflash imkonini beradi.

### **Rozentsveygning “Frustracion testi”.**

Rozentsveyg nazariyasiga ko`ra :

- ◆ Ekstrapunitiv reaktsiya.
- ◆ Intropunitiv reaktsiya.
- ◆ Inpunitiv reaktsiya farqlanadi.

“Tematic apperception test” namunalar:




azps.ru



azps.ru

### Rozentsveygning “Frustration testi” proyektiv metodikasi



### Ekspressiv proyektiv metodikalar

- ◆ K.Maxover “Odam rasmi” metodikasi (Machover Drav –a-Person Test).
- ◆ Dj.Buk “Uy–daraxt-odam” metodikasi.
- ◆ R.B.Belyauskayte “Oilaning kinetik rasmi” metodikasi.

## **Mavzuni musrahkamlash uchun**

### **T – jadval**

**Psixodiagnostikada proaktiv metodlarning qo'llanilishi.**

<i>Yutuqlari</i>	<i>Kamchiliklari</i>

### **Glossariy**

**Psixologik testlar** – bu muayyan psixologik xususiyatni o`lchash, aniqlash imkonini beradigan nazariy va amaliy jihatdan asoslangan topshiriq, mulohazalar tizimidir.

**Proaktiv metodikalar** – klinik yo`nalishlarga ega bo`lgan o`ziga xos, turli-tuman psixodiagnostik vositalar guruhidir.

**Proaktiv yondashuv** – tashqi jihatdan neytral, noaniq stimul bilan o`zaro ta`sirni tahlil qilish asosida diagnostika qilinadi.

**Validlik** – metodika yordamida olingan ma`lumotlarning metodikaning nimani aniglashga qaratilganligi, ya`ni metodika mohiyati bilan mosligi.

**Ishonchlilik** – psixogiagnostik metodikaning sifati bo`lib, natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon. Metodikaning ishonchliligi natijalar barqarorligi va takrorlanishini ko`rsatuvchi mezon hisoblanadi.

**Retest Ishonchlilik** - ayni bir testni ayni bir sinaluvchilarda bir xil sharoitlarda qayta o`tkazib, ikkala tekshiruv asosida olingan natijalar o`rtasida korrelyatsiya ( bog`liqlik) o`rnatish.

## **Adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. T.: 2008 .
2. Z.T.Nishonova, Z.Qurbanova, S.Abdieva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni" – 2011..
3. R.Y.Toshimov, E.G`G`oziev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika. T.: 2010.
5. E.G`oziyev. Umumiy psixologiya. T.:2012.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. М.: 2001
7. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

## **O‘z-o‘zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Proyektiv metodikalarning qanday o`ziga xos xususiyatlari mavjud?
2. Proyektiv metodikalar asoschilari kimlar?
3. "Psixodiagnostika: idrokka asoslangan diagnostik test" asarining muallifi kim?
4. G.Rorshaxning "Siyoh dog'lari" metodikasi qanday psixik kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladi?
5. Proyektiv metodikalarning kamchiliklari nimada?
6. Proyektiv metodikalarning afzalliklari nimada?
7. Proyektiv metodikalar qanday tasniflanadi?
8. Tematik apperception test muallifi kim?
9. Rozentsveyg nazariyasiga ko`ra shaxs qanday reaktsiyalari farqlanadi?

## **MAVZU: SHAXSALARO MUNOSABAT PSIXODIAGNOSTIKASI**

### **Reja:**

1. Shaxsalaro munosabatlar mohiyati.
2. Shaxsalaro munosabatlar psixdiagnostikasida qo`llaniladigan metodlar.
3. Shaxsalaro munosabatlarga ta`sir ko`rsatuvchi individual xususiyatlar diagnostikasi.

**Tayanch tushunchalar:** shaxslararo munosabatlar, simpatiya, muloqot, kommunikatsiya, kinestetika, paralingvistika, ekstrolingvistika, proksemika, muloqotning interaktiv tomoni, ijtimoiy nazorat, muloqotning pertseptiv tomoni, identifikasiya, refleksiya, stereotiplashtirish.

**Shaxslararo munosabatlar** – bu ob`ektiv tarzda boshdan kechiriladigan, turli darajada anglanadigan insonlar o`rtasidagi o`zaro aloqalardir.

N.N.Obozov fikriga ko`ra, shaxslararo munosabatlar asosini o`zaro ta`sirga kiruvchi insonlarning emotsional holati va ularning psixologik xususiyatlari tashkil etadi. Shaxslararo munosabatlarning rivoji jins, yosh, milliy xususiyatlar va boshqa ko`pgina omillar bilan belgilanadi.

V.N.Drujinin fikricha, ayollarda muloqot doirasi erkaklarga nisbatan torroq. Shaxslararo muloqotda ular o`zini namoyon qilish, o`zlari haqida boshqalarga informatsiya berish ehtiyojini his qiladilar.

Ayollar uchun shaxslararo munosabatlarda ifodalanuvchi xususiyatlar ahamiyatli bo`lsa, erkaklar uchun ish bilan bog`liq xislatlar muhimroq hisoblanadi.



Ish yuzasidan bo`ladigan munosabatlar guruh tarkibi bilan birga hujjatlarda qayd etiladi.

Shaxsiy munosabatlar esa simpatiya, bogliqlik, do`stlik, o`rtoqlik, antipatiya asosida vujudga keladi.

**Shaxslararo munosabatlar o`zining dinamikasiga ega:**

- Tarkib topadi;
- Mustahkamlanadi;
- Muayyan cho`qqiga ko`tariladi;
- Susayadi yoki tugallanadi.

**Shaxslararo munosabatlar darajalari:**

- Simpatiya,antipatiya asosida vujudga keluvchi munosabatlar.
- .Ish yoki o`qish yuzasidan bo`ladigan o`zaro munosabatlar.
- Insoniy munosabatlar yoki chuqur, ishonchga asoslangan o`zaro munosabatlar.

**Simpatiya** (grekcha “sympatheia”-ichki tortish,yoqimlilik) – bu boshqa kishilarga nisbatan barqaror ijobiy munosabat bo`lib, xushmuomalilik,samimiylilik kabi muloqotga undovchi xususiyatlarda namoyon bo`ladi va diqqat-e`tiborlilik,yordam ko`rsatishga intilishda(altruism) ifodalanadi.

Kovalev A.G. ta`rificha, simpatiya – insonning boshqa kishiga unchalik ahglanmagan munosabati va moyilligi.

Simpatiya yuzaga kelish sabablari :

1.Anglangan - qarash, g`oya, qadriyatlar, qiziqishlar, ma`naviy ideallar birligi .

2.Kam darajada anglangan - tashqi jozibadorlik,xarakter xislatlari,xulq-atvor manerasi .

**Shaxslararo munosabatlar muloqot vositasida amalga oshiriladi.**

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning o`zaro ta`siri, ular o`rtasida bilish yoki affektiv baholash xarakteridagi axborot almashinishdir.

Muloqot ko`p qirrali, murakkab jarayon bo`lganligi sababli uning tuzilishida 3 ta tomonni farqlash mumkin. Bular:

- Muloqotning kommunikativ tomoni;
- Muloqotning interaktiv tomoni;
- Muloqotning pertseptiv tomoni.

Kommunikatsiya - inglizcha so`z bo`lib, xabar qilish, aytish ma`nosini anglatadi. Kommunikatsiya insonlar o`rtasidagi tasavvur, fikr, histuyg`u,kayfiyat almashinuvidan iborat bo`lib, ularning o`zaro ta`siri orqali amalga oshiriladi.

Kommunikator – axborot beruvchi.

Retsipient – axborotni qabul qiluvchi.

Muloqot jarayonida kommunikator va recipient navbatma-navbat o`rin almashadilar.

Kommunikatsiya verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Verbal kommunikatsiya – nutqiy.

Noverbal kommunikatsiya – imo-ishora,mimika,pantomimika,y`ani belgilarning optiko-kinetik tizimi; intonatsiya, pauza kabi vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi.

### **Noverbal kommunikatsiya shakllari:**

- 1.Kinestetika – tana,qo`l harakatlari(jestikulyatciya), mimika,pantomimika.
- 2.Paralingvistika – bu ovoz tembri,diapazoni, tonalligi.
- 3.Ekstrolingvistika – nutq tempi, pauzalar,tomoq qirish,yig`lash,kulgi va h.z.
- 4.Proksemika – muloqotni vaqt va fazoviy jihatdan tashkil etilish sohasi.

**Muloqotning interaktiv tomoni – bu insonlarning muloqot jarayonida bir-birlariga o`zaro ta`sir etishidir.**

- Muloqot va birgalikdagi faoliyat ijtimoiy nazorat sharoitlarida amalga oshiriladi.

• Ijtimoiy nazorat esa ijtimoiy normalari – jamiyatda qabul qilingan, kishilarning o`zaro ta`sir va munosabatlarini tartibga soluvchi xulq-atvor namunalari asosida olib boriladi.

### **Ijtimoiy nazorat mexanizmlari:**

- Ma`qullamaslik.
- Ayblastash.
- Jazolash.

**Muloqotning pertseptiv tomoni** – bu muloqot jarayonida o`zaro bir-birini tushunish va bir-birini idrok qilish.

### **O`zaro bir-birini idrok etishning mexanizmlari:**

- Identifikatsiya.
- Refleksiya.
- Stereotiplashtirish.

**Identifikatsiya** – bu insonning o`zini boshqa insonga, guruhga o`xshatishidir.

**Refleksiya** – bu insonning muloqotdagi sheriklari uni qanday idrok etishli va shunga qarab o`z hatti-harakatini to`g`rilash.

**Stereotiplashtirish-** xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularning sabablarini avval ma`lum bo`lgan, y`ani ijtimoiy stereotipga javob beruvchi holatlarga kiritish orqali tahlil qilishdir.

**Shaxsalaro munosabatlar psixodiagnostikasida qo`llaniladigan metodlar:**

- Sotsiometriya
- So`rovnomalari (T.Liri metodikasi, Tomas metodikasi)
- Proyektiv metodikalar (“Oila rasmi, Rene Jil metodikasi”).

**Sotsiometriya metodi.** Ushbu metod shaxslararo munosabatlarda guruh a`zolarining egallagan mavqeini aniqlash imkonini beradi. Sotsiometriya metodining asoschisi J.Moreno hisoblanadi (1934 yilda taklif etilgan). Sotsiometrik tahlil ma`lumotlari shaxsning guruhda tutgan o`rni, guruhdagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, guruh lideri, (guruhning tan olingan

sardori), guruh yulduzları, guruh a'zolarining guruhdagi mavqeい, guruhning yakkalanib qolgan a'zosini aniqlash imkonini beradi.

Sotsiometriya metodikasi quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

Guruhdagi jipslik yoki tarqoqlikni aniqlash;

Guruh a'zolari orasidagi simpatiya va antipatiyani aniqlash;

Guruhdagi norasmiy liderlar va yakkalanib qolganlarni aniqlash.

Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi mavqeini (statuslari)ni aniqlash.

**T.Liri metodikasi.** Ushbu metodika shaxsning atrofdagilarga munosabat turlarini aniqlashga mo`ljallangan. Mazkur metodika 1954 yili T.Liri, G.Leforj, R.Sazeklar tomonidan shaxslararo munosabatlarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan.

T.Liri metodikasi shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi uchun qulay bo'lib, ushbu metodika orqali sinaluvchining shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyadan o'zini o'zi baholashi, o'zidan qoniqmaslik, shaxslararo munosabatdagi kutilmalarni yoritish uchun qo'llaniladi.

Metodika bir necha modifikatsiyaga ega. Liri metodikasining ruscha modifikatsiyasini Y.A.Reshetnya va G.S.Vasilchenko ishlab chiqqan. Mazkur metodikaning o'zbekcha modifikatsiyasini psixolog olimlar E.G'.G'oziev va R.Y.Toshimovlar yaratgan.



**K.N.Tomas shaxs so`rovnomasi.** Ushbu metodika turli nizoli vaziyatlarda shaxsning o'zini qanday tutishini aniqlashga mo`ljallangan. Metodika yordamida quidagi xulq- atvor shakllari aiqlanadi:

1. Hamkorlik.
- 2.Raqobatga moyillik.
- 3.Murosaga tayyotlik.
- 4.Nizolardan qochish.
- 5.Keskinlashtirishga intilish.

## “SINDIKAT” METODI

“Sindikat” (yunoncha “birgalikda harakat qilish”, “maslakdoshlarim”) metodi talabalarda mavzuni ijodiy o‘rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir guruh yagona topshiriqni 3 xil variantda hal etishi lozim. Maslan, o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini 1-guruh sxema, 2-guruh klaster, 3-guruh esa jadval tarzida ochib berishi kerak. Guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, ular tomonidan taqdim etilgan echimlar jamoa tomonidan muhokama qilinadi.



## Glossariy

**Shaxslararo munosabatlar** – bu ob`ektiv tarzda boshdan kechiriladigan, turli darajada anglanadigan insonlar o`rtasidagi o`zaro aloqalardir.

**Simpatiya** – bu boshqa kishilarga nisbatan barqaror ijobiy munosabat bo`lib, xushmuomalilik,samimiylilik kabi muloqotga undovchi xususiyatlarda namoyon bo`ladi va diqqat-e`tiborlilik,yordam ko`rsatishga intilishda(altruism) ifodalanadi.

**Muloqot** – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning o`zaro ta`siri, ular o`rtasida bilish yoki affektiv baholash xarakteridag i axborot almashinishdir.

**Kommunikatsiya** - inglizcha so`z bo`lib, xabar qilish, aytish ma`nosini anglatadi. Kommunikatsiya insonlar o`rtasidagi tasavvur, fikr, histuyg`u,kayfiyat almashinuvidan iborat bo`lib, ularning o`zaro ta`siri orqali amalga oshiriladi.

**Kinestetika** – tana,qo`l harakatlari(jestikulyatciya) mimika,pantomimika.

**Paralingvistika** – bu ovoz tembri,diapazoni, tonalligi.

**Ekstrolingvistika** – nutq tempi, pauzalar,tomoq qirish,yig`lash,kulgi va h.

**Proksemika** – muloqotni vaqt va fazoviy jihatdan tashkil etilish sohasi.

**Muloqotning interaktiv tomoni** – bu insonlarning muloqot jarayonida bir-birlariga o`zaro ta`sir etishidir.

**Ijtimoiy nazorat** - ijtimoiy normalar – jamiyatda qabul qilingan,kishilarning o`zaro ta`sir va munosabatlarini tartibga soluvchi xulq-atvor namunalari .

**Muloqotning pertseptiv tomoni** – bu muloqot jarayonida o`zaro bir-birini tushunish va bir-birini idrok qilish.

**Identefikatsiya** – bu insonning o`zini boshqa insonga, guruhga o`xshatishidir.

**Refleksiya** – bu insonning muloqotdagi sheriklari uni qanday idrok etishli va shunga qarab o`z hatti-harakatini to`g`rilash.

**Stereotiplashtirish-** xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularning sabablarini avval ma`lum bo`lgan, y`ani ijtimoiy stereotipga javob beruvchi holatlarga kiritish orqali tahlil qilishdir.

**Adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika. O'quv qo'llanma. T.: 2008 .
2. Z.T.Nishonova, Z.Qurbanova, S.Abdieva. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni" – 2011..
3. R.Y.Toshimov, E.G`G`oziev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: TDPU – 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika. T.: 2010.
5. E.G`oziyev. Umumiy psixologiya. T.:2012.
6. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психоdiagностика. М.: 2001
7. Немов Р.С. Психология. З-книга. М.: 2003.
8. Романова Э.С. Психологическая диагностика, Спб.: 2005.

**O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar:**

1. Shaxsalaro munosabatlar ta'rifini keltiring.
2. N.N.Obozov fikriga ko`ra, shaxslararo munosabatlar asosini nima tashkil etadi?
3. Shaxslararo munosabatlar qanday omillar bilan belgilanadi?
4. Shaxslararo munosabatlar dinamikasi deaganda nimani tushunasiz?
5. Shaxslararo munosabatlarning shaxs shakllanishiga ta'siri qanday?
6. Shaxsalaro munosabatlar psixodiagnostikasida qaysi metodlar qo'llaniladi?
7. K.N.Tomas shaxs so`rovnomasi asosida nima o'rganiladi?
8. T.Liri metodikasi qaysi yili yaratilgan?
9. Sotsiometriya metodikasi kim tomonidantuzilgan?

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI**

### **DIQQAT XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH**

*“Shulte jadvali” metodikasi.*

Metodikadan foydalanishdan maqsad: Bu metodika diqqatning ko‘chishi, bo‘linishi va sensomotor reaksiya tezligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Metodikani o‘tkazish tartibi:

Metodika 25 ta kataklarga bo‘lingan, 5 ta kvadratdan iborat bo‘lib, ularni qo‘lda yasash ham mumkin. Metodikani o‘tkazish uchun sekundomer va alohida katakli atlas zarur.

Kvadratlarning o‘lchami 60x60 sm. Kataklarda yozilgan sonlar tasodifiy tartibda joylashgan. Jadval sinaluvchining ko‘zidan 35-40 sm masofada joylashtiriladi. Sinaluvchi katakli kvadratlarda tasodifiy tarzda joylashgan sonlarni, ketma-ketlikda (1 dan 25 gacha) ovoz chiqarib aytishi shu bilan birga qo‘li bilan ko‘rsatishi kerak. Psixolog esa har bir katakli kvadratlardagi sonlarni topishga sarflangan vaqtini “sinov natijalari bayonnomasi”da qayd qilib boradi.

Har bir katakli kvadrat ichidagi 1 dan 25 gacha sonlarni topishga ketgan vaqt alohida qayd qilinadi. Olingen natijalarni grafik shaklda ifoda etish mumkin. Shuningdek, barcha katakli kvadratlardagi sonlarni topishga ketgan vaqtni topish uchun, 5 ta kvadratga ketgan vaqtni qo‘shib keyin o‘rtacha arifmetik miqdorni ham topish mumkin. Metodikani bajarishda kvadratlardagi sonlarni topishga ketgan vaqtni bir xil yoki notekis taqsimlanishi ham ahamiyatga ega. Diqqat ko‘chuvchanligi normadagi sinaluvchilar barcha kvadratlardagi sonlarni bir xil vaqt ichida topadilar. Gohida kvadratdan-kvadratga tomon sonlarni topish tezlashib boradi. Bu sensor malakaning oshib borganligini ko‘rsatadi. Agar kvadratdagi sonlarni topishga ketgan vaqt har xil bo‘lsa (yani diqqat sustlashib borsa), bu holat astenik sinaluvchilarga xos xususiyat hisoblanadi (simtom). Astenianing barcha turlarida va ba’zi bir psixik kasallikkarda diqqatning buzilishi va sustlashini kvadratdan-kvadratga xatolar soni va vaqt oshib borishi kuzatiladi.

Shul'te jadvalining afzalliklaridan biri, bu metodikadagi sonlarni xotirada saqlab qolish qiyin, shu jixatdan bu metodikani ko'p marta o'tkazish mumkin.

Stimul materiallari.

21	12	7	1	20
6	15	17	3	18
19	4	8	25	13
24	2	22	10	5
9	14	11	23	16

14	18	7	24	21
22	1	10	9	6
16	5	8	20	11
23	2	25	3	15
19	13	17	12	4

9	5	11	23	20
14	25	17	1	6
3	21	7	19	13
18	12	24	16	4
8	15	2	10	22

22	25	7	21	11
6	2	10	3	23
17	12	16	5	18
1	15	20	9	24
19	13	4	14	8

5	14	12	23	2
18	25	7	24	13
11	3	20	4	18
8	10	19	22	1

Shulte jadvali yordamida o‘tkazilgan sinov natijalari bayonnomasi

Sinaluvchi \_\_\_\_\_

Jadval nomeri	Topshiriqni bajarishda kuzatilgan sinov natijalari	Vaqt
1-sonli jadval		
2-sonli jadval		
3-sonli jadval		
4-sonli jadval		
5-sonli jadval		
Jami		

### **“KORREKTUR SINOV” METODIKASI.**

“Korrektur sinov” metodikasi diqqatni o‘rganish uchun 1895 yili B.Burdon tomonidan taklif etilgan.

Metodikadan foydalanishdan maqsad: Metodika diqqatning barqarorligi, ko‘chishi va topshiriqni bajarish tezligini aniqlaydi. Topshiriqni bajarishda sinaluvchi diqqatining sustlashishiga (ayniqsa, sinovning oxirida diqqatning holatiga) alohida e’tibor qaratiladi. SHuningdek, sinaluvchining yo‘l qo‘ygan xatolarining o‘ziga xos tomonlariga: ba’zi harflarga yoki qatorlarga e’tiborsizlik, o‘zaro o‘xshash harflarni almashtirish va hokazolarga diqqat qilinadi.

Asteniya, nevrasteniya va boshqa nuqsonlari mavjud shaxslarda korrektur sinovini takroran o‘tkazish mumkin. SHu bilan birga, sinaluvchining testga nisbatan bo‘lgan munosabatini nazardan qochirmaslik zarur.

Metodikani o‘tkazish tartibi:

Sinaluvchiga har qatorida 40 tadan harf yozilgan 40 qatordan iborat maxsus qog‘oz beriladi. Sinaluvchi har bir qatorda birinchi turgan xarfni o‘sha qatordan topib chizib (o‘chirib) chiqishi zarur. Metodikani o‘tkazish uchun aniq vaqt ajratilgan bo‘lib, buni sinaluvchi yoki tadqiqotchi aniq belgilab boradi. Sinov uchun 5 (ba’zan 6) daqiqa vaqt ajratilgan bo‘lib, har minutda sinaluvchining o‘chirishga ulgurgan qatori belgilab boriladi.

Natijalarni qayta ishlash. Diqqatning to‘planganlik darajasini (K) aniqlash uchun quyidagi formula taklif etilgan:

$$K = \frac{n_1 - n_2 - n_3}{n}$$

Bu erda  $n_1$  - to‘g‘ri o‘chirilgan harflar yig‘indisi.

$n_2$  – o‘chirilmay qolgan harflar yig‘indisi.

$n_3$  - noto‘g‘ri ko‘chirilgan harflar yig‘indisi.

$n$ - sinov varag‘idagi barcha harflar yig‘indisi.

Diqqatni to‘plash darajasini (K) topish uchun sinovning har bir daqiqasi bo‘yicha ( $K_1, K_2, K_3$  va hakozo) yo‘l qo‘yilgan xatolar soni va ularning ko‘payib borish dinamikasi e’tiborga olinadi.

Psixotexnikada diqqatning to‘planishi (K) ni sifatiy baholashda quyidagi tizim qabul qilingan:

81-100% juda yaxshi;

61-80% yaxshi;

41-60% o‘rta;

21-40 % yomon;

0-20% juda yomon;

Topshiriqni bajarish tezligi ko‘rsatkichi (A) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A = S/t$$

Bu erda: S- sinaluvchining korrektur jadvalda ishlangan qismi, t- bajarishga ketgan vaqt.

Diqqatning ko‘chishini o‘rganish uchun sinaluvchi korrektur jadvaldagi toq va juft qatorlardagi har xil harflar to‘plamini o‘chirish taklif etiladi. Diqqatning ko‘chish darajasi (C) quyidagi formula orqali topiladi:

$$C=S_0/S * 100$$

Bu erda  $S_0$ - xato ishlangan qatorlar soni; S –sinaluvchi jadvalda ishlangan qatorlarning umumiy soni.

To‘g‘ri o‘chirilgan harflar soniga qarab diqqat barqarorligi darajasi haqida gapirish mumkin. Xatolarning har qatorda borligi diqqatning tebranishi haqida ma’lumot beradi. Agar tajriba oxirida xatolar ortib ketsa, diqqatning umumiy kuchsizligi, ish qobiliyatining susstligidan dalolat beradi. Topshiriqlarning tez bajarilishi va xatolarning yo‘qligi ixtiyoriy diqqat barqarorligidan dalolat beradi.

Korrektur sinov o‘tkazish uchun harflar qatori yozilgan maxsus kog‘oz, qalamlar va daqiqalarni ko‘rsatuvchi soat oldindan tayyorlanadi. Sinov individual va guruhda o‘tkaziladi.

Mazkur metodikaning bog‘cha yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan xalqachalar tasviri keltirilgan varianti fransuz oftalmologi E.Landolt tomonidan ishlab chiqilgan.

## XOTIRANI O‘RGANISH METODLARI.

### Meyli testi.

R.Meyli testi 1961 yilda ishlab chiqilgan bo‘lib 7 yosh va undan katta sinaluvchilarning xotirasini o‘rganishga mo‘ljallangan. Tadqiqot ikki bosqichdan, ya’ni ko‘rish va eshitish xotirasini o‘rganishbosqichlaridan iborat.

Birinchi bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va ko‘rish xotirasi o‘rganiladi. Ikkinci bosqichda eksperimentator o‘qib bergen so‘zlarni (predmet nomalarini) eshitib esda olib qolish qobiliyati o‘rganiladi. Bu tadqiqot bir paytda o‘tkazilmaydi, bu esa xotiraning o‘rganilayotgan jihatlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Tajriba o‘tkazish uchun turli predmetlar tasvirlangan 60 ta so‘zlar to‘plami 2 qatori beriladi. Ko‘rish xotirasi o‘rganilayotganda quyidagi ko‘rsatma beriladi:

“Sizga turli predmetlar tasvirlangan rasmlar ko‘rsatiladi. Siz ularning nomini istalgan tartibda aytishingiz kerak”. Rasmlarning har biri 2 soniya ko‘rsatiladi. 10 soniya tanaffusdan so‘ng sinaluvchi predmetlar nomini aytadi. Eksperimentator to‘g‘ri aytilgan predmetlarni ham, xato aytilgan javoblarni ham belgilab boradi. Rasmlarning 2 seriyasini boshqa kuni, so‘zlar qatori bo‘yicha tajribalar ham boshqa kunlari o‘tkaziladi.

1-bosqich		2-bosqich	
Rasmlarning 1-seriyasi	Rasmlarning 2-seriyasi	So‘zlarning 1-seriyasi	So‘zlarning 2-seriyasi
no‘xot	chig‘anoq	karton	jadval
eshak	krovat	vagon	hafta
kalit	truba	dehqon	so‘m
arava	nok	pianino	qarg‘a
qo‘ng‘iroqcha	supurgi	tufli	avtobus
stol	echki	xarita	ari
olcha	buket	tepalik	ko‘zoynak
etik	tramvay	ushoq	suv
vilka	arra	piyola	ovchi
baliq	stul	ko‘mir	kuy
bochka	bola	olmaxon	bulut
bosh	bolg‘a	qirol	terak
bufet	shisha	yigitcha	qalam
atirgul	mashina	apelsin	velosiped
paravoz	taroq	dasturxon	botinka
kreslo	zambarak	sho‘rva	ayiq
bayroq	daraxt	palto	salon
xo‘roz	olma	mushuk	sohil
qaychi	kitobcha	pichoq	burun
zontik	shlyapa	taklifnama	qapqoq

ko‘za	uy	sirka	mehmonxona
sigir	it	gul	sovun
divan	skameyka	mehnat	ilon
kaptar	eshik	osmon	tova
soat	piyola	gugurt	qush
qariya	daryo	siyoh	salat
ko‘zoynak	telefon	qulf	raketa
chiroq	skripka	qul	nonushta
oyoq	tamaki qutisi	soyabon	qor
gitara	ot	yong‘in	favvora

Eshitish bo‘yicha eksperiment ham shunday o‘tkaziladi. Sinaluvchiga qo‘yidagicha ko‘rsatma beriladi: “Sizga turli predmetlar nomi o‘qib eshittiriladi. Siz ularning nomini istalgan tartibda aytishingiz kerak”. Eksperimentator to‘g‘ri aytilgan predmetlarni ham, xato aytilgan javoblarni ham belgilab boradi. Olingan natijalar foizlarda miqdoriy o‘lchash orqali tahlil qilinishi mumkin.

### **PIKTOGRAMMA METODIKASI.**

Metodikani o‘tkazishdan maqsad: Piktogramma metodi yordamida assotsiativ jarayonlar, yodga tushirish va fikrlash xususiyatlari aniqlanadi.

Metodikani o‘tkazish tartibi: Sinaluvchiga stimul so‘zlar yozilgan qog‘oz berilib, har bir so‘zni ramziy rasmlar orqali ifodalash taklif etiladi. Rasmning sifati ahamiyatga ega emasligi ta’kidlanadi.

**Stimul so‘zlar:**

- |                     |                  |
|---------------------|------------------|
| 1. Kasallik.        | 9. Bilim.        |
| 2. G‘am-qayg‘u.     | 10. Bayram       |
| 3. Xursandchilik.   | 11. Boylik       |
| 4. Sevgi- muhabbat. | 12. Keksa kishi. |
| 5. G‘alaba.         | 13. Vrach        |
| 6. Do‘stlik.        | 14. Baxt         |

- |               |                |
|---------------|----------------|
| 7. Urush      | 15. O‘qituvchi |
| 8. Xayrlashuv | 16. Bilim.     |

Tajriba bayonnomasida shaxsning rasm va uning izohi haqidagi fikrlari yozib boriladi. Sinaluvchi chizgan rasmlarni iloji boricha kengroq izohlab berishi kerak. Eksperimentator quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

1. Stimul so‘z bilan chizilgan rasmning o‘zaro bog‘liqligi;
2. Sinaluvchining so‘zlarni qanchalik ramzlar yordamida ifoda eta olishi;
3. Piktogrammaning hissiy boyligiga e’tibor berish.

### **RAVENNING “PROGRESSIV MATRITSALAR” TESTI.**

Dj.Ravennaing “Progressiv matritsalar” testi 1936 yillarda yaratilgan bo‘lib, unda har biri 12 ta topshiriqdan iborat 5 seriyali topshiriqlar mujassamlashtirilgan. Ushbu test tafakkur mantiqiyligini o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Test to‘plamlari to‘g‘ri burchak shaklidagi matritsalardan tashkil topgan bo‘lib, o‘zida mantiqiy yaxlitlikka, ma’lum qonuniyat va qoidalarga asoslanib tuzilgan har xil figura va figuralar to‘plamidan iborat . Masalan, qandaydir qismida etishmovchilik mavjud bo‘lgan rasm va tasvirlar berilganki, tekshiriluvchi mantiqiy jihatdan tahlil qilib, matritsa ostida berilgan va 6 yoki 8 gacha bo‘lgan javoblar variantidan birini mos o‘ringa qo‘yishi lozim bo‘ladi.

Har bir seriya engil topshiriqlardan boshlanib, keyinchalik murakkablashib boraveradi. Bu holat A seriyadan boshlanib, E seriyada yanada murakkabroq ko‘rinish oladi.

Ravenga muvofiq bu test qobiliyatni tekshirishda ma’lum shakllarni idrok etishni, ularning xususiyatlarini qamrab olish lozimligini, munosabatlar yig‘indisiga asoslanganligi tufayli har bir topshiriqni bajarishda ma’lum mantiqiy mulohazalashni talab etadi.

Topshiriqlarni echishda uchta asosiy psixik jarayonlar ishtirok etadi:

- diqqat , e’tiborlilik(diqqat idrok va tafakkur doirasidan ajratiladi);
- idrok etuvchanlik;

- tafakkur, tushunuvchanlik.

Topshiriqlarni echish vaqtida diqqatda ancha zo'riqish paydo bo'ladi. Shunday bo'lsa-da uni tekshiriluvchining topshiriqlarni echishdagi qiziquvchanligi engilashtirishga olib keladi. Topshiriqlarni bajarish sharoitida diqqatni to'plashni va uning taqsimlashni talab etadigan holatlar ko'p uchraydi. Bu erda diqqatdan tashqari iroda va emotsiyaning ham ahamiyati ko'zga tashlanadi. Shu sababali ham Ravenning «Murakkablashib boruvchi matritsalari» «umumiyl intellektni» tekshiruvchi test emas, balki intellektual faoliyatni rejali, tizimlashganlik qobiliyatini tekshirishga qaratilgan.

Raven testi topshiriqlarining alohida seriyalar bo'yicha tavsifini keltirib o'tish o'rinnlidir. Bu holatini inobatga olishimiz tadqiqot natijalariga ko'ra test topshiriqlarini tahlil etishimizda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va bizga ma'lum engilliklar tug'diradi.







Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, matritsa shkalalari 5 seriya topshiriqlardan tuzilgan bo'lib, Raven ularni quyidagi tamoyillarga muvofiq tartiblagan edi:







- A) seriya topshiriqlari tuzilmasi o'zaro aloqadorlik tamoyiliga;
- B) seriya topshiriqlari juft figuralar orasidagi o'xshashlikka(analogiya);
- C) seriya topshiriqlari figuralaridagi progressiv o'zgarishlarni aniqlash tamoyili;
- D) seriya topshiriqlari seriya topshiriqlari figuralarni qayta guruhlash tamoyili;
- E) seriya topshiriqlari figuralarni elementlarga ajratib tashlash tamoyiliga tayanib tuzilgan.







Shuningdek mazkur metodikaning qisqartirilgan modifikatsiyasi ham mavjud. Testning ushbu shakli tadqiqot o'tkazishda kam vaqt ni talab etishi va test topshiriqlarining kamligi bilan qulaylik yaratadi. Sinaluvchiga turli figuralardan iborat rasmlar namoyish qilinadi. Keltirilgan rasmida bitta figura etishmaydi. Sinaluvchining vazifasi rasm pastida keltirilgan 6-8 figuradan mos


keladiganini javob varaqasiga belgilash. Metodikani bajarish uchun 30 daqqaq vaqt beriladi.

Stimul materiallar:












25




26




27



28



29



30

Test kalitiga mos kelgan to‘g‘ri javobga ko‘rsatilgan ball, noto‘g‘ri javob uchun esa 0 ball beriladi.

### Test kaliti

Topshiriq nomeri	To‘g‘ri javob nomeri	To‘g‘ri javob uchun	Topshiriq nomeri	To‘g‘ri javob nomeri	To‘g‘ri javob uchun
1	2	1	16	1	6
2	6	3	17	6	6
3	3	1	18	2	5
4	2	5	19	4	5
5	3	3	20	7	7
6	4	5	21	6	7
7	6	2	22	4	8
8	2	3	23	2	6
9	3	5	24	6	7
10	6	4	25	6	4
11	3	6	26	2	7
12	5	6	27	5	8
13	2	4	28	4	7
14	8	7	29	6	8
15	4	3	30	5	6

Natijalar:

44-72 balgacha to‘plansa, tafakkur mantiqiyligi past darajada ekanligini ko‘rsatadi;

73-114 ballar o‘rtacha ko‘rsatkich;

115-143 balgacha mantiqiy tafakkur yuqori darajada ekanligini bildiradi.

## «GEOMETRIK FIGURALAR YORDAMIDA ODAM TASVIRINI CHIZISH» METODIKASI.

**Testni o‘tkazishdan maqsad** – kishilar o‘rtasidagi individual tipologik farqlarni aniqlash.

**Ko‘rsatma:** Ciz, uchburchak, aylana, kvadrat shakllaridan foydalangan holda odam tasvirini chizib berishingiz lozim. Tasvirda geometrik shakllar o‘lchami har xil bo‘lishi mumkin. Ammo shakllarning umumiy soni o‘ntadan oshmasligi kerak. Elementlarning oshiqchasini o‘chirish, kamini to‘ldirish darkor. Rasmni ko‘rsatmaga binoan chizing.

Sinaluvchilarga 10X10 sm o‘lchamli uch dona varaq raqamlangan hamda imzolangan holda tarqatiladi.

Avval №1 varaqqa birinchi sinov rasmi tushiriladi, undan keyin №2 .. №3.ga.

Undan so‘ng ma’lumotlar qayta ishlanadi. Ko‘rsatma buzilgan bo‘lsa, tarqatma material yaroqsiz bo‘lgan deb hisoblanadi.

### **Ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda qayta ishlanadi:**

Odamchani tasvirlashda foydalanilgan uchburchak, aylana, kvadratlar soni har bir rasm uchun alohida hisoblanadi va natija uch xonali son bilan ifodalanadi, bunda uchburchak- 100, aylana- 10, kvadrat-1-liklarda bo‘ladi.

Masalan, 3-ta uchburchak, 4-ta aylana, 3-ta kvadrat qo‘llanilgan bo‘lsa, bu- 343 sonini beradi. Ushbu son rasm formulasini tashkil qiladi. Unga qarab sinaluvchi mansub bo‘lgan individual-psixologik farqlar tizimidagi turi aniqlanadi.

Turlar quyidagi jadvalda keltirilayapti.

### **INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK FARQLAR TIZIMI.**

901	802	703	604	505	406	307	208	109	
910	811	712	613	514	415	316	217	118	019
	820	721	622	523	424	325	226	127	028
		730	631	532	433	334	235	136	037
			640	541	442	343	244	145	046
				550	451	352	253	154	055
					460	361	262	163	064
						370	271	172	073
							280	181	082
								190	091

1-TIP. **RAHBAR** - 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.

2-TIP. **MAS’ULIYATLI IJROCHILAR** - 505, 514, 523, 532, 541, 550.

- 3-TIP. **XAVOTIRLI-SHUBHALI**- 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460.
- 4-TIP. **OLIMLAR**- 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370.
- 5-TIP. **INTUITIV** -208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280.
- 6-TIP. **KASHFIYOTCHI, KONSTRUKTOR, RASSOM**-109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046.
- 7-TIP. **EMOTIV** -550, 451, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280. ,154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.
- 8-TIP. **EMOTIV TURNING AKSI**-901,802,703,604,505,406,307,208,109.
- 1-TIP. **RAHBAR** - odatda bunday odamlar boshqarish va uyushtirish faoliyatiga moyil bo‘lishadi.Ular jamiyatdagi muhim axloqiy me’yorlarga tayanishadi, so‘zlab berish sifatlari yuqori darajada bo‘lib, hikoyanavislik iqtidori ham yo‘q emas. Ko‘pchilik qatnashadigan, jamoa joylarga yaxshi moslasha olishadi. Boshqalar ustidan hukmronlikni ma’lum bir chegarada saqlay bilishadi.Odatda yashil rangni tanlaydilar.
- FORMULAR** - 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.
- 901, 910, 802, 811, 820- natijadagilarda hukmronlik juda kuchli namoyon bo‘ladi.
- 703, 712, 721, 730 - natijadagilarda bu hol vaziyatga qarab ro‘y beradi.
- 604, 613, 622, 631, 640 - bundaylar hukmi nutq ta’sirida o‘tkaziladi, boshqacha qilib aytganda, bular O‘QITUVCHILAR toifasiga mansub.
- Shuni ta’kidlab o‘tish joiz-ki, ushbu sifatlar namoyon bo‘lishi sinaluvchining psixik taraqqiyoti darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Yuqori darajada rivojlangan individual-psixologik sifatlar yaxshi anglanib, ro‘yobga chiqishi oson bo‘ladi. Rivojlanishi past darajada bo‘lsa kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lmaydi, balki vaziyatga qarab namoyon bo‘ladi. Bular barcha ta’riflarga xos.
- 2-TIP. **MAS’ULIYATLI IJROCHILAR**- ular ham RAHBARLARga taalluqli ko‘plab hislatlarga ega, biroq mas’uliyatli qarorlar qabul qilish chog‘ida ikkilanadilar. Bunday kishilar ishni bajarishga usta bo‘ladilar, o‘ta mahoratli, mas’uliyatli va o‘ziga ham, boshqalarga ham talabchan, haqiqatgo‘y, ya’ni har

joyda adolat qilishligi bilan ajralib turadilar. Ko‘pincha asabga bog‘liq somatik kasalliklar bilan kasallananadilar.

FORMULAR - 505, 514, 523, 532, 541, 550.

**3-TIP. XAVOTIRLI-SHUBHALI**—bunday kishilar turfa qobiliyatlar va iqtidor egalari bo‘lishadi Ularda nafis qo‘l harakatlari ko‘nikmalaridan tortib adabiy iqtidorgacha bor.Odatda bunday odamlarga bir kasbning o‘zi kamlik qiladi, ular o‘z kasblarini kutilmaganda umuman qarama-qarshi kasbga o‘zgartirishlari mumkin. Tartibsizlik ularga yot bo‘lganligi sababli ko‘plab nizolarni yuzaga keltirishadi. Ko‘ngillari o‘ta nozik. Ular o‘zlariga ishonchsiz,tasalliga muhtojdirlar.

FORMULAR- 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460.

Bundan tashqari 415-nazmiy iqtidor egalariga mansub, 424-o‘z ishini o‘ta puxta qiladigan kishilarga taalluqli, ularni «Qanday qilib yomon ishlash mumkinligini tasavvur qilolmayman!» degan jumlesi ajratib turadi.

**4-TIP. OLIMLAR** –bundaylar voqeа-hodisalarining muhim tomonlarini aniqlash uchun ularning mavhum tomonlarini fikran bir chekkaga qo‘yib tahlil qila oladilar. Konseptual tafakkurga, har narsaga o‘zining qarashlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Ruhan hotirjam. O‘z xatti-harakatlarini aql bilan muvofiqlashtirib turadi.

FORMULAR- 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370.

316 -global nazariyalar yaratish qobiliyatiga yoki ulkan hamda murakkab ishlarni muvofiqlashtirish salohiyatiga ega.

325 -bular hayotga, sog‘liqqa, biologiya va tibbiyotga oid bilimlarga o‘chligi bilan ajralib turadi.Ular kino, sirk, rejissura, multiplikatsiya kabi san’at turlari bilan shug‘ullanadilar.

**5-TIP. INTUITIV** -bu toifadagi odamlar sezgir asab tizimiga ega bo‘lib, tez holsizlanadi. Bir faoliyatdan boshqasiga ko‘chishni talab etadigan sohalarda yaxshi ish beradilar. Odatda o‘zini mazlumlar himoyachisi sifatida ko‘rsatadi. Yangilikni tez qabul qiladigan. Altruist, o‘zgalarga g‘amho‘r. YAxshigina qo‘l-harakat ko‘nikmalariga va ko‘rgazmali tasavvurga ega. Bu esa o‘z navbatida

texnikaning ijodiy turlarida ish olib borishga imkon beradi. Aksariyat hollarda o‘zlarining axloq me’yorlarini ishlab chiqadilar. Erkiga tajovuz qiladigan har narsaga salbiy munosabat bildirishadi.

FORMULALAR -208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280.

235 -psixologlar va psixologiyaga yuqori qiziqish bilan qaraydiganlar orasida ko‘p uchraydi.

244 -adabiy ijod salohiyatiga ega odamlar.

217 -kashfiyotchilik qobiliyatları bor kishilar.

226 -yangilikka muhtojlik sezadigan va o‘z oldiga yuqori mqsadlar qo‘yadiganlar orasida uchraydi.

6-TIP. **KASHFIYOTCHI, KONSTRUKTOR, RASSOM** —bu toifa texnik qobiliyati bor kishilarda ko‘p uchraydi. Bunday odamlar boy tasavvurga (ayniqsa, fazoviy tasavvur) ega, texnik, badiiy va intellektual ijodning har xil turlari bilan shug‘ullanishadi. E’tibori ichki olamiga qaratilgan, **intuitiv** turga o‘xshab ular ham o‘z axloq me’yorlari bilan yashashadi, tashqaridan bo‘ladigan ta’sirga o‘ta ta’sirchan. His-tuyg‘ularga beriluvchan, o‘ziga xos g‘oyalar fidoyisi.

FORMULALAR -109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046.

019-O‘z muxlislariga ega insonlarda,

118-kashfiyotchilar va konstruktiv imkoniyatlarga ega odamlarda uchraydi.

7-TIP. **EMOTIV** —bu toifa odamlari hamdardlik xususiyatiga ega, kinofilmlarning qiyonoqqa soladigan kadrlarini ko‘rishi og‘ir kechadi. Kutilmagan hodisalardan es-hushini yo‘qotib qo‘yishadi. Boshqalarning dardi va tashvishiga xayrixoh, achinganidan ruhan tez toliqadi. Oqibatda, o‘zlari qiyin ahvolga tushib qoladilar.

FORMULALAR -550, 451, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280., 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

8-TIP. **EMOTIV TURNING AKSI**.- bu toifa odamlari birovlar dardini tushunmaydi, ularga o‘z ta’sirini, hukmini o‘tkazishga harakat qiladilar. YAxshi

mutaxassis bo'lsa, o'zi zarur deb hisoblagan ishni qilishga boshqalarni majbur eta oladi. Ba'zan bag'ritosh, vaziyatga, o'z muammolariga o'ralashib qolishadi. FORMULAR-901,802,703,604,505,406,307,208,109.

### **Testga izoh:**

Ushbu diagnostikaning nisbatan ishonchszligiga qaramay, mazkur metodika psixokonsultant bilan mijoz o'rtasida yaxshi aloqa vositasi bo'lishi mumkin. Individual tavsif berish chog'ida quyidagi savollarni berishni o'rinli deb hisoblaymiz ( odatda tasdiq javobi beriladi):

Bo'yin bo'lsa –ko'ngli nozikmisiz? Sizni xafa qilish oson-mi?

Quloq bo'lsa -sizni eshitishni biladigan odam deb hisoblashadi-mi?

Cho'ntak bo'lsa - bolalaringiz bor-mi?

Agar biron bir rasmida bosh kiyimi bo'lsa -kimgadir majburan yon bosib, endi afsusdamisiz?

Agar uchchala rasmida ham bosh kiyimi bo'lsa –o'zingizni qo'lingiz bog'liqday, chorasiszday his qilayapsizmi?

Yuz to'liq chizilgan bo'lsa—mulokotchan odammisiz?

Birgina og'iz bo'lsa –Sergapmisiz?

Birgina burun bo'lsa—hidga sezgirmisiz ? Atirni xush ko'rasizmi?

Odamcha tanasida aylanalar bo'lsa --kimgadir buyruq berish majbu-riyatingiz bormi?

### **SHVARTSLANDERNING “MUVAFFAQIYATGA ERISSHISH” TESTI**

Mazkur metodika ob'ektiv yondashuvga asoslangan amaliy test bo'lib, shaxsning talabgorlik darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. Talabgorlik darajasi avvalgi harakatlarda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka uchragach, odamning keyingi harakatlar uchun qanday murakkablikdagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishida namoyon bo'ladi. Metodika bir necha soniya davom etuvchi faoliyatni rejalashtirishga qodir bo'lgan barcha sinaluvchilar (10 yoshli bolalardan tortib keksalargacha) bilan ishslashda qo'llanishi mumkin.

Metodikaning qo'llanilishi.

Sinaluvchiga maxsus javob varag‘i beriladi (1-rasm). Sinaluvchidan u 10 soniyada varaqda keltirilgan bir to‘g‘ri to‘rtburchakdagi nechta katakka «+» belgisini qo‘ya olishi so‘raladi. Bu son birinchi to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqorisidagi yacheyka (KN) ga yozib qo‘yiladi. So‘ngra belgilangan 10 soniyada eksperimentator ishorasi bilan sinaluvchi kataklarga «+» belgisini qo‘yib chiqa boshlaydi va eksperimentator ishorasi bilan o‘z ishini to‘xtatadi. Keyin nechta katakka belgi qo‘yilganini hisoblab, ularning sonini to‘g‘ri – to‘rtburchakning quyidagi yacheykasi (EN) ga yozib qo‘yadi. Ikkinchisi va to‘rtinchi to‘g‘ri –to‘rtburchak bilan ham huddi shunday amallar bajariladi. Uchinchi to‘g‘ri to‘rtburchakda topshiriqni bajarish uchun ajratiladigan vaqt 8 soniyagacha qisqartiriladi, biroq bu sinaluvchilarga oshkor etilmaydi (atayin muvaffaqiyatsizlik vaziyati vujudga keltiriladi).

Natijalar tahlili:

Shaxsning talabgorlik darajasi (TD) quyidagi formula yordamida hisoblab topiladi:

$$(KN_2 - EN_1) + (KN_3 - EN_2) + (KN_4 - EN_3)$$

$$TD = \frac{\text{_____}}{3};$$

Bu erda:  $KN_2, KN_3, KN_4 - 2, 3, 4$  sinovlardagi kutilgan natija.

$EN_1, EN_2, EN_3 - 1, 2, 3$  sinovlardagi erishilgan natija.

Natijalarni baholash.

5 va undan yuqori – talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan juda yuqori;

$4,99 : 3$  – talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan yuqori;

$2,99 : 1$  – talabgorlik darajasi o‘rtacha (real imkoniyatlarga adekvat);

$0,99 : -1,49$  – talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan past;

$-1,5$  va undan kichik – talabgorlik darajasi real imkoniyatlardan juda past.

Sinov varaqalari

1	KN <sub>1</sub>							
2	KN <sub>2</sub>							
3	KN <sub>3</sub>							
4	KN <sub>4</sub>							
EN <sub>1</sub>	EN <sub>2</sub>							
EN <sub>3</sub>	EN <sub>4</sub>							

1	KN <sub>1</sub>							
2	KN <sub>2</sub>							
3	KN <sub>3</sub>							
4	KN <sub>4</sub>							
EN <sub>1</sub>	EN <sub>2</sub>							
EN <sub>3</sub>	EN <sub>4</sub>							

1	KN <sub>1</sub>							
2	KN <sub>2</sub>							
3	KN <sub>3</sub>							
4	KN <sub>4</sub>							
EN <sub>1</sub>	EN <sub>2</sub>							
EN <sub>3</sub>	EN <sub>4</sub>							

### “INTILISH DARAJASINI O’LCHASH” TESTI

Yo‘riqnomalar: Siz, yuklatilgan toshiriqning belgilangan bosqichi yakunlangach so‘rovnoma savollarini diqqat bilan o‘qing va javob bering. Siz birinchi bosqich vazifalarini hal etgan bo‘lsangiz-da, ammo berilgan vazifalarning davomi borligini esda tuting. Har bir testda keltirilgan tasdiqlarga javobingizni tartibli va ketma-ketlikda qayd eting. Siz keltirilgan tasdiqqa qo‘silasizmi yoki yo‘q shunga ko‘ra shkalalardan birini doirachaga oling. Siz javoblariningizni quyidagicha asoslashingiz mumkin:

- 1) to‘liq qo‘shilaman +3
- 2) qo‘shilaman +2
- 3) qisman qo‘shilaman +1
- 4) mutlaqo qo‘shilmayman -3
- 5) qo‘shilmayman -2
- 6) qisman qo‘shilmayman -1
- 7) agar siz hech biriga qo‘shilmasangiz -0

№	Test tasdiqlari	SHkalalar						
		-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
1.	Tadqiqot hozirdan meni bezor qildi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
2.	Men imkoniyatim darajasida ishlayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
3.	Men nimaga qodirligimni namoyon etishni xohlayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
4.	Meni yuqori natijalarga erishishga majburlayotganliklarini his qilyapman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
5.	Nima bo‘lishi men uchun qiziqarli	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
6.	Topshiriqlar etarli darajada murakkab	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
7.	Qiladigan ishlarim hech kimga kerak emas	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
8.	Mening natijalarimni boshqalarnikiga qaraganda yaxshi yoki yomon ekanligi meni qiziqtiradi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
9.	Tezroq o‘z ishim ustida shug‘illanishni xohlayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
10.	Meni natijalarim yuqori bo‘ladi deb o‘ylayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
11.	Bu vaziyat menga noxushlik tug‘dirishi mumkin	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
12.	Qanchalik yaxshi natijaga erishilsa, uni yanada rivojlantirish istagi tug‘iladi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3

13.	Men etarli darajada tirishqoqman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
14.	Men erishayotgan yaxshi natijalar tasodif emas, deb hisoblayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
15.	Topshiriqlar etarlicha qiziqarli emas	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
16.	Men o‘zimga vazifalar qo‘yaman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
17.	Men o‘z natijalarim xususida xavotirlanyapman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
18.	Men kuchimga kuch qo‘shilganligini his etyapman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
19.	Men yaxshi natijalarga erisha olmasam kerak	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
20.	Hozirgi vaziyat men uchun ahamiyatli	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
21.	Men o‘z oldimga yana va yana murakkab vazifalar qo‘yishni xohlayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
22.	Natijalarga e’tiborsizlik bilan qarayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
23.	Qancha ishlasa shuncha qiziqish ortadi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
24.	Men ushbu vazifalarni yakunlashga shoshilmayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
25.	Meni natijalarim past bo‘lsa kerak	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
26.	Qanchalik harakat qilmay natijalar baribir o‘zgarmaydi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
27.	Men hozir bu sinovda ishtirok etishdan ko‘ra, boshqa har qanday yumushni bajargan bo‘lar edim	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
28.	Topshiriqlar etarlicha sodda	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
29.	Men yaxshi natijalarga erishishga layoqatliman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
30.	Maqsad qanjalik murakkab bo‘lsa, unga erishish istagi shunchalik yuqori bo‘ladi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3

31.	Maqsadga erishish yo‘lidagi barcha qiyinchiliklarni bartaraf eta olishimni his qilyapman.	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
32.	Natijalarimni boshqalarniki bilan solishtirilganda qanday bo‘lishi, men uchun ahamiyatsiz	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
33.	Men topshiriqlar ustida ishslashga qiziqib boryapman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
34.	Men natijalarim past bo‘lib qolishidan xavotirlanyapman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
35.	Men o‘zimni erkin, mustaqil his etaman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
36.	Menimcha, men bekorga vaqt va quvvatimni sarflayotgandekman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
37.	Men yarim quvvatim bilan ishlayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
38.	Men imkoniyatlarimning chegarasi qiziqtiradi	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
39.	Meni natijalarim eng yaxshilaridan biri bo‘lishini istayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
40.	Men maqsadga erishish uchun bor kuchimni sarflayman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
41.	Mendan hech qanday natija chiqmasligini his etaman	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
42.	Sinov - bu loteriya	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3

### “Intilish darajasini o’lchash” testning kaliti

No	Motivatsiya tuzilmasining komponentlari	Tasdiq nomerlari
1.	Ichki motiv	15 <sub>0</sub> , 23, 33
2.	Bilish motivi	5,22 <sub>0,38</sub>

3.	Qochish motivi	11,17,34
4.	Musoboqalashuv motivi	8,32 <sub>0</sub> ,39
5.	Faoliyatni almashtirish motivi	1,9,27
6.	O‘zini hurmatlash motivi	12,21,30
7.	Natijalarning ahamiyatliligi	7,20 <sub>0</sub> ,36
8.	Topshiriqlarning murakkabligi	6,28 <sub>0</sub>
9.	Irodaviy harakat	2,13,37 <sub>0</sub>
10.	Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	19 <sub>0</sub> ,29
11.	O‘z imkoniyatlarini bahosi	18,31,41 <sub>0</sub>
12.	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	3,24 <sub>0</sub> ,40
13.	Kutilgan natijalar darajasi	10, 25 <sub>0</sub>
14.	Natijalarning qonuniyati	14,26 <sub>0</sub> ,42 <sub>0</sub>
15.	Tashabbuskorlik	4 <sub>0</sub> ,16,35

**Sinaluvchilarining to‘g‘ri va teskari yo‘nalish bo‘yicha javoblarini ballash qoidasi**

Almashtirish	Javoblar shkalasi						
	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3
To‘g‘ri	1	2	3	4	5	6	7
Teskari	7	6	5	4	3	2	1

**Testning shkalalari**

<b>№</b>	<b>Motivatsiya tuzilmasining komponentlari</b>	<b>Motivlarning mazmuni</b>
<b>1.</b>	Ichki motiv	Topshiriqlarning jalb etuvchanligi,

		topshiriqqa nisbatan qiziqishning mavjudligi
<b>2.</b>	Bilish motivi	Sub'ektning o'z faoliyat natijalariga qiziqishi, natijalardan qoniqishi
<b>3.</b>	Qochish motivi	Natijalarni past bo'lishi va qoniqmaslikni keltirib chiqarishidan qochish
<b>4.</b>	Musoboqalashuv motivi	Natijalarini boshqalarnikidan ustunroq bo'lishiga intilishi
<b>5.</b>	Faoliyatni almashtirish motivi	Faoliyatni o'zgartirish xohishini paydo bo'lishi, boshqa faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga urinish
<b>6.</b>	O'zini e'zozlash motivi	Faoliyatni qat'iy turib amalga oshirish, yangidan yangi murakkab vazifalar qo'yish va amalga oshirishga intilish
<b>7.</b>	Natijalarning ahamiyatliligi	Sabab va oqibat tamoyiliga ko'ra, muhim shart-sharoitlarga ko'ra ish tutish, faoliyat natijalariga shaxslik mazmunini berish
<b>8.</b>	Topshiriqlarning murakkabligi	Vazifalarning murakkabligi
<b>9.</b>	Irodaviy quvvat	Topshiriqlarni bajarishdagi irodaviy quvvatni namoyon bo'lishi
<b>10.</b>	Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	Ushbu faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholashi
<b>11.</b>	O'z imkoniyatlarini bahosi	Imkoniyatlarini baholash
<b>12.</b>	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	natijalarga erishishda kuchlarni safarbar etishi
<b>13.</b>	Natijalarni kutilganlik darajasi	Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi
<b>14.</b>	Natijalarning qonuniyati	Natijalarning motivatsiya tuzilmasiga ta'siri,

		unga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar, natijalarni tasodiflarga, vaziyatlarga va shaxsiy imkoniyatga bog'liqligi
<b>15.</b>	Tashabbuskorlik	Qo'yilgan topshiriq qanchalik tashabbus asosida yoki biron bir kishining rahbarligi ta'siri tarzda amalga oshiriladi

## **G.Y.AYZENKNING “EKSTRAVERSIYA, INTROVERSIYA VA NEVROTIZMNING O'LCHASH” TESTI**

Ushbu test shaxsning temperament tiplarini aniqlashga yordam beradi. Ma'lumki temperament turlari quyidagilar: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik. SHuni unutmaslimk kerakki, ushbu jarayonda eng muhim parametr bo'lib shaxsdagi ekstrovertlik va introvertlik hisoblanadi. Ushbu shkala bo'yicha pedagoglardagi umumiyl ball 8-16 oralig'ida bo'lsa eng optimal hisoblanadi.

**KO'RSATMA:** Sizga hozir 57 ta savodan iborat test taklif qilinadi. Siz ushbu savollarga faqat "Ha" yoki "Yo'q" deb javob berishingiz lozim. Savollarning "yaxshi" yoki "yomon"i yo'q. SHuning uchun ko'p o'ylamasdan javob berishga harakat qiling. Javob berish jarayonini tezroq va osonroq amalga oshirish uchun "Ha" javobiga "+" (plyus) belgisini, "Yo'q" javobiga "-" (minus) belgisini qo'yishingiz mumkin.

1. Sizda tez-tez yangidan-yangi taassurotlarni his qilishga xohish vujudga kelib turadimi?
2. Siz tez-tez, sizni tushunadigan, kerakli paytda dalda beradigan do'stlarga muhtojlik sezasizmi?
3. Siz o'zingizni beham kishi deb hisoblaysizmi?
4. Sizga o'z istaklariningizdan voz kechish qiyinmi?
5. Biron bir ishni bajarishdan oldin uzoq vaqt, shoshmasdan o'ylab olasizmi?
6. Agar bergen va'dangizdan sizga foyda yo'q bo'lsa ham, doimo va'dangizni bajarasizmi?

7. Sizda tez-tez kayfiyat tushib ketishi yoki ko‘tarilishi holatlari bo‘lib turadimi?
8. Odatda siz ko‘p o‘ylab o‘tirmasdan, tez ishni bajarib, tez gapirasizmi?
9. Sizda qachonlardir , xech qanday jiddiy sabab bo‘lmasa ham, o‘zingizni baxtsiz xis qilish hollari bo‘lganmi?
10. Sizning bahsda yutib chiqish uchun hech narsadan qaytmasligingiz to‘g‘rimi?
11. Sizga yoqqan ayol (erkak) bilan tanishmoqchi bo‘lsangiz, o‘zingizda qandaydir noqulaylik hissini sezasizmi?
12. Sizda o‘zingizni boshqara olmaydigan darajada jahl chiqish hollari bo‘lib turadimi?
13. Sizda tez-tez bir lahzalik kayfiyat ta’sirida, o‘ylamasdan hatti-harakatni amalga oshirish hollari bo‘ladimi?
14. Sizni tez-tez shu ishni qilmaslik kerak edi yoki shu gapni gapirmaslik kerak edi, degan fikrlar xavotirga soladimi?
15. Odamlar bilan suhbatlashib o‘tirishdan ko‘ra, kitob mutolaa qilishni afzal ko‘rasizmi?
16. Sizni xafa qilish osonmi?
17. Davralarda tez-tez bo‘lishni yoqtirasizmi?
18. Goho sizda boshqalarga oshkor etishni istamaydigan fikrlar tug‘iladimi?
19. Siz ba’zan o‘zingizni kuch-g‘aryratga to‘lib toshgan, ba’zan esa kuchli darajada holsiz sezasizmi?
20. Tanishlaringiz doirasini, faqat eng yaqin kishilaringiz bilan chegaralashga haqakat qilasizmi?
21. Ko‘p orzu qilasizmi?
22. Sizga baqirsalar, siz ham shunday javob qaytarasizmi?
23. Sizni aybdorlik hissi tez-tez bezovta qiladimi?
24. Sizning hamma odatlaringiz yaxshi va yoqimlimi?

25. SHovqinli davralarda o‘zingizni erkin tutib, quvnoq o‘tira olasizmi?
26. Siz haqqingizda tez-tez asablari tarang bo‘ladi, - deyish mumkinmi?
27. Sizni tetik va quvnoq deb hisoblashadimi?
28. Sizda biron-bir ishni bajarganizingizdan so‘ng, bu ishni yanada yaxshiroq qilsa bo‘lar edi degan o‘ylar bo‘ladimi?
29. Odatda siz kishilar davrasida jim, kamgapsiz, to‘g‘rimi?
30. Siz ba’zan g‘iybat qilib turasizmi?
31. Sizda, xayolingizga turli o‘z-fikrlar kelishi natijasida uxlay olmasik holatlari bo‘ladimi?
32. Sizga biron qiziq narsani do‘stlardan so‘rab bilib olgandan ko‘ra, kitobdan o‘qib bilib olgan maroqli va oson, to‘g‘rimi?
33. Sizda kuchli yurak urishi bo‘lib turadimi?
34. Sizga diqqatni kuchli talab qiluvchi ish bilan shug‘ullanish yoqadimi?
35. Sizda gohida, titroq bosish holatlari bo‘lib turadimi?
36. Siz doimo tanish kishilaringiz haqida garchand, ularning qulog‘iga etib bormasligini bilsangiz ham faqat yaxshi gaplar gapirasiz, to‘g‘rimi?
37. Doimo bir-biri bilan hazillashadigan davralarda bo‘lish sizga yoqmaydi, to‘g‘rimi?
38. Siz jizzakisiz to‘g‘rimi?
39. Tezkor harakatlarni talab qiluvchi ish bilan shug‘ullanish sizga yoqadimi?
40. Sizga turli bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ammo yaxshilik bilan tugagan ko‘ngilsizliklar va “dahshatlar” to‘g‘risidagi fikrlar tinchlik bermaydi, to‘g‘rimi?
41. Siz shoshmasdan harakat qilasiz, to‘g‘rimi?
42. Siz biron marotaba uchrashuv yoki ishga kech qolganmisiz?
43. Siz tez-tez dahshatli tushlar ko‘rib turasizmi?

- 44.Siz insonlar bilan gaplashishni juda ham yoqtirganingiz tufayli, hech qachon notanish kishilar bilan ham suhbatlashish imkoniyatni qo‘ldan chiqarmaslikka harakat qilasiz, to‘g‘rimi?
- 45.Sizni biron-bir jismoniy og‘riq qiynaydimi?
- 46.Do‘stlaringiz bilan uzoq vaqt ko‘rishishning imkoni bo‘lmassa xafa bo‘lasizmi?
- 47.Siz o‘zingizni asabiykishi deb hisoblaysizmi?
- 48.Tanishlaringiz orasida sizga umuman yoqmaydiganlari bormi?
- 49.Ishingiz yoki kamchiliklaringiz haqidagi tanqid sizni tez xafa qiladimi?
- 50.O‘zingizni o‘ziga ishongan deya olasizmi?
- 51.Sizga, ko‘p qatnashchilari bo‘lgan tadbirdarda ishtirok etishdan haqiqiy qoniqish hissini tuyish qiyinmi?
- 52.Sizni “boshqalardan yomonman” degan hisllar bezovta qiladimi?
- 53.Zerikarldi davraga “jonlantirish” kirita olasizmi?
- 54.O‘zingiz bilmagan narsalar haqida gapirgan paytlaringiz bo‘lganmi?
- 55.Sog‘lig‘ingiz haqida qayg‘urasizmi?
- 56.Sizga o‘zgalar ustidan hazillashish yoqadimi?
- 57.Uyqusizlikdan azob chekish hollari bo‘lib turadimi?

#### NATIJALAR TAHLILI

- 1. *Samimiylit:*** quyidagi savollarga “ha” javobi bo‘lsa: 6,24,36; “yo‘q” javobi bo‘lsa: 12,18,30,42,48,54;
- 2. *Ekstraversiya-introversiya*** shkalasi bo‘yicha:  
 “Ha” -1,3,8,10,13,17,22,25,27,39,44,46,49,53,56;  
 “Yo‘q”- 5,15,20,29,32,34,37,41,51;
- 3. *Emotsional-barqarorlik*** shkalasi: “Ha” – 2,4,7,9,11,14,16,19,21,23, 26,28,31,33,35,38,40,43,45,47,50,52,55,57.

Javoblarining ishonchlilik darajasini aniqlovchi shkaladan olingen javoblar 5 baldan yuqori bo'lsa, demak sinaluvchi samimiy javob bermagan hisoblanib, natijalarning to'g'ri chiqishiga kafolat berilmaydi.

## **V.M.RUSALOVNING “TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI ANIQLASH” METODIKASI**

**Ko'rsatma:** Quyida berilgan savollarga “ha” yoki “yo‘q” deb aniq javobni bering. Samimiy bo‘ling. Javoblarining yaxshi yoki yomoni bo‘lmaydi, shunday ekan ko‘p o‘ylab o‘tirmasdan javob bering.

Temperament xususiyatlarini baholash metodikasi savollari:

1. Serharakat qishimisiz?
2. Doimo sizni qiziqtirgan suhatga, hech ikkilanmay qo‘shilib keta olasizmi?
3. Katta davralarda holi bo‘lishni yoqtirasizmi?
4. Doimo nima bilandir shug‘ullanish yoki nimadir qilish istagi paydo bo‘ladimi?
5. Sust gapirasizmi?
6. Ko‘ngli tez og‘riydigan kishilar qatoriga kirasisizmi?
7. Do‘stlaringiz bilan tortishib qolganligingiz sababli, tez-tez u xlabel olmaslik holatlari bo‘ladimi?
8. Doimo bo‘sh vaqtingizda nima bilandir shug‘ullanishni xohlaysizmi?
9. Sizda kishilar bilan suhbat jarayonida o‘ylamasdan gapirib qo‘yish holatlari tez-tez sodir bo‘lib turadimi?
10. Suhbatdoshingizning tez gapirishi sizning g‘ashingizga tegadimi?
11. Agar ko‘p vaqtgacha kishilar bilan suhbatlashishi imkoniyati bo‘lmasa, o‘zingizni baxtsiz his qilgan bo‘larmidengiz?
12. Belgilangan uchrashuv yoki mакtabga kech qolgan paytlaringiz bo‘lganmi?
13. Sizga tez yugurish yoqadimi?

14. Siz yomon baho, o‘qituvchilarning yoki ota-onangizning tanbehini og‘ir boshdan o‘tqazasizmi?
15. Uzoq muddatli diqqat va sabr-toqatni talab qiluvchi ish bilan shug‘ullanish siz uchun osonmi?
16. Tez gapirishga qiynalasizmi?
17. Sizda uyga berilgan vazifani yoki topshiriqni talab darajasida bajarmagan bo‘lsangiz, bu haqida xavotirlanish holatlari tez-tez bo‘lib turadimi?
18. Sizda ko‘pincha suhbat jarayonida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar tug‘iladimi?
19. Sizga chaqqonlik va tezlikni talab qiluvchi o‘yinlar yoqadimi?
20. Siz uchun biron vazifaning yangicha echish variantlarini topish osonmi?
21. Agar suhbat vaqtida sizni noto‘g‘ri tushunsalar, bundan xavotirlanasizmi?
22. Murakkab va mas’uliyatli vazifalarni bajonidil o‘z bo‘yningizga olasizmi?
23. O‘zingiz tushunmagan narsalar haqida gapira olasizmi?
24. Sizga, tezkor maromda (temptda) bir necha odamlar bilan gaplashish osonmi?
25. Sizga bir vaqtning o‘zida bir necha yumushni bajarish osonmi?
26. Do‘stlaringizga o‘ylamay gapirib qo‘yishingiz oqibatida, ular bilan nizoli vaziyatlarga borib qolgan paytlaringiz bo‘lib turadimi?
27. Siz sodda, odatiy, ortiqcha kuch talab etmaydigan ishni yoqtirasizmi?
28. Agar biron bir ishni noto‘g‘ri bajaraganingizni tasodifan bilib qolsangiz, kayfiyattingiz tez tushib ketadimi?
29. Sizga bir joyda o‘tirib qilinadigan ish yoqadimi?
30. Sizga notanish odamlar bilan munosabatga kirishish osonmi?
31. Biron narsani gapririshdan oldin, uni o‘ylab ko‘rishni lozim deb topasizmi?
32. Sizning barcha odatlaringiz ijobiymi?

33. Siz ishlayotganingizda qo‘llaringiz tez harakat qiladimi?
34. Notanish kishilar davrasida, munosabatga kirishishga shoshmasdan, jim turasizmi?
35. Topshiriqni echishda bir usuldan, boshqasiga tez o‘tib keta olasizmi?
36. Sizga yaqin kishilarningizning munosabati yomonmi?
37. Sergap kishimisiz?
38. Sizga tezkor reaksiyani talab qiluvchi ishni bajarish osonmi?
39. Siz, doimo erkin, tutilib qolishlarsiz gapirasizmi?
40. Sizni o‘qish va ishingiz bilan bog‘liq narsalar xavotirga soladimi?
41. Agar kishilar sizning shaxsingizdagi kamchiliklarni ko‘rsatishsa, xafa bo‘lasizmi?
42. Sizda biron bir mas’uliyatli ish bilan shug‘ullanish istagi bormi?
43. Siz barcha ishlarni sekin va shoshmasdan bajarishni yoqtirasizmi?
44. Sizda boshqalarga oshkor etishni istamaydigan fikrlar tug‘iladimi?
45. Siz ko‘p o‘ylab o‘tirmasdan o‘zga kishiga uni noqulay, qiyin vaziyatga solib qo‘yadigan savollar bera olasizmi?
46. Tez harakatlanish sizga yoqadimi?
47. Siz shug‘ullanayotgan ishingiz bilan bog‘liq yangi g‘oyalarni tez o‘ylab topasizmi?
48. Sizda qandaydir muhim, mas’uliyatli suhbat oldidan vahimaga tushish, xavotirlanish holatlari bo‘ladimi?
49. Siz haqingizda, berilgan topshiriqni tez bajaradi, deyish mumkinmi?
50. Mustaqil ishslashni yoqtirasizmi?
51. Sizning ichki holatingizni yuzingizdan payqash mumkinmi?
52. Bergan va’dangizni doimo bajarasizmi?
53. YAqinlaringizning sizga nisbatan munosabatidan xafa bo‘lasizmi?
54. Bir vaqtning o‘zida faqat bir ish bilan shug‘ullanishni yoqtirasizmi?
55. Tezlikni taqazo etadigan o‘yinlarni yoqtirasizmi?
56. Nutqingizda to‘xtashlar (pauzalar) qilishni yoqtirasizmi?
57. Davraga “jonlanish” kiritishni yoqtirasizmi?

58. O'zingizda biron bir qiyin ishni bajarishga istak va ortiqcha kuchni sezasizmi?
59. Diqqatingizni bir narsadan boshqasiga ko'chirishingiz qiyinmi?
60. Biron bir muhim ishning amalga oshirilmaganligidan ancha vaqtgacha kayfiyatingiz tushib yurgan holatlar bo'lganmi?
61. Ishingiz siz xohlagandek bo'lmayotganligidan, uyquning qochgan holatlar tez-tez bo'lib turadimi?
62. Sizga katta davralarda bo'lish yoqadimi?
63. Do'stlarining bilan orani ochiq qilar ekansiz, hayajonlanasizmi?
64. Bor kuchingizni saflashni talab qiluvchi ishga ehtiyoj sezasizmi?
65. Tez-tez jahlingiz chiqib, o'zingizni tutib tura olmaysizmi?
66. Bir vaqtning o'zida bir necha ishni bajarishni yoqtirasizmi?
67. Katta davralarda o'zingizni erkin tuta olasizmi?
68. Etarlicha o'ylab o'tirmasdan, birinchi tasurot asosida xulosa chiqara olasizmi?
69. Biron ishni bajarish jarayonida o'zingizga nisbatan ishonchsizlikni hissi paydo bo'ladimi va u sizni xavotirga soladimi?
70. Siz sekin ishlaysizmi?
71. Bir ishdan boshqasiga tez kirishib keta olasizmi?
72. Ovoz chiqarib tez o'qiy olasizmi?
73. Goho g'iybat qilib turasizmi?
74. Do'stlarining davrasida kamgapmisiz?
75. Sizni qo'llab-quvvatlovchi va taskin beruvchi kishilarga nisbatan ehtiyoj sezasizmi?
76. Bir vaqtning o'zida turli ishlarni bajonidil bajarasizmi?
77. Tezkor ishlarni bajonidil bajarasizmi?
78. Bo'sh vaqtingizda kishilar bilan muloqotga qilishga shoshasizmi?
79. Sizda tez-tez ishingizda biron narsa ko'ngildagidek bo'lmasa, uyqusizlik bo'ladimi?
80. Bahs paytida qo'llaringiz titraydimi?

81. O‘z fikringizni aytishdan oldin, ancha vaqt ruhan tayyorlanasizmi?
82. Tanishlaringiz orasida sizga umuman yoqmaydiganlari bormi?
83. Engil ish bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘rasizmi?
84. Sizni xafa qilish osonmi?
85. Odatda siz davralarda birinchi bo‘lib gap boshlaysizmi?
86. Ko‘proq kishilar orasida bo‘lishni istaysizmi?
87. Avval o‘ylab, keyin gapirishga moyilmisi?
88. O‘z ishingiz yoki o‘qishinigiz borasida ko‘p xavotirlanasizmi?
89. Agar transportda tekshirishlaridan qo‘rqmaganinigizda doimo ortiqcha yukningiz uchun haq to‘lagan bo‘lar edingizmi?
90. Kechalar va davralarda o‘zingizni jiddiy tutasizmi?
91. Ishingizda sodir bo‘lib turadigan omadsizliklarni bo‘rttirishga moyilmisiz?
92. Sizga tez gapirish yoqadimi?
93. Bexosdan xayolingizga kelgan o‘yni oshkor etishdan o‘zingizni ushlab turish osonmi?
94. Sekin ishlashni ma’qul ko‘rasizmi?
95. Ishda sodir bo‘lgan ko‘ngilsizliklardan xavotirga tushasizmi?
96. Sizga kishilar bilan sekin va xotirjam gaplashish yoqadimi?
97. Xatolaringizdan tez-tez xavotirlanasizmi?
98. Uzoq vaqt va mehnatni talab qiluvchi ishni yaxshi bajarishga qodirmisiz?
99. Siz o‘ylab o‘tirmasdan, notanish kishiga shaxsiy masala yuzasidan yordam so‘rab murojaat qila olasizmi?
100. Siz ko‘pincha kishilar bilan muloqotda o‘zingizga ishonchsizlikni his qilasizmi?
101. YAngi va siz uchun notanish bo‘lgan ishni bajarishni bo‘yningizga olishingiz osonmi?
102. Agar uzoq vaqt gapirsangiz charchab qolasizmi?
103. SHoshmasdan, ortiqcha zo‘riqishsiz ishslash sizga yoqadimi?

104. Doimo yuqori darajadagi e'tibor va diqqatni bir narsadan boshqasiga ko'chirishni talab qiluvchi har turli ish bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?

105. Uzoq vaqt o'zingiz bilan yolg'iz qolishni yoqtirasizmi?

### **Metodikaning kaliti**

Quyida ushbu metodika orqali aniqlanadigan har bir temperament xususiyatlariga mos keluvchi savol raqami va javob variantlari keltirilgan. Agar sinaluvchining bergan javobi kalitga mos kelsa, shu temperament xususiyati uchun **1 ball**dan beriladi. Har bir temperament xususiyati bo'yicha to'plangan ballar soni ushbu temperament xususiyatning rivojlanish darajasinini anglatadi.

**Ishdagi kuch-quvvat:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 4, 8, 15, 22, 42, 50, 58, 64, 98; "yo'q" javoblaridagi savollar: 27, 83, 103.

**Kishilar bilan muloqotadagi "ha"** javoblaridagi quyidagi savollar: 11, 30, 57, 62, 78, 86; "yo'q" javoblaridagi savollar: 3, 34, 74, 90, 105.

**Ishdagi egiluvchanlik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 20, 25, 35, 38, 47, 66, 71, 101; "yo'q" javoblaridagi savollar: 54, 59.

**Kishilar bilan muloqotdagi egiluvchanlik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 2, 9, 18, 26, 45, 68, 85, 99; "yo'q" javoblaridagi savollar: 31, 81, 87, 93.

**Ishdagi tezlik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 1, 13, 19, 33, 46, 49, 55, 77; "yo'q" javoblaridagi savollar: 29, 43, 70, 94.

**Kishilar bilan muloqotdagi tezlik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 24, 37, 39, 51, 72, 92; "yo'q" javoblaridagi savollar: 5, 10, 16, 56, 96, 102.

**Ishdagi emotSIONallik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 14, 17, 28, 40, 60, 61, 69, 79, 88, 91, 95, 97.

**Kishilar bilan muloqotda emotSIONallik:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 6, 7, 21, 36, 41, 48, 53, 63, 75, 80, 84, 100.

**Tekshiruvchi savollar:** "ha" javoblaridagi quyidagi savollar: 32, 52, 89; "yo'q" javoblaridagi savollar: 12, 23, 44, 65, 73, 82.

Avvalo sinaluvchining javoblari tekshiruvchi savollarga berilgan javoblari orqali, qay darajada samimiy javob bergenligi aniqlanadi.

Agar sinaluvchining javoblari tekshiruvchi savollarga 3 tadan ortiq darajada mos kelsa, bu sinaluvchining o‘zini juda yaxshi ko‘rsatish, o‘z sifatlarini oshirib ko‘rsatish uchun etarlicha samimiy bo‘lmaganligini bildiradi. Bunday holatlarda sinaluvchining javoblaridan ishonchli axborotni olish imkoniyati yo‘qoladi.

Agar sinaluvchining tekshiruvchi savollarga mos keladigan javoblari 3 tadan past bo‘lsa, uning javoblariga ishonish mumkin.

### **Natijalarni baholash va temperament xususiyatlarining rivojlanganlik darjasи haqidagi xulosalar**

Agar sinaluvchining u yoki bu temperament xususiyati bo‘yicha to‘plagan ballari **9 va undan yuqori** bo‘lsa, unda ushbu temperament xususiyati bo‘yicha yuqori darajada; **5-8 ballar o‘rta** darajada rivojlanishni; **4 va undan past** ballar **quyi** rivojlanish darajasida ekanligni bildiradi.

Turli temperament xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalarni taqqoslash orqali qaysi temperament xususiyatlari yuqori ekanligi aniqlanadi. Quyida turli temperament tiplariga mos keluvchi xususiyatlar birikamalari keltirilgan.

**Sangvinik-** barcha xususiyatlar bo‘yicha o‘rtacha rivojlanish ko‘rsatkichi.

**Xolerik-** kuch-quvvatlilik (energichnost) bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich, temp va emotsiyonallik bo‘yicha o‘rtacha yoki egiluvchanlik bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich.

**Flegmatik-** barcha temperament xususiyatlari bo‘yicha past ko‘rsatkichlar.

**Melanxolik-** kuch-quvvat (energichnost), egiluvchanlik bo‘yicha past, tezlik (temp) bo‘yicha o‘rtacha yoki emotsiyonallik bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlar.

Har bir sinaluvchi uchun uning temperamentining ikki tipi belgilanadi, biri ish jarayonida ko‘rinsa, ikkinchisi kishilar bilan munosabatda namoyon bo‘ladi.

## **FRAYBURG SAVOLNOMASI YORDAMIDA SHAXS XUSUSIYATLARINI O`RGANISH**

Frayburgning shaxs savolnomasi (FRI) 1963 yili Y.Farenberg, X.Zarg, R.Gampel kabi tadqiqotchilar tomonidan amalda qo'llanildi. Test birinchi marta 1970 yili, ikkinchi marta 1973 yili nashr qilindi, uchinchi nashri esa 1978 yilda chiqdi.

Bu metodika inson shaxsining ba'zi bir xususiyatlarini tashhis qilish uchun yaroqli bo'lgan ko'p omilli testdir. Bu amaliy va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun muhim manbadir. Savolnoma shaxs to'g'risida har tomonlama ma'lumotlar beradi.

Test tadqiq qilinuvchilarning keng ommasiga mo'ljallangan. Ushbu metodikaning qisqartirilgan varianti ham bor.

Testni yakka holda yoki guruhiy shaklda qo'llash mumkin. Bajarish uchun vaqt savolnomaning shakliga bog'liq, bo'lib, u 20 daqiqadan 50 daqiqagacha davom etishi mumkin. Tadqiqot uchun yo`riqnomा, savolnoma va javoblar varaqasi zarur. FPI savolnomasi 12 shkaladan iborat.

Savolnomadagi savollar soni 114 ta. Faqat birinchi savol hech bir o'lchamga (shkalaga) xos emas, chunki u tekshirish xarakteriga ega. I-XII shkalalar asosiy shkalalar hisoblanadi.

I – shkala –Asabiylashganlik.

II -shkala – Spontan tajovuzkorlik.

III -shkala – Ruhiy siqilganlik.

IV-shkala – Jizzakilik.

V-shkala – Dilkashlik.

VI–shkala – Og'ir, vazminlik.

VII-shkala – Reaktiv tajovuzkorlik

VII-shkala – Uyaluvchanlik, tortinchoqlik.

IX-shkala – Oshkoraliq,samimiylilik

X-shkala – Ekstravertlik va introvertlik.

XI-shkala – Emotsional labillik, o’zgaruvchanlik

XII-shkala – Maskulinizm-feminizm

I-shkala shaxsni asabiylashganlik darajasini belgilaydi. YUqori baholar psixosomatik buzilishlar bilan jismoniy zaif kishilarning asabiylashganlik holatiga mos keladi. Bu omilni, psixologik terminlardan foydalanib, uni quyidagicha yanada aniqroq tavsiflash mumkin: asabiylashganlik, asabiy, kasalmand, biror bir holatdan chiqib ketolmaydigan, o‘z xissiyotlariga berilgan.

II-shkala (spontan tajovuzkorlik) introtensiv turdag'i psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. YUqori baholar g‘ayri-ihtiyoriy xulqqa ega bo‘lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan (spontan) tajovuzkorlik — bu tajovuzkor, beixtiyor, soddadil, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir.

III -shkala (ruhiy siqilganlik) - psixopatologik ruhiy siqilganlik holatlari uchun xos bo‘lgan belgilarga tashhis qo‘yish uchun imkon beradi. YUqori baholar mana shu belgilarning emotsional holatda, o‘ziga va ijtimoiy muhitga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lishini bildiradi. Depressivlik - bu ta’bixiralik, ishonchsiz, g‘amgin, ichki azoblanish xususiyatlari yig‘indisidir.

IV-shkala – Jizzakilik va turg‘unligidan darak beradi. Jizzakilik — bu chidamsiz, beixtiyor asabiyashgan, jiddiy tarang, soddadil, injiqlik demakdir.

V- shkala – (Dilashlik) ijtimoiy faollikning imkoniyatlarini va bu xususiyatlarning haqiqiy ko‘rinishini ifodalaydi. YUqori baholar ehtiyojni ta’minalashda doimiy tayyorlikni va muomala ehtiyojining borligidan dalolat beradi. Do‘stonalik - xushmuomalalik, dilkashlik, uddaburonlik xususiyatlaridir.

VI-shkala (Og‘ir, vazminlik)-ruhiy zarbaga chidamlilikni anglatadi. YUqori baholar kelajakka ishonch va faollikni, o‘ziga ishonchi odatdag'i hayotiy holatlarda ruhiy zarba omillari ta’siridan yaxshi himoyalanganlikni anglatadi. Mo‘“tadillik - bu yaxshi kayfiyat-barqarorlik, matonatlilik, xotirjamlik, o‘z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir.

VII -shkala (Reaktiv tajovuzkorlik) - ekstratensiv tipdag'i psixopatik belgilarni namoyon bo'lishini aniqlaydi. YUqori baholar ..likka intilishni va ijtimoiy muhitga tajovuzkorona munosabatni ifodalaydi. Reaktiv tajovuzkorlik - bu tajovuzkorona o'z qarashlarini himoya qilish, o'z fikrini himoya qilish, xudbinlik, manmanlik, obro'ga, yuqori mavqega, ustunlikka intilish demakdir.

VIII -shkala (Uyaluvchanlik, tortinchoklik) insonning hayotiy vaziyatlarda o'zini passiv himoya qilish xususiyatiga moyillikni aniqlaydi. Bu kuchsiz himoyalangan turda o'tadi. YUqori baholar shkalada xavotirlilik, ishonchsizlik, tortinchoqlik xususiyatlarini mavjudligini ifodalab, bular esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlarga kirishishni qiyinlashtiradi. Tortinchoqlik - vazmin, ishonchsiz, uyatchan, hayajonlanuvchi, tahlikaga tushuvchi.

IX-shkala (Oshkoraliq) o'z-o'zini tanqid darajasini, ijtimoiy muhitga munosabatini tavsiflashga imkon yaratadi. YUqori baholar o'z-o'ziga tanqidning yuqori darajasidan, atrofdagi kishilar bilan ishonarli oshkora birgalikda harakatga intilishdan darak beradi. Ushbu shkala buyicha baxolar sinalayotgan kishining berilgan savolnomaga bilan ishlayotganda u yoki bu darajada javoblarning samimiyligini tahlil kilishga imkon yaratadi, bu esa boshqa savolnomalarning yolg'on shkalalariga tug'ri keladi. Samimiylik xususiyati o'z-o'zini tanqid, oshkoraliq, shaxsiy kamchiliklarni va xatolarni tan olishni bildiradi.

X-shkala (Ekstravertlik va introvertlik) yuqori baholar shaxsning ekstravertlik, quyi baholar esa introvertlik xususiyatlariga mos keladi.

XI-shkala (Emotsional labillik, o'zgaruvchanlik) yuqori baholar etarli o'zini idrok qilmaslik, serjahllik, yuqori qo'zgaluvchanlik, kayfiyatning tez-tez o'zgaruvchanligida ko'rindigan emotsional holatning noto'g'riligini ko'rsatadi. Quyi baholar faqatgina emotsional holatning yuqori barqarorligini tavsiflamasdan, balki o'z-o'zini idrok qila olishni ham ko'rsatadi. Emotsional o'zgaruvchanlik-barqarorlik, emotsional turg'unlik yoki noturg'unlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, serjahllik, jushqinlik, g'am yoki kelajakka ishonch, xursandchilikni bildiradi.

XI-shkala (Maskulinizm-feminizm) - yuqori baholar ruhiy faoliyatning, xususan, erkaklarga- xosligidan guvohlik bersa, quyi baholar ayollarga xosligidan darak beradi. Mardlik-nazokatlilik-faollik, hammadan bilimdon, fahmlash, topqirlikdir.

Sinov yakka holda yoki sinaluvchilar guruhi bilan o'tkazilishi mumkin. Sinalayotganlar bir-biriga halaqit bermaydigan holatda joylashtirilishi lozim. Tadqiqotchi tadqiqot maqsadini va savolnomaga bilan ishlash qoidasini qisqacha bayon qiladi. Sinalayotganlarning topshiriqlarni bajarishiga ijobiy va qiziqish bilan munosabatda bo'lishlariga erishish muhimdir. Ularning e'tibori ish paytida javoblar bo'yicha maslahatlashishning va o'zaro har qanday muhokamaning mumkin emasligiga qaratilmog'i darkor. SHundan keyin psixolog sinaluvchilarga diqqat bilan yo'riqnomani o'rganib chiqishni tavsiya qiladi, so'ng savollar paydo bo'lga bo'lsa, ularga javob beradi, savolnomaga bilan mustaqil ishslashni taklif etadi.

Natijalar tahlilini tekshiruvchilar to'ldirgan barcha javob varaqalarini birinchi savolga qanday javob bergenligini aniqlagan holda qarab chiqishdan boshlash kerak.

Tekshirilayotgan kishi qo'yilgan savollarga ochiqchasiga javob berishni istamasa, tadqiqot amalga oshmagan deb hisoblanish kerak. Birinchi savolga ijobiy javob olingan taqdirda tadqiqotning natijalari ishlab chiqilgandan keyin yuqori va quyi baholar ajratiladi.

### **Sinaluvchiga yo'riqnomasi:**

Sizning xulqingizga, alohida qilmishlaringizga, odamlarga bo'lga munosabatingizga, hayotga qarashlaringizga va shunga o'xshash qandaydir xususiyatlaringizga berilgan tasdiq mos keladimi – yo'qmi? Agar shunday moslik bor deb hisoblasangiz, «ha» javobini bering, aks holda esa «yo'q» javobini bering. Hamma savolga javob berish zarur.

Tadqiqotning muvaffaqiyati topshiriqning qanchalik e'tibor bilan bajarilganligiga bog'liq. Javoblar berilganda, biror kishida yaxshi taassurot

qoldirishga intilmaslik kerak, chunki xech bir javob yaxshi yoki yomon deb hisoblanmaydi.

Siz hap bir savol ustida uzoq, o'ylab o'tirmasdan, ikkala javobning qaysi biri sizningcha, har holda nisbiy bo'lsa ham haqiqatga yaqin kelishini hal qilmog'ingiz lozim bo'ladi. Ba'zi bir savollarning o'ta shaxsiyligi sizni tashvishlantirmasligi kerak, chunki tadqiqot har bir savolni javobini tahlil kilishni nazarda tutmaydi, balki u yoki bu javobning soniga tayanadi.

Bundan tashqari Siz yakka psixologik tadqiqotning natijalari xuddi tibbiyotdagidek, keng muhokama qilinmasligini bilishingiz kerak bo'ladi.

Javob varaqasiga savol nomerining qarshisiga «HA» yoki «YO'Q» javobi yozib qo'yiladi.

### SIZGA MUVAFFAQIYAT TILAYMIZ !

1. Men diqqat bilan yo'riqnomanı o'qib chiqdim va hamma savollarga ochiqchasiga javob berishga tayyorman.
2. Kechkurunlari quvnoq davra safida - mehmonda, qahvaxonada vaqtimni chog' qilishni yoqtiraman.
3. Biron kishi bilan tanishganimda har doim suhbat uchun xos bo'lgan mavzuni topishim qiyinligi halaqit beradi.
4. Tez-tez boshim og'rib turadi.
5. Ba'zan chakkamda dukullashni va buynim atrofida tomir urishini his kilaman.
6. Men o'zimni hushimni tez yo'qotaman, shuningdek, tez o'zimni qo'lga olaman.
7. Ba'zida bema'ni latifalardan kulaman.
8. Men bir narsa haqida so'raqdan tortinaman, bilishim kerak bo'lgan narsani boshqa yul bilan bilishni ma'qul ko'raman.
9. Mening kelganim sezilmasa, xonaga kirmaslikni ma'qul ko'raman.
10. Men qo'limga tushgan hamma narsani sindirib tashlashga tayyor darajada injiq bo'lishim ham mumkin.

11. Atrofdagilar menga e'tiborini qarata boshlashsa, o'zimni noqulay sezaman.

12. Men ba'zida yuragimni xuddi o'lida-jo'lida ishlayotgandek yoki ko'kragimdan chiqib ketgudek bo'lib ura boshlashini his qilaman.

13. Xafa qilganni kechirish mumkin deb o'ylayman.

14. Jahlga jahl bilan javob bermaslik kerak deb hisoblamayman va har doim shunga amal qilaman.

15. Agar men o'tirgan bo'lsam va birdan o'rnimdan tursam ko'z oldim qorongulashib, boshim aylanib ketadi.

16. Agar meni deyarli har kuni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib qilmaganda, hayotim naqadar yaxshi bo'lishi mumkinligi haqida o'ylayman.

17. O'z qilayotgan harakatlarimda odamlarga to'liq ishonmaslik kerak, degan xulosaga amal qilaman.

18. O'z manfaatlarimni himoya qilish zarurati tug'ilib qolsa, jismoniy kuch ishlatishdan ham qaytmayman.

19. Eng zerikarli guruhni ham osongina hushchaqchaq qila olaman.

20. Men osongina dovdirab qolaman.

21. Agar mening ishimga ogohlantirish berilsa, bu meni hech qachon xafa qilmaydi.

22. Ba'zida qo'llarim va oyoqlarim sovuq qotib ketayotganini yoki uvishib qolayotganini tez-tez his qilaman.

23. Boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lganimda o'ngaysizlanaman.

24. Ba'zida hech bir sababsiz o'zimni baxtsiz his qilaman.

25. Ba'zida biror ish bilan shug'ullanishga hech ham xohish bo'lmaydi.

26. Xuddi juda og'ir ishni bajargandek, gohida menga havo etmayotgandek tuyuladi.

27. Menga shunday tuyuladiki, o'z hayotimda juda ko'p narsalarni noto'g'ri qilganga o'xshayman.

28. Mening nazarimda boshqalar ko'pincha ustimdan kulishayotgandek tuyuladi.

29. Uzoq o‘ylab o‘tirmay bajariladigan topshiriqlarni yaxshi ko‘raman. O‘z taqdirimdan norozi bo‘lishga etarli asoslarim yo‘q deb hisoblayman.
30. Ko‘pincha ishtaham bo‘lmaydi.
31. Bolaligimda ota-onam yoki o‘qituvchilarim boshqa bolalarni jazolashganlarida quvonganman.
32. Odatda qarorim qat’iy va tez harakat qilaman.
33. Har doim ham rost gapirmayman.
34. Kimnidir yoqimsiz holatdan chiqish uchun qilayotgan harakatlarini qiziqish bilan kuzataman.
35. O‘z fikrimda turmoqchi bo‘lsam «barcha vositalar yaxshi» deb hisoblayman.
36. O‘tib ketgan voqealar meni kam tashvishlantiradi.
37. Musht orqali biror narsani isbotlashdan bir arziydigan narsa chiqishini tasavvur qila olmayman.
38. Men bilan janjallahish yo‘llarini qidirayotgan odam bilan uchrashishdan qochmayman.
39. Ba’zida hech narsaga yaroqsizdekman.
40. Men har doim qandaydir toliqqan, zo‘riqqan holda yurgandekman, menning bo‘shashishim qiyin.
41. Ko‘pincha ko‘kragim ostida og‘riq, qornimda har xil yoqimsiz sezgilar paydo bo‘ladi.
42. Do‘stimni hafa qilganlardan o‘ch olishga harakat qilaman.
43. Belgilangan vaqtga kech qolgan paytlarim bo‘lgan.
44. Mening hayotimda shunaqa ham bo‘lganki, nimagadir hayvonlarga azob berishni o‘zimga lozim topganman.
45. Eski yaqin tanishim bilan uchrashganda xursandligimdan uning bo‘yniga osilib olishga tayyorman.
46. Men biror narsadan qo‘rqsam og‘zim qurqshaydi, qo‘l-oyog‘im qaltiraydi. Menda tez-tez shunday kayfiyat bo‘ladiki, hech narsani ko‘rmasam, eshitmasam deyman.

47. Uyquga yotsam odatda bir necha daqiqadan so‘ng uxbab qolaman.
48. Boshqalarning xato-kamchiliklarini ko‘rsatish menga orom bag‘ishlaydi.
49. Ba’zida maqtanib turaman.
50. Jamoat tadbirlarida faol qatnashaman.
51. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, arzimagan uchrashuvdan qutulish uchun boshqa tomonga qarashimga to‘g‘ri keladi.
52. O‘zimni oqlash uchun ba’zida biror narsani o‘ylab topaman.
53. Men deyarli har doim harakatdaman va faolman.
54. Men gapirayotgan narsalar ko‘p hollarda suhbatdoshlarimga haqiqatdan ham qiziqarli ekanligidan shubhalanib qolaman.
55. Ba’zida birdan ter qoplaganini his qilaman.
56. Agar biror kishidan qattiq jahlim chiqsa, uni urib yuborishim ham mumkin.
57. Kimnidir menga yomon munosabatda bo‘lishi, meni kam tashvishlantiradi.
58. Tanishlarimga odatda e’tiroz bildirishim qiyin.
59. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizlik haqidagi fikrdan hayajonlanaman va tashvishlanaman.
60. Tanishlarimning hammasini ham yaxshi ko‘rmayman.
61. Menda shunday fikrlar ham bo‘lib turadiki, ulardan faqat uyalish kerak.
64. Bilmadim nima uchundir ba’zida hamma biror narsadan ilhom olayotgan bo‘lsa, o‘sha narsani buzgim keladi. Menga kerakli narsani har qanday odamdan iltimos qilishdan ko‘ra, unga majburlab qildirishni afzal ko‘raman.
65. Men ko‘p xollarda qo‘l va oyoqlarimni noqulay harakatlantiraman.
66. Quvnoq davrada bo‘lishdan ko‘ra, o‘zimning sevimli ishim bilan shug‘ullanib, erkin kecha o‘tkazishni afzal ko‘raman.
67. Davralarda o‘zimni uyda tutganimdek tutolmayman.
68. Ba’zida o‘ylamasdan shunday narsani gapirib qo‘yamanki, u haqida yaxshisi jim turgan afzalrok edi.
69. Hatto tanishlar davrasida ham diqqat markazda bo‘lishdan qo‘rqaman.
70. YAxshi tanishlarim juda ko‘p emas.

71. Gohida menda shunday taassurot paydo bo‘ladiki, yorqin rang, yorqin buyoq, kuchli shovqin menda yoqimsiz hissiyotlarni uyg‘otadi, garchand bular boshqalarga bunday ta’sir qilmayotgan bo‘lsa ham.
72. Ko‘p xollarda menda davradagi kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish istagi paydo bo‘ladi.
73. Hayotda turli yoqimsiz narsalarning uchrashi mumkinligini o‘ylasam, bundan tugilmaganim yaxshi edi deb, qolaman.
74. Agar meni kimdir jiddiy hafa qilsa, o‘ziga tegishlisini to‘liq oladi.
75. Jahlimni chiqarishsa, aytadigan gaplarimdan uyalmayman.
76. Menga, savol berganimda yoki javob berganimda suhbatdoshim o‘zini yo‘qotib qo‘yishi yoqadi.
77. Zarur bo‘lgan ishlarni ham orqaga surgan vaqtlarim bo‘lgan. Latifalarni yoki kulgili voqealarni hikoya qilishni yoqtirmayman.
78. Kundalik qiyinchiliklar va tashvishlar muvozanatimni yo‘qotishga olib keladi.
81. O‘zimni noqulay tutgan davradagi odam bilan uchrashib qolsam, o‘zimni quyarga joy topa olmayman.
82. Hayotdagi mayda-chuydalarga ham jiddiy e’tibor qaratadigan odam bilan ham munosabatda bo‘la olaman.
83. Katta auditoriya oldida so‘zga chiqishdan tortinaman.
84. Mening kayfiyatim tez-tez o‘zgarib turadi.
85. Atrofdagilarning ko‘pchiligidan ko‘ra, men tezroq charchayman.
86. Agar men biron narsadan kuchli hayajonlangan yoki achchiqlangan bo‘lsam, uni butun tanim bilan his qilaman.
87. Kallamga keladigan yoqimsiz fikrlardan bezor bo‘lib ketaman.
88. Afsuski, meni oilada ham, o‘z tanishimlarim davrasida ham tushunishmaydi.
89. Agar men bugun odatdagidan kamroq uxlagan bo‘lsam, ertasiga o‘zimni dam olmagandek his qilaman.

90. O‘zimni shunday tutamanki, atrofdagilar mening noroziligidagi paydo qilishdan cho‘chishsin.
91. Kelajagimga ishonaman.
92. Atrofdagilardan birining yomon kayfiyatini sababchisi bo‘lganman.
93. Boshqalarning ustidan kulishdan ham qaytmayman.
94. O‘ta sergap odamlar bilan ham muomala qila olaman.
95. Men hamma narsaga oson munosabatda bo‘ladigan kishilar toifasidanman.
96. O‘smyrligimda ta’qiqlangan mavzularga qiziqqanman.
97. Gohida yaxshi ko‘rgan kishilarimning dilini og‘ritganman.
98. Atrofdagilarning qaysarliklari tufayli ular bilan ko‘pincha kelisha olmayman.
99. O‘z qilmishlarimdan ko‘pincha vijdonim qiynaladi.
100. Men ko‘p hollarda parishonxotir bo‘laman.
101. Yomon ko‘rgan odamimning omadsizligi, meni bezovta qilganligini eslay olmayman.
102. Ko‘p hollarda boshqalardan tez ranjiyman.
103. Ba’zida kutilmaganda, o‘zim tushunmagan narsalar haqida ishonch bilan gapira boshlayman.
104. Ko‘pincha shunday kayfiyatda bo‘lamanki, har kanday bahona bilan portlab ketishga tayyor turaman.
105. Ko‘pincha o‘zimni charchagan va lanj sezaman.
106. Men odamlar bilan suhbatlashishni yaxshi ko‘raman va har doim bunga tayyorman.
107. Afsuski, ko‘p vaziyatlarda men odamlarga shoshib baho beraman.
108. Ertalab odatda men yaxshi turaman, ko‘pincha hushtak chala boshlayman yoki xirgoyi qilaman.
109. Muhim muammolarni hal qilishda, hatto uzoq mulohazadan so‘ng ham o‘zimga to‘liq ishonchni his qilmayman.
110. Bahsda nimagadir o‘zimning tarafdorimdan balandroq ovozda gapirishga intilaman.

- 111.Umidsizlik menda kuchli tashvish uygotmaydi.
- 112.Birdan lablarimni, tirnoqlarimni tishlaydigan hollarim ham bo‘ladi.
- 113.Yolg‘iz qolgan paytlarim o‘zimni nihoyatda baxtiyor his qilaman.
114. Ba’zida shunday bo‘ladiki, hamma bir-biri bilan urushib qolishini xohlab qolaman.

**Kalit:**

**I- shkala.** Asabiylashganlik (17 savol)

«HA» -4,5,12,15,22,26,31,41,42,57,66,72,85,86,89,105.

«YO’Q» - 49

**II-shkala.** O’z-o’zidan paydo bo’ladigan tajovuzkorlik  
(13ta savol )

«HA» - 32,35,45,50,64,73,77,93,97,103,112,114.

«YO’Q» - 99

**III-shkala.** Ruhiy siqilish (14 ta savol)

«HA»-16,24,27,28,30,40,48,56,61,74,84,87,88,100.

«YO’Q» -

**IV - shkala.** Serjahllik, serzardalik, jizzakilik (11ta savol)

«HA» - 6,10,58,69,76,80,82, 102,104,107,110.

«YO’Q» -

**V – shkala.** Muloqotchanlik (16 ta savol )

«HA» - 2,19,46,52,55,94,106.

«YO’Q» - 3,8,23,53,67,71,79,113.

**VI - shkala.** Og’irlilik, vazminlik (10 ta savol)

«HA» - 14,21,29,37,38,59,91,95,108,111

«YO’Q» -

**VII - shkala.** O'ta tajovuzkorlik (10 ta savol)

«HA» - 13,17,18,36,39,43,65,75,90,98.

«YO'Q» -

**VIII - shkala.** Tortinchoqlik (10 ta savol)

«HA» - 9,11,20,47,60,70,81,83,109.

«YO'Q» - 33

**IX-shkala.** Ochiqlik, oshkoraliq (13 ta savol)

«HA» - 7,25,34,44,51,54,62,63,68,78,92,96,101.

«YO'Q» -

**X- shkala.** Ekstraversiya-introversiya (12 ta savol )

«HA» - 2,29,46,51,55,76,93,95,106,110.

«YO'Q» - 20,87

**XI-shkala.** Ta'sirchanlik, o'zgaruvchanlik (14 ta savol)

«HA» - 24,25,40,48,80,83,84,85,87,88,102,112,113.

«YO'Q» - 59

**XII- shkala.** Mardlik-nazokatlilik (15 ta savol)

«HA» -18,29,33,50,52,58,59,65,91,104.

«YO'Q» - 16,20,31,47,84.

Metodikaning kalitida har bir shkalaga tegishli bo'lgan savol nomerlari yozilgan. Har bir shkaladagi savol nomeriga sinaluvchi javobi to`g'ri kelsa 1 ball bilan baholanadi.

«HA» javobi va «YO'Q» javobi bo'yicha ballar qo'shib hisoblanadi.

Har bir shkala bo'yicha birlamchi baholar hisoblab chiqariladi.

Shkala raqami	Birlamchi ballar
I	
II	
III	
IV	
V	
VI	
VII	
VIII	
IX	
X	
XI	
XII	

Bundan so'ng hosil bo'lgan birlamchi baholarni standart baholarga ko'chiriladi.

Birlamchi ballar	Shkalalar bo'yicha baholar											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
0	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
1	1	1	3	3	1	1	3	3	1	1	2	1
2	4	3	4	4	1	2	4	5	1	1	3	1
3	4	4	4	5	1	3	5	6	2	2	4	1
4	5	5	5	6	2	4	6	6	3	3	4	1
5	5	5	6	7	2	5	7	7	3	4	5	2
6	6	7	6	7	3	6	8	7	4	4	6	3
7	7	8	7	8	3	7	8	8	5	5	7	4
8	7	8	7	8	4	8	9	9	5	6	7	5
9	8	8	8	9	5	9	9	9	6	7	8	6
10	8	9	8	9	5	9	9	9	8	8	8	8

11	8	9	8	9	6	-	-	-	8	9	8	8
12	8	9	9	-	7	-	-	-	9	9	9	9
13	9	9	9	-	8	-	-	-	9	-	9	9
14	9	-	9	-	9	-	-	-	-	-	9	9
15	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	9
16	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
17	9	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

1 baldan 3 balgacha bo’lgan baholar quyi;  
 4 baldan 6 balgacha bo’lgan baholar o’rtा;  
 7 baldan 9 balgacha bo’lgan baholar yuqori baholar turkumiga  
 (xususiyatlar darajasi) kiradi.

## **SHAXSNING EMPATIVLIK XUSUSIYATINI ANIQLASH METODIKASI**

Mazkur so‘rovnoma I.M.YUsupov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, empatiya xususiyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida qo‘llanadi. Empatiya insonning boshqalar kechinmalariga hamdard bo‘la olish qobiliyatidir. Ko‘rsatma: Hurmatli ishtirokchi, quyida berilgan 36 ta hukmga nisbatan o‘z munosabatingizni bildiring. Buning uchun siz baholashning quyidagi tizimidan foydalanishingiz lozim:

“bilmayman” - 0	“ko‘pincha” - 3
“yo‘q, hech qachon” - 1	“deyarli doim” - 4
“ba’zan” - 2	“ha, har doim” - 5

### **Hukmlar:**

1. Menga mashhur odamlarning hayoti xaqidagi kitoblardan ko‘ra, sarguzasht kitoblar yoqadi.
2. Ota- onalarning g‘amxo‘rligi katta yoshdagi bolalarning g‘ashiga tegadi.

3. Menga boshqa odamlarning omadlari va omadsizliklarining sabablari haqida fikrlash yoqadi.
4. Barcha musiqiy teleko‘rsatuvarlар ichida “Zamonaviy musiqa” ko‘rsatuvi menga afzalroq.
5. Bemor kishining haddan tashqari g‘azablanishi va noxaq ta’nalariga chidashimiz kerak.
6. Kasal odamga xatto so‘z bilan ham yordam berish mumkin.
7. Begonalar ikki kishi orasidagi nizoga aralashmasligi kerak.
8. Keksayganda odam juda injiq bo‘lib qoladi.
9. Bolaligimdan g‘amgin hikoyani tinglaganimda, ko‘zimga o‘z-o‘zidan yosh kelar edi.
10. Ota –onamning asabiylashishi mening ham kayfiyatimga ta’sir etadi.
11. Men tanqidlarga befarqman.
12. Men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlardan ko‘ra, portretlarni tomosha qilishni yoqtiraman.
13. Ota- onam noxaq bo‘lganda ham, men ularni kechirardim.
14. Agar ot aravani tortmasa, uni xivichlash kerak.
15. Men odamlar hayotidagi fojealar haqida o‘qiganimda, bu hodisalar menga o‘zim bilan ro‘y berayotganday bo‘lib tuyuladi.
16. Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan noxaq munosabatda bo‘ladilar.
17. Janjallashayotgan bolalarmi yoki kattalarni ko‘rsam men ular o‘rtasiga tushaman.
18. Men ota-onamning yomon kayfiyatiga e’tibor bermayman.
19. Men boshqa ishlarimni chetga surib, hayvonlarni xatti xarakatlarini uzoq vaqt kuzataman
20. Nega ayrim odamlar kinofilm ko‘rib yoki kitob o‘qib, ko‘z yosh to‘kishini tushunmayman.
21. Notanish odamlarning yuz ifodasi va xulq -atvorini kuzatish menga yoqadi.

22. Bolaligimda men uyga qarovsiz qolgan kuchuk-mushuklarni olib kelardim.
23. Barcha odamlar biror sababsiz ham bir- biridan g‘azablanadi.
24. Begona odamga qarab, uning hayoti qanday kechishini oldindan aniqlagim keladi.
25. Bolaligimda kichkintoylar hech ketimdan qolishmasdi.
26. Jarohatlangan hayvonni ko‘rsam, unga qandaydir yordam berishga harakat kilaman.
27. Odamni e’tibor bilan tinglash ham, uning dardini engillashtiradi.
28. Ko‘chadagi biron bir noxush xodisani ko‘rganimda guvohlar qatoriga tushib qolmaslikka xarakat qilaman.
29. Kichkinlarga men taklif etgan fikr, ish yoki ko‘ngil ocharlik yoqadi.
30. Menimcha, odamlarning “Hayvonlar o‘z egalarining kayfiyatini sezadi”-deyishlari mubolag‘a.
31. Mushkul, nizoli vaziyatdan odam mustaqil ravishda chiqishi kerak.
32. Bola besabab yig‘lamaydi.
33. YOshlar qariyalarning hamma iltimoslarini qondirishlari va injiqliklarini tushunishlari kerak.
34. Ayrim sinfdoshlarimning nima uchun ba’zida o‘ychan bo‘lib qolish sabablarini bilgim kelardi.
35. Karovsiz hayvonlarni tutish va yo‘q qilish kerak.
36. Agar, do‘sstarim men bilan o‘zlarining shaxsiy muammolarini muhokama qilmoqchi bo‘lsalar, suhabatni boshqa mavzuga ko‘chirishga harakat qilaman.

## **NATIJALAR TAHLILI**

- 1.Natijalar xolisligini aniqlash.** Javoblar xolisligini aniqlash uchun muayyan hukmlarga qanday javoblar berilganligini aniqlash lozim;
- «Bilmadim»- 2,4,16,18,33.
- «Ha yoki har doim»-2,7,11,13,16,18,23.
- «Ha yoki har doim» - 7 va 17; 10 va 18; 17 va 31; 22 va 35; 34 va 36.

«Yo‘q yoki hech qachon» - 3 va 36; 1 va 3; 17 va 28.

Eslatma: ma’lum juftlik kirgan ikkala hukm ( masalan: «ha yoki har doim»dagi 7 va 17 yoki «yo‘q yoki hech qachon»dagi 3 va 36 raqamli hukmlarga) bir hil «ha yoki har doim» yoki «yo‘q yoki hech qachon» kabi javob bildirilgan bo‘lsa, bu munosabat xolis emas.

Noxolis munosabat holatlari 5 ga teng yoki undan kata bo‘lsa, umumiy natijaga *ishonchli emas*.

Noxolis munosabat holatlari 4 ga tengbo‘lsa, umumiy natijaning ishonchli darajasi *shubhali*.

Noxolis munosabat holatlari 3 ga teng yoki undan kam bo‘lsa, umumiy natija *ishonchli*.

**2. Umumiy natijani aniqlash.** YAkuniy natijani aniqlash uchun 2,5,8,9,10,12,13,15,16,19,21,22,24,25,26,27,28,29 va 32 raqami ostidagi xukmlarga qo‘yilgan baholarning yigindisini topish kerak.

So‘rovnama 6 ta shkalaga ega bo‘lib, quyida ushbu shkalalar hamda har bir shkalaga kiruvchi hukmlarning tartib raqami ko‘rsatilgan.

Nº	Shkalalar	Hukmlar tartib raqami
1.	Ota-onaga nisbatan empatiya	10,13,16.
2.	Hayvonlarga nisbatan empatiya	19,22, 25.
3.	Qariyalarga nisbatan empatiya	2,5,08.
4.	Bolalarga nisbatan empatiya	26,29,35.
5.	Badiiy qahramonlarga nisbatan empatiya	9,12,15.
6.	Notanish odamlarga nisbatan empatiya	21,24,27.

Natijalarni baholash		
Daraja	shkala buyicha	umumiy
Juda yuqori	15	82-90
YUqori	13-14	63-81
O‘rta	5-12	37-62

Past	2-4	12-36
Juda past	0-1	5-11

## **“O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN MUNOSABATINI O‘RGANISH”**

### **METODIKASI**

“O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat” test so‘rovnomasasi V.V.Stolin hamda S.R.Pantileevlar tomonidan taklif etilgan.

**Yo‘riqnomalar!** Quyida sizga insonning o‘ziga, o‘z harakatlariga bo‘lgan munosabatini tavsiflovchi mulohazalar keltirilgan. Har bir fikrni diqqat bilan o‘qing. Agar siz javoblarga qo‘silsangiz javoblar varaqangizga “+” belgisni qo‘ying, agar qo‘silmasangiz unda “-” belgisini qo‘yishingiz mumkin. Diqqat bilan savollarni o‘qing, savollarni tashlab ketmang. Ayrim savollar sizga o‘ta shaxsiy tuyulishi mumkin, shunday bo‘lsada ularga ham vijdonan javob bering. Sizning javoblariningiz hech kimga ko‘rsatilmaydi va e’lon qilinmaydi.

### **Savollar**

1. Mening gaplarim kamdan kam holda bajaratdigan ishim bilan mos kelmaydi.
2. Tasodifiy uchratgan kishiga men xushmuomala bo‘lib ko‘rinaman.
3. Birovlarning muammolariga xuddi o‘zimnikidek munosabatda bo‘laman va tushunishga harakat qilaman.
4. O‘z-o‘zim bilan xayolan gaplashadigan gaplarim, ko‘pincha menda yoqimsiz hislarni paydo qiladi.
5. Barcha tanishlarim menga simpatiya bilan qarashadi, deb o‘ylayman
6. Inson o‘z hayotida qila oldigan eng to‘g‘ri narsa, bu o‘z taqdiriga qarshi bormasligi.
7. O‘ylaganlarimni amalga oshirish uchun menda qobiliyatlar va energiya etarli.
8. Agar men 2 ta odamga bo‘linib qolganimda, o‘zimning nusxam bilan gaplashish menga qiziq bo‘lardi

9. Men o‘zimga yaqin bo‘lgan insonlarni va qarindoshlarimni dilini og‘ritishga qodir emasman
10. Ayrim hollarda o‘ziga achinish gunoh emas, deb hisoblayman
11. Bironbir xatolikka yo‘l qo‘ygandan so‘ng, men ko‘pincha qanday qilib miyamga kelgan bu fikrdan yaxshilik chiqishi mumkin edi, deb o‘ylayman
12. Ko‘pincha men o‘z rejalarim va xulqimni ma’qullayman
13. Mening shaxsimda qandaydir bir xususiyat bordirki, boshqalarda bu yoqimsiz hisni uyg‘otadi
14. O‘zimni baholamoqchi bo‘lganimda, avvalo o‘z kamchiliklarimni ko‘raman.
15. Sevimli insonim uchun uzoq muddat davomida qiziqarli bo‘lish qo‘limdan kelmaydi.
16. Men o‘zimni yuqori baholayman, deb aytish mumkin
17. Mening ichki ovozim kamdan kam hollarda kim bilan oxir oqibat kelisholmasligimni aytadi.
18. Ko‘p tanishlarim meni jiddiy qabul qilishmaydi.
19. Ayrim hollarda men o‘zimdan nafratlangan paytlar bo‘li turadi.
20. Menga o‘zimdagи energiya kamligi, maqsadga erishishishdagi qat’iylik va irodasizlik xalaqit beradi
21. Hayotimda shunday paytlar bo‘lganki kelishuvga o‘z vijdonim bilan borganman
22. Ayrim hollarda men o‘zimni o‘zim yaxshi tushunmayman
23. Ayrim paytlarda o‘zim bilan o‘zim muloqotga kirishishim og‘ir botadi
24. Har qanday aqli va bilimli inson bilan tezda til topishib ketaman, deb o‘ylayman
25. Agar kimgadir tanqid bilan qarasam, bu eng avvalo o‘zimdirman.
26. Ayrim hollarda meni chindan sevish mumkinmikan, deb shubhalanib qolaman
27. Ko‘pincha, mening o‘zo‘zim bilan qilayotgan bahsimni, baribir men o‘ylaganimdek bo‘lmaydi, degan fikr buzadi.

28. O‘zimga bo‘lgan munosabatim do‘stona desa bo‘ladi.
29. Meni yoqtirmaydigan insonlar topilmasa kerak.
30. Ko‘pincha men o‘z ustimdan kulaman.
31. Agar mening ikkinchi “Men” im bo‘lganda u men uchun muloqotdagi zerikarli hamroh bo‘lgan bo‘lardi
32. Men o‘zimni shaxs sifatida etarlicha shakllanganman deb hisoblayman, shuning uchun boshqacha bo‘lishga ko‘p kuch sarflayman.
33. Umuman olganda men o‘zimga yoqaman.
34. Afsuski, ko‘p insonlar meni hayotga bo‘lgan qarashlarimni yoqlashmaydi
35. Men o‘zimni hurmat qilaman, deb ayta olaman.
36. Men o‘zimni aqli va dono maslahatchiman, deb hisoblayman.
37. Men o‘zimda ko‘pincha serzardalikni his qilaman.
38. Men teztez o‘zimda nimadir o‘zgartirishni xohlayman, ammo ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikka uchrayman.
39. Mening shaxsim, garchand birinchi bor bunday tuyulmasada, ancha boy va qiziqarli, deb hisoblayman,
40. Mening afzalliklarim kamchiliklarimdan ustun.
41. Men kamdan-kam holda, o‘zim uchun o‘ta muhim bo‘lgan ishda tushunarsiz bo‘lib qolaman
42. Boshqalar meni umuman olganda ancha yuqori baholashadi deb o‘ylayman.
43. Men bilan sodir bo‘ladigan hodisalarni men “o‘z qo‘llarim bilan” yaratganman.
44. Agar men o‘zo‘zim bilan bahslashsam, bitta to‘g‘ri echimni topishimga ishonaman.
45. Men bilan qandaydir ko‘ngilsizlik sodir bo‘lganda o‘zimga o‘zim “ajab bo‘pti, o‘zing aybdorsan”, deb aytaman
46. Boshqa insonlarni qiziqtiradigan darajada etarli ma’naviy boy insonman, deb hisoblamayman.

47. Ko‘pincha menda, haqiqatdan ham o‘zim o‘ylaganimdek insonmanmi, degan shubha uyg‘onadi.
48. Men hatto xayollarimda ham vafosizlikka qodir emasman.
49. Ko‘pincha men o‘zimga do‘stona tanqid bilan qarayman.
50. Menga, kamdan-kam insonlar men haqqimda o‘ylashadigandek tuyuladi.
51. Eng mas’uliyatli ishlarda menga ishonsa bo‘ladi deb o‘ylayman
52. Umuman olganda, men taqdirimni nazorat qilyapman, deb ayta olaman
53. Men hech qachon birovrlarning menga yoqqan fikrlarini o‘zimni qilib ko‘rsatmayman.
54. Atrofdagilarga qanday ko‘rinmay, men qalbim boshqa ko‘pchiliknikidan yaxshiroq ekanligini bilaman.
55. Men qanday bo‘lsam, shundayligimcha qolishni istardim.
56. Men doimo o‘zimga nisbatan berilgan tanqid asoslangan va adolatli bo‘lsa, bundan xursandman.
57. Menga o‘xshagan insonlar ko‘proq bo‘lganida hayot yaxshi tomonga o‘zgarardi, deb o‘ylayman
58. Mening fikrim atrofdagilar uchun qandaydir qimmatga ega.
59. Nimadir menga o‘zimni to‘liq tushunishimga xalaqit beradi.
60. Menda qandaydir hislatlar borki, ular kimgadir yoqishi qiyin
61. Qiyin vaziyatlarda men muammolar o‘zi hal bo‘lshini kutib o‘tirmayman
62. Ayrim hollarda men o‘zimni boshqa inson sifatida ko‘rsatishga intilaman
63. O‘z kamchiliklariga shavqatli bo‘lish bu tabiiy hol.
64. O‘zini anglashga chuqur kirishish kam yoqimli va etarlicha xavfli ish ekanligiga amin bo‘ldim
65. Etarlicha sabab bo‘lmasa, men xech qachon asabiylashmayman.
66. SHunday paytlar ham bo‘lganki, mendan hazar qilishga asos borligini tushunganman.

67. Men ko‘pincha, o‘zim bilan bo‘ladigan hodisalarga kam ta’sir ko‘rsatayotganlgimni his qilaman.

68. Aynan mening ichki dunyoimning boyligi va chuqurligi meni shaxs sifatida baholaydi.

69. O‘zim bilan uzoq davom etgan kelishmovchiliklar dilimda engillikdan ko‘ra, ko‘pincha yoqimsiz his qoldiradi

70. Men bilan bo‘ladigan muloqot insonlarga haqiqiy lazzat bag‘ishlaydi, deb o‘yayman

71. Agar ochiq aytiladigan bo‘lsa, ayrim paytlarda men juda yoqimsiz bo‘laman.

72. O‘zimga yoqaman, deb aytsam bo‘ladi.

73. Men ishonchli insonman.

74. Orzularimning amalga oshishi kam hollarda omadga bog‘liq.

75. Mening ichki “Men”im o‘zimga doimo qiziq.

76. Bo‘larbo‘lmas narsalarga siqilmaslik kerakligiga o‘zimni ishontirishim oson.

77. YAqin insonlarim menga etarlicha baho berishmaydi.

78. Hayotimda shunday onlar bo‘ladiki, o‘zimga o‘zim jirkanch tuyulaman.

79. Menimcha o‘zimga nisbatan haqiqatdan jahlim chiqqa olmaydi.

80. Jiddiy ishlarda menga ishomagan ma’qulligiga amin bo‘ldim.

81. Ayrim hollarda menga o‘zim qandaydir g‘alatidek tuyulaman.

82. Qiyinchiliklar oldida qo‘rqib qochmayman

83. O‘z “Men”im menga chuqur e’tiborga loyiqdek tuyulmaydi.

84. Men, o‘zimning ichki muammolarimni chuqur mulohaza qilish orqali, o‘zimni ancha yaxshiroq tushunishga o‘rganganimnihis qilyapman.

85. Atrofdagilarning ko‘pchiligida simpatiya uyg‘otishimga shubham bor.

86. SHunday ishlar qilganmanki ularni oqlash qiyin.

87. Qaerdadir ichimda men o‘zimni ojiz, deb hisoblayman.

88. Agar men chindan ham o‘zimni nimadadir ayblaydigan bo‘lsam, bu holat uzoq davom etmaydi.

89. Mening xarakterim qanday bo‘lmasin o‘zimga ma’qul.
90. Meni oldinda nima kutayotganligini yaxshi tasavvur qila olaman.
91. Ayrim hollarda o‘z ichki “Men”im bilan til topishishim qiyin bo‘ladi.
92. Mening o‘z haqimdagи fikrlarim ko‘pincha o‘z shaxsimga nisbatan ayblovlarga olib keladi
93. Men, yaxshi tarafga bo‘lsa ham juda o‘zgarishni xohlamasdim, chunki har bir o‘zgarish bu o‘zligimni yo‘qotishdir.
94. Mening harakatlarim natijasi ko‘pincha, men kutgan narsa bo‘lmaydi.
95. Menda o‘zim bilmaydigan biron narsa borligiga shubham bor
96. “Men shaxs sifatida etildim” deb ishonch bilan aytishim uchun hali menda ko‘p narsalar etishmaydi
97. Menda qadrli hislatlarim bilan birgalikda kamchiliklarim ham bir xilda kelishgan holda yashaydi.
98. Ayrim hollarda insonlarga “beminnat” yordamni o‘zimga yanada yaxshi ko‘rinish uchun qilaman.
99. O‘z-o‘zimni vijdonim oldida oqlaydigan paytlarim ko‘p bo‘ladi.
100. Meni yoqtirmaydiganlar aslida meni qandayligimni bilishmaydi.
101. O‘zimni nimagadir ishontirish qiyinchilik tug‘dirmaydi
102. Menga yaqin bo‘lgan insonlarimda kamchilik ko‘rmayman
103. Menga haqiqatan meni hurmat qiluvchilar kamdek tuyuladi
104. Agar maydagarchilik bilan qaralmasa, meni xech qanday qusurim yo‘q.
105. Men o‘zimni qanday bo‘lsam shundayligimcha o‘zim tuzganman.
106. O‘zgalarning men haqimdagи fikrlari mening o‘zim haqimdagи fikrlarim bilan mos tushadi
107. Men o‘zimda ko‘p narsani o‘zgartirishni juda xohlardim
108. Menga qanday munosabatga loyiq bo‘lsam, shunday munosabatda bo‘lishadi.
109. Mening taqdirim endi baribir men xohlaganimdek bo‘lmaydi deb o‘ylayman

110. Hayotda men o‘z o‘rnimda ekanligimga ishonaman.

### KALIT

Shkala	Tasdiqlangan “+”	Tasdiqlanmagan “-”
1. “Ichki samimiylilik” yoki yopiqlik-ochiqlik	1,3,9,48,53,56,65	21,62,86,98
2. O‘z-o‘ziga ishonch	7,24,30,35,36,51,52,58,61,73,82	20,80,103
3. O‘zini o‘zi boshqarish	43,44,45,74,76,84,90,105,106,10 8,110	109
4. O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni aks ettirilishi	2,5,29,41,42,50,102	13,18,34,85
5. O‘zini o‘zi baholash	8,16,39,54,57,68,70,75,1 00	15,26,31,46,83
6. O‘zini o‘zi qabul qilish	10,12,17,28,40,49,63,72,77,79,88 ,97	-
7. O‘z-o‘ziga bog‘langanlik	6,32,33,55,89,93,95,101,104	96,107
8. Ichki nizolilik	4,11,22,23,27,38,47,59,64,67,69, 81,91,94,99	-
9. O‘zini o‘zi ayblash	14,19,25,37,60,66,71,78,87,92	-

## **Shkalalar mazmuni.**

### **1-shkala. “Ichki samimiylit” yoki ochiqlik - yopiqlik (11-punkt)**

Bu punkt savollariga javobdan kishining ikki tendensiyadan biriga munosabati aniqlanadi: Tanqidiy qarash, o‘zini chuqur anglash, ichki samimiylit va ochiqlik yoki konformlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish motivining namoyon bo‘lishi. Umuman ushbu shkalada o‘z ichki dunyosiga chuqur yoki yuzaki nazar, o‘ziga ochiq yoki yopiq(himoyalanish) munosabatda bo‘lish ko‘rinadi. Umumi yuqori ko‘rsatkich “yopiqlik” dan dalolat beradi.

### **2-shkala. O‘ziga ishonch. (14-punkt)**

Ushbu omil kishining o‘ziga ishonchli, mustaqil, irodali va hurmat qilishga loyiq bo‘lgan kishiga nisbatan munosabatni bildiradi. Mazkur omilning ijobiy tomoni o‘ziga ishonch, o‘ziga yuqori darajadagi munosabatni, o‘z “men” ining kuchini his etish. Salbiy tomoni kuchsizligini his etish, o‘z imkoniyatlaridan qoniqmaslik, uni hurmatlashlariga shubha bilan qarashni ifodalaydi.

### **3-shkala. O‘z-o‘zini boshqarish. (14-punkt)**

Ushbu shkalani shaxsning faoliyati va rivojlanishidagi faollik va erishilgan natijalarning asosiy manbaini aks ettiruvchi shkala deb atash mumkin. Mazkur shkala bo‘yicha yuqori ballar kishi o‘z taqdirini o‘zi yaratishini, kishining faoliyati, xulqatvori va muloqotini o‘zi boshqaruvchisi ekanligini anglatadi. Quyi ballar kishining o‘z “Men” ini tashqi sharoitlarga bog‘liqligini tan olish, o‘zini boshqarishning sustligi, xulqi, ish natijalarining sababini, o‘z shaxsi xususiyatlari rivojlanmaganligini o‘zidan qidirmaslikni anglatadi.

### **4-shkala. O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni aks ettirilishi (11 punkt)**

Mazkur shkalaning mazmuni sub’ektning o‘z shaxsi, xarakteri va faoliyati boshqalarning hurmatini, simpatiyani, qo‘llabquvvatlashni, tushunish hislarini uyg‘otishga qodir yoki bu hislarning teskarisini tasavvur etishini aks ettiradi.

### **5-shkala. O‘zini o‘zi baholash (14-punkt)**

Mazkur shkalaning ijobiy tomoni shaxsning o‘z qadrqimmatini bilishini aks ettiradi. Bu shkala kishining ichki, ma’naviy mezonlar orqali “Men”iga

berilgan emotsional bahosini, ichki olamining boyligi, boshqalarda chuqur his-tuyg‘ular paydo qilishga qodirligini aks ettiradi.

Shkalaning quyi darajasi o‘z shaxsining qadriga shubha bilan qarash, o‘z ma’naviy “Men”ini baholay olmaslik, o‘z ichki dunyosiga qiziqishning yo‘qligidan dalolat beradi.

#### **6– shkala. O‘zini o‘zi qabul qilish** (12-punkt)

Mazkur omilning asosida o‘ziga simpatiyani his etish, ichki muvozanat, garchand ayrim kamchiliklar bo‘lsa ham o‘zini qanday bo‘lsa shundayligicha, qabul qilish yotadi. Ushbu omil shaxsning o‘z istak va rejalarini ichdan ma’qullashi, o‘ziga nisbatan tushunish va do‘stona munosabatda bo‘lish bilan bog‘liq.

Shkalaning quyi ballari esa shaxsning o‘ziga salbiy munosabatni aks ettiradi.

#### **7- shkala. O‘z-o‘ziga bog‘langanlik** (11-punkt)

Mazkur omil quyi tomoni o‘zini o‘zgartirishga kuchli istak, o‘zidan qoniqmaslik, o‘z “Men”ining idealiga mos kelishga talpinishni bildiradi. YUqori ballar o‘ziga munosabatni o‘zgartirishni istamagan, o‘zidan to‘liq qoniqvchi, o‘z “Men”ni o‘zgartirishni (ijobiy tomonga bo‘lsa ham), o‘stirishni istamagan kishini xarakterlaydi.

#### **8– shkala. Ichki nizokashlik.** (15-punkt)

Ushbu shkala sinaluvchida ichki nizo, shubha, o‘zi bilan kelisha olmaslik borligini bildiradi. Unda haddan tashqari o‘zo‘zini tahlil qilish va refleksiya tarzidagi salbiy emotsional munosabat aks etadi.

#### **9–shkala. O‘zini o‘zi ayblash.** (10-punkt)

Ushbu shkala intrapunitivlik bilan bog‘liq o‘zini ayblash, o‘z “Men”iga salbiy emotsional munosabatni aks ettiradi.

### **KUNNING “MEN KIMMAN” METODIKASI**

“*Men kimman?*” metodikasi M.Kun va T.Makpartlendlar tomonidan taklif etilgan. Bu test aynan shaxs ijtimoiylashuvida turli rollarni aniqlashga

yo‘naltirilgan. Metodikaning ijtimoiy psixologik mohiyati shundaki, respondent “Men kimman?” degan savolga miyasiga kelgan o‘ziga aloqador sifatlarni sanab o‘tadi, avvalo ijtimoiy tajribasida mavjud bo‘lgan identifikatsiya maxsulotlarini yodga olib, birin-ketin sifatlarni sanay boshlaydi. Ushbu vazifani berilganda 20 qatorda “Men kimman?” savoliga birin-ketin imkon boricha tezroq yozib chiqish vazifasi topshiriladi. O‘zida ko‘proq refleksiv sifatlarni mujassam etgan respondent tezroq va ko‘proq o‘zini tavsiflashga ulguradi. O‘z hissiyotlariga berilgan, o‘zini anglashga qiynalayotgan shaxslar bu vazifani bajarishga biroz qiynaladi. Yana bir qoida – ro‘yxatning boshida berilgan sifatlar aynan shaxsga yaqinroq bo‘ladi.

Olingen ma’lumotlarni qayta ishslashda kontent-analiz qilinadi:

- oilaviy va shaxslararo rollar (masalan, men – onaman, xotin, o‘g‘il, er, dugona, opa, singil va x-zo);
- professional rollar (men – talaba, o‘quvchi, kelajakda vrach, psixolog, tadbirkor, izlanuvchi va shunga o‘hshash);
- boshqa ijtimoiy rollar (masalan, men – tomoshabin, jamoatchi, sayohatchi, xaridor va shunga o‘hshash).

Bu ajratilgan uch kateogoriya aslida insonning shaxsiy identifikatsiyasini tashkil etadi va unga quyidagilar kiradi:

- a) feminin sifatlar – an’anaviy ayol obraziga monand bo‘lgan shaxs sifatlari (masalan, men - g‘amho‘r, nazokatli, tobe, yumshoq, latif, hayolparast, mehribon kabi);
- b) maskulin sifatlar – erkaklarning stereotip obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs sifatlari ( masalan, men – kuchli, dadil, maqsadga intiluvchan, mustaqil, badjahl, irodali kabi);
- v) neytral sifatlar – maskulin-feminin sifatlarga uyg‘unlashgan shaxs sifatlari (masalan, men xushchaqchaq, kelishgan, sadoqatli, saranjom-sarishta, mehnatkash, dangasa kabi).

Shu tariqa olingen empirik ma’lumotlar maxsus tablitsaga solinib, umumlashtiriladi.

	Oilaviy rollar	Professional rollar	Ijtimoiy rollar
Miqdoriy ko‘rsatgichlar			

### S.A.BUDASSINING “O’ZINI O’ZI BAHOLASH” METODIKASI

S.A.Budassining o‘z-o‘ziga baho berish koeffitsentini aniqlash metodikasi shaxsnинг o‘z-o‘ziga beradigan bahosini sifatiy tadqiq qilish imkonini beradi. Sinaluvchiga quyidagicha ko‘rsatma beriladi: “Sizga keltirilgan 48 ta shaxs sifatlarini ifodalovchi so‘zlardan o‘ziningiz uchun etalon 20 tasini ketma-ketlikda belgilang. Samimiy bo‘ling. Tanlagan sifatlar ichida salbiy sifatlar ham bo‘lishi tabiiy”.

1. Pokizalik	17. Engiltaklik	33. Maydakashlik
2. Beg‘amlik	18. Sustkashlik	34. SHodonlik
3. Mulohazalik	19. Hayolparastlik	35. Laqmalik
4.Zehnlilik	20. Gumonsirash	36. Sermulohazalik
5. Jahli tezlik	21. O‘ch olishlik	37. O‘zini tanqid qila olishlik
6. Mag‘rurlik	22. Qat’iyatlilik	38. O‘zini tuta olishlik
7. Qo‘pollik	23. O‘z so‘zida turadigan	39. Haqaqiqatgo‘ylik
8. Odamiylik	24. Nozik didlilik	40. Ko‘ngilchanlik
9. Mehribonlik	25.Jur’atsizlik	41. Uyatchanlik
10. Hayotni sevuvchi	26. O‘zini tuta olmaslik	42. Harakatchanlik
11. G‘amxo‘rlik	27. Yoqimlilik	43. Mehnatsevarlik
12. Xasadgo‘ylik	28. Xafa bo‘luvchi	44. Qo‘rvoqlik
13.Tortinchoqlik	29. Ehtiyyotkorlik	45. O‘jarlik

14. Kek saqlash	30. Tashabbuskor	46. Beriluvchanlik
15. Samimiylilik	31. Shubhalanuvchanlik	47. Takabburlik
16. Injiqlik	32. Prinsipiallik	48. Egoizm

Sinaluvchi tanlab olgan sifatlarni, o‘zida qay darajada mavjudligiga ko‘ra, qaysi sifat past darajada mavjud deb hisoblasa 1chi o‘ringa, eng ko‘p deb hisoblangan sifat 20 o‘rinda bo‘ladi. Sifatlar quyidan yuqoriga qarab yoziladi. (Masalan: eng ko‘p bor deb bilingan sifat 20 o‘rinda, keyingisi 19 va hokazo.)

Keyingi topshiriq esa, tanlab olingan sifatlarning yoqimlilik darajasiga ko‘ra, 20 dan past daraja bo‘yicha terib chiqiladi. Bu erda ham keltirilgan sifatlar orasidagi farq aniqlanadi.

Shaxsning o‘z-o‘ziga bahosini qay darajada ekanligi quyidagi formula orqali topiladi.

$$Q = 1 - \frac{6 \sum d^2}{n(n^2 - 1)}$$

Bu erda: n-ranglar soni – 20 ta)

d- darajalar (o‘rinlardagi farq)

$\Sigma d^2$ -darajalarning miqdoriy farqlari kvadratlarining yig‘indisi

Agar  $Q=0,5$  bo‘lsa, o‘z-o‘ziga bahosi normada ekanligini bildiradi.

$Q=0,5-0,85$  gacha sinaluvchining o‘z kuchi, imkoniyatlariga bahosining yuqoriqroqligi, va o‘ziga ishonchning ko‘pligidan dalolat beradi.

$Q= +1$  ga juda ham yaqin bo‘lsa, bunday odamlar o‘zlarini juda yuqori baholashadi. Ularda o‘ziga ortiqcha ishonch mavjud bo‘lib, o‘z-o‘zini tanqid qilish yo‘q hisobi.

$Q= 0,5$  dan kichik. O‘z-o‘zini baholash normadan juda ham sezilarli bo‘lmagan past daraja.

$Q= 0,5$  dan -1gacha bo‘lsa past, o‘z-o‘zini baholashning pastligi, sabablari ham turlicha bo‘lishi mumkin.

## **T.LIRINING SHAXSLARARO MUNOSABATNI O'RGANISH**

### **METODIKASI**

Mazkur metodika 1954 yili T.Liri, G.Leforj, R.Sazeklar tomonidan shaxslararo munosabatlarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan.

T.Liri metodikasi shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi uchun qulay bo'lib, ushbu metodika orqali sinaluvchining shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyadan o'zini o'zi baholashi, o'zidan qoniqmaslik, shaxslararo munosabatdagi kutilmalarni yoritish uchun qo'llaniladi.

Metodika bir necha modifikatsiyaga ega. Liri metodikasining ruscha modifikatsiyasini Y.A.Reshetnya va G.S.Vasilchenko ishlab chiqqan. Mazkur metodikaning o'zbekcha modifikatsiyasini psixolog olimlar E.G'.G'oziev va R.Y.Toshimovlar yaratgan.

Empirik isbotlanganki, ziddiyatlar o'z-o'zini baholash strukturasi (real "Men" va ideal "Men")dagi jiddiy o'zaro nomuofiqlik shaxsning ichki disgarmoniyasidan darak berib, uning nizo uyg'otuvchi xulq-atvoriga sabab bo'ladi.

Shaxs atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirini dolzarblashgan jarayonidagi xattiharakatlarida namoyon bo'lishiga asoslanib Timoti Liri empirik kuzatishlari shaxslararo o'zaro ta'sirining 8 ta umumiyligi yoki 16 ta toboro konkretlashtirilgan oktantlari - variantlari ko'rinishida sistemalashtirilgan. Shaxslararo xulq-atvor tiplariga muvofiq jami 128 ta anchagina oddiy tavsif-epitetlardan so'rovnama ishlab chiqilgan. Sifat ta'siri u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks ettiruvchi ustuvor tiplari aniqlashni ko'zda tutadi. Oktantlarning ifodalanganlik darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum tavsiflari bilan belgilanadi.

T.Liri metodikasi 128 ta xarakterologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan tuzilma bo'lib, ular 8 ta psixologik tendensiyalarga guruhlashtirilgan:

- I. Hukmron -liderlik
- II. Egoistik.
- III. Tajavuskor

- IV. Ishonchsizlik(skeptizm)
- V. Itoatkorlik.
- VI. Tobelik.
- VII. Do'stonalik
- VIII. Bag'ri kenglik-fidokorlik.

## **T.LIRI METODIKASI SO'ROVNOMASI**

- 1. Yoqishni biladi.
- 2. Atrofdagilarda taassurot qoldira oladi.
- 3. Buyruq berish va ishlatishni biladi.
- 4. O'z gapini o'tkaza oladi.
- 5. O'z qadrini biladi.
- 6. Mustaqil.
- 7. O'zini o'zi eplay oladi.
- 8. Beparvo (e'tiborsiz) bo'lishi mumkin.
- 9. Qat'iyatli bo'la oladi.
- 10. Qattiqqo'l lekin adolatli.
- 11. Samimiy bo'la oladi.
- 12. Atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi.
- 13. Xasrat qilishni yoqtiradi.
- 14. Ko'pincha g'amgin.
- 15. Shubha qilishi mumkin.
- 16. Ko'pincha xafsalasi pir bo'ladi (ko'ngli qoladi).
- 17. O'ziga nisbatan tanqidiy qaray oladi.
- 18. O'zining nohaqligini tan oladi.
- 19. Bajonidil bo'yсинади.
- 20. YOn bosuvchan.
- 21. Minnatdor.
- 22. Qoyil qoluvchi va taqlidchilikka moyil.
- 23. Iltifotli.

24. Qo‘llab-quvvatlashlarini izlovchi.
25. Xamkorlik va yordamga tayyor.
26. Atrofdagilar bilan chiqishib ketishga intiladi.
27. Do‘sitsevar va ochiqko‘ngil.
28. E’tiborli va muloyim.
29. Xushmuomala.
30. Ruhlantiruvchi.
31. YOrdam so‘raganda yordamga intiluvchi.
32. Beg‘araz.
33. Maftunkor (mahliyo qila oladi).
34. Atrofdagilar hurmatiga sazovor.
35. Rahbarlik qilish, boshqarish iste’dodiga ega.
36. Javobgarlikni yoqtiradi.
37. O‘ziga ishongan.
38. O‘ziga ishongan va tirishqoq.
39. Uddaburon, omilkor (Epchil va tadbirkor).
40. Raqobatni yoqtiradi.
41. kerak joyda chidamli, qattiqligini ko‘rsatadi.
42. Qattiq qo‘l, biroq beg‘araz.
43. Jizzaki.
44. Ochiq va bir so‘zli (to‘g‘ri so‘z).
45. Buyruq berishlarini ko‘tara olmaydi.
46. Skeptik(shubha qilaveradigan).
47. Unga ta’sir ko‘rsatish qiyin.
48. Arazchi, ta’sirchan.
49. Uyatchan.
50. O‘ziga ishonmaydigan.
51. Ko‘nuvchan (Yon bosuvchan).
52. Kamtar.
53. Boshqalar yordamidan ko‘p foydalanadi.

54. Martabali kishilarni juda hurmat qiladi.
55. Maslahatlarni bajonidil qabul qiladi.
56. Ishonuvchan va boshqalarni xursand qilishga intiladi.
57. Hamisha xushmuomala.
58. Atrofdagilar fikrini qadrlaydi.
59. Muloqatga kirishuvchan.
60. Rahmdil, ochiqko‘ngil.
61. Xushfe’l, ishonch uyg‘otadigan.
62. Mayin va yumshoqko‘ngil.
63. Boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishni yoqtiradi.
64. Saxyi.
65. Maslahat berishni yoqtiradi.
66. Salobatlidek taassurot qoldiradi.
67. Rahbarlik – buyruqbozlik (buyriq berish)ni yoqtiradi.
68. Hukmron.
69. Maqtanchoq.
70. Takabbur va o‘ziga bino qo‘ygan.
71. Faqat o‘zi haqida o‘ylaydi.
72. Ayyor.
73. Boshqalar xatosini kechira olmaydi.
74. Manfaatparast.
75. Sofdil.
76. Ko‘pincha g‘arazgo‘y.
77. Alamzada.
78. SHikoyatchi.
79. Rashkchi.
80. Uzoq kek saqlab yuradi.
81. O‘zini-o‘zi tanqid qilib qiynashga moyil.
82. Tortinchoq.
83. Tashabbussiz.

84. Beozor.
85. Mute (erksiz), nomustaqlil.
86. Bo‘ysunishni yoqtiradi.
87. Qaror qabul qilishni boshqalarga qo‘yib beradi.
88. Noqulay ahvolga tushib qolishi oson.
89. Do‘stlari ta’siriga berilishi oson.
90. Har kimga ham ishonaveradi.
91. Odam tanlamaydi, hammaga yordam beradi.
92. Barchani yoqtiradi.
93. Hamma narsani kechiradi.
94. Haddan tashqari rahmdil.
95. Muruvvatli va kamchiliklarga nisbatan chidamli.
96. Xomiylik qilishga intiladi.
97. Muvaffaqiyatga intiluvchan.
98. Barchaning qoyil qolishini xohlaydi.
99. Boshqalarni ishga soladi.
100. Zulmkor.
101. Atrofdagilarga martabasi va shaxsiy xususiyatlariga qarab muomala qiladi.
102. SHuhratparast.
103. Xudbin.
104. Sovuq, toshbag‘ir.
105. Zahar, mazax qiluvchi.
106. Qahri qattiq, shavqatsiz..
107. Tez-tez jahli chiqib turadi.
108. Hissiz, loqayd.
109. Kek saqllovchi.
110. Hamma narsaga qarshi bo‘ladi.
111. O‘jar.
112. Gumonsiraydigan va shubhalanuvchan.

113. Tortinchoq.
114. Uyatchan.
115. Iltifotli.
116. Bo'shang (o'ta itoatkor).
117. Deyarli xech kimga e'tiroz bildirmaydi.
118. Shilqim.
119. Unga g'amxo'rlik (homiylit) qilishlarini yoqtiradi.
120. Haddan tashqari ishonuvchan.
121. Barchaga yoqishga (hurmat qilishlariga) intiladi.
122. Hammaning gapiga qo'shiladi.
123. Har doim hamma bilan do'stona munosabatda .
124. Hammani yaxshi ko'radi.
125. Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
126. Barchaning ko'nglini ko'tarishga intiladi.
127. O'ziga zarar etkazsa ham boshqalarga g'amho'rlik qiladi.
128. Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadi.

### **Metodika javob varaqasi**

F.I.SH. \_\_\_\_\_

Sizning oldingizda insonga xos turli xususiyatlarni o'zida jamlagan so'rovnoma. Undagi xar bir xukmni o'qib, so'ng u sizga, sizning o'zingiz haqingizdagи tasavvurlaringizga mos yoki mos emasligi to'g'risida o'ylab ko'ring. Agar mos deb hisoblasangiz tegishli raqamni “x” belgi qo'yib o'chiring, agar mos emas deb hisoblasangiz xech qanday belgi qo'ymang. E'tiborli bo'ling!

1 2 3 4	5 6 7 8	9 10 11 12	13 14 15 16
33 34 35 36	37 38 39 40	41 42 43 44	45 46 47 48
65 66 67 68	69 70 71 72	73 74 75 76	77 78 79 80
97 98 99 100	101 102 103 104	105 106 107 108	109 110 111 112

17 18 19 20	21 22 23 24	25 26 27 28	29 30 31 32
49 50 51 52	53 54 55 56	57 58 59 60	61 62 63 64
81 82 83 84	85 86 87 88	89 90 91 92	93 94 95 96
113 114 115 116	117 118 119 120	121 122 123 124	125 126 127 128

### **Natijalarni qayta ishlash**

Sinaluvchi o‘zini baholab, javob varaqasini to‘ldirganidan so‘ng, natijalarni sakkita oktant bo‘yicha qayta ishlab ballar yig‘indisi hisoblanadi va ustivor oktant aniqlanadi. Oktantlar bo‘yicha umumiylis hisoblash “kalit” yordamida amalga oshiriladi.

Oktantlarning ifodalangan darajasi tegishli ballar va shaxsning ma’lum tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflariga to‘xtalib o‘tamiz.

#### **I. Hukmron -liderlik**

0-8 balgacha ifodalangan ballarda o‘ziga ishonch, yaxshi maslahatchi, etakchi va tashkilotchi bo‘la olish malakasi, rahbarlik sifatini aniqlaydi

9-12 ball ko‘satkichlarda hurmat talab, maslahatlar berishni yoqtiruvchi, tanqidga toqatsizlik, o‘z imkoniyatini ortiqcha baholash.

13-16 ballarda, humron, fikrlarning diktaat uslubi, boshqalarga buyruq berishga imperftiv ehtiyoj, despotizm qirralarini ifoda etadi.

#### **II. Egoistik.**

0-12 ballar atrofida o‘zini yaxshi ko‘rish, shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubi.

12-16 ballarda o‘zboshimcha, narsistik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko‘pchilik fikridan farqli o‘z fikriga egalik tendensiyasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslubini ifoda etadi.

#### **III.Tajavuskor**

0-8 ballarda o‘z so‘zida qattiq turish, samimiylilik, (energichnyiy), maqsadga erishish yo‘lida qat’iylik uslubi

9-12 ballarda talabchanlik, qaysarlik, to‘g‘rilik, do‘stona emaslik, boshqalarni baholashda qattiqqo‘l va qo‘pollik, murosasiz, o‘zgalarni ayblovchi, o‘zini tuta bilmaslik va jahli tezlikni ifoda etadi.

13-16 ballar to‘plangan bo‘lsa, atrofdagilarga nisbatan shafqatsiz va tajavuskorlik, istehzolik va zaharxandalikni namoyon qiladi.

#### **IV. Ishonchsizlik(skeptizm)**

0-8 ballar Fikrlar va xatti-harakatlar bazasi realistikligi, ijtimoiy hodisalar va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish.

9-12 ballar skeptitsizm va nokonformlik, muloqatchan emaslik, o‘ziga ishonchning yo‘qligidan, shubhalilik va yomon munosabatda bo‘lishlaridan qo‘rqishi sabali shaxslararo munosabatlarda ko‘p qiyinchiliklar sezish, odamlardan ko‘ngli qolganlikni ifodalaydi.

13-16 ballar o‘ta xafa bo‘luvchan va atrofdagilarga ishonchsiz munosabatlar moduliga, krititsizmga moyillik, atrofdagilar bilan munosabatlardan doimo norozilik, barcha narsalarga shubha bilan qarash.

#### **V. Itoatkor.**

0-8 ballar shaxslararo munosabatlarning kamtarlik, tortinchoqlik, topshirilgan vazifani itoatkorlik va halollik bilan bajarish, o‘z fikriga ega emaslik, o‘zgalar ma’suliyatini o‘z zimmasiga olish.

9-12 ballar tortinchoq, har qanday vaziyatda o‘zidan kuchlilarga itoatkorlik.

13-16 ballarda to‘la itoatkorlik, oshirilgan aybdorlik tuyg‘usi, irodasizlik, o‘z-o‘zini kamsitishni aks ettiradi.

#### **VI. Tobelik.**

0-8 ballarda konformlilik, ko‘ngilchan, atrofdagilarning yordami va ishonchiga muhtojlik, ishonuvchan, atrofdagilar bilan faxrlanish, xushmuomalalik.

9-12 ballar tobelik, hadiksirash, qarshilik ko‘rsata olmaslik, boshqalar fikriga to‘la bog‘liqlik, ularning e’tiboriga ehtiyoj.

13-16 ballar o‘ziga nisbatan ishonchning yo‘qligi, har narsadan havotirlanaverishi sababli, boshqalarga bog‘liq, o‘zgalar fikriga o‘ta bo‘ysunuvchanlik.

### **VII. Do‘stonalik**

0-8 ballar hamkorlikka intilish, nizoli vaziyatlarda muammoni echishda murosalilik va yon bosuvchanlikni, anglangan konformlilik, atrofdagilar bilan munosabatda xushmuomalalik, ochiqko‘ngillik, muloqatchan, do‘stona munosabatlarga intiluvchi shaxslarga xos bo‘lgan shaxslararo munosabatlar uslubini ifodalaydi.

9-16 ballar barcha bilan do‘stona va ochiqlik, konvensiallik, guruh bilan yaqin hamkorlik, ortiqcha kompromis xulq, atrofdagilarga nisbatan do‘stonaligini to‘kib sochishda, o‘zini tuta olmaslik, o‘zini ko‘pchilik manfaatlariga daxldor ekanini ta’kidlashga intilishda ko‘zga tashlanadi.

### **VIII. Bag‘ri kenglik-fidokorlik.**

0-8 ballar atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, ma’suliyat hissi rivojlanganligi, hamdardlik, muomalada nazokatlilik, muloyimlik, rahmdillik, beg‘arazlik, fidokorlik, atrofdagilarga nisbatan g‘amxo‘rlikka intilishni, kamchiliklarni tuzatishga moyillik, kamchilik va xatolarga nisbatan kechirimlilikni anglatadi.

9-16 ballar ko‘ngli bo‘shlik, o‘zgalar ma’suliyatnini ham bo‘yniga olish, ustanovkalarning o‘ta majburiyligi, ta’kidlangan altruizmni, o‘ziga zarar bo‘lsa ham boshqalarga yordam, madad berishga intilish, atrofdagilarga nisbatan haddan tashqari e’tiborlilikni bildiradi.

Quyidagi formula asosida shaxsning shaxslararo munosabatlardagi ikki asosiy hulqi uslubi aniqlanadi:

$$\text{Hukmronlik} = (\text{I-V}) + 0,7(\text{VIII+II-IV-VI})$$

$$\text{Do‘stonalik} = (\text{VII-III}) + 0,7(\text{VIII-II-IV+VI})$$

## **SOTSIOMETRIYA METODIKASI TAVSIFI**

Sotsiometriya metodikasining asoschisi amerikalik psixiatr va ijtimoiy psixolog Dj.Moreno hisoblanadi. Sotsiometrik tahlil ma'lumotlari shaxsning guruhda tutgan o'rni, guruhdagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, guruh lideri, (guruhning tan olingan sardori), guruh yulduzlari, guruh a'zolarining guruhdagi mavqeい, guruhning yakkalanib qolgan a'zosini aniqlash imkonini beradi.

Sotsiometriya metodikasi quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- Guruhdagi jijslik yoki tarqoqlikni aniqlash;
- Guruh a'zolari orasidagi simpatiya va antipatiyani aniqlash;
- Guruhdagi norasmiy liderlar va yakkalanib qolganlarni aniqlash.
- Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi mavqeini (statuslari)ni aniqlash.

### **Metodikani o'tkazish tartibi:**

Ushbu metodni o'tkazishning va natijalarni tahlil qilishning turli shakllari mavjud. Masalan, metodika ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin. Birinchi shakli noparametrik tarzda metodikani o'tkazishda sinaluvchilarga o'z guruhidan tanlaydigan kishilarning soni chegaralab qo'yilmaydi. Sinaluvchining oldiga guruh a'zolarining ro'yxati qo'yilib, shu kishilarni o'ziga yoqish yoki yoqmaslik darajasiga qarab raqamlab chiqish taklif etiladi. Noparametrik metodikani noqulaylik tomoni shundaki, guruh a'zolari soni 15-16 tadan oshgandan so'ng sotsiometrik tanlovlardan hisoblash qiyinlashib qoladi. Bunday vaziyatlarda elektron hisoblash mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Noparametrik metodikaning yana bir noqulayligi, shaxs guruhidagi 20-25 ta tengdoshlarini ob'ektiv ravishda baholashga, munosabatini bildirishga qisqa vaqt ichida qiynalib, tasodifiy tanlov bajarishi mumkin.

Metodikaning ikkinchi shakli parametrik tarzdagi tanlovlardan bo'lib, shaxsga o'zi faoliyat ko'rsatayotgan guruhdan 3-5 tagacha kishilarni (o'ziga yoqqan) tanlash taklif etiladi. YA'ni tanlov soni 3-5 ta kishi bilan chegaralanadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, parametrik tarzdagi tanlovlardan sodda, ishonchli bo‘lib muhim tanlovlardan sonini va qiymatlarini hisoblashni osonlashtiradi.

Tanlovlardan sonining chegaralanganligi (3-5 kishi) shaxsning tanlovlarga jiddiy e’tibor bilan yondashishiga sabab bo‘ladi.

Sotsiometrik me’zon tadqiqot maqsadiga mos tushgan holda shaxslararo munosabatlarning ma’lum bir jihatiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Sotsiometriya tanlovlarni o‘tkazishda eksperimentator tomonidan sinaluvchilarga beriladigan savollar mezonlarining ahamiyati katta. Ularni tanlashda, savollarni tuzishda konkret vaziyatlar va sinaluvchilar guruhi xususiyatlari va shu kabilalar nazarda tutilishi lozim. Sotsiometrik mezonlar shartli ravishda quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. **Rolli**: “Agar siz sinf boshlig‘i bo‘lsangiz, biron bir jiddiy topshiriqni bajarish uchun ajratilgan guruh tarkibiga o‘z sinfdoshlaringizdan kimni kiritgan bo‘lar edingiz?”
2. **Funksiyali**: “Sizning fikringizcha sinfdoshlaringizdan kim sinf etakchisi bo‘lishga loyiq?”
3. **Amaliy**: “Siz navbatchilikni kim bilan birga o‘tkazgan bo‘lar edingiz?”, “Sizga berilgan topshiriqni kim bilan birga bajargan bo‘lar edingiz?”
4. **Emotsional**: “O‘zingiz uchun og‘ir damlarda shu sinfdoshlaringizdan kimga yordam so‘rab murojaat qilgan bo‘lar edingiz?”, “O‘z sirlaringizni sinfdoshlaringizdan kimga aytishni lozim topgan bo‘lar edingiz?”
5. **Kommunikativ**: “O‘qishni tugatgandan so‘ng shu sinfdoshlaringizdan kim bilan birga, bir joyda ishlashni, o‘qishni xohlaysiz?” va boshqa shu kabi savollar aniqlanishi lozim bo‘lgan norasmiy liderga xos bo‘lgan sifatlarni ham belgilab beradi.

Sotsiometrik tadqiqot samaradorligini oshirish uchun uni guruhning barcha a’zolari ishtirok etayotgan vaqtida va guruh a’zolari bir-birlarini yaxshi bilagn holatda o‘tkazish lozim. Tanlovlarni qayd etish uchun sinaluvchilarga sotsiometrik matritsa tarqatiladi. Tanlovlarni birov bilan maslahatlashmasdan

mustaqil ravishda amalga oshirish talab qilinadi. Iloji boricha, har bir stolda bitta o‘quvchi test savollariga javob yozishni ta’minlanishi zarur.

Har bir o‘quvchi to‘ldirgan «sotsiometrik kartochkalar» asosida «sotsiomatrtsa» (sotsiometrik matritsa) to‘ldiriladi.

Sotsiometriyada kishining guruhdagi statusini (o‘rni) izohlovchi maxsus terminlar mavjud. Y.L.Kolominskiy o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimini asosan sotsiometriya uslubi bilan o‘rgangan. U o‘z tadqiqot ishida statuslarni quyidagicha guruhlagan. I guruhga, “yulduzlar” guruhiga 6 va undan ko‘p tanlov olganlar, ya’ni tadqiqot jarayonida o‘rtachadan ikki barobar ko‘p tanlov olgan o‘quvchilarni kiritgan. II guruhga, “yoqimtoylar” guruhiga 3-5ta tanlov, ya’ni o‘rtacha va undan bir, bir yarim barobar ko‘p tanlov olganlar kiritilgan. 1 - 2 tanlov olgan o‘quvchilar “qabul qilinmaganlar” -III guruhni tashkil qilishgan. IV guruhga esa umuman tanlov olmaganlarni –“yakkalanib” qolganlarni kiritgan.

O‘tkazish tartibi: kichikroq qog‘ozga o‘quvchining ismi va familiyasini yozilib, tagiga chiziladi. O‘quvchiga: “Eng yakin do‘stlaringdan 3 tasining ismi va familiyasini ketma-ket shu qog‘ozga yoz, birinchi o‘ringa kimni qo‘ysan, ikkinchi o‘ringa kimni va hakozo”, deb aytiladi. Bu qog‘ozlar to‘planib natijalar umumlashtiriladi va sotsiometrik matritsa tuziladi.

### Sotsiometrik matritsa

№	Kim tanlaydi	Kimni tanlaydi						
		1	2	3	4	5	6	7
1	Axmedov	X			2		1	3
2	Botirov	2	X		3		1	
3	Valiev	2		X			1	3
4	Sobirov	2		3	X		1	
5	Doniyorov		2		1	X	2	
6	Sultonov		1	2			X	3
	Jami:	3	2	2	3	0	5	3

Har xil statuslarni quyidagicha aniqlaymiz.

O‘rtachadan ikki barobar ko‘p tanlov olsa - «yulduz»lar hisoblanadi.

$St > m + 2 k = 6ta$

o‘rtachadan bir-bir yarim barobar ko‘p tanlov olsa - «yoqimtoylar».

$St > m + 1 (1,5) k= 5-4ta$

O‘rtacha tanlov olgan = o‘rtacha (+3)

O‘rtachadan 1 yoki 1,5 barobar kam tanlov olganlar «qabul qilinmaganlar»

$St > m - 1 (1,5) = 1-2ta$

Umuman tanlov olmaganlar «yakkalanib qolganlar» deyiladi.

$St > m - 2 k= 0 ta$  tanlov


Sotsiometrik tanlov jarayonida qog‘ozning orqa tomoniga «Axmadjon sen nima uchun Karimni tanlading» deb so‘raladi va javobi yozib qo‘yiladi. Bu «tanlov motivlarini» aniqlash jarayonidir.

### **Sotsiogramma**

Guruhnинг ichidagi kichik guruhchalarni aniqlash, kichik guruhchalarda o‘zaro munosabatlar (statuslar), lider va «yakkalanib qolganlar»ning shaxslararo munosabatlarini yaqqolroq va aniq ko‘rish uchun sotsiogrammadan foydalaniladi.

Guruhda har bir o‘quvchining o‘rni, mavqeい (statusini), boshqa tengdoshlar bilan munosabatlarini yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun guruh a’zolarining tanlovlari ifoda etilgan sotsiogramma «karta monogramma» tuziladi.

### **Sotsiogramma - nishon**



«Karta monogramma» guruh jurnali asosida tuzilib, har bir o‘quvchining tengdoshlari bilan munosabatini ifoda etadi. Sotsiometriya metodikasining natijalari aniq, ishonchli bo‘lishi uchun metodikani o‘quv yilining o‘rtalarida (o‘quvchilar bir-birlarini yaxshi o‘rganganlaridan so‘ng) o‘tkaziladi. Metodikani bir yilda bir necha marta o‘tkaziladi va chiqqan natijalar umumlashtiriladi.

## **Y.RIJONKINNING “KOMMUNIKATIV ORALIQNI O’RGANISH”**

### **TESTI**

**“Kommunikativ oraliqni o’rganish” testidan foydalanish tekshiriluvchilar uchun ortiqcha muammo tug‘dirmaydi.** Metodika muloqotga kirishuvchilarni ma’lumot ayriboshlash jarayonida bir-biriga o‘zaro ta’sirlashuvi, muloqot jarayonidagi oraliqqa aniqlik kiritadi. Buning uchun muloqot ishtirokchilari bir-biriga qanchalik yaqin yoki uzoq turishi hamda o‘rtadagi kommunikativlik (kommunikator va retsipient) rolini aniqlashda bir qator topshiriqlarni bajarishlari lozim.

**Testni o‘tkazish:** Test materiali sifatida sinaluvchi va guruhning har bir a’zosi o‘rtasida 100 mm o‘lchamdagisi ikki nuqta aks etgan varaq beriladi. Bunda tekshiriluvchi bilan guruhning har bir a’zosi o‘zaro bir-birlarini yoqtirishiga ko‘ra, bir-biridan 100 mm o‘lchamda ajratilgan ikki nuqta orasidagi masofani hosil qiluvchi qutblarga ko‘ra 100 balli shkalada baholashi shart. Test ikki bosqichda amalga oshiriladi. Muloqotdoshlarni o‘zaro yoqtirish xususiyatini baholashga qutbdagi nuqtalar orasidan to‘g‘ri chiziq o‘tkazish orqali, “Men” olmoshi ifodalangan nuqtadan familiya ko‘rsatilgan nuqtaga qarab yoki aksincha ifodalash yordami bilan erishiladi.

1 Bosqich. Sinaluvchiga ko‘rsatma: “Hayotda doimo birbiringiz bilan muloqot qilishingizga, ma’lumo(axborot) almashinishnigizga to‘g‘ri keladi. SHu bilan birga har biringiz kim bilandir suhbatlashishga, tinglashga ehtiyoj sezasiz. Tabiiyki, bu ehtiyojlar atrofingizdagi barcha kishilarga birdek bo‘lmaydi. Oldingizga qo‘yilgan varaqada (siz va guruhdoshlaringiz ismi keltirilgan) ikki nuqta keltirilgan. Tasavvur qiling chap tarfdagi nuqtada Siz

turibsiz, o‘ng tarafdagи nuqtada esa sizning o‘rtog‘ingiz. Nuqtalar orasidagi masofa siz bilan o‘rtog‘ingiz o‘rtasidagi oraliq masofani bildiradi. Biron bir yangilikni keltirilgan guruhdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashish istagi tug‘ildi, deylik. Siz ularga qay darajada yaqin borgan bo‘lar edingiz?” Buni ifodalash uchun o‘z nuqtangizdan turib o‘rog‘ingiz ismi, familiyasi keltirilgan nuqtasiga qadar zarur bo‘lgan chiziqni torting.

2 Bosqich. Sinaluvchiga ko‘rsatma: “Sizning oldingizda xuddi shunday ikki nuqta keltirildi. Faraz qiling, sizni qiziqtirgan masla yuzasidan o‘rtog‘ingizning fikrini bilmoqchisiz. Uni qanchalik o‘zingizga yaqinlashtirgan bo‘lar edingiz. O‘z ” ikkinchisida esa (sherikdan”Men”gacha) jarayonning sub’ekti ma’nosini bildiradi.

**Ma’lumotlarni qayta ishlash.** Birinchi hosil qilingan uzunlik (“Men”dan muloqotdagи sherikgacha) sherikka nisbatan axborot almashishdagi ob’ekt sifatida qiziqqanlik darajasini anglatadi. Metodika blankasiga hech qanday ortiqcha ifodalarsiz faqat nuqtalar aks ettirilishi lozim. Tekshiriluvchilar bilan eksperiment o‘tkazilgandan keyin test blanklarini solish uchun pochta konverti beriladi. Konvertning yuqori qismida tekshiriluvchilar o‘zlari haqida barcha zaruriy ma’lumotlarni, ya’ni familiyasi, ismi, bajarilgan muddati va boshqalarni qayd etishlari zarur. SHuningdek, metodikaning kommunikativ oraliq darajalarini belgilovchi ko‘rsatkichlari mavjud. Bizga qadar metodikadan foydalangan mualliflar kommunikativ oraliqning darajalari va ularning me’yoriy ko‘rsatkichlarini taqdim etganlar. Bu esa bizning metodikadan foydalanishimizga ancha qulaylik tug‘irdi.

### **Kommunikativ oraliq darajalari**

Nº	Munosabat darajalari	Bir va ikki yoqlama	Munosabat darajalari	Bir yoqlama	Ikki yoqlama
	Zaruriy majburiy	00,21; 1,00(-0,58)	Majburiy	0-0,12	-1-(-0,75) -0,76-(-0,58)
	Rasmiy-	0,22-0,67;	Salbiy	0,22-0,30	-0,57- (0,40)

	konvensional	-0,57-0,34	rasmiy		
			Rasmiy	0,31-0,55	-0,39-(-0,10)
			Ijobiy rasmiy	0,56-0,67	-0,10-0,34
	Dildan ishonish	0,68-1,00; 0,35-1,00	Ishonchli	0,68-0,79	0,35-0,58
			Intim	0,80-1,00	0,59-1,00

### **Dj.GILFORDNING «SOTSIAL INTELLEKT» TESTI**

Sotsial intellekt – bu insonning niyati, his-tuyg‘ularini va emotsiyal holatlarini so‘zlarini va xatti-harakatlari orqali tushunish qobiliyatidir. Sotsial intellekt shuningdek, insonning shaxslararo munosabat natijalarini oldindan ko‘ra olish xususiyati hamdir. Sotsial intellekt insonlar haqida tez mulohaza qilib, ularning xatti-harakatlari yuzasidan tezkor munosabat bildira olish qobiliyati bilan bog‘liq. Bu «ijtimoiy inoyat etilgan» xususiyat insonlar bilan munosabatni silliq ketishini ta’minlab, ijtimoiy moslashuv mahsulidir.

Metodika muallifi Dj. Gilford sotsial intellekt masalasini umumiy intellektga bog‘liq bo‘lmagan, xulq-atvor orqali ma’lumot olish bilan bog‘liq intellektual qobiliyatlar tizimi, deb izohlagan. Gilfordning konsepsiyasiga ko‘ra, sotsial intellekt o‘zida xulq-atvorni anglash bilan bog‘liq 6 omilni birlashtiradi:


1. Xulq-atvorni elementlarini bilish –xulq-atvordagi so‘z (verbal) va so‘zsiz (noverbal) mazmundagi xatti-harakatlarni ajrata olish qobiliyati;
2. Xulq-atvorning turlarini bilish –xulq-atvor haqidagi ekpressiv yoki vaziyatli axborotlar oqimidagi umumiyl xususiyatlarni anglash, farqlash qobiliyati;
3. Xulq-atvor munosabatlarini bilish-munosabatlarni tushunish qobiliyati;
4. Xulq-atvor tizimini bilish – odamlar o‘zaro ta’sirlashuvidan yaxlit vaziyatlarning rivojlanish mohiyatini, ularning bu vaziyatlardagi xulq-atvor mazmunini tushunish qobiliyati;
5. Xulq-atvordagi o‘zgarishlarni bilish –har xil vaziyatlarda kechayotgan xulq-atvor mazmunini o‘zgarishining tushunish qobiliyati;

6. Xulq-atvor natijalarini tushunish – mavjud axborotdan kelib chiqib, xulq-atvor oqibatlarini ko‘ra olish qobiliyati.

### 1-subtest. «YAkunlangan voqeа»

Bu subtestda Siz Barni personajiga bog‘liq sodir bo‘lgan hayotiy vaziyatlar tasviriga e’tibor qarating. Barni-kal kishi bo‘lib, ofitsiant bo‘lib ishlaydi. Vaziyatlarda uning rafiqasi, kichkina o‘g‘li va Barnining o‘rtog‘i ishtirok etadilar. Har bir topshiriqning chap tomonida ma’lum vaziyatni ifodalovchi bir qator rasmlar joylashtirilgan. Siz undagi personajlarning kechinma va maqsadlarini aniqlang hamda o‘ng tomondagi uchta rasmdan Sizning fikringizcha, vaziyatning uzviy davomi bo‘lganini tanlang.

Namuna :



Chapdagi rasmda Barni sarmast, tomoning chekkasida qo‘rqib, osilib turgan va o‘g‘lidan yordam so‘rayotgan holati hamda bolaning otasini bunday og‘ir vaziyatda turganini ko‘rib, hayajonlanayotganligi ifodalangan .

1-rasmda keltirilgan vaziyat topshiriqning to‘g‘ri javobdir. SHu sababli javoblar varaqasida 1 raqami aylana ichiga olinadi. 1-rasmdagi Barnining o‘g‘li bilan rafiqasi devorga narvon qo‘yib unga yordam berish harakati aks ettirilgan holat vaziyatning mantiqiy davomi sanaladi.

2-va 3-rasm unchalik to‘g‘ri javoblar emas. 2-rasmda Barnining tomdan mustaqil tushayotgan holati, 3-rasmda esa Barnining rafiqasi bilan o‘g‘li uni ustidan kulib turgan holatlar mantiqan to‘g‘ri kelmaydi.

Shunday qilib, har bir topshiriqda chapdagi rasmdagi vaziyatdan keyin nima sodir bo‘lganligini personajlarning kechinmalari va harakat maqsadlari asosida aytib berishingiz kerak.

Javob uchun Siz, o‘zingizga faqatgina qiziqarli bo‘lgan rasmni tanlamasdan, balki tipik va topshirilgan vaziyatning mantiqan uzviy davomini

belgilang. Tanlangan rasmning quyi qismidagi raqamni javoblar varaqasida qayd eting. Test kitobchasining o‘ziga hech qanday belgi qo‘yilmasin.

Subtestning bajarish uchun 6 daqiqa vaqt ajratilgan. Topshiriqni bajarilishi uchun ajaratilgan vaqt 1 daqiqa qolganda, ogohlantirilasiz. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham hattoki u sizningcha ishonchli javob bo‘lmasa-da, javob bering.

## 2- «Ekspressiya guruhlari » subtesti

Bu subtestda Siz, gavdani tutish, imo-ishora, mimika, ifodali harakatlar, inson holatini aks ettirgan rasmlar bilan ishlaysiz.

Topshiriq mohiyatini tushuntirish uchun sizlarga namuna keltiramiz. Bu misolda chapda insonning muayan bir holatini ifodalovchi, ya’ni muayan bir fikr, tuyg‘u, maqsadni ifodalagan rasmlar keltirilgan.



O‘ng tomondagi to‘rtta rasmdan biri shunday holatni, fikrni yoki maqsadni ifodalaydi. O‘sha rasmni topishingiz kerak.

To‘g‘ri javob 2-rasmda bo‘lib, u chap tomondagi rasmdagi singari holatni (zo‘riqish yoki asabiylashishni) ifodalagan. SHu sababli, javoblar varaqida 2 raqamini aylana ichiga olinadi. 1, 3, 4-rasmlar mos kelmaydi, chunki ular boshqa holatlarni aks ettirgan (quvonch va muvaffaqiyatli holat).

SHunday qilib, o‘ng tomondagi subtestdagi barcha topshiriqlarni o‘ng tomondagi rasmlardan chap tomondagi rasmga mos kelganini toping va uning javoblar varaqasida belgilang.

Subtestni bajarishi uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda, Sizga ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish

uchun agar vaqt qolgan bo'lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo'lmasa-da, javob bering.

### **3- «Verbal ekspressiyasi» subtesti**

Bu testning har bir topshirig‘ining chap tomonida bir kishini boshqa kishiga so‘zlagan jumlesi berilgan bo‘lib, o‘ng tomonida esa muomalaning uch vaziyati keltirilgan. Chap tomonda keltirilgan jumlalardan biri boshqa ma’noga ega. Misol keltiramiz (ilova asosida).

#### **Kar inson- o‘rtog‘i : «Marhamat qilib, takrorlang»**

Kar odamning gapi o‘rtog‘iga muloyim iltimosni anglatmoqda. 2-3-vaziyatlarda jumlalar shunday ma’noga ega. Faqat 1- vaziyatda: haqoratlangan kishining nutqida, u boshqa ma’noni ifodalaydi. SHu sababli, javoblar varaqasida 1 - raqamini aylanacha ichiga olib qo‘yish zarur.

Shunday qilib, har bir topshiriqdagi shunday muomala vaziyatini tanlangki, u chap tomondagi qolgan ikki vaziyatdan farq qiluvchi boshqa mazmundagi jumlanı ifoda esin

Subtestni bajarish uchun 5 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda ogohlantirilasiz. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo'lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham javob bering, hattoki u sizningcha ishonchli javob bo'lmasa-da.

### **4- «To‘ldirilgan hikoya» subtesti**

Bu subtestda siz Ferdinand haqidagi voqealar aks ettirgan rasmlar bilan ishlaysiz. Ferdinandning rafiqasi va o‘g‘li bor. U boshliq bo‘lib ishlaydi, shu sababli hikoyada uning xodimlari ham ishtirok etadi.

Har bir topshiriq sakkizta rasmdan iborat. YUqoridagi to‘rta rasm Ferdinand bilan bog‘liq yuz bergen voqealarni aks ettirgan. Ushbu rasmlardan biri esa tushib qoldirilgan. Siz pastdagi to‘rta rasm orasidan yuqorida tushib qoldirilgan suratni o‘rniga qo‘yishingiz kerak va Ferdinand bilan bog‘liq

voqeani mazmunan to‘ldirishingiz lozim. Agar tushib qoldirilgan rasmni siz to‘g‘ri topsangiz, voqeaning mazmuni, unda ishtirok etayotgan personajlarning tuyg‘u va maqsadlari tushunarli va aniq bo‘ladi.

Misol uchun: Quyidagi voqeaning uchinchi rasmi tushib qoldirilgan. Voqea yakunida biz Ferdinandning tushlik haqidagi orzulari aksincha, kutganidek chiqmay, uydan ranjib chiqadi. Ferdinandning rafiqasi asabiylashgan va go‘yoki o‘g‘liga kitob o‘qiyotgandek o‘tiribdi. Bola esa xotirjam. Bularning barchasi o‘zaro bog‘liq, Ferdinand ishdan qaytgandan so‘ng yuvinib, oshxonani iflos qiladi. Bu esa rafiqasini achchiqlantirdi. SHunday qilib ushbu voqeada tushib qoldirilgan holat 4 –rasm bo‘lib, u javoblar varaqasida aylana ichiga olinadi.

**1, 2, 3 –rasmlar mazmunan bu voqeaga mos kelmaydi.**



Shunday qilib, har bir topshiriqda Ferdinand bilan bog‘liq voqelarni mazmunan to‘ldiradigan, tushib qoldirilgan rasmni topishingiz lozim. Subtestni bajarish uchun 10 daqiqa beriladi. Vaqt tugashiga bir daqiqa qolganda Sizga, ogohlantirish beriladi. Topshiriqni tez bajarishga harakat qiling. Bitta topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Murakkab topshiriqni bajarish uchun agar vaqt qolgan bo‘lsa, yana qaytishingiz mumkin. Murakkab vaziyatlarga ham, hattoki, u siz uchun ishonchli variant bo‘lmasa-da javob bering.

## Gilfordning «Sotsial intellekt» testining javoblar varaqasi

F.I.S. \_\_\_\_\_ Vaqt \_\_\_\_\_


Yosh \_\_\_\_\_ Jins \_\_\_\_\_

Misol	1-subtest	2-subtest	3-subtest	4-subtest
1	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
2	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
3	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
4	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
5	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
6	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
7	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
8	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
9	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
10	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
11	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
12	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
13	1 2 3	1 2 3 4	1 2 3	1 2 3 4
14	1 2 3	1 2 3 4		1 2 3 4
15		1 2 3 4		

## Gilfordning “Sotsial intellekt” testi kaliti

№	Subtest 1	Subtest 2	Subtest 3	Subtest 4
1	2	1	3	4
2	2	4	3	3
3	2	3	3	3
4	3	3	1	2
5	1	2	1	1
6	3	1	2	1
7	3	2	2	4
8	3	2	1	1
9	3	1	2	1
10	3	4	3	2
11	3	1	1	1
12	1	1	2	2
13	1	2		2
14	2	4		1
15		4		


# 1- “Yakunlangan voqeа” subtesti rasmlari




1




1



2



3



2




1




2




3




3




1




2




3



4




1




2



3



5




1




2



3




6




1




2




3



7




1



2



3



8




1




2




3



9




1




2




3



10




1




2




3




11




1




2



3




12




1







2





3



13






14




### Subtest №2 «Ekspressiya guruhlari» rasmlari



1











2



3





















### 3- «Verbal ekspressiyasi» subtesti











<b>1. Kishi – o‘rtog‘iga: «Siz ajoyibsiz».</b>	1. Minnatdor xodim – boshlig‘iga. 2. YAxshi o‘quvchi – o‘qituvchisiga. 3. Norozi kishi – tanishiga .
<b>2 . Sotuvchi- xaridorga: «Nima kerak bo‘lsa oling».</b>	1. Iltifotli o‘qituvchi – talabaga. 2. Vrach – mijozga. 3. Asabiylashgan militsioner – zorlanayotgan mast kishiga.
<b>3. Sudya – g‘olibga: «Tabriklayman».</b>	1. Ota– g‘olibga. 2. Do‘st – g‘olibga. 3. Mag‘lub– g‘olibga.
<b>4. Mag‘rur ota – do‘stiga : «Unga qarang».</b>	1. Rashkchi qiz – do‘stiga. 2. Xursand bola– do‘stiga. 3. Zavq-shavqqa to‘lgan qiz– do‘stiga.
<b>5. Kishi – do‘stiga: «Nima qilayapsan?».</b>	1. Achchiqlangan ona – bolasiga. 2. Qiziqqon yo‘lovchi – o‘ynayotgan bolaga . 3. O‘qituvchi – namunali o‘quvchiga.
<b>6. Vrach – bemor bolaga: «Buni ezg‘ilama».</b>	1. Ona – o‘g‘liga. 2. Jangchi – dushmanga. 3. Ish bilan band ayol– turmush o‘rtog‘iga.
<b>7. Ofitsiantka – mijozga: «Sizga qanday yordam berishim mumkin?».</b>	1. Psixiatr – mijozga. 2. Yo‘lovchi– avariyadan jabrlangan kishiga 3. Gid – turistga.
<b>8. O‘qituvchi-talabaga: «Sen buni juda yaxshi bajara olasan».</b>	1. Rafiqa – eriga. 2. Ona – bolasiga. 3. Trener – sportchiga.
<b>9. Ota-o‘g‘liga : «Sen menga yoqasan».</b>	1. Aka – singliga. 2. YOsh yigit – do‘stiga. 3. Jiyan – xolasiga.
<b>10. Boshliq – ishchiga: “Bu yaxshi” .</b>	1. Murabbiy – artistga. 2. O‘qituvchi – talabaga. 3. Jabrlanayotgan bola – uni urgan raqibiga.
<b>11. Ona – qochayotgan bolaga: «To‘xta!».</b>	1. Asabiylashgan ota – chinqirayotgan o‘g‘liga. 2. Yo‘lovchi– shofyorga. 3. Yo‘lovchi – ehtiyoitsiz bolaga.
<b>12. Sug‘urta agenti – mijozga: «Marhamat qilib, imzo cheking».</b>	1. Mehmonxona ma’muri – mijozga. 2. Kolleksioner avtograf – «yulduzga». 3. Kassir – qarzdoga.






**Subtest № 4 «To‘ldirilgan voqeя»**






3








7












8








9

10
















11



12





**Gilfordning «Sotsial intellekt» testi bo'uicha standart ko'rsatkichlar aniqlovchi jadval (18-55 yoshlilar guruhi uchun)**

Standart ko'rsatkichlar	Subtestlar natijalari				Jamlangan baho
	1	2	3	4	
1	0 – 2	0 – 2	0 – 2	0 – 1	0 – 12
2	3 – 5	3 – 5	3 – 5	2 – 4	13 – 26
3	6 – 9	6 – 9	6 – 9	5 – 8	27 – 37
4	10 – 12	10 – 12	10 – 11	9 – 11	38 – 46
5	13 – 14	13 – 15	12	12 – 14	47 – 55

Tadqiqotdan so'ng har bir subtest natijalaridan xulqatvorni anglash qobiliyati darajasini bildiruvchi standart ballar to'planadi.

Hosil bo'lgan standart ballardan quyidagi umumiy xulosa qilish mumkin:

1 ball sotsial intellekt (xulqatvorni bilish qobiliyati) past darajada;

2ball sotsial intellekt o'rtadan past darajada;

3ball sotsial intellekt o'rtacha darajada;

4ball sotsial intellekt o'rtadan yuqori darajada;

5 ball sotsial intellekt yuqori darajada;

Agar sinaluvchi standart baholashda biron bir subtestda 1 ball olgan bo'lsa, sinaluvchining topshiriqni to'g'ri tushunganligi o'rganilishi lozim.

### **CH.OSGUDNING “SEMANTIK DIFFERENTIAL” METODIKASI**

Mazkur metodika orqali shaxsning boshqa shaxsga har doim ham to'laligicha anglanmagan munosabatlari aniqlanadi. Metodika asosini 10 ta bir-biriga qaramaqarshi bo'lgan shaxsni baholovchi sifatlardan iborat jadval tashkil etadi. Mazkur sifatlar orasida 7 punktdan iborat, -3dan +3gacha bo'lgan baholovchi shkalalar keltirilgan.

Ko'rsatma: Sizga tanish bo'lgan, siz bilan turlicha munosabatda bo'lgan: juda yaxshi, befarq(neytral), juda yomon munosabatda bo'ladigan 3 kishini tanlashingiz kerak. Tanlangan kishilarni mazkur jadvalda keltirilgan mezonlar orqali baholang.

	Baholovchi shkala							
	-3	-2	-1	0	+1	+2	+3	
Yomon								Yaxshi
Yoqimsiz								Yoqimli
Jozibasiz								Jozibador
Keraksiz								Kerakli
Foydasiz								Foydali
Istalmagan								Istalgan
Muhim bo‘lмаган								Muhim
Ahamiyatsiz								Ahamiyatli
Betayin								Turg‘un
Qo‘pol								Ko‘ngilchan

Har bir baholangan kishining to‘plagan ballari yig‘indisidan o‘rtacha qiymat aniqlanadi. So‘ngra barcha ballar yig‘indisining o‘rtcha bali topiladi va shundan sinaluvchining kishilarga munosabati aniqlanadi:

O‘rtacha qiymat	Kishilarga munosabat
+2 dan +3gacha	Juda yaxshi munosabat
+1 dan +2gacha	Ijobiy munosabat
-1dan +1 gacha	Ob’ektiv yoki befarq munosabat
-2dan -1gacha	Salbiy munosabat
-3dan -2gacha	Juda yomon munosabat

### “UY. DARAXT. ODAM” METODIKASI.

“Uy, daraxt, odam” metodikasi proyektiv metodikalar sirasiga kiradi. Mazkur metodika 1948 yil J.Bak tomonidan katta yoshdagи kishilar va bolalarni o`rganish uchun taklif etilgan.

“Uy, daraxt, odam” proyektiv metodikasini individual hamda guruhiy tarzda qo`llash mumkin. Sinaluvchiga oq qog`oz, qalam berilib, uy, daraxt, odam rasmini chizish vazifasi topshiriladi.

Ko'rsatma: Uy, daraxt va odam (butun bo'yicha) rasmini chizing. Rasmda qandaydir ish harakatni tasvirlashga harakat kiling. Odamning karikaturasini chizmang.

So`ng ishlab chiqilgan reja bo`yicha suhbat o`tkaziladi

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda uy, daraxt va odam rasmini chizilish tartibi testni tavsiflash usuli sifatida qaraladi:

- agar daraxt rasmi birinchi bo'lib chizilgan bo'lsa, bunda inson uchun asosiy bo'lgan narsa-hayotiy energiya (quvvat);
- agar uy birinchi navbatda chizilgan bo'lsa, birini o'rinda inson uchun xavfsizlik, muvaffaqiyat yoki bu tushunchalarining rad etilishi turadi.

## TESTDAGI BELGILAR TAVSIFI

### UY

**Eski uy** – subektning o'ziga bo'lган munosabatini aks ettiradi.

**Uzoqdagi uy** – biror narsadan yuz o'girish (xo'ranganlik)

**Yaqindagi uy** – ochiq ko'ngillik, mehmondo'stlik, iliq xissiyotlar.

**Uy o'rniga uning rejasi (tepadan loyihalashtirilgani)** – jiddiy konflikt

**Turli qurilishlar** – uy egasiga nisbatan agressiyaning namoyon bo'lishi.

**Deraza – eshigi yopiq uy** – subekt shaxslararo munosabatga kirishib ketishi holatida.

**Faqat devorning o'ziga (eshiksiz) chizilgan zina** – reallikni to'g'ri baholashga halaqt beradigan konfliktli vaziyatning namoyon bo'lishi. Subektning izolyatsiyalanganligi (hatto uning o'zi samimiy munosabatga kirishishni istasa ham).

## DEVORLAR

**Boshqa tomondan tasvirlangan orqa devor** – o'z – o'zini nazorat qilishga ongli ravishda urinish, o'zaro kelishuvchanlik hissining borligi, lekin shu bilan birga kuchli qaysarlikning ham namoyon bo'lishi.

**Orqa devor konturlarining etarlicha qalinligi** – subektning reallik bilan bo'lган aloqani saqlab qolishga (yo'qotmaslikka) intilishi.

**Poydevorga ega bo'lman devorlar** – reallik bilan bo'lgan kuchsiz aloqa (asosan idealist).

**Poydevoriga alohida urg'u berilgan devor** – subektning konfliktli vaziyatlarni aniqlashga urinishi, qiyinchilik va xavotirni his qilayotganligi.

**Gorizontal chiziqlarga urg'u berib chizilgan devor** – vaqt bilan bog'liq nomuvofiqlik (o'tmish yoki keljakning dominantligi). Subektning muhitga juda ta'sirchanligi.

**Vertikal chiziqlarga urg'u berib chizilgan devor** – subektning o'z xohishiga ko'ra reallikdan uzoqlashib, fantaziyalardan lazzatlanishi.

**Yon chiziqlari juda ingichka va noadekvat chizilgan devor** – falokatdan qo'rqish.

**Chiziqlariga juda urg'u berilgan devor** – nazoratni yo'qotmaslikka ongli ravishda intilish.

**Bir o'lchovli perspektiv (bitta tomonning tasvirlanganligi), agar bu yon tomon bo'lsa** – subektida qarshilik va begonalik (muholifat)ning kuchli namoyon bo'lishi.

**Shaffof devor** – anglanmagan ishtivoq , vaziyatga iloji boricha ta'sir ko'rsatish (hukmronlik qilish, tashkillashtirish)ga intilish.

### **EShIKLAR.**

**Eshiklarning yo'qligi** – subektning boshqalar bilan ochiq munosabatga kirishishga qiynalishi (asosan uydagilar bilan).

**Orqa yoki yon tomondagi eshiklar (bitta yoki bir nechta)** – chekinish, inkor qilish, qochish.

**Oldingi eshiklar (bitta yoki bir nechta)** – ochiqko'ngillik va muvaffaqiyatlilikning namoyon bo'lishi.

**Ochiq eshiklar** –agar odam yashaydigan uy bo'lsa, bu tashqaridagi iliqlikka kuchli ehtiyoj yoki ochiqko'ngillilikni demonstratsiya qilishga intilish.

**Yon eshiklar (bitta yoki bir nechta)** – begonalik, alohidalik, reallikni qabul qilmaslik. Izolyatsiyalanganlik.

**Eshiklarning juda kattaligi** – boshqalarga xaddan tashqari bog’lanib qolish yoki o’zining ijtimoiy kommunikabelligini namoyon etishga urinish.

**Eshiklarning juda kichkinaligi** – o’z “Men”ini berkitish. Ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan nomunosiblik nomuvofiqlik va qatiyatsizlik hislarini his qilish.

**Eshikda katta qulfning borligi** –dushmanlik, ishonchsizlik, sirlilik, himoya tendentsiyalari.

**Quyuq tutun** – ichki bosimning etarlicha kuchliligi.

**Tutunning kamligi** – uyda emotsional iliqlikning etishmaslik hissi.

### **DERAZA**

**Derazalarning birinchi qavatda joylashganligi** – shaxslararo munosabatlardan yuz o’girish. Xaqiqiylikdan izolyatsiyalanish.

**Katta ochilgan derazalar** –subektnig o’zini juda to’g’riso’z yoki beodob tutishi.

**Derazalarnig ko’pligi** – munosabatga kirishishga tayyorlikni va pardalarning yo’qligi – o’z xissiyotlarini berkitishga intilmaslikni bildiradi.

**Yopiq derazalar** – muhit bilan o’zaro ta’sir masalasida tashvishlanish.

**Oynasiz derazalar** – dushmanlik, begonalik. Derazaning paski qavatlarda emas, yuqori qavatda bo’lishi – real va fantastik hayot o’rtasidagi “bo’shliq”.

### **TOM**

**Tom** –fantaziya sohasi. Shamolning tom va trubani buzganligi – subektning shaxsiy erkinligiga qarshi buyruq berishlari.

**Tomning boshqa elementlarda uchramaydigan darajada qalin chiziqlar bilan chizilganligi** – o’z fantaziyalariga huzurlanish manbai sifatida bog’lanib qolish.

**Yon tomonlari ingichki chiziqli tom** – fantaziyanı boshqarishdagı sustlikni his qilish.

**Yon tomonlari qalin chiziqli tom** – fantaziyanı boshqarishda haddan tashqari tashvishlanish.

**Pastki qavatlar bilan yaxshi bog’lanmagan tom** –shaxsiy organizatsiyaning yomonligi.

**Tom karnizlari, ularga urg’u berish yoki ularning devor ustigacha tortilganligi** – (ishonchsizlik bilan bog’liq bo’lgan)himoya vositalarining kuchliligi.

### **MO’RI**

**Mo’rining yo’qligi** – subektning uyda psixologik iliqlik yo’qligini his qilishi.

**Mo’rining deyarli ko’rinmasligi** – emotсional ta’sir bilan bog’liq munosabatlarni istamaslik.

**Mo’rining tomga bog’liq xolda qiyshiq chizilganligi** – bolalar uchun – norma, kattalarda – aggressiyani bildiradi.

**Suvо’tkazgich quvurlar** – himoyaning kuchliligi yoki ishonchsizlikning yuqoriligi.

### **QO’ShIMChA DETALLAR**

**Butalar** – ba’zan odamlarni ifodalab keladi, agar ular bilan uy zinch o’ralgan bo’lsa, o’zini himoya to’siqlari bilan o’rash istagining kuchliligini bildiradi.

**Butalar har yoqda joylashgan yoki yo’lakning ikki tomoniga qator chizilgan bo’lsa** – reallik doirasidagi biroz xavotirlanish va uni boshqarishga bo’lgan intilishni bildiradi.

**Engil va bejirim chizilgan yo’lakcha** – individning boshqalar bilan munosabatda taktga egaligi va o’z – o’zini boshqara olishini bildiradi.

**Yo’lakchaning juda uzunligi** – ijtimoiy muhitga kirishishning kamligidan dalolat.

**Yo’lakcha boshining juda kengligi va uygа tutash qismining juda torligi** – yolg’izlikni istash hissini berkitishga urinish.

**Quyosh.** Obro’ – e’tibor belgisi, ba’zan iliqlik va kuch – qudrat manbai bo’lib ham qabul qilinadi.

**Ob – havo.** Subektning umumiy muhitga nisbatan kechinmalarini o’zida aks ettiradi. Qanchalik yomon ob – havo rasmi chizilsa, atrof – muhit subekt uchun shunchalik qarshilik va imkonsizlikdan iborat bo’lib tuyuladi (subektning muhitni dushmandek qabul qilishi va unda o’zini asirdek his qilishidan iborat).

### **RANGLAR TANLOVI.**

Quyidagi ranglardan odatdagidek foydalaniladi: **yashil** – tom uchun, **jigarrang** – devorlar uchun.

**Sariq – uydagi gul bo’lib kelganda oddiy, lekin qosh qorayishi yoki tunning yaqinlashishini tasvirlab kelsa, quyidagilarni anglatadi:**

1. Muhitning unga nisbatan dushmanonaligi.
2. O’zining xatti – harakatlarini boshqalar ko’zidan yiroq bo’lishini istash.

**Ishlatilgan ranglar miqdori.** Muhitga yaxshi moslasha olgan yoki tortinchoq bo’lgan subekt odatda 2 tadan kam bo’lmagan 5 tadan ortiq bo’lmagan ranglardan foydalanadi.

**Uyni bo’yashda 7 – 8 xil ranglardan foydalangan subekt labil** (emotsiyaning o’zgaruvchanligi) hisoblanadi.

**Faqat bitta rangdan foydalangan subekt** emotsional qo’zg’alishdan qo’rqadi.

**Subekt ranglarni tanlashda** qanchalik uzoq o’ylansa, qatiyatsizlik qilsa va qiyalsa, unda shaxsiy buzilishlarning borligi shunchalik aniq bo’ladi.

**Qora rang** – tortinchoqlik, qo’r quoqlik.

**Yashil rang** – xavfsizlik hissiga bo’lgan ehtiyoj, o’zini xavfdan himoya qilish. Bu xususiyatlar daraxt barglari va uy tomini yashilga bo’yashda unchalik ahamiyatga ega emas.

**Olovrang** – ta’sirchanlik va dushmanlik hislari kombinatsiyasi.

**Purpur rang** – hokimiyatga kuchli intilsh.

**Qizil rang** – yuqori ta’sirchanlik, atrofdagilarning iliq munosabatiga bo’lgan ehtiyoj.

**Sariq rang** – dushmanlikning kuchli belgilari.

**Varaqning ¾ qismini shtirxlash** – emiotsiyalarni namoyon qilishda nazoratning etishmasligi.

**Rasm chegaralaridan chiqib ketgan shtrixlar** – qo'shimcha stimulyatsiyaga impulsiv javob.

### **UMUMIY KO'RINISH.**

**Rasmning varaq chetida joylashganligi** – o'ziga ishonchsizlik va havotir hislarining ustunligi.

Ular vaqt o'lchovlariga ko'ra quyidagicha ifodalanadi:

- o'ng tomon – kelajak, chap tomon – o'tmish.

Kechinmalar spetsifikasiga ko'ra:

- o'ng tomon – intellekt, chap tomon – emotsiyonal soha.

**"Subekt ustidan" ko'rinish (tepadan pastga qaragandek)** – subekt uydagilari tomonidan chetlashtirilgan, inkor qilingan. Subektning erishib bo'lmaydi deb hisoblagan uy muhitiga ehtiyoj sezishi.

**Rasmning uzoqda joylashganligi** – konventsial jamiyatni inkor qilish istagi. Izolyatsiyalanganlik, o'z qobig'iga o'rالganlik hissi. Atrof muhittdan ajralib turishning yorqin namoyon bo'lishi. Bu rasmni yoki u ifodalayotgan ma'noni inkor qilish.

**"Yo'qolgan ko'rinish" (individ uyning bir qismini to'g'ri tamomlaydi, lekin boshqa tomonida muvofiqlikni yo'qotadi)** – murakkab integratsiyaning boshlanishidan darak beradi va kelajakdan qo'rqishni (agar vertikal chiziqlar o'ng tomonda joylashgan bo'lsa) yoki o'tmishni unutish istagini bildiradi (agar vertikal chiziqlar chap tomonda joylashgan bo'lsa).

**Uchtononlama ko'rinish** – atrofdagilarning o'zi xaqidagi fikrlari uchun haddan tashqari tashvishlanish, ahamiyatsiz hususiyatlarni bilishga intilish.

### **RASMNING JOYLASHISHI**

**Rasm varaqning yuqori markazida joylashgan bo'lsa** – subektning maqsadga erishishda to'siqlarni his qilishi yoki uning xarakterida og'ishishning mavjudligi.

**Rasmning markazda joylashganligi** – himoyalanganlik va rigidlik. Psixik muvozanatni saqlash uchun ishonchli nazoratga ehtiyoj sezish.

**Rasmning markazdan pastda joylashganligi** – subektning o’zini xav ostida yoki noqulay his qilishi natijasida depressiyada ekanligi yoki subektning o’zini reallikdan chegaralangandek his qilishi.

**Rasm varaqning chap tomonida joylashgan bo’lsa** – o’tmishta urg’u berish, impulsivlik.

**Rasm varaqning chap yuqori burchagida joylashgan bo’lsa** – yangi kechinmalardan qochishga moyillik, o’tmishta qaytish yoki fantaziyaga berilish istagini borligi.

**Rasm varaqning o’ng qismida joylashgan bo’lsa** – subekt intellektual mashg’ulotlari bilan shug’ullanishni istaydi, o’z qiziqishini nazorat qiladi, kelajakka intiladi.

**Rasm varaqning chap tomonidan chiqib ketgan bo’lsa** – o’tmishta qolib ketish va kelajakdan qo’rqish. Erkin ochiq emotsional kechinmalar xaqida haddan tashqari tashvishlanish.

**O’ng tomondan chiqib ketsa** – o’tmishtadan qutulish istagi va kelajakka kuchli intilish. Erkin ochiq emotsional kechinmalarni qattiq nazorat qilishga intilish.

**Rasm varaqning yuqori qismidan chiqib ketsa** – subekt real hayotda his qilmagan rohatni fantaziyalar olamida his qilishga urinishi.

**Konturlarning eskizligi, doimiy o’zgaruvchanligi** – yaxshi tomondan olib qaraganda, aniqlikga intilish, yomon tomondan olib qaraganda aniq pozitsiyalarga nisbatan noqobililikning namoyon bo’lishi.

## **ODAM**

**Bosh** – intellektual soha (nazorat). Taasurotlar sohasi.

**Boshning kattaligi** – inson faoliyatida fikrlashning ahamiyatiga ongsiz ravishda urg’u berish.

**Bosh kichkinaligi** – intellektual adekvatning etishmaslik muammosi.

**Noaniq bosh** – tortinchoqlik, qo’rqaqlik.

**Boshning eng ohirgi o'rinda chizilishi** – shaxslararo nizolarning mavjudligi.

**Qarama qarshi jins vakilidagi boshning kattaligi** – qarama qarshi jins vakilining soxta ustunligi, uning ijtimoiy obro'sining yuqoriligi.

**Bo'yin** – nazoart va qiziqish sohalari o'rtasidagi aloqa.

**Bo'yinga urg'u berib chizish** – himoyalangan intellektual nazoratga bo'lgan ehtiyoj.

**Bo'yinning haddan ortiq yo'g'onligi** – tana impulslarini anglash va ularnini nazorat qilishga urinish.

**Bo'yinning uzun va ingichkaligi** – tormozlanish, regressiya.

**Bo'yinning qisqa va yo'g'onligi** – o'zining ojizligini tan olish, shu bilan birga ruhi tetiklikning namoyon bo'lishi.

**Elkalar va uning o'lchami** – jismoniy kuch belgisi yoki hokimiyatga intilish.

**Elkalarning haddan ortiq kattaligi** – kuchlilikni his qilish yoki kuch va hokimiyat uchun haddan tashqari tashvishlanish.

**Elkalarning kichkinaligi** – qadripastlik, hech kim emaslik hissi.

**Elakalarning burchakliligi** – haddan tashqari ehtiyotkorlik, himoyalanish hissi.

**Elkalarning yon tomonlamaligi** – hafalik, umidsizlik, aybdorlik hissi, hayotiylikning etishmasligi.

**Elkalarning kengligi** – kuchli tana impulsları.

## **GAVDA**

**Gavdaning burchakliliği yoki to'rtburchakligi** – mardlik.

**Gavdaning juda kattaligi** – subektning kuchli anglangan, qoniqtirilmagan talablari mavjudligi.

**Gavda mos bo'limgan ravishda kichkina** – qadri pastlik hissi.

## **DARAXT**

Daraxt hayotiy energiyaning belgisidir, sinaluvchining hayotga bo'lgan intilishi daraxt tanasi va shoxlarining yo'g'onligi bilan belgilanadi. Agar

rasmida daraxt sezilarli joyni egallagan bo‘lsa, bu katta energiyadan va hayotga ijobiy yondashuvdan dalolat beradi.

- Shamol tufayli daraxt bir tomonga engashib turibdi - xavfsizlikka va uy sharoitidagi sokinlikka intilish. Bu obraz o‘tmishga o‘ralashib qolganlikni ham ifodalashi mumkin.
- Shoxlar yuqoriga yo‘naltirilgan. Agar daraxt erda mustahkam turgan bo‘lsa, bunday rasm oldinga intiladigan, etaricha muvaffaqiyatli hayotga erishgan, intilishi bor shaxsni ifodalaydi.
- Shoxlar pastga yo‘naltirilgan. Bunday rasmni hal qilinmagan muammolari ko‘p bo`lgan odamlar chizadi. Majnuntol ko‘pincha depressiya va o‘tmishga o‘ralashib qolganlikni ifodalaydi.

### **“MAVJUD BO‘LMAGAN HAYVON” METODIKASI**

Ushbu metodika o‘z mazmuniga ko‘ra proyektiv metodikalar qatoriga kiradi. Uning yordamida shaxsning muayyan xususiyatlari va psixik holatlari haqida ma’lumot to‘plash mumkin. Metodika yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lganligi sababli, u tadqiqot batareyasiga kiruvchi metodikalardan biri sifatida qo‘llaniladi. Metodika yordamida:

- o‘z-o‘ziga baho berish xususiyati; tekshiriluvchining o‘z holatidan qoniqmasligi, atrofdagilar tomonidan etaricha tan olinmaslik;
- o‘ziga ishonmaslik, qo‘rqinch, jur’atsizlik kabi sifatlar;
- insonning faoliyatga yo‘nalganligi;
- fikrlash xususiyatlari;
- egotsentrizm;
- shaxsning aggressivligi;
- xavotirlanish va himoya reaksiyalari;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlarni o‘rganish mumkin.

Metodika universal xarakterga ega. Uni turli yoshdagi, turli rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan sinaluvchilarda o‘tkazish mumkin. Bu erda eng muhimi tadqiqotchi tomonidan rasm va uning detallarini to‘g‘ri tavsiflashdir. Metodikani

o‘tkazish uchun oq yoki sarg‘ish (silliq bo‘lman) qog‘oz va o‘rtacha yumshoqlikdagi qora qalam kerak bo‘ladi. Rangli qalamlar, ruchka, flomaster, o‘chirg‘ichdan foydalanish mumkin emas.

Ko‘rsatma: “Mavjud bo‘lman hayvonni o‘ylab topib, uning rasmini chizing va nom qo‘ying”.

Metodikani individual tarzda o‘tkazish tavsija qilinadi. Uni o‘tkazish davomiyligi chegaralanmagan.

Rasm elementlari va ularning tavsiflanishi (sarlavhani ajratib yozish kerak).

Normada rasm vertikal qo‘yilgan varaqning o‘rtasida joylashgan bo‘ladi. Agar rasm varaqning yuqori chekkasiga yaqin holatda bo‘lsa, bu o‘ziga yuqori baho berish, jamiyatda egallagan mavqeidan norozilik, atrofdagilar tomonidan etarlicha tan olinmaslik; lavozimga ko‘tarilish va tan olinishga nisbatan e’tiroz; o‘z-o‘zini tasdiqlashga intilish belgisi hisoblanadi.

Agar rasm varaqning quyi qismida joylashgan bo‘lsa, buni o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘ziga past baho berish, qat’iyatsizlik, tushkunlik sifatida; jamoada biror mavqeni egallashga intilmaslik; tan olinish hamda o‘z-o‘zini e’tirof etish mavjud emasligi sifatida baholash mumkin.

### Figuraning markaziy qismi tahlili

(bosh yoki uning o‘rnini bosuvchi qism)

Agar bosh o‘ngga qaragan bo‘lsa, faoliyatga bo‘lgan barqaror intilish, harakatchanlikni bildiradi. Bunda rejalarshirilgan, o‘ylangan barcha fikrlar amalga oshiriladi yoki garchi oxirigacha etkazilmasada uni amalga oshirishga kirishiladi.

Bosh chap tarafga qaratib chizilgan bo‘lsa, refleksiya, o‘zini boshqalar qanday idrok qilishlari haqida o‘ylash, fikrlashga moyillik. Bunday sinaluvchilar harakat kishilari emas, ular o‘ylaganlarining bir qisminigina amalga oshiradilar. Ba’zida bu shaxsning faol harakat qilishdan cho‘chishi, qat’iyatsizlik sifatida qaraladi (biroq buni boshqa yo‘llar orqali tekshirish lozim).

“Anfas” holati, ya’ni bosh rasm chizayotgan shaxs tomonga qarata chizilgan bo’lsa, bu holat egotsentrizm sifatida talqin etiladi.

Agar bosh qismda sezgi organlariga mos detallar aks ettirilsa, ya’ni qulq, og‘iz, ko‘z – bular axborot olishga qiziquvchanlik, atrofdagilarning o‘zi haqidagi fikrlariga ahamiyat berishlik, deb qaraladi.

Qisman ochiq og‘iz til bilan uyg‘unlashgan holda, biroq lablar aniq chizilmagan holda tasvirlansa, kuchli nutqiy faollik (haddan ziyod ko‘p gapirish) sifatida, lablar aniq chizilsa, sezgirlik sifatida baholanadi.

Til va lablarsiz, ayniqsa qattiq botirib chizilgan ochiq og‘iz qo‘rinch va tashvish, ishonchszilikning oson yuzaga kelishidan; tishlar bilan tasvirlangan og‘iz – verbal agressiya, ko‘pchilik hollarda himoyaviy agressiya (shaxsga qaratilgan salbiy murojatga nisbatan qo‘pollik qilish, g‘ijinish, so‘kinish kabilar) dan darak beradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bolalar va o‘smirlar uchun og‘izni dumaloq shaklda tasvirlash xosdir. Bu esa sinaluvchidagi qo‘rinch va xavotirlanish holatlarini bildiradi.

Rasmda tasvirlangan ko‘zlarga alohida ahamiyat berish zarur. Agar ko‘z qorachig‘i alohida urg‘u bilan chizilsa – bu insonga xos bo‘lgan qo‘rquv kechinmasining belgisi sanaladi. Bunda kipriklarning bor yoki yo‘qligiga ham ahamiyat berish zarur. Kipriklar – xulq-atvorning namoyishkorona – jazava usuli. Erkaklar rasmlarida kipriklar tasvirlansa, ularda ayollar xarakteriga xos sifatlar mavjudligidan darakdir. SHuningdek, kipriklar sinaluvchining atrofdagilarni o‘z tashqi chiroyi, kiyinish uslubi bilan lol qoldirishga intilishi, bu jihatlarga katta e’tibor bilan qarashini bildiradi.

Agar rasmning bosh qismi butun figura o‘lchamiga nisbatan katta bo‘lsa, sinaluvchi o‘zidagi va atrofdagi kishilardagi fikrlash, eruditsiyani qadrlashidan darak beradi.

Ba’zi hollarda boshda qo‘shimcha detallar, masalan, shox tasvirlanishi mumkin. SHoxlar - himoya va agressiya timsoli bo‘lib, boshqa belgilar (tirnoq, dag‘al jun, igna) bilan birgalikda tasvirlansa, bu tajovuzkor xarakter, spontan

yoki himoyaviy agressiya ekanligini bildiradi. Hayvondagi patlar - o‘zini bezab ko‘rsatish, o‘zini oqlash, namoyish qilishga moyillik bo‘lsa, yol, jun va shunga o‘xshash soch turmamlari - hissiyat, o‘z jinsini ta’kidlash, o‘zining seksual roliga e’tiborni qaratish belgisi hisoblanadi.

#### *Figuraning tayanch qismlari tahlili*

(oyoqlar, panja, ba’zida postament)

Bunda asosiy e’tibor bu qismning butun figura va shakl o‘lchamlari nisbatiga, oyoq qismining tana bilan qanday birlashishiga, oyoqlar hamda panjalarning qaysi tomonga yo‘naltirilganligiga qaratilishi zarur. Agar oyoqlar tana bilan aniq, puxta biriktirilsa, bu qaror qabul qilishning asosliligi, o‘ylanganligi, ratsionallik belgisi; agar birlashtirish pala-partish zaif bo‘lsa yoki umuman birlashmagan bo‘lsa yoki oyoq, asos umuman bo‘lmasa – bu yuzaki fikrlash, xulosa chiqarishga engil-elpi qarash, ba’zida qaror qabul qilishning impulsivligidan darak beradi. Oyoq, panja shakllarining bir xilligi va bir tomonga yo‘nalganligi - qaror qabul qilishning konformligi (mustaqil emasligi), oddiyligi, standartligi hisoblanadi. Bu detallarning shakli va holatidagi har xillik, aksincha, fikr va ustakovkalarning o‘ziga xosligi, mustaqilligi, ba’zida ijodiylik belgisi.

#### *Figuraning yuqorisida joylashgan qismlar tahlili*

Qanotlar, qisqichlar, pat, jingalak soch, bantik kabilar - o‘ziga ishonch, qiziquvchanlik, atrofdagilarning ishlarida iloji boricha ko‘proq ishtirot etish, o‘z faoliyatiga berilib ketish belgisi. Bezovchi detallar – namoyishkorlik, atrofdagilar e’tiborini o‘ziga qaratishga moyillikdan darak beradi.

Dumlar – sinaluvchining o‘z xatti-harakati, qaror va xulosalariga munosabatini bildiradi.

Agar dum qog‘ozda o‘ngga qarata chizilsa, bu sinaluvchining o‘z harakati va xulq-atvoriga munosabat, chapga qaragan bo‘lsa, bu o‘z fikr, qarorlari, boy berilgan imkoniyatlariga, qat’iyatsizligiga munosabatni aks ettiradi. Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy xarakteri dumning yuqoriga (ishonch va tetiklik) yoki pastga (o‘zidan qoniqmaslik, o‘zining haqligidan shubhalanish,

aytgan gaplari, qilgan ishlaridan afsuslanish) qaratilishida ifodalanadi. Bunda bir necha, ba'zan takrorlanuvchi bo'g'inlardan tashkil topuvchi, ayniqsa, haddan ziyod qalin, uzun va tarvaqaylab ketgan dumga e'tibor berish lozim.

Figura konturlari. Bo'rtib chiqishlar (arqon, igna tipidagi), kontur chiziqlarining bosib, qalin chizilishi mavjudligi yoki yo'qligiga qarab tahlil qilinadi. U atrofdagilardan himoyalanish belgisi hisoblanadi. Agar bo'rtib chiqishlar o'tkir burchaklar bilan bajarilsa – tajovuzkor himoya; agar kontur chizig'i "bo'yab", qora qilib chizilsa - qo'rqinch va tashvishlanish; agar qalqon qo'yilsa va chiziqlar ikkitadan bo'lsa – (xavotirlanish) cho'chish va shubhalanish sifatida tahlil qilinadi. Fazoviy joylashuviga qarab bunday himoyaning yo'nalishi aniqlanadi: figuraning yuqori konturi - o'ziga nisbatan yoshi kattalar, ota-onalar, o'qituvchilar, boshliqlar, rahbarlar, ya'ni ta'qiq, zo'rliklarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan; pastki kontur - o'zidan yosh jihatdan kichkinalar, qo'l ostidagilarning masharalashi, qabul qilmaslik, ular o'rtasida obro'sining yo'qligi; yon tarafagi konturlar – aniq bo'lмаган xavotir, har qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavfga nisbatan o'zini himoya qilishga tayyorlik deb baholanadi. Agar "himoya" elementlari kontur ichida joylashsa, ya'ni chizilgan hayvon korpusida bo'lsa va ular o'ng tarafga yaqin tursa, bu real faoliyat jarayonidagi hamda chap tarafda bo'lsa – ko'proq o'z fikr, e'tiqod didiga nisbatan himoya sifatida talqin qilinadi.

Umumiy energiya. Umumiy energiyani baholash o'ylab topilgan hayvon haqida tasavvur hosil qilish uchun ishlatilgan detallar, tana, bosh, dum, qanot miqdoriga qarab amalga oshiriladi. Tarkibiy qismlar va elementlar (eng zarurlaridan tashqari) qanchalik ko'p bo'lsa, energiya shunchalik ko'p hisoblanadi. Lekin buning aksi bo'lsa, bu energiyani tejash, organizmning astenikligini, o'tkir somatik kasallikkardan dalolat beradi. Bu belgilarni chiziq xarakteri – zaif - to'rsimon chiziqlar, qalamni bosmasdan, qog'oz ustida shunchaki yurgizish orqali tasdiqlashi mumkin.

Chiziqlar qalin va bosib chizilgan bo'lsa, bu energiya tarzida emas, balki xavotirlanish sifatida baholanadi. Bunda ayniqsa, qattiq bosib chizilgan, hattoki

varaqning orqa tarafidan ko‘rinib turgan chiziqlarga e’tibor qaratilishi lozim. Bu, ya’ni rasm chizayotgan qo‘l muskullarining yuqori tonusi – kuchli xavotirlanishdan darak beradi. SHu bilan birga rasmdagi qaysi detal, qaysi timsol shunday aks ettirilganligiga diqqat qilish zarur, chunki ular yordamida xavotirlanish nima bilan bog‘langanligini aniqlash mumkin.

Mazmuni va mavzusi jihatidan hayvonlar xavf soluvchi, neytral turlarga ajratilishi mumkin (masalan arslon, begemot, bo‘ri yoki qushlar, chumoli va olmaxon, it, mushuk kabilar) bu holda chizilgan hayvonlar rasmi – rasm chizayotgan shaxs namoyondasi; o‘zini rasmdagi hayvon bilan identifikatsiyalash; o‘z shaxsi va “Men”iga munosabat, o‘zining mavqeい haqidagi tasavvurlar sifatida baholanadi.

Insonga o‘xshatib chizilgan ikki oyoq, odamlarga o‘xshatib kiyintirish, hayvon yuzi odamnikiga o‘xhash qilib, oyoq yoki panja qo‘l sifatida tasvirlansa – bu infantillik, emotsional jihatdan etuk emaslikdan dalolatdir.

Agressivlik darajasi rasmdagi burchaklar xarakteri, miqdori va joylashuvi orqali ifodalanadi. Bunda burchaklarning tasvirdagi boshqa detallar bilan aloqasi ahamiyatli emas. Ayniqsa – tirnoq, tish, tumshuq kabi agressiya timsollariga e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, seksual belgilar, ayniqsa, insonga o‘xhash figuradagi ko‘krak, elin va shunga o‘xhash elementlarga e’tibor berish lozimki, ular insonning jinsga nisbatan munosabatini bildiradi. Aylana figurasi (ayniqsa ichi bo‘sh) ichki dunyoning sirliligi, yopiqligi, odamovilik, atrofdagilarga o‘zi haqida ma’lumot berishni istamaslikni ifodalaydi. Bunaqa rasm odatda tahlil qilish uchun etarli ma’lumot bera olmaydi. SHu bilan birga “hayvon” tanasiga mexanik qismlar o‘rnatilishiga ham e’tibor berish talab qilinadi. Masalan, hayvon oyoqlari o‘rniga traktor yoki tank zanjirini chizish, 3 ta oyoq; bosh qismiga vint, ko‘z o‘rniga elektr lampochkasi, tanaga turli klavish, antennalar o‘rnatish ko‘proq shizofreniya bilan kasallanganlarda kuzatiladi.

Insонning ijodiy imkoniyatlari odatda figuradagi elementlarning o‘ziga xosligi, uning murakkab tuzilishga egaligi bilan belgilanadi. “Tayyor”, mavjud hayvonlarning elementlaridan tashkil topgan rasm, masalan, qanotli mushuk,

patli baliq, panjali it – ijodiylikning mavjud emasligi sifatida talqin qilinadi. Figurani qurishda tayyor qismlardan emas, balki turli elementlardan foydalanish originallik ifodasidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. 6-jild.-Toshkent, “O`zbekiston”,1998.-Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.–T.: “Ma’naviyat”, 2008.- 176 b.
3. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. O‘quv qo’llanma.- Toshkent.: O‘qituvchi, 1974 (hammualliflik).- 235 bet.
4. Iqtidorli bolalarni diagnostika qilish. T.: 2003.
5. Nurkeldieva D.A., CHichirena YA. Ilk, mакtabgacha yoshdagi bolalarni psixologik pedagogik, logopedik tekshirish. T. YAngi asr avlodi 2007 y
6. Nishonova Z.T. “Psixik taraqqiyot diagnostikasi” T. TDPU. 2004
7. Nishonova Z.T.: Qurbanova Z, Abdieva S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya T. “Tafakkur bo’stoni” 2011y
8. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп...- М.: Академический Проект, 2001.- 704 с.
9. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп..- М.: Академический Проект, 2001.- 480 с.
- 10.Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие, 2-е издание.- СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2001.- 191 с.
- 11.Анастази А. Психологическое тестирование: Книга 2; Пер. с англ./ Под ред. К.М.Гуревича, В.И.Лубовского. - М.; Педагогика, 1982.-336 с.
- 12.Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словар-справочник по психодиагностике – СПб.: Питер Ком, 1999.- 528 с.
- 13.Бодалев А.А. Столин В.В. Аванесов В.С. Общая психодиагностика. СПб.: «Речь», 2000. -440 стр.

- 14.Гамезо М.В., Домашенко И.А. Атлас по психологии.:Информ.-метод. пособие к курсу “Психология человека”.- М.: Педагогическое общество России, 2001.- 448 с.
- 15.Дружинин В.Н. Экспериментальная психология.- 2-е изд., доп.- СПб.: Питер, 2001.- 320 с.
- 16.Елисеев О.П. Практикум по психологии личности. 2-е изд., испр. и перераб.- СПб.: Питер, 2002.- 512 с.
- 17.Крайг Г. Бокум Д. Психология развития.- 9-е изд.- СПб.: Питер, 2006.- 940 с.
- 18.Межличностное восприятие в группе / Под ред. Г.М.Андреевой, А.Н.Донсова. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1981.- 295 с.
- 19.Небылицын В.Д. Избранные психологические труды. –М.: Педагогика, 1990.- 408 с.
- 20.Нелсон-Джоунс Р. Теория и практика консультирования.- СПб.: Питер, 2001.- 464 с.
- 21.Немов.Р.С. Психология./3 книга/- М.: 2003.
- 22.Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии / Под ред. А.А.Крылова, С.А.Маничева.- СПб.: Питер, 2000.- 560 с.
- 23.Практическая психология в тестах, или Как научится понимать себя и других.- М.: АСТ-ПРЕСС, 2000.- 376 с
- 24.Райгородский Д.Я. (составител) Практическая психодиагностика. Методики и тесты. Учебное пособие.- Самара: Издательский Дом “Бахрах”, 1998.- 672 с
- 25.Ратанова Т.Р. Психодиагностические методы изучения личности. «Флинта», М.: 1998.
- 26.Rasulov A. Psixodiagnostika. O'quv-uslubiy qo'llanma.T.:2009.
- 27.Шевандрин Н.И. Психодиагностика, коррекция и развитие личности. М.: «Владос», 1999.
- 28.Рогов Э.И. Настольная книга практического психолога: Учеб.пособие: В 2-кн.- М.: Изд-во Владос-ПРЕСС, 2002

- 29.Романова Э.С. Психодиагностика: Учебное пособие.- СПб.: Питер, 2005.- 400 с
- 30.Сапогова Э.Е. Психология развития человека: Учебное пособие.- М.: Аспект Пресс, 2001.- 460 с
- 31.Справочник практического психолога: Психотерапия/ сост. С.Л.Соловёва.- М.: АСТ.СПб.: Сова, 2005.- 575 с
- 32.Anastasi A, Urbina S. Psychology Testing. Prentice-HallInternational,Inc.- p. 57
- 33.Glynis M.Breakwell, Sean Hammond, Chris Fife-Schaw and Jonathan A.Smith. Research methods in psychology. SAGE. 2010.
- 34.PSYCHOLOGY by David G.Myers.-5<sup>th</sup> ed. – N.Y.: “Worth Publishers”, 1998.

MUNDARIJA	
Kirish.....	3
Psixodiagnostika fanining predmeti.....	6
Psixodiagnostika faninihg tarixi.....	15
Psixodiagnostik tekshiruv va tadqiqotlar.....	29
Psixodiagnostika fanining metodlari .....	42
Psixodiagnostik metodikalar ilmiyligining psixometrik mezonlari.....	58
Test tuzishning asosiy bosqichlari.....	78
Kognitiv qobiliyatlar psixodiagnostikasi.....	87
Shaxsni psixodiagnostik baholash.....	102
Shaxsning emotsional –motivatsion sohasi va funktsional holatlari psixodiagnostikasi.....	111
Shaxs psixodiagnostikasida proyektiv metodlarning qo'llanilishi.....	118
Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi.....	126
<b>AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI.....</b>	<b>134</b>
Diqqat xususiyatlarini o'rganish.....	134
"Korrektur sinov" metodikasi.....	96
Xotirani o'rganish metodlari.Meyli testi.....	138
"Piktogramma" metodikasi.....	140
Ravenna "Progressiv matritsalar" testi.....	141
"Geometrik figuralar yordamida odam tasvirini chizish" metodikasi..	147
Shvartslanderning "Muvaffaqiyatga erishish" testi.....	152
"Intilish darajasini o'lchash" testi.....	154
G.Yu.Ayzenkning "Ekstraversiya, introversiya va nevrotizmning o'lchash" testi.....	160
V.Rusalovning "Temperament xususiyatlarini aniqlash" metodikasi	164

Frayburg savolnomasi yordamida shaxs xususiyatlarini o`rganish.....	171
Shaxsning empativlik xususiyatini aniqlash metodikasi.....	184
O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat metodikasi.....	188
Kunning “men kimman” metodikasi.....	196
S.A.Budassining “o’zini o’zi baholash” metodikasi.....	198
T.Lirining “Shaxslararo munosabatni o‘rganish” metodikasi.....	200
Sotsiometriya metodikasi tavsifi.....	209
Y.Rijonkinning “Kommunikativ oraliqni o’rganish” testi.....	213
D.Gilfordning «Sotsial intellekt» testi.....	215
Ch.Osgudning “Semantik differensial” metodikasi.....	235
“Uy, daraxt, odam”metodikasi.....	236
“Mavjud bo‘lмаган hayvon” metodikasi.....	245
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	252

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение .....	3
Предмет психодиагностики.....	6
История психологической диагностики.....	15
Психодиагностические изучения и исследования.....	29
Методы психодиагностики.....	42
Научные психометрические критерии психодиагностических методик .....	58
Основные этапы разработки тестов.....	78
Психодиагностика когнитивных способностей.....	87
Психодиагностическая оценка личности.....	102
Психодиагностика эмоционально-мотивационной сферы и функциональных состояний личности.....	111
Использование проективных методик в психодиагностике личности	118
Психодиагностика межличностных отношений .....	126
<b>ТЕМЫ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ.....</b>	<b>134</b>
Изучение особенностей внимания.....	134
Методика “Корректурная проба” .....	136
Методы изучения памяти. Тест Мейли.....	138
Методика “Пиктограмма” .....	140
Тест Равена “Прогрессивные матрицы”.....	141
Методика “Конструктивный рисунок человека из геометрических фигур” .....	147
Тест Шварцландера “Стремление к достижению” .....	152
Тест “Уровень притязаний” .....	154
Тест Айзенка на определение “Экстраверсии, интроверсии и невротизма” .....	160
Методика В.Русалова “Определение особенностей темперамента”	164

Изучение личностных особенностей с помощью Фрайбурского опросника .....	171
Методика определения эмпатических особенностей личности.....	184
Методика изучения самоотношений личности.....	188
Методика Куна “Кто Я?” .....	196
Методика С.А.Будасси “Самооценка личности” .....	198
Методика Т.Лири “Изучение межличностных отношений”.....	200
Социометрия.....	209
Тест Я.Рижоника “Измерение коммуникативной дистанции”.....	213
Тест Гильфорда «Социальный интеллект».....	215
Методика Ч.Осгуда “Семантический дифференциал” .....	235
Методика “Дом, дерево, человек”.....	236
Методика “Несуществующее животное” .....	245
Список использованной литературы.....	252

## CONTENTS

Annotation .....	3
General Psychodiagnostics subject .....	6
General Psychodiagnostics History .....	15
Psychodiagnostic studies and research .....	29
Psychdiagnostic methods .....	42
Scientific psychometric criteria of psychodiagnostic techniques .....	58
The main stages of developing the tests.....	78
Psychodiagnosis of cognitive abilities.....	87
Psychodiagnostic assessment of personality .....	102
Psychodiagnostics of the emotional-motivational sphere and functional states of personality .....	111
The use of projective techniques in the psychodiagnosis of personality ....	118
Psychodiagnostics of interpersonal relations .....	126
<b>THEMES OF PRACTICAL LESSONS .....</b>	<b>134</b>
Study of the features of attention .....	134
Method "Correction test".....	136
Methods of studying memory. The Meili test .....	138
Method "Pictogram" .....	140
Raven's test "Progressive matrices".....	141
Technique "Constructive drawing of a person from geometric figures"....	147
Schwarzlander's "Striving for Achievement".....	152
Test "The level of claims" .....	154
Eysenck's test for the definition of "Extroversion, introversion and neuroticism".....	160
V.Rusalov's method "Definition of features of temperament".....	164
The study of personal characteristics using the Freiburgo questionnaire ...	171
The method of determining the empathic characteristics of the	

personality.....	184
The method of studying self-relations of personality .....	188
Kuhn's "Who am I?" Method .....	196
S.A.Budassi's Methodology "Self-Estimation of Personality" .....	198
Technique T. Leary "Study of interpersonal relationships" .....	200
Sociometry .....	209
Test Y. Rizhonik "Measuring communicative distance" .....	213
Guildford's "Social Intelligence" test .....	215
C. Osgood's Methodology "The Semantic Differential".....	235
Technique "House, tree, man" .....	236
The method "The non-existent animal" .....	245
References .....	252

